

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

JAHON TARIXI KAFEDRASI

5120300 – “Tarix” (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)

ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabalari uchun

“Jahon san‘ati tarixi” fanidan

MA‘RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: katta o‘qituvchi B. Abdullayev

Andijon – 2016

1-MAVZU: KIRISH. TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI. SAN'ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

REJA:

1. San'atning kelib chiqishi, mazmuni va mohiyati.
2. Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati.
3. Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlari.
4. Kulolchilik, toshtaroshlik va haykaltaroshlik san'ati.

2-MAVZU: QADIMGI MISR VA MESSOPATAMIYA SAN'ATI.

REJA:

1. Qadimgi Sharq xalqlari va davlatlari san'atining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qadimgi Misr san'ati va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Old Osiyo san'ati. Old Osiyodagi qadimgi davrlardagi halqlar va davlatlar. Ossuriya san'ati. Yangi Bobil podsholigi san'ati.

3-MAVZU: QADIMGI ERON VA O'RTA OSIYO SAN'ATI.

REJA:

1. Qadimgi Eron va O'rta Osiyo san'ati.
2. Ahmoniy va Ellin an'analari, me'morchilik va shu davrga oid san'at va madaniyat yodgorliklari bilan tanishtirish.

4-MAVZU: QADIMGI HINDISTON VA XITTOY XALQLARI SAN'ATI.

REJA:

1. Qadimiy Hindiston san'ati va madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlar.
2. Qadim Xitoy san'ati.

5-MAVZU: ANTIK SAN'AT.

REJA:

1. Egey yoki krit-miken san'ati.
2. Qadimgi Gretsiya san'atining jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni.
3. Ellinizm davri san'ati.
4. Qadimgi Italiya san'ati, uning geografik o'rni, davlat chegarasi.

6-MAVZU: O'RTA ASRLAR SAN'ATI TARIXI.

REJA:

1. Sharq va G'arbda O'rta asrlar tarixining davriy chegarasi, rivojlanishidagi asosiy bosqichlar.
2. O'rta asrlar san'ati.

7-MAVZU: QADIMGI VA O'RTA ASR RUS SAN'ATI.

REJA:

1. Qadimgi rus san'ati.
2. Me'morchilik, tasviriy san'at, haykaltaroshlik turlari.

8-MAVZU: UYG'ONISH DAVRI SAN'ATI.

REJA:

1. Uyg'onish davri san'ati.
2. Haykaltaroshlik, tasviriy san'at.

9-MAVZU: XVII-XVIII ASRLARDA YEVROPA SAN'ATI

REJA:

1. Gollandiya, Flandriya, Italiya, Ispaniya rassomlarining hayoti va ijodi.
2. XVII – XVIII asrlarda yevropa san'ati.
3. XVII-XVIII asrlarda italiya san'ati.
4. XVII - XVIII asrlarda ispaniya san'ati.
5. XVII - XVIII asrlarda fransiya san'ati.

6. XVII asrda flamandiya san'ati.

10-MAVZU: XVIII - XX ASRLAR SAN'ATI.

REJA:

1. XVIII-XIX asr birinchi yarmida chet el san'ati.
2. Rossiyaga Yevropadan kirib kelgan oqimlar va uning yirik vakillari.
3. XIX-XX asr chet el san'ati.

MAVZU: KIRISH. TASVIRY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI. SAN'ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

REJA:

1. San'atning kelib chiqishi, mazmuni va mohiyati.
2. Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati.
3. Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlari.
4. Kulolchilik, tosh-taroshlik va haykaltaroshlik san'ati.

San'atning kelib chiqishi, mazmuni va mohiyati.

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Quldorlik jamiyati vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqib boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, quldorligini namoyon etib, quldorlikning ideologiyasi targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Shu bilan bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish G'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmuni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko‘ra monumental, dekorativ, mo‘‘jaz, dastgohli turlarga bo‘linadi.

Monumental rangtasvir me‘morchilik bilan bog‘liq bo‘lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo‘llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.

Mo‘‘jaz san‘at asarlari turli mamlakatlarda shu jumladan O‘zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo‘lyozmalarga ishlangan. Chunonchi, Alisher Navoiyning ‘‘Hamsa’’ asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo‘la oladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo‘lib, maxsus matolar, karton, yog‘och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo‘yoq, guash, suvbo‘yoq, tempera buyoqlarida maxsus dastgoh (molbert)larga o‘rnatilib ishlanadi.

Grafika - lotincha ‘‘grafo’’ so‘zidan olingan bo‘lib, ‘‘yozaman’’, ‘‘chizaman’’ degan ma‘noni anglatadi. Tasviriy san‘atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko‘mir, pastel, sangina, suvbuyoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va haqazolar kiradi.

Haykaltaroshlik - tasviriy san‘at turlaridan biri. U lotincha ‘‘skulpo’’ so‘zidan olinib, qattiq materiallarga ‘‘qirqish, kesish, o‘yish, taroshlash’’ orqali ishlov berish ma‘nosini anglatadi.

Tasviriy san‘atning turlari.

Portret - rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo‘lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san‘at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret - portret janrining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, musavvir o‘zining tashqi qiyofasini o‘zi tasvirlaydi.

Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog‘u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo‘lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O‘.Tansiqboevning ‘‘O‘zbekistonda mart’’, ‘‘Jonajon o‘lka’’, ‘‘Mening qo‘shig‘im’’, N.Kashinaning ‘‘Tog‘da bahor’’, Z.Inog‘omovanning ‘‘Arpa o‘rimi’’, ‘‘Choyga’’, R.Temurovning ‘‘Bibixonimda bahor’’, ‘‘Ulug‘bek madrasasi’’ asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort - fransuzcha so‘z bo‘lib, ‘‘jonsiz tabiat’’ degan ma‘noni anglatadi. Bu janrdagi musavvir asosan insonni o‘rab turgan atrof muhitdagi

narsalar, turmushda qo‘llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o‘z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro‘y berayotganligini ham ko‘rsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan R.Axmedov, L.Salimjonova, O‘.Abdurahmonov va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilmoqdalar.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko‘rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr - “botal” fransuzcha so‘z bo‘lib, “jang”, “urush” ma‘nosini bildiradi. U jang manzaralarini o‘zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o‘rinni egallaydi. Botalist - rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi, jasorati hamda o‘z ona Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B.Grekov, G.K.Savitskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabievning “Spitamen qo‘zg‘oloni”, musavvir R.Rizamammedovning “Muqanna qo‘zg‘oloni”, musavvir T.Sodiqovning “To‘marisning qasosi” nomli asarlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Animalistik - janr o‘zgacha tasviry san‘at turidir. U lotincha “anima”, “hayvonot olami” degan ma‘noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo‘r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘sha davrda ular g‘orlarining devorlariga kiyik, qo‘tos, mamontlarning suratlarini chizganlar.

Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A.Dyurerlar ishladilar.

Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin o‘zining asarlarida to‘rt oyoqli do‘stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga nazariy bilim berish jarayonida mazmuniy to‘liq ochib berishi uchun jonli nutq orqali so‘zlash bilan birga musavvirlar asarlaridan surat-lavhalar, adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Maishiy janr: tasviry san‘atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o‘zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari - Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo‘ladi.

Realist rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Savitskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. o'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, M.Saidov, Z.Inog'omov, R.Choriev, O'.Abdurahmonovlar ham shu janrda barakali ijod etmoqdalar.

Ibtidoiy jamoa san'ati.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlar o'z boshidan kechirdilar. Ana shu uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni kollektiv bo'lib yashash va mehnat qilishga da'vat etdi. Ular qudrat birlikda ekanligini, hayotning ilk bosqichidayoq sezidilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga boshladi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yaratdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar - mehnat va ov qurollari, uy-anjomlari va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, G'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. San'at qachon va qanday paydo bo'lgan? San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning ob'ektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Arxeologiyada ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi qurol yasash uchun ishlatiladigan materiallarga qarab, uch asosiy bosqichga ajraladi:

1. Tosh asri - eramizdan avvalgi 3 ming yillikkacha bo'lgan davr.
2. Mis va bronza asri - eramizdan avvalgi 3-2 ming yillik.
3. Temir asri - eramizdan avvalgi 1 ming yillik.

Haykaltaroshlikda hayvonlar tasvirini yasash keng o'rinni egallaydi. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali paleolit davrida keng uchraydi. G'arbiy Yevropadan (Avstriya) topilgan "Villendorf Venerasi" deb nomlangan haykal mashhurdir. Haykal hajm jihatidan katta emas, (balandligi 0,06 m.) lekin ko'rinishi jihatidan monumental. Haykalda ortiqcha detallar yo'q. Ichki kuch-qudratga to'la haykalda bosh qismi bir oz belgilangan, yuz deyarli ishlanmagan, past tomonida tugallik yo'q, lekin shunga qaramasdan, haykal o'zining to'laqonliligi, ichki kuchga to'laligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi.

Mezolit yoki oʻrta tosh asrida odamlar katta boʻlmagan toʻdaga ajralgan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin koʻchib oʻtish, katta yer maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Qurollarning (mehnat va ov qurollari) ixcham, qulay boʻlishiga eʼtibor kuchaydi. oʻq, kamon-yoy, qayiqning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamoa kishisining hayoti yanada yaxshilanishini taʼminladi. Odamlar yogʻoch, qamishdan foydalanib, oʻzlariga kerakli buyumlar yasay boshladilar.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, Oʻrta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. “Kiyiklarni ovlash” (Ispaniya) suratlarida obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, oʻta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi boʻlgan fikrni tushunishga halaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat - kiyiklarning jon talvasada qochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. Oʻrta Osiyo (Surxondaryo, Fargʻona), Ozarbayjon (Kobiston)dan topilgan suratlarda ham shu holni koʻramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymalitosh (Fargʻona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettirilgan. Zaravutsoydagi niqob kiyib, oʻljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettirgan surat oʻtmish hayotining maʼnaviy dunyosini bilishga xizmat qiladi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va toʻlqinsimon chiziqlar, konsentrik aylanalar shu davrdagi koʻpgina naqshlarning asosini tashqil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvon va oʻsimliklar dunyosidan olingin shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka-quyosh ramzi, toʻlqinsimon chiziq-harakat, suv ramzi va h.k.

Bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik oʻrtalarida boʻlib, odamlar misni qalay, qoʻrgʻoshin, ruh yoki surma bilan eritib, bronza tayyorlashni oʻrganib oldilar.

Bronza qurollar, yarogʻ-aslaha, zebu ziynat yasash uchun asosiy material boʻlib qoldi. Yer yuzida bronza asri boshlandi. Bronza asrini deyarli hamma xalq va elatlar boshidan kechirdi. Lekin bu asr baʼzi xalqlarda (masalan, Eron, Messopotamiya, Kavkaz, Oʻrta Osiyo) bir muncha erta, eramizdan avvalgi 3 minginchi yillar oʻrtalarida boshlangan boʻlsa, boshqa yerlarda (masalan, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Kipr va Qrimda) eramizdan avvalgi 3 va 2 minginchi yillar chegarasida, Misr, Xitoy, Hindiston, Yevropada eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda sodir boʻldi. Bronzaning ixtiro etilishi inson tafakkurining muhim gʻalabasi edi. Bu ixtiro ijtimoiy hayot taraqqiyotini yanada tezlashtirdi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirdi, mehnat unumdorligini oshirib,

qo‘shimcha mahsulot to‘planishini ta‘minladiki, bu o‘z navbatida inson ma‘naviy olamining o‘zgarishi va boyishiga olib keldi.

O‘rta Osiyo yerlarida bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Bu yerlarda materiallardan buyumlar ishlash keng tarqaldi. Jumladan, Farg‘onadan topilgan bilakuzuklarda qo‘y va sher tasviri, ayniqsa, ta‘sirli chiqqan. Bronza asrida O‘rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, so‘zsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go‘zal bo‘lishini ta‘minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo‘yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

Temir asri. Ibtidoiy jamoa tuzumining so‘nggi bosqichi bo‘lgan temir asri, “harbiy demokratiya” insoniyat ma‘naviy dunyosining murakkablashishi, ijtimoiy hayotda urush, talon-tarojlikning kuchayishi va jamoada harbiy rahbarlarning roli ortishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy hayotga kirib kelgan temir, tosh va qisman bronza buyumlarni hayotdan siqib chiqardi. o‘z xususiyati jihatidan mustahkam bo‘lgan bu metall ishlab chiqarish kuchlarining ortishi va mehnat unumdorligini kuchayishiga samarali ta‘sir qildi, ayniqsa, dehqonchilik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Temir asrida ham amaliy-dekorativ san‘at yetakchi o‘rinni egalladi. Kulolchilik texnikasining murakkablashishi, kulolchilik uchun dastgohlarning keng ko‘lamda ishlatilishi uning sifatini o‘zgartirdi, yangi tur va formalarni yuzaga keltirdi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish tendensiyalari rivojlandi.

Tayanch tushunchalar.

Animalist (lotincha «animal» hayvon) - hayvonlarni tasvirlovchi rassom.

Kompozitsiya (lotincha «compositio» tuzilish, qurilish) - badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g‘oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi.

Karkas (frans. - skelet, asos) - binoning asosi sinchi

Mensirtir - ibtidoiy tuzumga mansub arxeologik yodgorliklar, yakka va halqa yoki «alleyalar» bo‘lib joylashgan yirik toshlar.

Savollar:

1. San‘at tarixi nimani o‘rgatadi?
2. Tasviriy san‘at turlari haqida so‘zlang.
3. Tasviriy san‘at janrlarini gapirib bering.
4. Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlari haqida so‘zlang.
5. O‘zbekiston hududidagi ibtidoiy jamoa davri yodgorliklarini bilasizmi?

MAVZU: QADIMGI MISR VA MESSOPATAMIYA SAN'ATI.*REJA:*

1. Qadimgi Sharq xalqlari va davlatlari san'atining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qadimgi Misr san'ati va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Old Osiyo san'ati. Old Osiyodagi qadimgi davrlardagi halqlar va davlatlar. Ossuriya san'ati. Yangi Babil podsholigi san'ati.

Qadimgi dunyo san'ati.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi yer yuzida quldorlik tuzumining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi.

Quldorlik tuzumining maydonga kelishi tarixiy zarurat bo'lib, avvalgi tuzumiga nisbatan progressiv ahamiyatga ega edi. U ishlab chiqarish kuch va madaniyatining keyingi taraqqiyotini belgiladi.

Bu esa, o'z navbatida inson ma'naviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, san'atning ravnaqiga zamin yaratdi. Ijtimoiy hayotning murakkablashishi san'atni obrazli bilish asosida kengaytirdi. Bu davrda san'at taraqqiyoti bevosita din, mifologik tushunchalar zamirida rivojlanishini davom ettirgan bo'lsa ham, lekin birmuncha tantanali ruh ola boshladi.

San'atda voqelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi. Bu davrda san'atda sintez masalasining hal etilishi esa insoniyatning qo'lga kiritgan buyuk yutuqlaridan bo'ldi. Qadimgi dunyo san'atining yana bir muhim tomoni shu bo'ldiki, unda milliy o'ziga xos tomonlar yaqqol ko'zga tashlana bordi. Katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, xarakteri, voqeligini obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi.

Qadimgi Sharq san'ati.

Qadimgi Sharq iborasi shartli bo'lib, odatda qadimgi Grek-Rim davlatlaridan Sharqda va Janubda joylashgan geografik mintaqa nazarda tutiladi. Shimoli-Sharqiy Afrikada Tunisdan (bu yerda qadimgi Karfagen davlati mavjud bo'lgan) to Yaponiyagacha cho'zilgan Habashistondan (Efiopiya) Kavkaz tog'larigacha, Orol dengizining janubiy qirg'oqlaridan Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Koreya yerlarigacha o'z ichiga qamrab olgan bu katta maydonda qadim paytlarda bir qancha yirik quldorlik davlatlari mavjud bo'lgan. Ular jahon san'ati tarixi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Qadimgi Misr podsholigi, Old Osiyodagi Shumer, Akkad, Babil (Vaviloniya), Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, Eron imperiyasi, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi

davlat va podsholiklar jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Qadimgi Sharq xalqlari san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardayoq bu yerlarda sinfiy jamiyat yangi eraning boshlarigacha davom etdi.

Qadimgi Sharqda san'at uzoq vaqt hunarmandchilikning bir qismi sifatida qolaverdi. Ishlangan asarlarning texnik tomoniga alohida e'tibor berish sezilarli darajada bo'ldi. Sharq san'atining realizmi ham o'ziga xos xususiyatga ega. U ko'pincha voqelik, kishilar va tushunchalarni fantastik obrazlarda, ramziy va shartli belgilarda tantanali, ulug'vor qilib ifodalaydi. Albatta, Sharq san'atida hayot ko'rinishini hayotiy shakllarda, tub mohiyati bilan aks ettiruvchi asarlar borligini inkor etib bo'lmaydi, (masalan, Misr va Old Osiyo portretlari) lekin bu umumtaraqqiyot fonida ma'lum davrning yorqin yulduzlari yoki bosqichi sifatida paydo bo'lib, yana so'nadi.

Qadimgi Misr san'ati.

Afrikaning Shimoliy-sharqida, Nil daryosining quyi vohasida bugungi Misr Arab Respublikasi yerlarida juda qadim paytlarda (er.av.VI ming yillik) bir qancha qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi 4000 yillikda shu yerda yer yuzida birinchi sinfiy jamiyat kurtaklari nish urdi, quldorlik davlatlari yuzaga keldi, rivojlandi. Eramizdan avvalgi 4000 yillik oxiri-3000 yillik boshlariga kelib esa ular yagona yirik despotik davlatga aylandi. Qadimgi Misr san'ati tarixi ana shu davlatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozidan tortib to Makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy)ning yurishi bilan uning ellinistik dunyoga qo'shib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, o'rganadi, tahlil etadi. Qadimgi Misr uzoq yo'lni bosib o'tdi. Deyarli 4000 yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olgan bu davr mobaynida tasviriy va amaliy san'at, me'morchilikning nodir durdonalari yuzaga keldiki, ular bugungi kunda ham o'zining ulug'vorligi va yuksak badiiyligi bilan kishilarni hayajonlantiradi. Qadimgi Misr san'ati o'zining butun taraqqiyoti mobaynida din va uning turli marosimlari bilan uzviy bog'liq holda rivoj topdi. Me'morchilik esa san'atlar ichida yetakchi o'rinni egallab, ularning xarakter va uslubiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Eramizdan avvalgi VII asrlarda Misr tarixida eng gigant piramidalar qurildi. Piramidalar ansambli ichida eng kattasi Xeops piramidasidir. Balandligi 146,6 metr, asosi esa 233 m. Tarixchi Gerodotning ta'rifiga ko'ra, Xeops piramidasida 20 yil mobaynida qurilgan. Piramidaga toshlar olib kelish uchun kerak bo'lgan yo'lni qurish uchun esa 10 yil ketgan.

Fivdash Karnak va Luksor ibodatxonalari gigant me'morchilik majmualaridandir. Karnak (er.av.XVI asr, me'mor Ineni) va Luksor ibodatxonalari (er.av. XV asr, me'mor kichik Aminxotep) me'morlar birinchi bor ochiq hovli atrofini kolonadali yechib, yangi podsholik me'morchiligining

o'ziga xos tomonlarini shakllanishiga asos soldilar. Bu majmualarda Qadimgi Misr me'morlik an'alarining muhim tomonlari o'z ifodasini topdi, shu bilan birga, tantanali va hashamatli bo'lib borayotgan marosimlar bilan aloqador bo'lgan me'morchilikning yangi ko'rinishlari namoyon bo'ldi.

Tasviriy san'at. Qadimgi Misr tasviriy san'ati me'morchilik bilan bog'liq holda rivoj topdi.

Dinastiyagacha bo'lgan davrdan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy san'at namunalari yetib kelgan. Shular ichida turli diniy-magik marosimlar o'tkazishda bo'yoqlar qorishtirish uchun foydalanilgan yassi, yupqa, kul rang, yashil, qora tosh-shifer plitalar alohida o'rin egallaydi.

Rassomlikda yangi mavzular ham keng o'rinni egallay boshladi. Rassomlar har bir obraz xatti-harakatini tabiiy va go'zal bo'lishiga e'tibor bera boshladilar. Mayda plastinada janrli kompozitsiyalar yaratish, odamlarni harakatda ko'rsatish hollari, oddiy kishilar mehnatini tasvirlash bu davrda keng rivojlandi.

Qadimgi Misr realistik san'atining eng gullagan davri yangi podsholikka to'g'ri keldi. Rassom va haykaltaroshlar zadagonlar hayotiga bag'ishlangan serjilo devoriy suratlar, nafis relief va haykaltaroshlik asarlari yaratdilar. Ular asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan kanonlardan chetga chiqib hayotiy kompozitsiyalar yaratdilar, emotsional tomonlariga e'tibor qaratdilar.

Amaliy dekorativ san'ati borasida ham misrliklar ajoyib namunalari yaratib qoldirdilar. Ganch va toshlardan yasalgan ajoyib ko'zalar, inkrustatsiya uslubida oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan bezak buyumlar, nodir daraxt yog'ochidan yasilib, oltin va fil suyagi bilan bezatilgan mebellar qadimgi podsholik davridayoq yuksaklikka erishdi. o'rta va yangi podsholik davrida esa u yanada nafislanib bordi. "Oqib borayotgan qiz" deb nom olgan pardoz qoshiqchasi shu o'rinda diqqatga sazovordir.

Eramizning 1000 yillaridan boshlab Misr yerlarining parchalanishi san'at taraqqiyotini bir muncha susaytirdi. Misr ijtimoiy hayotidagi jonlanish eramizdan avvalgi VII asrlarda boshlandi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Eramizdan avvalgi VI asrlarda eronliklar, so'ngra er.av. IV asrda Aleksandr Makedonskiy tomonidan Misr yerlarining bosib olinishi uning o'ziga xos san'atida asta-sekin so'nish va Ellin dunyosi san'ati bilan qo'shib ketishiga sabab bo'ldi.

Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyoti jarayonida alohida o'ziga xos qaytarilmas o'rinni egallaydi. Qadimgi Misrning yuksak did va aql zakovat, bilim bajarilgan nodir san'at namunalari esa insoniyat badiiy maktabining ajoyib durdonasi hisoblanadi. Bu namunalari o'zidan keyingi jahon san'ati taraqqiyoti uchun taqlid maktabini o'tadi. Gretsiya, Rim xalqlari bu san'atdan bahramand

bo‘lib, uni har tomonlama o‘rgandilar, davrga mos asarlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Dajla va Yefrot daryolari vohasida, O‘rta yer dengizi havzasining sharqiy sohillari hamda kichik Osiyoning markaziy tog‘lik rayonlari hududida eramizdan avvalgi Urartu, Bobil kabi davlatlar mavjud bo‘lib, ular jahon san‘ati tarixiga o‘z hissalarini qo‘shishgan. Bu davlatlarning so‘nggisi Bobil (Vaviloniya) eramizdan avvalgi 539 yili Eron tomonidan tobe qilib olinadi va shu bilan Old Osiyoning qadimiy tarixi tugallanadi.

Old Osiyoning badiiy-tarixiy yodgorliklari Misr san‘ati singari keng va rang-barang. Bu yerda hashamatli saroy va ibodatxonalar qurildi. Dumaloq haykaltaroshlik va relefda ajoyib o‘rta dinamik, plastik go‘zal asarlar yaratildi, devoriy suratlar, nozik amaliy-dekorativ buyumlar ishlandi. Lekin bu yodgorliklar bizgacha kam yetib kelgan. Bunga sabab Old Osiyoning asosiy qismini tashqil qilgan Ikki daryo oralig‘i (Messopotamiya) bir-birini almashtirib turgan yangi-yangi davlatlar o‘rtasida mamlakatga hukmronlik qilish uchun doimiy kurash borgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, me‘morlik va tasviriy san‘atning turlarini rivojlantirish uchun tosh, yog‘och va metallardan yetarli bo‘lmaganidan deyish mumkin. Saqlanib qolgan yodgorliklar, ularning qoldiqlari Old Osiyoda eramizdan avvalgi 4000-3000 yillardayoq bu yerda o‘ziga xos san‘at paydo bo‘lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu yerda yozuv paydo bo‘ldi, me‘morchilik turlari yuzaga keldi, hunarmandchilik rivoj topdi.

Old Osiyo san‘atida ham monumental me‘morchilik yetakchi o‘rinni egallagan, san‘atning boshqa turlari u bilan bog‘liq holda rivojlangan.

Old Osiyoning qadimgi davrga xos bo‘lgan tasviriy san‘at xususiyatlari Shumer va Akkad davlatlarida (er.av. 4000 yillik oxiri) ko‘rinadi. Bu yerning haykaltaroshligi va mayda plastikasi misrliklar haykaltaroshligiga nisbatan bir muncha sodda bo‘lsa ham, lekin o‘zining ifodali ishlanganligi bilan esda yaxshi qoladi. Releflarda esa tarixiy voqealar, jang yurishlari ishlangan. Bu yerda dumaloq haykaltaroshlik va gliptika keng tarqalgan. Haykallar ko‘p hollarda yorqin bo‘yoq bilan bo‘yalgan bo‘lib, inkrustatsiya uslubida ishlangan haykallarni eslatadi. Monumental haykaltaroshlik asarlarida har bir tasvirlanuvchining individual xususiyatlarini ochib berishga, ichki dunyosini yaratishga intilish seziladi. Ur shahridagi topilma ayol boshi haykali, Lagash hokimi Gudea haykalida shu xislatlarni sezish mumkin.

“Naramsin stellasi” (er.av. 2300 yillar) davrining mashhur asarlaridandir. U podsho Naramsinning tog‘li qabilalar ustidan erishgan qalabasiga bag‘ishlanadi. Bir to‘da jangchilarga bosh bo‘lib ketayotgan Naramsin va jangchilar harakati

tabiiy chiqqan, tog‘ manzarasi, tabiat ko‘rinishi ham relief kompozitsiyasi hayotiyiligini oshiradi.

Eramizdan avvalgi I yillikda Ossuriya yirik quldorlik davlatiga aylandi. Eramizdan avvalgi VII asrga kelib, u butun Old Osiyoni o‘ziga bo‘ysindirib oldi, yagona davlat tashqil etdi.

Shu davrda hashamatli saroy, ibodatxonalar vujudga keldi, suronli janglar, ov manzaralarini ifodalovchi hayajonli bo‘rtma tasvirlar yaratildi.

Dur-Sharruken (hozirgi Xorsabod)dagi Sargon II saroyi xarobalari (er.av. VIII asrning ikkinchi yarmi) shu davr monumental me‘morchiligining xarakterli tomonini ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Bu saroy balandligi 14 m. sun‘iy tepalikka qurilgan bo‘lib, u qalin devor bilan o‘ralgan. Saroy mehmonxonasi, yotoqxon va diniy marosimlarga mo‘ljallangan xonalardan iborat bo‘lib, ular alohida ochiq hovli atrofida joylashtirishgan. Saroyga kiraverish darvozalarining ikki yon tomoniga esa qanotli, odam boshli qo‘tos o‘rnatilgan. U haykal tabiiy kuchlar ramzi bo‘lib, podshoni “yomon ko‘zdan” asrash uchun xizmat qilgan. Saroy xonalari devoriy surat va bo‘rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda podshoning harbiy yurishlari va afsonaviy qahramon Gilgamish qahramonliklari ifodalanadi.

Eramizdan avvalgi VII asr oxiriga kelib, Bobil yangi rivojlanish davrini boshidan kechira boshladi. Navuxodonosor II (er.av. 605-565 yillar) podsholik qilgan yillar Bobilda shahar qurilishi ishlari avj oldirib yuborildi, shahar qurilishi reja asosida tiklanib, yangi binolar qurildi, atrofi qalin devor bilan o‘rab chiqildi. Shaharning sakkiz darvozasi bo‘lib, ular ichida Ishtor darvozasi o‘zining ko‘rkam, serhashamatligi bilan ajralib turardi. Shu darvozadan shaharning bosh ibodatxonasiga boradigan yo‘l boshlanar edi. Bosh ibodatxona yonida esa 90 metrlik katta Bobil minorasi qurilgan edi. Navuxodonosor II ham serhasham, bezakka boy bo‘lib, “osma bog‘lar” qo‘ynida ertaknoma ko‘rinishni kashf etgan edi. Bobil san‘ati uzoqqa cho‘zilmadi. U eramizdan avvalgi 539 yili Eron qo‘shinlari tomonidan bosib olindi. Shu bilan Old Osiyo xalqlari qadimiy san‘ati tarixi umri tugadi.

Tayanch tushunchalar.

Riton - hayvonlar shoxi yoki fil suyagidan yasalgan uzun konussimon, uch tomoni qayrilib boruvchi idish.

Roza - dumaloq deraza.

Tampan - peshtoq. Oyna, eshik tepasida qoldirilgan yarim ark ichidagi yuza.

Forum - shaharning markaziy maydoni.

Freska - suvoq qilingan devor ustiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlangan, monumental rangtasvirning bir turi.

Syujet (frans. - predmet, narsa). Tasviriy san'atda - tasvirlangan predmet yoki voqea tushuniladi.

Haykaltaroshlik - tasviriy san'atning turlaridan biri.

Savollar:

1. Old Osiyo san'ati haqida so'zlang.
2. Old Osiyo san'atida me'morchilikning o'rnini.
3. «Osma bog'lar» haqida so'zlang.
4. Qadimgi Misrda san'atning rivojlanishi.
5. Qadimgi Misrda me'morchilik.
6. Qadimgi Misrda tasviriy san'at.
7. Qadimgi Sharqda quldorlik davlatlari haqida so'zlang.
8. Qadimgi Sharqda san'atning rivojlanishi.

MAVZU: QADIMGI ERON VA O'RTA OSIYO SAN'ATI.*REJA:*

1. Qadimgi Eron va O'rta Osiyo san'ati.
2. Ahmoniy va Ellin an'analari, me'morchilik va shu davrga oid san'at va madaniyat yodgorliklari bilan tanishtirish.

Eramizdan avvalgi VI asrda mavjud bo'lgan Eron podsholigi (boshqacha aytganda Ahmoniyalar podsholigi) Sharqdagi eng katta davlatlardan biri hisoblangan. Bu podsholikning asoschisi Ahmoniyalar sulolasidan chiqqan Kir II (Kayxusrav II) bo'lgan. U dastlab Eronning Janubiy-G'arbidagi tog'lik rayonlardan birining hukmdori bo'lgan. Eramizdan avvalgi VI asr o'rtalaridan boshlab, o'z yerlarini kengaytirishga kirishgan. Dastlab Midiya podsholigiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, uni qaramlikdan qutultirgan va Eron hamda Midiya podshosi bo'lib olgan. So'ngra Bobil, O'rta yer havzasidagi qator yerlarni bosib olib, davlat chegarasini yanada kengaytirgan. Sharqiy chegaralarni ham kengaytirish niyati va rejalari uning vorislari tomonidan amalga oshirilgan. Doro I yurishlari natijasida bu podsholik chegarasi Orol dengizidan Hind okeanigacha, Kichik Osiyo va Misr yerlaridan Xitoy chegaralarigacha borib yetgan.

Ahmoniyalar davlati o'zining qisqa, lekin eng gullagan va kuch-quvvatga to'lgan davrini eramizdan avvalgi V asr boshlarida kechirdi. Shu davrda uning san'ati va madaniyati ham misli ko'rilmagan darajada ravnaq topdi. Shu asrlarda hashamatli saroylar, mustahkam maqbaralar yuzaga keldi. Oltin va qimmatbaho toshu injulardan nafis uy, ov va jang buyumlari, qurol-aslahalar ishlangan. Serjilo sopol idishlar yasaldi, qimmatbaho kimxob matolar to'g'ildi. Haykaltaroshlik (ko'proq bo'rtma tasvir tarzida), devoriy suratlarining nafis yodgorliklari yuzaga keldi.

Ahmoniyalar davri yodgorliklari ichida silindrlilik muhrlar ham keng o'rinni egallagan. Muhr yuzasiga hayotiy voqealarni aks ettiruvchi tasvirlar tushurilgan. Shoh hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan tasvirlar muhr yuzasiga ishlangan tasvirlarning bosh mavzusini belgiladi. Qadimgi Eron san'atida dumaloq haykallar va ayniqsa relief keng uchraydi. Bu yerda shoh va shahzodalar, turli hayvon va afsonaviy jonivorlar haykallari yaratildi. Buyumlar yuzasiga bo'rtma tasvirlar ishlash, metallardan turli idishlar yasash borasida eronliklar mashhur bo'ldilar. Oltin va boshqa qimmatbaho metallardan yaratilgan uy-anjom buyumlari, qurol-aslahalar, ov qurollari nihoyatda nafis va jimjimador qilib ishlangan. Kulochilik buyumlari shakl jihatdan rang-barang, geometrik naqshlar, hayotiy syujetlar bilan bezatilgan. Eron san'atida parchinlar (mayolika) keng

qo‘llanildi. Ular Eron me‘morlik yodgorliklariga o‘ziga xos qaytarilmas joziba kiritdi.

Ahmoniyalar davrida vujudga kelgan san‘at o‘rta Sharq halqlari tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu san‘at bevosita o‘rta Sharqda yashagan xalqlarning yangi o‘zaro munosabati natijasida, atrofdagi xalqlar san‘ati ta‘sirida ravnaq topdi. Jumladan, Persepol va Suza saroylarini qurishda So‘g‘d, Baqtriya va Xorazmdan kelgan usta va san‘atkorlar mehnat qilganliklari haqidagi ma‘lumotlar mavjudligi shundan dalolat beradi. Shu bilan birga, Ahmoniyalar davri san‘ati atrofidagi mamlakatlar san‘atiga, jumladan O‘rta Osiyo san‘ati taraqqiyotiga ham o‘zining sezilarli ta‘sirini o‘tkazgan.

Eramizdan avvalgi I minginchi yillarda O‘rta Osiyoda dastlabki ibtidoiy davlatlar shakllana bordi. Zardushtiylik (er.av. VII asr) dini yoyildi. Uning muqaddas kitobi “Avesto” esa shu din qarashlarini targ‘ib etadi. Qadimgi O‘rta Osiyo san‘ati va madaniyatini o‘rganishda bizgacha saqlanib kelgan qal‘a, saroy, turar joy va qabrlar bilan birga zardushtiylik dini bilan bog‘liq bo‘lgan ossuariylar (astadonlar) deb ataluvchi odamlar suyagini saqlash uchun mo‘ljallangan sopoldan yasalgan idishlar muhim daliliy material bo‘lib xizmat qiladi.

Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda O‘rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan “Amudaryo boyligi” (Oks boyligi) muhim o‘rinni egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida haykallar, turli ko‘za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tanganlar, oltindan yasalgan aravacha va qurollar diqqatga sazovordir. Bu buyumlarda uchraydigan tasvirlar birmuncha shartli bo‘lsa ham, lekin nihoyatda ifodali ishlanganligi bilan ajralib turadi, detallari ochiq va tugal ishlanishi bilan xarakterlanadi. “Jangchi - sak” bo‘rtma tasvirida shu fazilatlar mujassamlangan.

Markaziy Qozog‘iston qabrlaridan uch oyoqqa o‘rnatilgan bronzadan yasalgan qozonlar topilgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda ishlangan bu qozonlarning tepa qismi hayvonlar tasviri - ko‘proq tog‘ echkisi haykali bilan bezatilgan. Markaziy Qozog‘iston yerlaridan topilgan taqinchoqlardan topilgan taqinchoqlarda yovvoyi qush, kiyik va echki tasvirlari uchraydi. Bu tasvirlarda hayvon va qushlarning eng xarakterli belgilari harakat paytida ko‘rsatiladi. Aksincha, hajmli dumaloq hayvonlarda (asosan ular amaliy san‘at buyumlarining ajralmas qismi bo‘lgan) hayvonlar harakati og‘ir va vazmin bo‘lib, ular ko‘p hollarda soat strelkasi harakatida ko‘rsatiladi.

Makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn eramizdan avvalgi IV asrlarda Ahmoniyalar davlatini tor-mor etib, O‘rta Osiyo yerlarining ko‘pgina qismini

o‘ziga qaratib oldi. Faqat Xorazm, Farg‘ona va Sirdaryo bo‘yidagi ko‘chmanchi qabilalargina o‘z mustaqilligini saqlab qoldi.

Eramizdan avvalgi III asr o‘rtalarida Parfinon davlati (Turkmanistonning Janubiy-G‘arbiy tomoni va Eronning shimoliy sharqiy qismlari) O‘rta Sharqning yirik davlatlaridan biri sifatida tanildi. Arshakiylar sulolasi boshqargan davrda esa jahondagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Parfinon san‘atini o‘rganishda ham tanga yuzasiga ishlangan bo‘rtma tasvirlar keng o‘rinni egallaydi.

Parfiya san‘atini tushunishda Ashxobod yaqinida arxeologik qazishmalar natijasida ochilgan Parfinonning yirik shaharlaridan biri hisoblangan Nisa (boshqacha nomi Parfnisa) alohida o‘rinni egallaydi. Eski Nisa va yangi Nisa deb ataladigan bu ko‘hna shahar qoldiqlari hamda u yerdan topilgan amaliy-dekorativ va tasviriy san‘at buyumlari o‘sha davr badiiy hayotini tushunishda bebaho daliliy material hisoblanadi.

Eski Nisa va yangi Nisa parfiya davrida qal‘a va shahristondan iborat bitta shaharni tashqil etgan. Bu yerda Parfiya podshosining saroyi, g‘alla, oziq-ovqat ombori hamda zodagonlarning sag‘analari bo‘lgan. Bu yerda ochilgan “kvadrat uy” o‘z tuzilishi va bezashda ishlatilgan dekorativ detallari bilan diqqatga sazovordir.

Nisadan topilgan yodgorliklar ichida fil suyagidan shoxga o‘xshatib yasalgan idishlar-ritonlar haqiqiy shov-shuvga sabab bo‘ldi. Hajm jihatidan kattagina (balandligi 40-60 sm.) bo‘lgan bu ritonlarning uch tomonida afsonaviy hayvonlarning yarim beligacha haykali ishlangan. Ritonlarning tepa qismi esa bo‘rtma tasvir - friz bilan halqalangan. Bu bo‘rtma tasvirlarda ko‘proq antik mifologiyadan olingan voqealar, qurbonlik olib kelish, raqqosalar yoki antik hudolarning bo‘rtma tasvirlari ishlangan.

Yangi asrning boshlariga kelib, O‘rta Osiyo iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida jiddiy jonlanish boshlandi. Undagi qator madaniy markazlarda san‘at va madaniyat borasida muhim yodgorliklar yaratildi. Shunday madaniy markazlardan biri Xorazm edi. Qo‘yqirilgan qal‘a, Guyar qal‘a, Tuproq qal‘a xarobalari, u yerdan topilgan tasviriy va amaliy san‘at namunalari shu davrlarda (ilk feodalizm, ya‘ni V asrga qadar) Xorazmda ijtimoiy hayotning birmuncha intensiv bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Qo‘yqirilgan qal‘a (To‘rtko‘lning shimoliy sharqiy qismidan 22 km. uzoqlikda) er.av. IV-III asrda barpo etilgan bo‘lib, u dastlab dumaloq shaklda bo‘lib, uning markazida diametri 44,4 m. ikki qavatli bino, undan 14,5 m. uzoqlikda esa mudofaa devorlari bo‘lgan. Bu devor keyinchalik mudofaa galereyasiga aylantirilib, tepa qismi ravoqli tom bilan yopilgan.

Taxminan, I asrning boshlariga kelib, Grek-Baqtriya podsholigining parchalanishi natijasida vujudga kelgan mayda davlatlar birlashtirilib, Kushon

davlati tashqil etildi. Bu davlatga Oʻrta Osiyo hukmdori Kutzula Katfiz boshchilik qildi. Uning oʻgʻli Katfiz II esa bu davlat maydonini Hindiston chegaralariga qadar yetkazdi. Kanishka podsholik qilgan yillarda esa Kushon davlati oʻzining gullagan davrini boshdan kechirdi. Kushonlar davrida Oʻrta Osiyoda buddizm dini keng tarqaldi. Kushon hukmdorlari oʻz saltanatlarini mustahkamlash uchun bu dindan foydalandilar. Uni omma orasiga singdirishga harakat qildilar. Hukmdorlarning bu intilishi shu davr sanʼat va madaniyatida ham oʻz ifodasini topdi. Buddizm bilan bogʻliq boʻlgan ibodatxonalar vujudga keldi, haykallar yaratildi, devoriy suratlar ishlandi.

Kushonlar davrida ijtimoiy hayotda sodir boʻlgan oʻzgarishlar bizgacha yetib kelgan tangalarda namoyon boʻladi. Bu tanga yuzalariga podsholar portreti zarblangan, orqa tomoniga hudolar tasviri tushurilgan. Yozuvlar esa Kushon Baqtriya tilida, yozish uchun kushon harflari (grek alf. asosida yaratilgan) ishlatilgan. Kushon davri sanʼatini bilishda Xolchayonda (Surxondaryo tum.) saqlanib qolgan bino qoldiqlari hamda tasviriy sanʼat va va amaliy sanʼat namunalari muhim oʻrinni egallaydi.

Xolchayondagi binoni bezashda haykallar keng qoʻllanilgan. Bu haykallar xonalar devorining yuqori qismiga barelef va galeref uslubida bajarilgan. Unda podsho va uning yaqinlari, shuningdek oʻtliqlar tasviri ishlangan. Bu haykallarda Grek-Baqtriya sanʼatiga xos xususiyat - har bir tasvirlanuvchining oʻziga xos individual xislatlarini koʻrsatishga, kiyimlari, qurollari aniq tasvirlashga intilish seziladi. Noʻmalum haykaltarosh tasvirlanuvchining soch tarashi, kiyim boshi, xarakterining ham aniq boʻlishiga, psixologik holatini ifodashga intiladi.

Ayritomda (Termez yaqinida) topilgan toshdan ishlangan releflar va soʻnggi Kushon davlati meʼmorligining xarobalari bu yerda buddizm keng yoyila boshlaganligini koʻrsatadi. Ayritomdan topilgan toshdan ishlangan releflar ibodatxonaga kiraverish tomonga karniz tarzida ishlangan boʻlgan. Bu karnizlarda akanf barglari orasida yarim beligacha tasvirlangan qoʻshnay, nogʻora (baraban), lyutna (Qijjakka oʻxshash musiqa asbobi) va arfa chalayotgan sozandalar tasvirlangan.

Oʻrta Osiyoda buddizmning tarqalishi bevosita haykaltaroshlikda ham ifodalangan. Budda va boshqa diniy personajlarning haykallari ibodatxonalarining oldi va ichkari qismidan oʻz oʻrnini egalladi. Bu haykallarning ishlanish prinsiplari Hindistonda yaratilgan kanonlarga asoslangan.

Dalvarzintepa va Qoratepadagi (Surxondaryo tum.) buddizm ibodatxonalaridan topilgan ganch haykallar ham yuqorida koʻrilgan xususiyatlarga ega. Bu haykallar natural kattalikda ishlangan va real xarakterga

egadir. Haykaltarosh mahalliy tiplarning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatishga harakat qiladi. Bu ularning ko'rinishi soch tarash va qiyinishlarida seziladi.

Qoratepada olib borilgan arxeologik ishlar buddizm bilan bog'liq me'morlik kompleksining ochilishini ta'minladi. Bu yerda arxeologik ishlar davom etmoqda. Ochilgan Qor ibodatxonalarining bezatilishi, u yerda mavjud bo'lgan haykal va devoriy suratlar diqqatga sazovordir. Jumladan, noma'lum rassom tomonidan ishlangan devoriy suratlarda fazoviy kenglikni ifodalashga, hajmini tasvirlashga intilish seziladi.

Ayniqsa, metall buyumlar yasash va ularning yuzasini bo'rtma tasvirlar bilan bezash san'atida O'rta Osiyolik ustalar katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

Tayanch tushunchalar.

Peripter - hamma tomondan ustunlar bilan o'ralgan aylana yoki to'rtburchak shaklidagi antik ibodatxona.

Savollar:

1. Qadimgi Eronning yaqin Sharq xalqlari san'ati va madaniyatidagi o'rni.
2. Ahmoniylar davri san'atida me'morchilikning tutgan o'rni.
3. Qo'yqirilgan qal'a haqida so'zlang.

MAVZU: QADIMGI HINDISTON VA XITOIY XALQLARI SAN'ATI.*REJA:*

1. Qadimiy Hindiston san'ati va madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlar.
2. Qadim Xitoy san'ati.

Qadimiy Hindiston san'ati va madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlar.

Hindistonning shimoliy g'arbidagi Hind daryosi havzasi Moxenjo-Doro (Sind viloyati) va Xarappadan topilgan qadimgi shahar qoldiqlari, madaniyat yodgorliklari eramizdan avvalgi 3-2 minginchi yillardayoq Hind san'ati o'ziga xos yorqin va jozibador, fantaziyaga boy san'at bo'lganligini tasdiqlaydi va mifologiya asosida qimmatli san'at namunalari yaratilganligini anglash imkoniyatini beradi.

Eramizgacha bo'lgan davrdan bir necha asr oldinroq, bu yerda matematika, tilshunoslik, falsafa, tibbiyot ravnaq topgan, hunarmandchilik rivojlangan, yozuv paydo bo'lgan. Me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomlik san'ati bir-biri bilan uyg'unlashgan holda rivoj topgan. Eramizdan avvalgi bir minginchi yillarning ikkinchi yarmida bu yerda dastlabki davlat paydo bo'lgan. Adabiy manbalarga ko'ra shu davlatlarda ajoyib, hashamatli yog'och me'morchiligi ravnaq topgan. Bu yerda paydo bo'lgan buddizmning Osiyoga tarqalganligi ham shundan dalolat beradi.

Hindiston san'ati ham qator bosqichlarni bosib o'tgan, goh grek san'atining ta'sirida bo'lgan. Lekin shunga qaramay uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u asosan xalq san'ati, ayniqsa, hunarmandchilik ta'sirida bo'lgan.

Hindiston Shumer, Akkad va Messopotamiyaning boshqa davlatlari, shuningdek Misr bilan yaqin aloqada bo'lgan, ular orasida savdo-sotiq rivojlangan.

Qadimgi Hindiston san'atining gullagan davri Maurya sulolasi (er.av. 322-185 yillar) ayniqsa, Ashoka imperatorligi davri (er.av. 272-232 yillar)da sodir bo'ldi. Ashoka hukmronlik qilgan davrda buddizm keng yoyildi. Bu din dastlab Hindistonga, keyinroq Sharqning qator davlatlariga tarqalgan. Buddizmning tarqalishi u bilan bog'liq ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at namunalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Buddaga bag'ishlangan me'morchilik kompozitsiyalarida Qadimgi Hind me'morchiligidagi mavjud an'analar, xalq mifologiyalari, Buddha hayoti va faoliyati bilan qo'shib ketgan afsonalar o'z ifodasini topdi.

Buddizmning muhim yodgorliklaridan yana biri ustunlardir. Ular yaxshi pardoqlangan yaxlit toshdan ishlangan bo'lib, Buddha ta'limotini targ'ib etishda

foydalanilgan hamda imperiyaning yagonaligini va jipsligini ko'rsatadigan o'ziga xos haykal hisoblangan. Bu ustunlar hayvonlar tasviri ishlangan kapitell bilan tugallangan. Sarnatxdagi stambx va uning sherlar tasviri ishlangan kapitelli mashhurdir.

Buddaning darveshona hayot kechirganining ramziy ma'nosi g'orlarda ishlangan ibodatxonalaridir. Bunday ibodatxonalar qoyalar ichiga ishlangan, ichkarida koxinlar xonasi va ibodatxona joylashgan. Uning xonalari qoya ichiga o'yib kirgan, devorlari esa haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan. Kiradigan eshigining to'g'risida, xonaning dumaloq qilib ishlangan tomoniga esa stupa o'rnatilgan.

Qadimgi Hind so'nggi taraqqiyoti Guptalar sulolasi (320-450 yillar) davriga to'g'ri keladi. Bu Hindistonning quldorlikdan feodal munosabatlarga o'tish davri bo'lib, san'at va madaniyatning yanada ravnaq topish davri hisoblanadi. Adjanta g'oridagi ibodatxona va uning badiiy bezaklari, devoriy suratlari qadimgi Hind san'atining eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Qadimgi Xitoy san'ati.

Eramizdan avvalgi 4-3 minginchi yillarda Xitoyda loydan ishlangan odam haykallari, odam boshini eslatuvchi ko'zalar, toshdan ishlangan turli badiiy buyum va haykallar uchraydi. Bular qadimgi Xitoy madaniyatining boy va rang-barang bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida Xitoyda birinchi bor davlat paydo bo'ldi. Bu davlatni Shan dinastiyasi boshqardi. Quldorlik jamiyati shakllanib, rivojlanib bordi. Birinchi shaharlar yuzaga keldi. Ular aniq rejalashtirish asosida qurildi. Dehqonchilik, hunarmandchilik rivojlandi. Savdo-sotiq ishlari jonlandi. Shan davridan bizgacha saqlanib kelgan yodgorlik An'yan rayonidan topilgan katta shahar qoldiqlari hisoblanadi.

Qadimgi Xitoyning muhim yodgorligi Buyuk Xitoy devoridir. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda qurila boshlagan bu devor dastlabki paytda Xitoyning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan saqlash uchun xizmat qilgan va 750 km.ni tashqin etgan. Devor tepasida yo'l mavjud bo'lib, har 100 m.da katta minoralar ishlangan. Buyuk Xitoy devori kishilarning kuch-shijoati va katta irodasini aks ettiruvchi, o'z xarakteri jihatidan Misr ehromlari bilan tenglashuvchi va odamlar birlashsa, buyuk mo'jizalar yarata olishini ko'rsatuvchi yodgorlik tarzida hamon kishini hayratlantiradi.

Qadimgi Xitoy san'ati va madaniyatining eng rivojlangan bosqichi eramizdan avvalgi III asrdan eramizning III asrigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda mamlakat yagona markazlashgan yirik davlatga aylandi. Sin (er.av. 221-206 yillar) va Xan (er.av.206 - yangi eraning 220 yili) sulolasi

hukmronlik qilgan paytida avvallari mustaqil bo'lgan qator davlat va qabilalar Xitoy imperiyasiga qo'shildi. Xitoy O'rta Osiyo, Eron, Suriya, Rim imperiyalari bilan savdo-sotiq ishlarini jonlantirdi. Xitoyning tasviriy, amaliy va me'morchilik san'ati ham nihoyatda rivojlandi.

Sichuandagi maqbara releflari bir muncha dinamik xarakterga ega bo'lib, u yerda ov manzaralari, yig'im-terim ko'rinishlari tasvirlangan. Xan davri maqbaralarida ko'plab devoriy surat namunalari uchraydi. Ular yorqin bo'yoqlarda ishlangan, voqea va hodisalarning hayotiy va ifodali bo'lishiga e'tibor berilgan. Xan davrida portret rassomchiligi ham rivojlandi. Maqbara va saroy devorlariga portretlar ishlash keng odat tusiga kirdi. Devorga ishlangan shunday portretlardan biri Loyan yaqinidagi Xan davri maqbarasi saqlanib qoldi. Shunday portret ishlashda tanilgan rassomlardan biri eramizdan avvalgi I asr oxirlarini o'ziga juda o'xshatishga, hatto ideallashtirishga usta bo'lgan. Uning portretlaridan tasvirlanuvchi odamning yoshi va hatto hulqini bilish mumkin bo'lgan.

Kulolchilikda rang keng qo'llanilgan. Badiiy kashtachilik va to'qimachilik harbiy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida yuqori baholandi. Nefritdan ishlangan turli buyum va haykalchalar ko'pchilikka manzur.

Qadimgi Xitoy san'ati Xan davlatining inqirozga yuz tutishi bilan o'z umrini tugatadi. Lekin qadimgi davrlarda, ayniqsa Xan davri san'atida paydo bo'lgan an'analar Xitoy san'ati va madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir qildi, uning xarakterli tomonini belgilashda muhim o'rin egalladi.

Tayanch tushunchalar.

Gandxar san'ati - Hindistonning shimoliy G'arbiy tomoni, Panjob va Afg'oniston yerlarida eramizning boshlarida rivojlangan san'at. Gandxar san'ati mahalliy an'analar asosida shakllangan bo'lsa ham, qisman grek-rim san'at an'alariga yaqinligi seziladi.

Savollar:

1. Qadimgi Hindiston san'atida me'morchilikning ravnaqi haqida so'zlang.
2. Hindiston san'atida hunarmandchilikning roli.
3. Qadimgi Hindistondagi ibodatxonalarni bilasizmi?

MAVZU: ANTIK SAN'AT.*REJA:*

1. Egey yoki krit-miken san'ati.
2. Qadimgi Gretsiya san'atining jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni.
3. Ellinizm davri san'ati.
4. Qadimgi Italiya san'ati, uning geografik o'rni, davlat chegarasi.

Antik iborasi lotincha “antikbus” so‘zidan olingan bo‘lib, “qadimiy” degan ma‘noni bildiradi. Bu ibora XV asrda Italiya gumanistlari tomonidan kiritilgan bo‘lib, asosan Qadimgi Grek-Rim madaniyati va san'atini ifodalash uchun ishlatilgan.

Yevropa, Osiyoning bir qismi hamda Shimoliy Afrikada yashagan xalq va qabilalar san'ati ham qisman antik san'atga aloqadordir. Greklar o'zlarini Ellinlar deb, o'z mamlakatlarini esa Ellada deb ataganlar. Ellada san'ati keyinchalik Iskandar Zulqarnayn bosib olgan juda katta imperiya san'atining rivojlanishiga ta'sir o'tkazdi. Elladaliklar san'ati Qadimgi Rim san'atiga ta'sir etdi. Rimliklar Grek san'atini e'zozladilar, o'rgandilar va uni yangi pog'onaga olib chiqdilar. Antik madaniyat va san'at tarixi 476 yili Rim imperiyasining qulashi bilan tugallanishini ham shu bilan izohlash mumkin.

Antik san'at asrlar mobaynida insoniyatni maftun etib, uni o'ziga jalb etib kelmoqda. Yevropa xalqlari shu san'at va madaniyatga, grek va rimliklar yaratgan ma'naviy boylıklarga murojaat qilib keldilar. Bugungi Yevropa san'ati va teatri, adabiyoti va falsafasi antik dunyoga suyanadi.

Uyg'onish davri, XVII asrda paydo bo'lgan klassitsizm badiiy oqimi namoyandalari ijodi ham antik dunyo san'atiga taqlid qilish asosida rivojlanadi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan O'zbekiston xalqlari ham ellinlar madaniyati va san'atidan bahramand bo'ldilar. Buni O'zbekiston tuprog'idan topilgan va topilayotgan grek madaniyati va san'atiga oid juda ko'p namunalar yoki ular ta'sirida yaratilgan madaniyat yodgorliklari ham isbotladi.

Egey yoki Krit-Miken san'ati.

Antik madaniyati uzoq vaqt davomida rivojlanib bordi. Uning rivojlanishida Peloponies yarim oroli va Egey dengizidagi ko'pgina orollarda, Kichik Osiyoning G'arbiy sohillarida eramizdan avalgi III-II minginchi yillarda yashagan qabilalar madaniyati muhim rol o'ynadi. Antik dunyoning eng qadimgi tarixi “egey” yoki “krit-miken” madaniyati bilan boshlanadi. Bu madaniyat yodgorliklarining dastlabki arxeologik kashfiyotlari Mikena va Kritda topilganligi va mo'lligi tufayli bu san'at adabiyotlarida ba'zan krit-miken san'ati, deb ham yuritiladi. Egeyo madaniyatining eng gullagan davri eramizdan

avvalgi 2000 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda hashamatli me'morchilik kompozitsiyalari, podsho saroylari, tasviriy va amaliy-dekorativ san'at namunalari yaratilgan. Shunday nodir yodgorliklardan biri ingliz arxeologi A.Evans tomonidan Kritdan topilgan Knoss saroyining qoldiqlaridir.

Knoss saroyida ustunlardan keng foydalanilgan. Tosh tagkursiga o'rnatilgan yog'ochdan ishlangan ustunlar Knoss saroyining tepa tomonini ko'tarib turish uchun ishlatilgan. Bu ustunlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular pastga tomon torayib borgan. Saroy devorlariga suratlar ishlangan, pollari esa bejirim naqshlar bilan bezatilgan.

Knoss saroyida ayol tasviri yaxshi saqlangan. Arxeologlar uni "Parijlik ayol" deb nomlaganlar. U shaffof materiallardan to'g'ilgan libos kiyib olgan. Ayol boshi yon tomonidan ishlangan, ko'zi esa old tomondan tasvirlangan. Monumental haykaltaroshlik belgisi bu yerda uchramaydi. Lekin amaliy-dekorativ haykaltaroshlik va zargarlik san'ati borasida kritiklar nodir yodgorliklar qoldirganlar. Ular toshtaroshlikda juda mohir bo'lib, toshdan vazalar ishlaganlar, nafis bo'rtma tasvirlar yaratganlar. Ayniqsa, turli dengiz hayvonlarining bo'rtma tasviri diqqatni tortadi.

Eramizdan avvalgi XIV asrga kelib, Krit madaniyati inqirozga yuz tutdi. Endilikda Egey madaniyatining markazi grek materigiga - Peloponnes yarim oroliga va undagi Mikena, Tirinf manzillariga ko'chdi. Bolqon yarim orolining janubida, Egey dengizi orolarida va Kichik Osiyoning harbiy sohillarida yashagan axeyaliklar bu yangi madaniyat taraqqiyotini belgiladilar. Bizgacha Mikena va Tirinfdagi baland tepaliklar ustiga qurilgan qal'alar, qo'rg'onlar yetib kelgan. Ular eramizdan avvalgi XIV-XIII asrlarda qurilgan. Bu qo'rg'onlarning devorlari og'irligi 5-6 tonna keladigan toshlardan qurilgan bo'lib, devorning qalinligi 6-10 m. hatto undan ham ortiq bo'lgan. Masalan, Tirinf qo'rg'oni devorining qalinligi 17,5 m. bo'lgan. Devor ichi bo'shliq bo'lib, u yerda xazina, oziq-ovqat, qurol-aslaha saqlangan.

Tirinfdagi akropol sodda, atrofi qalin devor bilan o'ralgan bo'lib, uning uch darvozasi bo'lgan.

Mikena me'morchiligida darvoza qurilishiga katta e'tibor berilgan. Mikena qo'rg'onining markaziy darvozasi "Sherlar darvozasi" deb nomlangan. Darvoza atrofi yaxlit katta toshlardan qurilgan. Tepasiga ustunlarni ushlab turgan ikki sherning bo'rtma tasviri ishlangan. Bu ustun Mikena podsholari qudrati va birligining ramzi bo'lgan. Tirinf va Mikena saroylarining devorlari ganch bilan ishlanib, devoriy suratlar bilan bezatilgan. Mikena rassomlari ov manzaralari, ayniqsa, jang manzaralarini tasvirlashni sevishgan. Tirinf, Mikena devoriy suratlari Krit san'atkorlarining asarlaridan badiiy jihatdan bo'shligi, figuralarining bir muncha statikligi, chizilgan suratlarning birmuncha quruqligi

bilan ajralib turadi. Eramizdan avvalgi XII asr o'rtalarida Bolqon yarim orollarining shimolidan janubga tomon siljiy boshlagan doriy qabilalarining Egey orollaridagi davlatlarni bosib olishi Peloponesdagi egey madaniyatini tugashiga sabab bo'ldi. Lekin uning keyingi ellin madaniyatiga ta'siri kuchli bo'ldi.

Elladaliklar Egey madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirdilar. Ular Krit-Miken diniy-mifologik tushunchalarini qabul qildilar. Kulolchilik, mayda plastika san'ati an'analari Ellada san'ati taraqqiyotida davom ettirildi.

Qadimgi Gretsiya san'atining jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni.

Odatda Qadimgi Gretsiya san'ati tarixi Mikenaning qulashi va Doriylar tomonidan Peloponnes, uning janubida joylashgan orollar, Kritning bosib olinishi bilan boshlanadi va eramizdan avvalgi XI asrdan I asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu tarixiy-badiiy davr to'rt bosqichdan iborat:

- 1). Gomer davri (er.av. XI-VIII asrlar);
- 2). Arxaika davri (er.av. VII-VI asrlar);
- 3). Klassika davri (er.av. V-IV asrlarning dastlabki uch choragi);
- 4). Ellinizm davri (er.av. IV-I asrlar).

Greklar birinchi bor badiiy ijodda insoniyatning asriy muammolarini yechishga urindilar. Ular botirlik, jasorat, Vatan mehri va hur insonning qudratini ulug'ladilar, uning jismoniy go'zalligi va ma'naviy barkamolligini ifodalab, ideal, garmonik kamol topgan inson obrazini yaratishga intildilar. Buyuk Sofoklning "Tabiatda insondan kuchli zot yo'q", - degan fikri davr estetikasi, dunyoqarashini o'zida mujassamlashtirgan. Qadimgi Gretsiyada faoliyatli, davlat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan insonni ulug'ladilar. Irodali, Vatanni sevadigan va uning uchun kurasha oladigan inson obrazini ideal inson, deb bildilar.

Har to'rt yilda o'tkaziladigan Olimpiya musobaqalari esa, erkin Ellinning jismoniy va ma'naviy shavkatini namoyon etuvchi bayramga aylandi, g'oliblarga haykallar o'rnatildi. Darhaqiqat, Grek san'ati insonning real his-tuyg'ularini badiiy ifoda etishi bilan hamon kishiga zavq-shavq baxsh etmoqda; inson aql-idroki, zakovatini tarannum etib, unga kuch bag'ishlamoqda. Grek san'atining shu jihati Yevropaliklar tomonidan ham, Sharq xalqlari tomonidan ham e'zozlanadi.

Mamlakatimiz san'atkorlari ham bu san'at namunalariga murojaat qilib, o'zlarining mahoratlarini oshirganlar.

Gomer davri san'ati.

Qadimgi Gretsiya tarixining eramizdan avvalgi XI-VIII asrlari Gomer davri deb ataladi. Bu davr san'ati va madaniyatini o'rganishda Gomerning "Iliada" va "Odissey" dostonlari qimmatli manbaa hisoblanadi. Mikena yozuvlarining

o'g'ilishi shu davrga oid ma'lumotlarning kengayishiga yordam berdi. Gomer davrida hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik va u bilan bog'liq bo'lgan ko'zaga gul solish san'ati ravnaq topgan. Dastlabki ishlangan kulochilik buyumlari - ko'zalarda qadimgi Grek amaliy-dekorativ san'atining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu ko'zalar yuzasiga geometrik naqshlar ishlangan bo'lib, ularning shakli ko'rkam naqshlar kompozitsiyasi aniq, siluetlari qat'iy. Bu xususiyatlar buyumga o'zgacha latofat kiritadi.

Diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi Dipilok ko'zalari (Afrika yaqinidagi Dipilon darvozasi yaqinidan topilgani uchun shunday deb nomlangan) shunday xarakterda ishlangan. Gomer asri kulolchilik buyumlari, ko'zalarida geometrik naqshlardan tashqari o'simliklardan ishlangan naqshlar, hayotiy voqealarni sxematik talqin etuvchi tasvirlar uchraydi.

Arxaik Gretsiya san'ati.

Eramizdan avvalgi VIII asr oxirlaridan boshlab, ilk quldorlik jamiyati tashqil topa boshlagan. Eramizdan oldingi VII-VI asrlarda arxaik, ya'ni qadimgi (grekcha "arxeyos" - qadimgi demakdir) davr deb nomlanadi. Arxaika davrida Gretsiyada ilmiy fikrlar rivojlanadi. Tibbiyot, astronomiya, tarix, geografiya, matematika taraqqiy qildi, poeziya, adabiyot, teatr kamol topdi, grek yozuvi paydo bo'ldi. Greklar o'zlaridan avvalgi xalqlar, Sharq mamlakatlari - Bobil, Misrning fan va madaniyat borasidagi yutuqlarini chuqur o'rganib, o'zlarining betakror san'at va madaniyatlarini yaratishga muvassar bo'ldilar.

Me'morlik. Arxaika davri me'morchilik san'ati shaharlarning rivojlanishi va qurilishi bilan bog'liq.

Grek ibodatxonalari bir necha tipda bo'lib, bularning ichida eng keng tarqalgan tipi peripter hisoblangan. Bu tipda qurilgan binoning markaziy qismi muqaddas yer-sella bo'lib, atrofi esa ustunlar bilan o'ralgan. Grek me'morchiligining bu tipi faqat grek me'morchiligidagina emas, balki jahon san'ati me'morchiligida ham katta rol o'ynadi. Ilk Arxaika ibodatxonalari birmuncha past va uzunroq qilib qurilgan. Ularning ko'rinishi vazmin va salobatli. Pestumdagi (Italiya) Gera ibodatxonasi (er.av.VI asr o'rtalarida) shu jihatdan ibratli. Korinfdagi Apollon ibodatxonasi (er.av.VI asrning ikkinchi yarmida qurilgan) periter tipidagi doriy orderida ishlangan bo'lib, uning old tomonida 6, yon tomonida 15 ustun o'rnatilgan. Bu ibodatxonada ham Arxaika me'morchiligining xarakterli tomonlari ochiladi.

Haykaltaroshlik. Arxaika davrida grek monumental haykaltaroshligi kamol topa boshladi. Toshdan yaratilgan haykallar namunasi esa eramizdan avvalgi VII asrlarga to'g'ri keladi. Haykaltaroshlikning rivojlanishida Krit san'atkorlarining ta'siri sezilarli bo'lgan. Arxaika davri haykaltaroshligida odam gavdasini alohida tasvirlash bilan birga, voqealarni aks ettiruvchi kompozitsiyalar,

masalan, olishuvlar ko'rsatiladi. Persey va Gerakl qahramonligiga, hudolar va gigantlar jangiga bag'ishlangan kompozitsiyalar shu davr haykaltaroshligi mahsulidir. Arxaika davrining ko'zaga surat solish san'ati dastlab qora figurali vazalarda namoyon bo'ldi. Bunday vazalarga qora lak bilan turli tasvirlar ishlangan. Ayniqsa qora figurali vazalar ishlash san'ati VI asrning II-III choragida rivojlanib, bu sohada attikali qurollar va rasmlar chiqarishgan. Shunday mashhur ustalardan biri, rassom Klitiy bo'lgan. U jahonga mashhur bo'lgan "Fransua vazas"ni bezatgan. Er.av. 540-530 yillarda qizil figurali vazalar ishlash keng tarqaladi. Bu vazaga gul solish san'atida realistik tendensiyalarning ortib borishi sabab bo'ldi. Qizil figuralarda tasvirlangan obrazlar, tasvirlar ko'zaning tabiiy rangi - pishirilgan loy rangida (qizg'ish, qizg'ish jigarrang) qoldirib, fon, qolgan bo'shliq esa qora lak bilan bo'yab chiqilgan. Bu uslub voqelikni real tasvirlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, eramizdan avvalgi VI asrning uchinchi choragidan IV asrgacha davom etdi. Eramizdan avvalgi V asrga kelib, Gretsiya o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi.

Yuqori klassika. Eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Gretsiya siyosiy, iqtisodiy va madaniy ravnaqining oltin davrini boshladi. San'atning hamma tur va janrlari rivojlanib, yuqori klassika davri kishilarining estetik ideal haqidagi tushunchalarini mukammal badiiy obrazlarda ko'rsatadi. Bu taraqqiyotda, so'zsiz, shu davrning yirik davlat arbobi Perikl muhim rol o'ynadi. Yuqori klassika davrida Afina akropoli o'zining tugal ko'rinishini egalladi. Perikl tashabbusi bilan Afinaning ichki qal'asi - Akropol qayta tiklandi. Bu qal'a Eron-Grek urushida vayron bo'lgan edi. Eramizdan avvalgi V asrning uchinchi choragida bu yerda oq marmardan yasalgan grek me'morchiligining nodir durdonalari bo'lgan Parfenon, katta darvozaxona - Propiley, qanotsiz g'alaba ma'budasi Nikaga atab qurilgan Niki Apteros qad ko'tardi. Bu binolar badiiy bezakka boy bo'lgan. Masalan, Propiley devorlari davlatning jangovor o'tmishini tasvirlovchi suratlar bilan bezatilgan. Akropolning ochiq maydonida Afina davlatining kuch-qudratini va ulug'ligini o'zida ifodalab, grek tarixida birinchi bor umumellin birligini namoyish etuvchi me'morchilik ansambli edi. Akropol tepaligining yon bag'irlarida qurilgan ibodatxona va tomoshaxonalar esa uni yanada mo'tabar, muqaddas dargoh darajasiga ko'targan. Grek klassikasi me'morchiligining beqiyos namunasi, yuksak aql-zakovat mevasi va afinaliklar homiysi bo'lgan Afina ma'budasiga bag'ishlangan Porfenon ibodatxonasi hisoblanadi. Eramizdan avvalgi 447-438 yillarda me'morchilik Iktin va Kallikrat tomonidan qurilgan bu ibodatxona afinaliklarning xazinasini saqlash uchun xizmat qilgan. Parfenon ibodatxonasining bezak va haykallari esa davrning buyuk haykaltaroshi, Periklning yaqin safdoshi Fidiy rahbarligida

bajarilgan. Bu davrga kelib, haykaltaroshlik yuksak kamolot davriga qadam qo‘ydi. Haykaltaroshlar endilikda odam qomati va yuz tuzilishini to‘g‘ri tasvirlabgina qolmasdan, o‘z asarlarida murakkab harakatlarni ham ifodashga, kompozitsiya yechimining hayotiy bo‘lishiga alohida e‘tibor bera boshladilar. Shunday masala bilan shug‘ullangan yirik haykaltaroshlardan biri Miron hisoblanadi. Uning mashhur asarlaridan biri “Diskobal” (Disk otuvchi) haykalida jismoniy go‘zal, ma‘naviy kuchli ideal inson obrazi yaratiladi. So‘nggi klassika davri haykaltaroshligi realistik tendensiyaning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Haykaltaroshlar o‘z qobiliyati, dunyoqarashi, imkoniyatlaridan kelib chiqib, inson ma‘naviy olamining turli qirralarini yoritib boshlaydilar. Bu xususiyat so‘nggi klassikaning buyuk haykaltaroshlari Skopos, Praksitel, Lisipp ijodida sezilarli edi.

San‘atda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar so‘nggi klassika davrining yirik haykaltaroshi Skopos ijodida o‘z ifodasini topdi. U yuqori klassika an‘analarini davom ettirib, monumental, qahramonlik ruhi bilan sug‘orilgan haykaltaroshlik kompozitsiyalarini ishladi, lekin asarlarida yuqori klassikaga xos xotirjamlik, ulug‘vorlik, vazminlik emas, balki serQayrat, kuch-quvvatga to‘lib-toshgan kishilarning ko‘rinishi, ma‘naviy ichki dunyosi ochib ko‘rsatiladi. Skoposning mashhur asarlaridan biri “Menada” (Vakanka, Dionisning umr yo‘ldoshi) haykalidir. Unda raqs dunyosiga cho‘mgan, maftun bo‘lgan Menada holati tasvirlanadi.

Menadaning berilib raqsga tushayotgan holati orqali tashlangan bosh harakati, spiralsimon buralgan gavda orqali ochib berilgan. Obrazning har tomonlama idrok etilishini hisobga olish ham Skopos ijodini avvalgi davr san‘atidan farqlaydi.

Ellinizm davri san‘ati.

Bu davr me‘morchiligi o‘zining hashamatliligi, dabdabadorligi va katta hajmga intilishi bilan xarakterlanadi. Me‘morchilik nazariyasi rivojlanadi. Bu davrda miletlik Gippodamaning shahar qurilishi borasidagi sistemasi muhim rol o‘ynadi. Shu plan asosida qurilgan Milet, Priena shaharlarining ko‘chalari ochiq va keng prasppektlardan tashqil topgan. Uning bosh maydoni atrofi esa turli ijtimoiy binolar bilan o‘ralgan.

Ellinizm davri san‘ati katta yutuqlarga erishdi. Klassika davri portret san‘atiga xos fazilatlar, umumlashma ideal obraz yaratish borasidagi prinsiplar bu davrda tasvirlanuvchining individual xislatlarini chuqurroq ochish, ma‘naviy qiyofasini ishonarli talqin etish tendensiyasi bilan almashdi, bu xususiyatlar Ellinistik Gretsiya san‘atida yaqqol seziladi. Ellinistik Misr Ptolemeylar podsholigi davrida gullab yashnadi, qudratli davlatga aylandi. Uning poytaxti Aleksandriya esa ellinistik dunyoning yirik madaniy-siyosiy markazi, yirik port

shahri bo'ldi. Ellinistik Misrning oq marmardan ishlangan hashamatli binolari dunyoga mashhur bo'lgan. Yetti mo'jizaning biri, deb hisoblangan 120 metrli Farros mayog'i (mash'ali), Aleksandriyaning haykaltaroshlik bilan bezatilgan park-bog'lari ham olamga mashhur bo'lgan. Ellinistik Misr badiiy maktabida yuqori klassika traditsiyalari (ko'proq Praksitel) sezilarlidir. Tematikasida hayotiy, maishiy hamda intim-lirik mavzu yetakchi o'rinni egallaydi. Bu janrda ishlangan kompozitsiyalarda ko'proq oddiy xalq hayotidan olingan voqealar tasvirlanadi. Qariyalar, bolalar obrazi ko'proq uchraydi. "Kexsa baliqchi", "g'oz bilan o'ynayotgan bola" haykallari bunga misol bo'la oladi. Afrodita haykali ko'p ishlangan. Ellinistik Misr san'atida allegorik talqin etilgan haykallar ham mavjud. Masalan, "Nil" kompozitsiyasi, tosh o'ymakorligining namunasi, "Gonzaga komeyasi" bo'rtma tasviri mashhurdir. Unda podsho Ptalemey va malika Arsinoyaning boshlari yon tomondan tasvirlangan. Lekin klassika davridagidek yuksak g'oya bu yerda chegaralangan.

Bu asar yana bir bor Ellinizm davri so'ngida san'atdagi ideologik kuchning susayib borganini ko'rsatadi va ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan chuqur inqirozni ifoda etadi.

Qadimgi Italiya san'ati, uning geografik o'rni, davlat chegarasi.

Eramizdan avvalgi VII asrning to'rtinchi yilidan yangi eraning V asriga qadar bo'lgan o'n ikki asr mobaynida italiyaliklar san'ati va badiiy madaniyati gullagan davrini boshidan kechirdi. Qadimgi dunyoning yirik davlatlaridan hisoblangan Rim imperiyasi paytida katta hajmdagi me'morchilik ansambllari vujudga keldi, me'morchilikning yangi tiplari paydo bo'ldi. Italiyaliklar qadimdagi Gretsiya san'ati va madaniyatiga zo'r hurmat bilan qaradilar. Uni ijodiy o'zlashtirdilar, nazariyasini yangi ilmiy bilimlar bilan boyitdilar. Realistik portret, tarixiy mavzudagi relief yaratish, mozaika, amaliy san'at borasidagi novatorlik namunalarini ko'rsatadilar. Qadimgi Italiya xalqlari ichida etrusklar bo'lgan. Ular eramizdan avvalgi VIII-VI asrlarda Italiyaning o'rta va G'arbiy janubiy qismini egallaganlar. Etrusklar qurish san'atida katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular toshlardan katta-katta imoratlar solganlar, birinchi bo'lib toshdan gumbaz va arkalar ishlaganlar. Etruriya shaharlari (Kere, Tarkvini, Veym, Klezium) baland, qalin, mustahkam devorlar bilan o'ralgan. Keng yo'llar, mustahkam ko'prik va kanallar qurilgan. Etrusk haykaltaroshlaridan biri Vulka hisoblanadi. U Rimga Kapitoliydagi Yupiter ibodatxonasini bezashga taklif etilgan. Vulka Veyidagi Apollon ibodatxonasining dekorativ haykallarini ham ishlagan. Apollon (Veym Apoloni deb yuritiladi) san'atkor ijodining o'ziga xos tomonini xarakterlaydi. Unda san'at va nur hudosi bo'lgan Apollonning shaxdam qadamlar bilan odimlab ketayotgan vaqti tasvirlangan. Shaffof, yengil libos ostidan uning rivojlangan muskuli va kuchli qomati ko'rinib turibdi.

Etruriya jamiyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi VII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab, Etrusk san'atiga Italiyaning janubidagi grek koloniyalari san'atining tasviri sezila boshladi. Etrusklar grek alfavitini, teatr va mifologiyasini qabul qildilar. Greklar singari ular ham yuzasiga bareleflar tushurilgan oltin tangalar chiqara boshladilar.

Qadimgi Rim san'ati.

Qadimgi Rim san'ati Apenin yarim orollaridagi ko'pgina xalqlar, jumladan, etrusklar, keyinroq Rim bosib olgan yerlardagi boshqa xalqlar san'ati ta'sirida rivoj topdi. Rim imperiyasining birinchi imperatori Oktavian Avgust hukmronlik qilgan yillar (eramizdan avvalgi 27 yil - yangi eraning 14 yillari) san'at va madaniyatning haqiqiy rivojlangan bosqichi bo'ldi. Rim davlatining "oltin asri" hisoblangan bu davrda nazariyotchi me'mor Vitruviy, tarixchi Tit Liviy, shoirlardan Vergiliy va Goratsiolar yashab ijod etdilar. Me'morchilik rivojlandi, shahar qurilishi avj oldi.

Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri Kolizey Amfiteatridir. Planda Kalizey gigant oval bo'lib, uning asosi 188x156 metr, devorlarining balandligi 48,5 metrga yaqin. Gladiatorlar jangi uchun mo'ljallangan bu qurilmaga bir vaqtning o'zida 55 ming tomoshabin siqqan. Rim me'morchiligining yana muhim yodgorligi "Hamma hudolarning qasri" - Panteon hisoblanadi. Me'mor Apollodor Domashoqiy tomonidan 118-125 yillarda qurilgan bu bino antik dunyoning eng katta gumbazli binosi bo'lib, unda Rim me'morchiligining novatorlik xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tasviriy san'at. Rim tasviriy san'atidan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik namunalari (relef, portret, tematik kompozitsiyalar) saqlanib qolgan Rimliklarning portret san'atidagi yutuqlari, ayniqsa kattadir. Respublika davrida realistik portret rivojlandi va antik dunyo san'atida yetakchi o'rinni egallaydi.

Rassomlik va amaliy san'at.

Rimning gullagan shaharlari Pompey va Gerkulanumdagi boy, zadogonlarning uylari devorlariga ishlangan suratlar Rim rassomligi haqida ma'lumot beradi. Devoriy suratlarda qadimgi grek ustalari ishlagan nusxalardan ko'chirmalar, turli naqsh, gul va girlyandalar tasviri ham keng uchraydi. Bu uylarning pollari mozaika bilan bezatilgan. Ularda sayyor aktyorlar, dengiz osti manzaralari, urushayotgan xo'roz va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan. Shunday mozaikalardan biri Favna uyidagi Aleksandr Makedonskiyning Eron shohi Doro bilan jangi tasviridir.

Tayanch tushunchalar.

Galereya (ital. galleria) - binoning alohida boʻlimlarini birlashtiruvchi uzun va ingichka usti berk xona.

Baltisteriya - butxona

Garmoniya - (grek. hasmonia - bogʻliq boʻlish, munosiblik, muvofiqlik) badiiy asar qismlarining mutanosibliigi.

Baza (grek. «basis» - asos) kolonnaning yoki pliyastrning tekislangan pastki qismi, supachasi.

Arxiv (grek. «arche» - boshlanishi, lotin. «trabs» - toʻsin) kolonna kapitellarida yotgan birlashtiruvchi toʻsin.

Savollar:

1. Antik sanʼatni tushuntirib bering.
2. Krit-miken sanʼati haqida soʻzlang.
3. Knoss saroyi haqida nimani bilasiz?
4. Gretsiya sanʼati rivojlanishining asosiy bosqichlari.
5. Gomer davri sanʼati haqida soʻzlang.
6. Klassika davrida Gretsiya sanʼati toʻgʻrisida nima bilasiz?
7. Ellenistik davlatlarning vujudga kelishi haqida soʻzlang.
8. Ellenizm davrida portret sanʼati.
9. Ellenizm davrida sanʼatning rivojlanishi.
11. Etrudiya sanʼati va madaniyati haqida soʻzlang.
12. Qadimgi Rimda meʼmorchilikning rivojlanishi.
13. Shu davrda tasviriy sanʼatning ravnaqi.

MAVZU: O'RTA ASRLAR SAN'ATI TARIXI.*REJA:*

1. Sharq va G'arbda O'rta asrlar tarixining davriy chegarasi, rivojlanishidagi asosiy bosqichlar.
2. O'rta asrlar san'ati.

Yer yuzida feodalizm tuzumining paydo bo'lishidan tortib, uning rivojlanishi va nihoyat, uning inqirozidan keyingi tuzumiga o'rnini bo'shatib berguncha bo'lgan davrdagi san'ati, odatda, O'rta asrlar san'ati deyiladi. Bu san'at turli mamlakatlarda turli vaqtda boshlangan va davom etgan. Jumladan, Yevropada u Buyuk Konstantin podsholik qilgan davrdan (IV asr) boshlanadi. Uning dastlabki inqirozi esa XIII-XIV asrlardagi Italiyadagi shahar-davlatlarning vujudga kelishi bilan tezlashadi. Yevropadagi ayrim mamlakatlarda feodalizm VII-VIII asrlar va undan kech ham boshlanib, XVII asrlarning so'ngigacha davom etgan (masalan, Vizantiya, Qadimgi Rus). Aksincha, Sharq mamlakatlarida (masalan Xitoy, Hindistonda) O'rta asrchilik birmuncha erta boshlangan. Lekin uning inqirozi cho'zilib ketib, XIX asrgacha va undan keyinroq ham davom etgan.

O'rta asrlarda me'morchilik yetakchi o'rinni egalladi. Bizgacha O'rta asrlar me'morchilik san'atining juda ko'p nodir yodgorliklari saqlanib qolgan. Bu yodgorliklar, ayniqsa, monumental me'morchilik san'ati O'rta asrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim o'rinni egallaydi. Ular davrning diniy, falsafiy qarashlarini aks ettiribgina qolmay, inson aql-zakovatining qudratini ulug'laydi. Bu davrda qurilgan Yevropadagi ibodatxonalar, musulmon sharqidagi hashamatli machitlar, buddizm yodgorliklari O'rta asr tafakkurining mahsuli sifatida hozirgacha kishilar qalbini to'lqinlashtiradi. Buyuk inson aql-zakovati qudratiga ta'zim etishga da'vat etadi.

Vizantiya san'atining o'ziga xos tomonlari IV asrda uning maydoniga xristian dinining kirib kela boshlagan davridan shakllana bordi. Bu xususiyat Vizantiyaning dastlabki gullagan davri VI-VII asrlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Konstantinopal bu davrda katta Vizantiya imperiyasining faqat siyosiy markazi emas, balki madaniy o'chog'iga ham aylandi.

Vizantiya me'morchiligi uslubi grek va rim me'morchiligi an'alarining mahalliy an'analar bilan uyg'unlashishidan vujudga kelgan. Jumladan, Konstantinopoldagi Sofiya ibodatxonasi o'z konstruktiv tuzilishi jihatidan Panteon ibodatxonasi konstruksiyasiga o'xshab ketadi, lekin bu o'xshashlik bir muncha yashiringan holda talqin etilishi bilan xarakterlanadi. Vizantiya rangtasvirining nodir namunasi XII asr birinchi yarmida Konstantinopollik usta

tomonidan ishlangan «Vladimir Bibi maryami» ikonasi hisoblanadi. Vizantiya san'ati madaniyati, jahon xalqlari san'ati va madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Bu madaniyat janubiy Slavyanlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qadimgi Rus san'ati va madaniyati taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Vizantiya me'morligi amaliy san'at namunalari ko'pgina xalq san'atkorlari uchun namuna maktabi vazifasini o'tadi.

VI-VII asrlarda slavyan qabilalarining Bolqon yarim oroli tomon ommaviy ko'chishi Vizantiya imperiyasida feodal munosabatlarning tezlanishiga, quldorlik tuzumining tugashiga olib keldi. Shu bilan birga slavyan qabilalarining Vizantiya bilan to'qnashi ularning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishlarida, asta-sekin esa ilk feodal davlatlarning paydo bo'lishida muim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yerda ular Bolqon qabilalari bilan assimilyatsiyalashib ketishdi. Bolqon yarim orolida yirik davlatlar galma-galdan maydonga chiqdi va inqirozga uchradi. Ana shular ichida Bolgariya podsholigi, Serbiya va Xorvatiya davlatlari yirik bo'lib, taraqqiyotida ham sezilarli iz qoldirdilar.

Bolgariya san'ati va madaniyatining birinchi taraqqiyoti IX-X asrlarga to'g'ri keldi. Bu davrda slovyan yozuvi va bolgar adabiyoti paydo bo'ldi. Bolgar san'atiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri, antik an'analarning unda uzoq yashashidir. Jumladan, uning me'morchiligida tekis yoyilgan tomi va yon tomonlaridagi binolar uzoq vaqt saqlangan. Bunga avliyo Sofiya ibodatxonasi misol bo'la oladi. XI asrdan boshlab, bud-gumbaz tipidagi binolar qurila boshlandi. Shu tipda qurilgan dastlabki ibodatxonalar Presp ko'li atrofidagi German cherkovi (1066 y.) bo'lib, u o'zining nozik nisbati, konstruktiv tuzilishining aniqligi bilan xarakterlanadi. Bino juda sodda bezatilgan. 1187 yili Bolgariya mustaqil davlatga aylandi. Tarixchilar ikkinchi Bolgariya podsholigi davrini shu yildan boshlab hisoblaydilar.

Feodalizmning yangi bosqichi bo'lgan bu davr savdo-sotiq, madaniyat va san'atning jonlanishi bilan xarakterlanadi. Me'morchilik bezagiga e'tibor berish Bolgariyada keng o'rinni egalladi. Bu davrda miniatyura, ayniqsa, yog'och o'ymakorligi juda rivojlandi. Bu o'ymakorlikning qadimgi namunasi Oxirdagi Nikolay cherkovi uchun ishlangan eshik yuzasidagi turli qush, hayvon va o'simliklar dunyosidan olinganobrazlar tasviridir. Yozuv manbalari Bolgariyada zargarlik san'ati ham yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. XIV asrning ikkinchi yarmida turklar tomonidan bosib olinishi uning san'at va madaniyatiga salbiy ta'sir qildi. Uning monumental san'at taraqqiyoti deyarli to'xtadi.

XII-XIV asrlarda Serbiya Bolqon yarim orolidagi yirik davlatlardan biriga aylandi, san'at va madaniyatning gullagan davrini boshidan kechirdi. Serhasham me'morchilik va monumental rangtasvir san'atida muhim yutuqlarni qo'lga kiritib, O'rta asrning yetuk markazlaridan biriga aylandi. Serbiya Vizantiya va

Italiya bilan yaqin munosabatda rivojlandi, ularning san'atidan ta'sirlandi. Vizantiya san'ati an'analari ayniqsa, rangtasviri Serb san'ati taraqqiyotida muhim o'rinni egalladi. Me'morchilik san'atida esa G'arbiy Yevropa an'alarining ta'siri seziladi. Serb san'atining ilk namunalari bizgacha kam yetib kelgan va ularda ko'proq Yevropa roman davri san'ati an'analari ta'siri bo'lgan. Bu davr me'morchilik namunalari plan jihatidan sodda, bazilika tiplariga yaqin, ravoqli cherkovlar bo'lib, ularning eshik va darchalari atrofi sodda bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Serb san'atining harbiy Yevropa bilan aloqasi XI asrdan rivojlana boshlagan miniatyura san'atida ham namoyon bo'ladi. Serb me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning dekorativ xarakterdaligidir. Bu xususda Studennitsadagi Bibi Maryam cherkovi diqqatga sazovordir. Binoning tashqi ko'rinishiga alohida e'tibor berganlar, u oq va kul rang marmar bilan pardozlanib, arkatura frizi bilan bezatilgan. Konsollarda odam va hayvon niqoblari ishlangan, g'arbiy va janubiy peshtoqlar, mehrob darchalari o'yama naqqoshlik bilan bezatilgan. Naqsh uchun o'simliklar dunyosi, qush, hayvon va odamlar shakli olingan. Nerezedagi (Makedoniya) Panteleymanx ibodatxonasi devoriy suratlari Serb monumental rangtasviri to'g'risida tasavvur beradi.

«Butdan tushirish» mavzusiga bag'ishlangan suratlarda kuchli hayajon va motam, iztirob, qayg'urish ishonarli va ifodali tasvirlangan. Bu tasvirlarda butdan tushirilgan Iaga aza tutayotgan, chuqur qayg'u va motam bilan uni quchoqlayotgan Bibi Maryam, Iso tomon chuqur qayg'u va motam bilan engashib qarab turgan Ioan obrazlari chuqur motam holatida ta'sirli ishlangan. Yosh avliyolar obrazi ham ta'sirli va xarakterlidir. Bu tasvirlarda rassom kontur chiziqlardan foydalanmagan holda faqat rang surtmalari hisobiga obraz hajmini ifodalashga intiladi. Surat koloriti yorqin, jarangdor, oq sarg'ish, oltin, ko'k va moviy ranglar gammasi o'zaro nisbatda asarning emotsional tomonini oshirib, uning ko'rimli bo'lishiga yordam beradi. Serb O'rta asrlar san'ati o'z davri uchun progressiv ahamiyatiga ega bo'ldi. XIII-XIV asrlar me'morchilik san'ati Sharqiy Yevropa san'ati uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Serb rassomlari insonning his-tuyg'u, ehtiroslarini badiiy ifoda etib, o'zga yerdagi zamondoshlariga namuna bo'ldilar. Serb san'atkorlari diniy kanonlardan chekkaga chiqmagan holda real dunyoni keng va to'laqonli tasvirlashga erishdilar. Serb san'atkorlari Ruminiya, Bolgariya, Qadimgi Rus san'atiga o'z ta'sirlarini o'tkazdilar. O'rta asrlar san'ati va madaniyatida Kavkaz xalqlari, jumladan, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon xalqlari san'ati ham alohida o'rinni egallaydi. Bu xalqlar san'ati qadimgi mahalliy san'at an'alariga ega bo'lgan, O'rta asrlarning muhim madaniyat o'choqlaridan hisoblanadi. Ular Vizantiya va

Eronning yutuqlaridan foydalanib, o'ziga xos san'at yaratdilar va jahon madaniyati xazinasini boyitdilar.

Kavkaz xalqlari san'ati X-XIII asrlarda eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Gruziya va Armaniston O'rta asrlar monumental me'morlik san'ati hajmiy-plastik yechilishi xarakteri bilan farq qiladi. Markazli qubbali Zakavkaze ibodatxonalari zinasimon kompozitsiyaga ega bo'lib, uning me'morchilik hajmlari o'rta qarab balandlashib boradi. Cherkov binosining to'rt tomoni o'ziga xos frantanlar bilan tugallanadi. Binoning tashqi zinasimon kompozitsiyasi intererining ichki xarakteriga xos.

Arman me'morchiligining o'ziga xos tomonlari Echmiadzin yaqinidagi Gijima ibodatxonasida yaqqol seziladi. Bu ibodatxona plani asosida hamma tomoni teng bo'lgan but olingan. Binoning tashqi tomoni yaxlit, salobatlidir. U o'zining aniq nisbati, devor fakturasining yoqimli qilib ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Bino silueti yaxlit va aniq tuzilishi bilan xotirada yaxshi saqlanadi. Ibodatxona sakkiz qirrali baraban bilan tugallangan. Arablar tomonidan VII asrda Armaniston yerlarining zabt etilishi san'at taraqqiyotiga to'siq bo'lib, bu hol qariyb 200 yil davom etadi. Faqat arab xalifaligining parchalanishi va Armanistonning chet el istilosidan qutulishi iqtisodiy, siyosiy hayotda jonlanishni boshladi. Yirik feodal yer ho'jaligi mustahkamlanib, kengayib bordi. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, yagona davlat yaratishga intilish sezila boshladi.

Gruziyada ilk xristian dini bilan bog'liq binolar (V-VI asrlar) bazilikadir. Ular kichik Osiyo, Albaniya, Siriya, Armanistondagi bazilika binolariga o'xshash. Lekin u mahalliy an'analar bilan boyitilgan bo'lib, uch qavatli zinali supacha ustiga qurilgan bu bino tashqi tomondan sodda va past, og'ir ko'rinishga ega. Lekin asosiy diqqat intererga qaratilgan. Keng xona devorlaridagi aniq, yaxlit shakllar uning ichki emotsional imkoniyatlarini oshiradi. Bino intererlarini bezashda toshdan yaratilgan kapital va plastrlar muhim o'rinni egallaydi. Bo'rtma tasvirlarda Eron va Gruziya xalq yog'och o'ymakorligi an'analari uyg'unlashgan.

VI asrning oxiri va VII asrda markaziy qubbali qurilish keng o'rinni egallay boshladi va uning turli variantlarini ishlab chiqildi. Mixetidagi Djvari ibodatxonasi gruzin me'morchiligining xarakterli tomonini o'zida mujassamlashtirgan. Hajmi jihatidan monumental ko'rinishga ega bo'lgan bu bino va tabiat manzarasi bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan va uning bir bo'lgi sifatida idrok etiladi. Bino kompozitsiyasi sakkiz qirrali baland bo'lmagan baraban bilan tugallangan. Tashqi devor bo'rtma tasvir va naqshlar bilan bezatilgan. Gruzin san'atining eng gullagan davri XI-XIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib, Gruziya yaqin sharqdagi eng yirik davlatlardan biriga aylanadi,

moddiy va ma'naviy hayotida rivojlanish sodir bo'ldi. Bu davr madaniyatining o'ziga xos xususiyati cherkor va feodal zodagonlar rolining kamayishi, yangi shakllangan dvoryan hamda savdogar, hunarmandlar tabaqasi hayoti va ideologiyasini targ'ib etish bilan bog'liq bo'lgan san'at va fanda dunyoviy yo'nalish yetakchi o'ringa chiqib oldi.

Bu davr san'atining muhim mafkuraviy maqsadi - mamlakat kuchlarini birlashtirish va davlatni mustahkamlashga qaratilgandir. Insonning ruhiy olamga qiziqishi va e'tibori kuchaydi. Monumental me'morchilikda katta, ulug'vor, hashamatli binolar yaratish, ularning ichki va tashqi tomoni badiiy bezagiga alohida e'tibor berish tendensiyasi sezildi. Me'morchilik elementlarining dekorativligiga e'tibor ortdi. Gro'zin san'atida ancha rivojlangan mozaika ham monumental xususiyatga ega bo'lib, jonli va ta'sirlidir. Monumental rangtasvir san'ati XII-XIII asrlar chegarasida jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bu davrda gro'zin monumental rangtasvirning nodir yodgorliklari yaratildi. Bu xususida Vardzi suratlari, Betaniy va ayniqsa, Kinsvisi ibodatxonalaridagi devoriy suratlar obrazlarning erkin talqin etilishi voqelikning poetik tasvirlanishi bilan xarakterlanadi.

XVI asr monumental rangtasvirida Vizantiya rangtasvirining Konstantinopol maktabi ta'siri seziladi. Bu davr suratlari ta'sirchan, ifodali chiqqan bo'lsa ham, obrazlardagi garmonik barkamollik va tasvirlanuvchilarning ko'p qirrali xarakterini to'liq yoritish bir muncha buzila boshlaganligi, sun'iylik ko'rinadi.

Gruzin miniatyura san'atining ilk namunasi IX-X asrlarga to'g'ri keladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu san'at V asrlardayoq rivojlangan va keng tarqalgan. Miniatyura san'atida ellinistik san'atning ta'siri seziladi. Bu davr miniatyuralari o'zining o'tkir qalami, real va yorqin kaloriti bilan ajralib turadi. Unda diniy mavzudan tashqari, dunyoviy voqealar ham o'z ifodasini topgan.

XIV-XVII asrlar gro'zin xalqining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi davridir. Bu uning iqtisodiy ravnaqiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Monumental rangtasvir, miniatyura, me'morchilik san'ati bir muncha orqaga ketishi bilan xarakterlanadi. Lekin xalq amaliy sang'ati, yog'och va tosh o'ymakorligi san'ati rivojlanishda davom etib, davr o'zgarishlarini o'zida ifodaladi.

O'rta asrlar san'ati.

O'rta asrlarda harbiy Yevropa "Varvarlar" qirolligi va Franklar imperiyasi davrida "Varvarlar"ning surunkali harbiy yurishlari va qullarning tez-tez ko'tarilib turgan qo'zg'olonlari III asrlarga kelib "Quldorlik" davrining inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Natijada quldorlik davri tuzum sifatida o'z o'rnini harbiy Yevropa mamlakatlarida asta-sekin feodalizmga bo'shatib bera boshladi. Rim imperiyasi qulashi bilan bu jarayon yanada tezlashdi. Bu voqealar

harbiy Yevropa madaniyati va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. "Varvarlar" san'ati va antik san'ati an'alarining o'zaro ta'sirida Yevropada O'rta asr san'atini boshidan kechirdi. Bu ta'sir ayniqsa hajm forma dinamikasi, ekspressiyada, kompozitsiya va naqqoshlikda yaqqol namoyon bo'ldi.

harbiy Yevropadagi ko'pgina mamlakatlarda ibtidoiy tuzumdan so'ng o'z boshlaridan quldorlik davrini kechirmay turib, feodal tuzumiga o'tishlari muhim voqea bo'ldi. "Varvarlar" san'atidagi ibtidoiy tuzumga xos folkloriy tushunchalar bilan antik san'at an'alari qo'shib o'ziga xos yangi san'at rivojlana boshladi.

"Varvarlar" tomonidan istilo qilingan Rim imperiyasida feodal munosabatlar rivojlana boshlagan edi, istilo natijasida Rimda xristian dini ta'sirida qoldi. Din odamlar ongi, ruhiyatiga chuqurroq kirib bordi. Vizatiya san'ati o'z mohiyati jihatidan aristokratik xarakterga ega. Ular obrazlarni barkamolligiga intilsa, varvarlar esa ba'zida majruh, mayib, jismoniy xunuk obrazlarni tasvirlashdan cho'chimaydi.

Bu davrga kelib asosan yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik va dekorativ bezak san'ati turlari rivojlandi.

Uchinchi asr oxiri IX asr boshlarida Buyuk Karl birinchi kuchli imperiyaga asos soldi. Bu davr san'ati "korolinglar" san'ati, deb nom oldi. Bu san'at, hunarmandlar, sharq xalqlari, ayniqsa Shom san'atidan ta'sirlangan va unga taqlid qilgan.

Roman san'ati.

Buyuk Karl imperiyasi uzoqqa cho'zilmay, tez inqirozga uchradi. Vafotidan so'ng esa tomom parokandalikka uchradi, madaniy yodgorliklar esa talandi. Faqat X asr oxirlaridan boshlab Yevropada hayot izga tusha boshladi. X-XII asrlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot davri san'ati roman san'ati deb nom oldi. "Roman" iborasi shartli bo'lib, u lotincha «roma» degan so'zdan olingan bo'lib, "rim" uslubi degan ma'noni bildiradi. Bu davrda me'morchilikka alohida e'tibor berildi.

Roman davri san'atida me'morchilik asosiy o'ringa chiqadi. Bu davr me'morchiligining xarakterli tomoni shundaki, unda binolar birmuncha past, jiddiy va og'ir ko'rinishga ega. Devorlari qalin va mustahkam, eshik, derazalar ensiz. Me'morchilikning bunday ko'rinishi harbiy maqsadlarni ko'zda tutadi. Bu davrda asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lgan san'at turlari rivojlanadi. Bular maxobatli rangtasvir, haykaltaroshlik, vitraj san'ati. Bu me'morchilikning yana bir o'ziga xos xususiyati, tomning gumbaz tarzida yopilishi va unda darchalarning joylanishidir.

Bu davrga kelib o'ziga xos feodal qusurlar paydo bo'la boshladi. O'sha davrda qurilgan shaharlarning umumiy ko'rinishi ham feodal qo'rg'onlarni

eslatardi. Ularning atrofi qalin devor bilan o‘rab chiqilar edi. Bu binolarning bezalishi ham sodda.

Bu davr tasviriy san‘ati din bilan uzviy bog‘liqligi sababli unda ramziy, Qayri-tabiiy, fantastik obrazlar uchraydi.

Feodalizm davrining san‘ati harbiy Yevropa davlati bu Fransiya edi. Fransuz me‘morchiligi Yevropa qurilishida muhim o‘rin tutadi. Roman asri davrida Fransiyaning ko‘pgina shaharlarida anchagina ibodatxonalar qurildi. Bu binolarning pastki qismi tepa qismiga nisbatan ancha katta bo‘ldi. Ular o‘yma naqsh va bo‘rtma tasvirlar bilan bezatilar edi.

XIX asr boshlarida buzilib ketgan bu me‘morchilik obidalarining asosiy prinsiplari keyingi davr arxitekturasi uchun ham ko‘p xizmat qildi.

Germaniyada qurilgan roman arxitekturasi xarakterli tomoni shundaki, bu me‘morchilik binoning tomi kvadrat shaklida bo‘lib, og‘ir minoralarning seroblighi esa unga dinamik siluet beradi.

Italiya me‘morchiligida stilistik birlik yo‘q. Bunga asosiy sabab uning tarqoqligi. Ayrim viloyatlarda Vizantiya ta’siri, yana bir joyda roman arxitekturasi ta’siri, boshqa joyida esa, masalan Toskana va Lombardiya maktablarida esa antik an‘analar ta’siri sezilib turadi. Roman davri tasviriy san‘atida mana shu arxitektura bilan bog‘liq tasviriy san‘at ya’ni devoriy surat va vitrajlar ishlash muhim o‘rin tutadi. Rangdor suratlar bilan bino shiflari va devorlarini bezashga katta e’tibor beriladi. Bu binolar asosan ibodatxonalar bo‘lganligi sababli unda suratlar mavzusi ham diniy bo‘lib, bu o‘sha Bibi Maryam va Iso hayotidan olingan lavhalar edi. Bu davr haykaltaroshligida ham shu yuqoridagi holatni ko‘ramiz.

Gotika san‘ati.

Feodalizm tuzumi ichidagi yangi o‘zgarishlar undan keyin kelishi kerak bo‘lgan tuzumning shart-sharoitlarini yaratishga zamin hozirlashga kirisha boshladi. Bu esa shaharlarning taraqqiy etishiga, bunda savdogar va hunarmandlarning rolini ortib borishiga sabab bo‘ldi. Yevropa markazlarida XII asr boshlarida fanning roli ortdi va birinchi ilmiy markazlar - universitetlar tashqil qilindi. Materialistik dunyoqarashning ilk belgilari paydo bo‘la boshladi. Bunda Ibn Sino va uning shogirdi Ibn Rushd (Averros) ta’siri katta bo‘ldi.

San‘at va madaniyatda ham katta o‘zgarishlar yuz berdi, hayotiy mavzudagi asarlar paydo bo‘la boshladi. Ruhoniylar hayotidagi ikki yuzlamachilikni fosh etuvchi teatrlar, ya’ni komediatlar, maskaradlar yuzaga keldi.

Harbiy Yevropa san‘ati Vizantiya san‘ati ta’siridan qutula boshladi. Keyinchalik bu davrdagi san‘atga ”Gotika” san‘ati, deb nom berildi.

Bu iboraning lug‘aviy ma’nosi italyanacha so‘zdan olingan bo‘lib,

”gotlarniki” degan mazmuni bildiradi. Gotlar bu nemis qabilalaridan biri bo‘lib, bu davr san’atiga got qabilalari san’atining ta’siri kuchli bo‘lganini bildiradi. Hali bu davrda shahar madaniyati feodal munosabatlarga to‘liq qarshi chiqqa olmas edi. Shu bois gotika san’ati xarakterida ham murakkab va qarama-qarshi fazilatlar kashf etildi. Yaratilgan asarlarda realistik elementlar bilan bir qatorda, diniy qarashlarning ko‘tarinki tasvirlash holatlari seziladi.

Gotika uslubi XII-XIII asrlarda o‘zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu uslub turli mamlakatlarda turlicha kechdi va uning ichki strukturasi umumiy qurilish tusini oldi.

Roman uslubida bo‘lgani kabi Gotika uslubida ham asosiy o‘ringa me’morchilik chiqdi. Roman davridagiga nisbatan gotika arxitekturasi serhasham va ulug‘vor, kattaligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda qurilgan binolar yuqoriga intiluvchan bo‘lib, juda baland bo‘ladi. Dinning kuchi orta boradi va soborlar oldida nafaqat diniy marosimlar balki, shahar majlislari, har xil munozara va bahslar, universitet ma’ruzalari va xalq sayllari o‘tkazilar edi. Shu sababdan bu ibodatxonalar shahar markazlarida qurilardi. Gotika davri arxitekturasining xarakterli tomonlaridan biri bino ko‘tarilgan sari torayib boradi va oxiri shpil bilan, ya’ni nayzasimon tarzda tugaydi. Uning uchiga xo‘roz yoki boshqacha bir tasvirlar qo‘yiladi.

Arxitekturaning yutuqlari ortib bordi. Bulardan biri karkaslardan foydalanish bo‘lsa, ikkinchisi bu davrga kelib ularni darchalari kengayib, derazalari ko‘payadi, peshtoqlari va ayvonlardan foydalanib bino ichini nurga boyitish istagi kuchayib boradi. Bu esa binolarning ulug‘vor, baland bo‘lishini ta’minlab qolmasdan, ularning yengil bir ruhiy holat kasb etishini ta’minlaydi. Me’morchilikda sodir bo‘lgan bu o‘zgarishlar binoning tashqi va ichki ko‘rinishlarida ham o‘z ifodasini topadi.

Tasviriy san’atda esa devoriy suratlar ishlanadigan yuzalar binoda yo‘qligi sababli, uning o‘rnini vitraj egallaydi.

Me’morchilik bilan bog‘liq bo‘lgan haykaltaroshlik tasviriy san’atda yetakchi o‘rinni egallaydi.

Gotika davrida dekorativ - amaliy san’at yaxshi rivojlandi.

XII-XV asrlarda Gotika uslubini Yevropaning deyarli barcha mamlakatlar san’ati o‘z boshidan kechirdi. Gotika uslubining Vatani Fransiya bo‘lib, Parij shahrining zaynati Bibi Maryam sobori (Notrdam de Pari) 1163-1314 qurildi. Reyms Sobori, Amendagi sobor, Keln soborlari (1248-1880) qad ko‘tardi.

Tayanch tushunchalar.

Axill qalqoni - Gefset tomonidan ishlangan, yuzasiga daladagi ishlar, raqs va shunga o‘xshash voqealar tasvirlangan qalqon.

dinamikasi - harakati.

Ekspressiya - ma'noli, ifodali, ta'sirli.

korolinglar - O'rta asrdagi ko'chmanchi xalqlar

Toskana va Lombardiya - Italiyada joylashgan shaharlar.

Savollar:

1. O'rta asrlar san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. O'rta asrlar san'atida me'morchilikning roli.
3. Vizantiya san'ati haqida so'zlang.
4. Serbiya va Makedoniya san'ati haqida nima bilasiz?
5. O'rta asr san'ati deb qanday san'atni tushunasiz?
6. O'rta asr me'morchilik san'atining xarakterli tomonlari nimalardan iborat?
7. O'rta asr tasviriy san'atining xarakterli xususiyatlari nimada?
8. Varvarlar san'ati bilan gotika san'atida qanday farq bor?
9. O'rta asr san'atining ahamiyati nimada?

MAVZU: QADIMGI VA O'RTA ASR RUS SAN'ATI.*REJA:*

1. Qadimgi rus san'ati.
2. Me'morchilik, tasviriy san'at, haykaltaroshlik turlari.

Kiev Rusi tashqil topgan davrdan boshlab (X asr) O'rta asr munosabatlari va badiiy mafkura prinsiplari inqirozga yuz tutgan davrgacha (XVI asr) bo'lgan Rossiya tarixidagi davrga "Qadimgi Rus" san'ati deyiladi.

Qadimgi Rus san'ati bevosita o'sha davrlarda yashagan boshqa xalqlarning madaniyati va san'atining ta'siri ostida rivojlandi.

Qadimgi Rus feodal munosabatlarining boshqa mamlakatlarnikidan farqi shundaki, u quldorlik davrini boshidan kechiradi. Shu sababli uning san'ati tabiat bilan uyg'unlashgan, me'morchilikdagi binolar, qasrlarmi yoki ibodatxonalarimi boshqalarnikidan farq qiladi. Me'morchilikning asosiy materiallari yog'och, loy edi. Shu sababli bizgacha yetib kelgan namunalari juda ozchilikni tashqil qiladi.

Haykaltaroshlik keng yoyilmagan. Bu davrda asosan amaliy san'at rivojlangan.

Kiev rusi san'ati.

Sharqiy slavyanlarda birinchi ming yillik o'rtalarida paydo bo'la boshlagan feodal munosabatlar VIII-IX asrlarga kelib o'z shakllanishini nihoyasiga yetkazdi. X asr Kiev Rusi davlatining tashqil topishi shu davrning eng muhim voqeasi bo'ldi. Xristian dini rasmiy davlat dini, deb qabul qilindi. Bu esa o'z navbatida Vizantiya bilan aloqalarni kuchaytirdi. Bolgar olimlari topgan - Kirill va Mifodiy kashf qilgan yozuv alfaviti rus yozuvining asosini tashqil qildi va hozirgi davrgacha unga xizmat qilmoqda. Vizantiyada yaratilgan san'at ikonografiya ham din ta'siri ostida me'morchilik bilan birgalikda Rus davlatiga kirib keldi. Dastlabki davrlarda Vizantiyadan ustalar chaqirildi, bular me'mor, haykaltarosh va rassomlar edi.

X-XI asrlarda Kiev Rusi san'at va madaniyat sohasida haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi. Bu davrga kelib u Yevropada ko'zga ko'ringan davlatlardan biri bo'ldi.

Bu davrning eng muhim arxitektura yodgorligi Kievdagi Avliyo Sofiya ("Svetaya Sofiya") sobori Kiev Rusining bosh ibodatxonasi bo'ldi. U davlatning kuch-qudrati va yagonaligini tarannum etar edi. Binoning ichkari qismi devoriy suratlar bilan bezalgan.

Kiev Rusida ikona san'ati va kitob bezagi bilan bog'liq bo'lgan miniatyura san'ati keng rivojlandi.

XIII-XV asrlarda mavjud bo'lgan rangtasvir asarlari asosan devoriy suratlar bo'lib, o'sha davrda ijod qilgan rassomlar mahoratidan dalolat berib turadi.

XIV asr Novgorod monumental rangtasvirlaridagi yorqin shaxslardan biri bu o'sha davrda Vizantiyadan Rusga kelib ijod qilgan musavvir Feofan Grekdir. U Vizantiya tasviriy san'ati an'alarini yaxshi, chuqur egallagan holda, Rus san'atidagi izlanishlar bilan uyg'unlashtirishga erishdi. Feofan Grek asarlaridan bizgacha juda kam namunalari yetib kelgan. Uning Novgoroddagi Spas-Preobrajenskiy soboridagi devoriy suratlari mashhurdir. Feofan Grek keyingi Rus san'ati taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. 1147 yilda Moskva shahriga asos solindi. U dastlab kichik bir knyazlikning markazi bo'ldi, atrofi jarlik bo'lib yog'och devorlar bilan o'ralgan tepalikda joylashgan edi. Moskva me'morchiligining namunalari unchalik ko'p saqlanmagan. Saqlanganlarining aksariyati XIV asr ikkinchi yarmi va XV asrga taalluqlidir. Me'morchilik yodgorliklari asosan shahar chekkalarida saqlanib qolgan .

Tasviriy san'at namunalari ko'proq miniatyura, ikona va devoriy suratlar tarzida uncha ko'p bo'lmagan miqdorda bizgacha yetib kelgan. Adabiy manbalarda ham shahar ibodatxonalari hamda qasrlar devoriy suratlar bilan bezatilganligi haqida ma'lumotlar bor. Moskva tasviriy san'ati taraqqiyotida rassom Feofan Grek muhim o'rin egallaydi. U taxminan 1395 yilda, devoriy surat va ikonalar ishladi. Blagovещenskiy sobori ikonastasining ikkinchi yarmi uning qalamiga mansubdir. Bu yerda uning shogirdlari ham ishlaganlar. Ular orasida qadimiy Rus rassomi Andrey Rublevning nomini ham uchratamiz.

Bu sobordagi ikona va suratlar Andrey Rublev ijodining ilk namunalari hisoblanadi. Shu asarlarda A.Rublev ijodining o'ziga xos xususiyatlari sezilib turadi. Bular orasida "Cho'qintirish" kompozitsiyasi, "Ierusalimga qochish" asarlari diqqatga sazovordir.

A.Rublevning muhim asarlaridan biri Vladimirdagi Uспенkiy soboriga ishlangan devoriy suratdir. "Taqvodorlarning jamiyatga yurishi" surati bular ichida alohida ahamiyatga ega bo'lib, A.Rublevning yuksak mahorati va G'oyaviy pozitsiyasini namoyon etadi. Zvenegoroddan topilgan Spas surati va Arxangel Mixal ikonasi ham uning ijodiga mansubdir. Rassomning eng mashhur asari Troitsk soboriga ishlangan "Uch farishta" surati hisoblanadi. Hozir bu surat Tretyakov galereyasida saqlanadi. Bu ikona injilda tasvirlangan voqealarga bag'ishlangan. Bu asarda diniy obrazlar orqali insoniy poklik, poetik ruh tasvirlanadi.

A.Rublev ijodi shu davrdagi Moskva tasviriy san'atidagina muhim o'rin egallab qolmay, balki o'zidan keyingi tasviriy san'atga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

XVI asr boshlariga kelib Moskva me'morchiligidagi shakllanish deyarli tugagan. Bu Ivan III hukmronligi davriga to'g'ri keldi. Bu me'morchilik obidalarini yaratishda Italiyaning me'morchilik an'anasi rus madaniy hayotiga kirib kela boshlagani ko'zga tashlanadi. Qrimdagi "Uspenskiy" sobori ziynatida ana shu tasvir yaqqol seziladi.

XVII asr Rus san'ati.

Feodal munosabatlarning kuchayib borishi natijasida dehqonlarning qashshoqligi va qaramligi ortib borib XVII asrga kelib krepostnoylik qaramligiga aylanadi.

XVII asrda Moskva badiiy markazga aylandi. Rassom, hunarmand, amaliy san'at ustalari guruhi "Qurol-yarog' palatasi" atrofida birlashdilar. U yerda chet ellik ustalar ham ishlar edilar.

Bu ustaxona podsho saroyiga yaqin joylashgan bo'lib, asosan podsho saroyi, podsho oilasi, cherkov va zadogon savdogarlar buyurtmasini bajarar edi. Mana shu ustaxonalarda samarali ijod qilgan rassomlardan biri Simon Ushakov edi. Rassomning qarashlari uning uncha katta bo'lmagan "Ikona san'atini sevuvchilarga maslahat" risolasida o'z ifodasini topdi.

Tayanch tushunchalar.

Ikona - ikonografiya* - (grek - tasvirlash)

Spas - Iso payg'ambar nomi.

Arxangel Mixail - Mixail farishta.

Savollar:

1. Qadimgi Rus san'ati deb qaysi asrlar san'atini tushuniladi?
2. Qadimgi Rus san'ati taraqqiyotining asosiy bosqichlarini ayting.
3. Kievdagi avliyo Sofiya ibodatxonasi va uning rus me'morchiligi taraqqiyotida tutgan o'rnini nimada?
4. Moskva Kremli qachon qurilgan va uning rus me'morchiligida tutgan o'rnini nimada?
5. Andrey Rublev kim, uning qanday asarlarini bilasiz?

MAVZU: UYG‘ONISH DAVRI SAN‘ATI.*REJA:*

1. Uyg‘onish davri san‘ati.
2. Haykaltaroshlik, tasviriy san‘at.

Feodalizm jamiyati qo‘ynida ilk kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi va rivojlanishi Yevropa hayotida yangi va muhim o‘zgarishlarga olib keldi. Din asta-sekin o‘z mavqeini yo‘qota bordi. Omma dindand uzoqlasha bordi, shaharlar kengaya bordi. Ularning shiddat bilan o‘tib, rivojlanishi mayda hunarmandchilikdan manufakturaga o‘tishga sabab bo‘ldi. Bu shaharlarda savdo-sotiq shu darajada rivojlandiki, dengiz orqali dunyoning boshqa burchaklari bilan savdo qilishga talab kuchaydi. Yangi qit‘alar kashf qilindi, bu voqealar insonlar tafakkuri va hayotga bo‘lgan munosabatlarida tub o‘zgarishlar yasadi. Bu davrdagi taraqqiyot jarayoni shiddat bilan o‘tdi, uning natijasida yangi san‘at va yangi madaniyat dunyoga keldi. Mamlakatlar orasida madaniy hayotdagi yangiliklar tez tug‘ildi.

Bu taraqqiyot davri Yevropa madaniyati tarixida “Uyg‘onish davri” deb nom oldi. Bu iborani ilk bor italyan rassomi va san‘atshunosi Jorjo Vazare tomonidan, Jorjo ijodiga nisbat berib aytilgan edi. O‘rta asrlar davridan so‘ng san‘at va adabiyotdagi markaziy e‘tibor insonga uning ijtimoiy hayotida tutgan o‘rniga qaratilganligi, uning “Uyg‘onishligini” belgisi edi.

Keyinchalik keng mazmun kasb etgan bu ibora Italiyadan tashqari Yevropaning boshqa mamlakatlariga ularning feodalizm davridagi keyingi san‘at va madaniyatlarini ta’riflashda boshlandi.

Uyg‘onish davrida italiya san‘ati va madaniyati uzoq davom etgan, o‘z harakatlarini to‘liq namoyon etib, qator taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bu quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Uyg‘onish davri arafasi - protorensans (XIII-XIV asrlar)
2. Ilk uyg‘onish davri - (XV)
3. Yuqori Uyg‘onish davri - (XV asrning 90 yillari - XVI asrning 20-30 yillari)
4. So‘nggi uyg‘onish davri - (XVI asrning II yarmi)

Albatta bu davr barcha Yevropa mamlakatlarida turlicha kechdi. Masalan, Germaniya so‘nggi uyg‘onish, Niderlandiya esa yuqori uyg‘onish davrini boshlaridan kechirdilar. Uyg‘onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim davr, muhim bosqich, ya’ni insoniyat o‘z boshidan kechirgan o‘zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o‘zgarish edi. Natijada ular chin ma’noda xalqchil asarlar yaratdilar, xalq ommasining orzu-istaklarini, his-tuyg‘ularini ifodalab chiqdilar, ilg‘or gumanistik g‘oyalarni ko‘tarib chiqdilar. Shu boisdan ham bu davr

gumanizm asri, deb nom oldi. Bu lotinchada insoniylik, insonparvarlik, degan ma'noni bildiradi. Uyg'onish davri madaniyati antik dunyo madaniyatidan ilhomlandi, Antik dunyo yodgorliklarini qunt bilan o'rgandi, ulardan ta'sirlandi. Antik dunyo yodgorliklarining Italiyada ko'plab saqlanib qolganligi bunga juda yaxshi imkon yaratdi. Lekin antik san'atdan farqli ravishda ular qullar sajda qilgan hudolar deb ulardan shu yo'sinda emas, balki o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, tushunchalarini ifodalashda foydalandilar. Go'zallik va garmoniyani real voqelikdan qidirish, real voqelikdan keng foydalanish shu davr taraqqiyotining mezonini belgiladi. O'ayot real hodisa deb tan olindi. San'atkorlar real voqelikni tasvirlashda yangi qonun va qoidalar izladilar. Asarlar ta'sirchanligini oshirish maqsadi ko'p sohalar bilan hamkorlikda ishlashni taqozo etdi. Perspektiva, rangshunoslik, soya va yorug', odam anatomiyasi va shunga o'xshash sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Me'morchilik va amaliy san'atda yangi tendensiyalar rivojlandi. Shu bilan birga qadimgi an'analar o'zlashtirilib, ular yangi mazmun bilan boyitildi. Unda yangi konstruksiyalar vujudga keldi. Ibadatxonalar bilan bir qatorda ko'p qavatli va shinam binolar qad ko'tara boshladi. Binolarning tashqi va ichki ko'rinishlarini bezash, ular ichidagi fazoni tashqil qilish masalasida ancha yutuqlarga erishildi. Bu qilingan ishlar keyingi Yevropa san'atida ko'proq ahamiyatga ega bo'ldi. Uyg'onish davrining o'ziga xos tomonlari protorenesans davrida dastlab italiya rangtasvirida o'zini namoyon qildi. Ijodkorlar diniy mavzuda ishlangan devoriy suratlarda realistik mazmuni ilgari sura boshladilar. Insonlar orasidagi munosabatlar, muhabbat, olijanoblikni, razillik, xudbinlikka qarshi qo'ya boshladilar, voqelikning real tasvirini yaratishga harakat qildilar. Ularning asarlarida Uyg'onish davri realizmining o'ziga xos tomoni hayotiy muammolarni ko'pincha diniy niqob ostida, diniy mifologik obrazlar orqali berish hollarini uchratamiz. Uyg'onish davri san'atkorlari ijodida insonlar hayoti, inson baxt-saodat yaratuvchisi va ozodlik uchun kurashchi ekanligi asosiy mavzu bo'lib qoldi. Insonni o'z asarlarida shunday kuylagan san'atkorlardan biri, ilk Uyg'onish davrining yirik vakili Donatello bo'ldi. Uning "David" deb nomlangan haykali Uyg'onish davrida birinchi marta libossiz holda tasvirlangan haykal bo'ldi. "Otdagi Gattamellatti" haykali esa jamoatchilikka manzur bo'lgan insonni ulug'lash yo'lidagi birinchi otliq haykal edi. Insonni kuylash, uning qahramonligi, aql-zakovatini ulug'lash Uyg'onish davrida portret san'atining qaytadan tug'ilishiga olib keldi. Portret san'atida ifodalanadigan insondagi nozik his-tuyg'ular o'zining butun borlig'i bilan Uyg'onish davrining buyuk san'atkorlari Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Titsian, Djordjone ijodida o'z ifodasini topdi. Ona, onalik mehri ulug'landi. Bu o'rinda Leonardo da Vinchining "Madonna»si va mashhur

“Mono Liza” portretini, Rafael Santining “Sikstin Madonnasi”, Mikelanjeloning haykallari va devoriy suratlarini, Titsiannig inson jismoniy go‘zalligini tarannum etuvchi polotnolarini eslatmay o‘tish mumkin emas. Bu asarlar renessans davri kishilarining ideali o‘zining to‘liq obrazli talqinini topdi. Uyg‘onish davrida me‘morlik va dekorativ amaliy san‘at borasida ham katta yutuqlarga erishildi. Shu davrning yirik me‘morlari F. Brunelleski, Leon Alberti ijodida o‘z ifodasini topdi. Ular yaratgan asarlar Yevropa me‘morligi san‘atining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ular me‘morlik san‘atiga albatta katta hissa qo‘shdilar.

Shu bilan birga Germaniyada ham bu davrlarda renessans davri san‘atining yirik vakillari yashab ijod qilishgan. Bular ichida Albrext Dyurer ijodi alohida o‘rin tutadi. U o‘z ijodida nemis san‘atida erishilgan yutuqlarga tayanib, unig yangi realistik yo‘lini boshlab berdi. U ajoyib grafik, gravyura ustasi, manzara, portret va boshqa janrlarda ajoyib asarlar yaratdi. Germaniya san‘atida Dyurer bilan bir qatorda Lukas Kranax, Mattis Gryudvand, Gans Golbeyn kabi yirik rassomlar ijod qildi. Gollandiya (Niderland) esa tasviriy san‘atning yirik vakillari Rogir van der Veyzen, Guyu van der Gus, Piter Breygel, Isronim Bosx Gollandiya san‘atini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardilar.

Haykaltaroshlik - tasviriy san‘at turlaridan biri.

Bu san‘atda borlik yorug‘ - soyaga ega bo‘lgan shakllar orkali makonda tasvirlanadi Turli xildagi stol ustiga kuyiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o‘rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, nihoyat turli amaliy buyumlar - tayaga, znachok, medallarning yuzasidagi bo‘rtma tasvirlar haykaltaroshlik san‘atining turli ko‘rinishi hisoblanadi.

Odatda haykaltaroshlik asarlari o‘z ko‘rinishiga qarab, dumaloq va qavariq (relief) haykallprga bo‘linadi dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko‘rish mumkin bo‘ladi. Masalan, maydon va hiyobonlardagi haykal va yodgorliklar, stol ustiga quyiladigon har xil haykalchalari turiga mansubdir.

Haykaltaroshlikning ikkinchi ko‘rinishi budgan kavarik yoki bo‘rtma haykallar, odatda, biror yuzaga bo‘rttirib ishlangan bo‘ladi.

Bunday haykallar bir so‘z bilan relief deb ataladi.

Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Haykallar rangini odatda haykal uchun tanlangan material (masalan, mramor, granit, bronza va h.k.) belgilaydi. Ba‘zan xalq haykaltaroshligida haykallarni bo‘yash xollari ham uchraydi.

Haykaltaroshlik asarlari ham san‘atning boshqa turlari kabi o‘zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo‘linadi.

Haykaltaroshlik turlari deganda, monumental haykaltaroshlik dekorativ haykaltaroshlik va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar, xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan monument turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda, monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga, u bevosita muhit, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'un bo'lishi lozim. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga xos bo'lgan xislatlardan yana biri, kahramonlarni ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental-haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, katta-katta, yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimdagi buklanishlar, undagi mayda detallar ko'rsatilmaydi.

Istiroxat bog'lari, hiyobonlar, ko'cha va parklar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ-haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Agar monumental-haykaltaroshlik asarlarida obrazlar ko'tarinki ruhda ishlansa, dekorativ-haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlar biron yumoristik tarzda talqin etiladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvonlar shakli ham keng ishlatiladi.

Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar, turli fontanlar, panjarada, badiiy darvozalar, chinnidan yasalgan turli haykalchalar, loydan ishlangan o'yinchoqlar xam shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi.

Dastgox xakaltaroshligiga mustaqil mazmunga ega bo'lgan, san'atning boshqa turlariga tobe bo'lmagan asarlar kirada Bunday asarlar kurgazmalar, uylarga kuyish uchun mo'ljallangan bo'ladi haykaltaroshlikning bu turida voqelik butun borligi bilan aks ettiriladi hamda inson psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati katta bo'ladi.

Haykaltaroshlikda ijodkor yorug'-soyalar uyinidan foydalanish orqali o'z haykallarini ta'sirli va jozibali bo'lishiga erishadi. Haykal yorug' soya bilan tirik, ya'ni nur tushishi bilan u ham jonlanadi, yorug'likning o'zgarishi bilan undagi yorug'-soya tovlanishi ham o'zgaradi, natijada, udan tomoshabin oladigan taassurot ham o'zgarib boradi. Bu narsa monumental va dekorativ haykallar uchun juda qo'l keladi. Chunki maydon yoki hiyobonga o'rnatilgan haykalga ertalabki tong quyoshining nurlari bir joziba bersa, kechki kun botish paytidagi quyosh nurlari boshqacha bir fayz kiritadi. Tungi

oy nurlarida shu haykalning o‘zi yana bir go‘zallik kashf etadi. Shuning uchun haykal turli paytida kishida turlicha taassurot qoldiradi.

Undagi uning hayajon va gamginligi, kelajakka intilish utmishga kaygurishi ham o‘z ifodasini topadi. Haykaltaroshlik asarlarida insonning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati ham, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin bunda, eng avvalo, haykaltaroshning o‘ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o‘zgarishlarni to‘g‘ri ifodalashi muhim o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri topilgan harakat, yuzidagi mimik xolat - bo‘lar uning ta’sirli bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

Haykallarning har biri bir taglikka (postameng yoki pedestalga) o‘rnatilgan bo‘ladi, ba’zan haykaltarosh uz maqsadini ruyobga chiqarishda bir necha taglikka o‘rnatilgan haykallar, releflardan foydalanishi mumkin. Bunday holda bu hamma haykallar kupi - ansambli bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, hammasi birgalikda bir mazmunni anglatadi.

Haykaltaroshlik san’ati har bir mamlakatda qadim zamonlardan boshlab rivojlanib kelgan san’at turidir. Bunga arxeologik qazilmalarda topilgan san’at durdonalari misoldir. San’at tarixiga nazar solar ekanmiz, Qadimgi Misr san’ati bilan tanishib chiqamiz. Qadimgi Misrning geografik o‘rni haqida Shimoliy Afrikada yomg‘ir juda kam yog‘adi, ko‘p vaqt havo issiq bo‘ladi, bu yerda qumloq va toshloq cho‘llar 1000 kmni tashqil etadi. Dunyodagi eng katta daryolardan biri Nil janubdan, shimolga qarab chullarni kesib o‘tadi. Nil daryosi Markaziy Afrikada joylashgan katta ko‘llardan oqib keladi. Nil daryosi O‘rta dengizga borib quyiladi. Nil vodiysi va deltasida, ostonalardan tortib to dengizgacha eramizdan avval IV ming yillikda Misrning davlatlar paydo bo‘ldi: Misrning fir’avnlar hokimiyati ostida birlashtirildi. Eramizdan kariyib 3 ming yil ilgari Janubiy podshoxlikning podshosi, Shimoliy podshoxlikni yengib chiqadi va deltani bosib oladi. Qudratli podshoxlik topib u bugun Misrni birlashtiradi. Qadimgi Misrda toshdan o‘yib ishlangan, taxtacha undagi tasvirlar eramizdan avvalgi 3 ming yilcha oldin ishlangan. Taxtachadagi tosh haykallar nimalar haqida hikoya qiladi? G‘olib jangchi dushmanlardan birining sochini ushlab turibdi, boshqalar qochib ketishmoqda. G‘olib jangchining qudratini ko‘rsatish uchun uni paxlavon qilib tasvirlashgan. Lochin shaklidagi hudo arqon bilan boshini ushlab turib g‘oliblar asirlarni qo‘lga tushirganlar, degan ma’noni bildiradi. G‘olibning boshida Janubiy podshoxlik toji bor. Lochin o‘tirgan papirus shoxlari del’tani anglatadi. Taxtachaning orqa tomonida podsho, boshqa taxtda Shimoliy podshoxlik taxtida tasvirlangan.

Piramidalar qurilishi.

Misrda piramidlar va maqbaralar qurilishi podshoning hukmdorligini qanchalik kuchli bo'lganidan dalolat beradi. Bu maqbaralarga vafot etgan fir'avnlar dafn etilar edi. Eng katta piramida eramizdan avval 2600 yil avval Memfis yaqinida fir'avin Xeops uchun qurilgan. Piramidaning balandligi 150 metr, uning atrofini aylanib chiqishi uchun 1 km yurish kerak. Uni ko'rishga 2300 xarsang tosh ketgan. Toshning eng kichigi 2 tonna keladi ulkan Sfinks Piramidalar yaqinida butun bir g'oyadan Sfinks-sher boshli juda katta haykal o'yib ishlangan. Fir'avinlarning biri Sfinks shaklida tasvirlangan, haykalning balandligi 20 metrdan ortadi. Tosh paxlavon shunday qurquv uyg'otar ediki, daxshat otasi deb atashardi. Bu ulkan piramidalar va Sfinks misrliklarga fir'avinlar oddiy odamlar emas, balki qudratli hudolardir degan fikrni singdirilishi lozim edi. Bu piramidalar hozir xam fir'avinlar hokimiyatining guvoxi sifatida kad ko'tarib turibdi. Piramidalardan topilgan haykalchalar fir'avin taxtda (qadimgi Misrdagi haykalcha), jangchidardan kochayotgan churi (qadimgi Misrdagi haykalchalar), qadimgi Misrdagi tibbiyotda ishlatiladigan bronza asboblari, koxinning qadimgi maqbaradagi haykalchasi, nazoratchining maqbaradagi haykalchasi, Fir'avin Tutanxomonning oltin tobuti (unda marxumning yuzi tasvirlangan), amaldorning yegochdan ishlangan haykalchasi. Misrda maqbaralarga uning egasining toshdan o'yib yoki yegochdan kesib ishlangan haykalchalari kuyilgan. Mirsliklarning e'tikotiga karaganda, ruh haykalchaga xam joylashib olar ekan. Marxumni ulug'vor bir qiyofada tasvirlaganlar, marxum ulganidan keyin xam, hayot vaktida qanday bo'lgan bo'lsa, shunday bo'lib kolishi, fir'avin bo'lib kolishi kerak ekan. Birok barcha haykalchalarning yuz qiyofalari xar xil bo'lgan; Misrlik haykaltaroshlar insonning kuz qiyofasini tasvirlashda katta mahoratga erishganlar. Xaykallarning hayotiyliigi yana shu tufayli kuprok ortganini, ularni bo'yoqlar bilan buyaganlar, ularga billur va rangli toshlardan kuzlar xam yasaganlar. Maqbaraga kiruvchiga shunday tuyuladiki, bir necha ming yil ilgari yasalgan haykalcha emas, balki yirik odam qarab turgandek bo'ladi.

Yevropaning janubida Bolqon yarim oroli bo'lib, uning janubiy qismi uncha katta bo'lmagan tog'lik mamlakat - Gretsiya joylashgan. Gretsiyada temir, mis, kumush, marmar konlari uchrab turadi. Arxeologik tekshirishlar shuni isbotlab beradiki, eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarda qadimda, Yevropada 1-sinfy jamiyat va davlat tashqil topgan, fan va madaniyat ancha taraqqiyotga erishgan.

Gretsiyada IV-V asrlarda arxitektura juda rivojlangan bo'lib, qadimda portiklar yog'och ustunlar ko'tarib turadigan. Oddiy bostirmalardan iborat bo'lgan. Portiklar oftob nuridan saqlagan va shabada esib turishiga xalaqit bermagan. Keyinchalik yog'och ustunlar o'rnini tosh va marmardan ishlanadigan

bo'lgan. Ustunlar 2 uslubda ishlangan. Doriy va Ioniya uslubida. Greklar binolar ko'rishda tosh ustunlar va yurtiklardan foydalanganlar. Eramizdan avvalgi V-IV asrlardali haykaltaroshlar yog'ochni, toshni, marmarni yo'nib ishlaganlar, bronzani kuyganlar. Marmar haykallarini odam badani rangi singari buyaganlar. Bronza haykallariga rangli toshdan kuz yasaganlar. Yog'ochdan ishlangan ayrim haykallar ustiga odam tanasining rangini beradigan fil suyagidan ishlangan yupka plastinkalar yopishtirilgan. Haykallar shu darajada qoyilmaqom qilib ishlanganki, ular tirikdek «Nafas olayotgandek», «hozir gapiradigandek» tuyulardi. Eramizdan avvalgi V asrda haykaltaroshlar odam gavdasining harakat kilib turgan xolatlarini tasvirlashni bilib olganlar. Ular odamlarni yugurayotgan, jang kilayotgan xolatda yoki nayza otayotgan xolatida tasvirlab ko'rsatganlar. Afinalik haykaltarosh Miron ishlagan «Disk otuvchi» haykallarni kurgan kishi xayratga tushadi.

Ellin haykaltaroshlik san'ati.

Qadim doston va afsonalarda aytilishicha, haykaltaroshlar o'z asarlari uchun kahramonlarning kahramonlar, ma'budalarning poetik obrazlarini va butun bir manzaralarini tanlab olganlar. haykaltaroshlar odam gavdasini juda kelishgan qilib tasvirlaganlar. Agar kishining qiyofasi hunuk bo'lsa, ellinlar buni tabiatning xatosi deb hisoblaganlar va o'z ishlarida san'at bu xatoni tuzatishi kerak deb to'g'irlaganlar. Haykaltaroshlar Zevs va Posoydonning sersavlat haykallari qiyofasida grek shahar davlatlarining dono hukmdorlari qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatganlar. Shaharning etiborli joylarida ellinlar o'z vataniga shon-shuhrat keltirgan lashkarboshilar, shoirlar, musobaqa g'oliblari haykallarini o'rnatganlar.

Rim haykaltaroshligi.

Rimliklar Gretsiya va Shark mamlakatlaridan kuplab haykallarni olib kelish bilangina chegaralanmay, marmar va bronzadan ushbu haykallarning nusxalarini xam yaratganlar. qadim zamonlardanok yo'q bo'lib ketgan Grek san'at asarlarini Rim haykaltaroshlari Grek haykaltaroshlaridan o'rganganlar va ularga taxlit qilganlar. Ko'pincha ular imperatorlarni hudolar va afsonaviy kahramonlar sifatida tasvirlaganlar. Rimliklar olimpiya hudolariga siginganlar, ammo ularning nomlarini o'zgartirganlar. Masalan, Zevsni Yupitir deb dengiz hudosi Poseydonni Neptun, Gefstni esa Vulqon deb ataganlar. Imperator g'alabalarni ko'klarga ko'targan ishlangan haykallar Releflar, arklar, ustunlar imperator hokimiyatining hudo tomonidan - yaratilganligi va qurilganligiga ifoda etilishi lozim edi. Rim haykaltaroshlari portretlar yaratishda Grek ustozlaridan uzib ketdilar. Qadim zamonlardanok Rim o'lgan odamlar yuzini Mumdan kuyib maska yasaganlar. Portret haykallar ishlash san'atini rivojlantirganlar. Rimda ishlanan portretlar odam

qiyofasini tashqi ko‘rinishi ifodalabgina qolmay balki uning xarakterini, irodasini, joxilligini ochib berib aniq ifodalaganlar.

Feodal jamiyatning quyida kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi, G‘arbiy Yevropa hayotida muhim o‘zgarishlarga olib keladi. Din o‘z obro‘cini yo‘qota borardi. Mayda hunarmandchilikdan manfakturaga o‘tish, shaharlarning tezlik bilan kengayib rivojlanib borishi yangi qit‘alarning ochilishi va savdo-sotiqning rivojlanishi ijtimoiy hayotini o‘zgartira boshladi. Bu davrga kelib «qirol hokimiyati shahar aholisiga suyanib feodal dvoryanlarning qudratini sindirib tashladi va yirik-yirik aslida millatlarga asoslangan monarxiya tuzdi. Bu monarxiya hozirgi zamon Yevropa millatlari va hoziri zamon burjua» jamiyati taraqqiy eta boshladi. Ana shu taraqqiyot jarayonida yangi dunyoviy san‘at va madaniy kamol topdi. Uz taraqqiyotini XY-XYI asrlarda boshidan kechirgan bu madaniyat tarixda uyg‘onish deb nom oldi. Bu iborani Italiyalik rassom va san‘atshunos Jorj Vazarya Italiyada san‘at uzoq O‘rta asrdan so‘ng yana qaytadan uyg‘onlanligi sababli ishlatgan va asosan Jotto ijodiga nisbatan qo‘llanilgan edi. Keyinchalik esa bu keng mazmunda kasb etib Italiyada, so‘ngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan feodalizm asridan farq qiladigan san‘atni tariflash uchun qo‘llanila boshladi. Uyg‘onish davri o‘z harakatini Italiyada to‘liq namoyon etib qaror taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

1. Uyg‘onish arafasi davri - protorepessans (XIII-XIV asrlar).
2. Ilk uyg‘onish davri - kvatrachento (XV asr).
3. Yuqori uyg‘onish davri - (XV asrning 90 yillari XVI asrning 20-30 yillari).
4. So‘ngi uyg‘onish davri (XVI asrdng ikkinchi yarmi).

Tasviriy san‘at. Tasviriy san‘atda sodir bo‘lgan xususiyatlar xam me‘morchilikdagi ulug‘vorlikka umumlashgan obrazlar yaratish hamda mahoratlashtirishga harakat kilishda namoyon bo‘ldi.

Leonardo da Vinchi (1452-1529). Vinchi kishlogi yaqinida natarius oilasida dunyoga keldi. Leonarda 17 yoshida otasi Florensiyaga ko‘chib o‘tadi. Shu yerda Leonardo Andrea Veroniko ustoxonasida tasviriy san‘at borasidagi bilimini oshirdi. U o‘z ustozini Verokkioga yordamlashib uning «Isoni chukintirish» (tax. 1476 yil Florensiya galeriyasi) asarining chap tomonidagi farishta rasmini ishladi va ustozidan ham moxirligini ko‘rsatadi. Leonardo san‘atning ko‘pgina turlarida o‘z kuchini sinab ko‘rdi. Matematika, mexanika, fizika sohasida ilgor fikrlarikk ilgari surdi Uning uchun san‘at hayotni bilish vositasi bo‘ldi. Rassomning «Gul ushlagan Madonna» asari,

hayotni o'rganish zaminida yuzaga kelgan qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asarlaridir. Leonardo da Vinchi me'mor sifatida xam Milanda bir kator san'at proektlari ishladi «Gordagi Madonna» (1483-1484), «Sirli oqshom» (1495-1497) kabi asarlarini Milandagi «Sant Mariya della Gratsiya» monastri uchun ishlangan sur'ati uni navator rassom darajasiga ko'taradi. Milan Fransiya qo'shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florensiyaga kaytib keladi. Bu yerda mashhur «Mono Liza» (Jakonda) asarini ishlaydi. «Mono Liza» portreti (1503) jahon rangtasviring mashhur yodgorligidir. Bu portret bilan Yevropa san'atida chuqur psixologik portret san'ati boshlanadi. Rafael Santi (1483-1520) Leonardoning kichik zamondoshi bo'lib, oddiy rassom Javanniy Santining farzandi edi. Rafael rassomlik asoslarini dastlab otasidan o'rgandi, so'ngra urbinalik rassom Timoteo Viti ustaxonasida davom ettirdi. 1500 yili Perujino ustaxonasida o'z bilimini oshirdi. U ilk asarini 17 yoshida ilk asari «Konstebel Madonnasi» (1500) rassom ijodining ilk namunasidir. Perudjiyada 4 yilga yaqin bo'lgandan so'ng Rafael yana Urbinaga kaytdi va bir ozdan keyin Florensiyaga keldi. Bu yerda o'zining mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan «Madonnalar» obrazini yaratdi. Uyg'onish davrining ijodkorlardan biriga aylandi. XVI asr boshlariga kelib Rim Italiyaning muhim siyosiy va madaniy markaziga aylanadi. Rafaelni xam 1508 yili Rimga taklif qildilar. Shu paytdan boshlab Rafael ijodining eng gullagan davri boshlandi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shaxsiy xonalarining devorlarini bezash topshirildi. Rafael bu ishni muvaffakiyatli bajardi va bundan xursand bo'lgan papalar unga yana xonalarni bezash va unga devoriy sur'atlarni ishlashni topshirishdi. U o'zining ajoyib dekorativ ustasi sifatida ko'rsatdi. Bu sur'atlar papalarning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish, ozodlik va mustaqillik uchun olib borilayotgan kurashni ko'rsatishi, yukolib borayotgan cherkov obrusini qayta tiklash va mustahkamlashi zarur edi. Rafaelning yana bir mashhur devoriy sur'atlaridan bu «Iliadorning kuvilishi» kompozitsiyasidir, Rafael Rimda bo'lgan kezlarida yana bir mashhur «Sikst Madonnasi» (1515-1519) asarini yaratdi. Bu sur'at avliyo Sikst cherkovi uchun mo'ljallangan. Bu asarda rassom uz manfaatini xalk manfatidan ustun kuyadigan ideal inson obrazini yaratib, uz davrining kishilarini gumanistik ideallarini poetik talqin eta oldi. Rafael ijodining so'nggi yillarida rassomchilik bilan birga me'mor sifatida xam ijod qilgan.

Mikelanjlo Buonarotti (1475-1564). U san'atning ko'p turlarida, jumladan haykaltaroshlik, me'morchilik rassomlikda ijod qilgan, lekin u san'atning qaysi turida ijod qilmasin shakliy jihatdan tugal, g'oyaviy jihatdan chukur badiiy jihatdan go'zal asarlar yarata oldi. Mikelandelo 70

yillik faoliyati davomida san'at maydonida davr ruhi bilan xamnafas asarlar yaratildi. Shu boisdan ham u asarlarida davrning yuksak idellarink bilan bir qatorda, bu ideallarning inqirozga yuz tuta boshlaganini ham nozik xis etgan holda ko'rsata oldi. Mikelanjelo 1475 yili 6 martda Florensiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi. Uning yoshligi Florensiyada o'tdi, 13 yoshida u Florensiyalik Demaniqo Girlandio usaxonasiga o'qishga kirdi. Uning qobiliyati va yuksak iste'dodi Florensiya hokimi Lorenzo Medchuni o'ziga tortdi. Uni Medichilar saroyi koshidagi badiiy maktabga o'qishga olishdi. Saroyda yosh rassom antik dunyo san'ati namunalaridan tanishdi va ulardan ko'chirmalar ishladi. Saroyda bo'lib turadigan mashhur shoir, rassom haykaltarosh va me'morlar yig'ilishida voqif bo'lishi san'atkor dunyokarashi rivojlandi. San'atkorning birinchi mustaqil ishlagan asari «Zina oldidagi Madonna» (1492), «Kentavrlar jangi» (1494), Rimda yaratilgan «Peta» (Isoga aza tutish 1498-1501) haykali Mikelakjeloga xakikiy shuxrat keltirdi. 1501 yili Mikelanjelo Florensiyaga qaytada va shu yerda mashhur «Dovud» haykali ustida ish boshlaydi va nihoyat 1504 yili bu haykal Florensiyaning bosh maydoniga o'rnatiladi. Mikelanjelo o'zini haykaltarosh deb hisoblar edi, lekin rangtasvir san'atida ham o'z zamondoshlaridan uzib ketardi. 1503-150 yillarda yaratgan «Muqaddas oila» asarning mazmuni yanada chuqurlashishi va ta'sirchanligini ortirishida katta ahamiyatga ega. Uning 1513-1516 yillarda ishlagan «Zanjirband qul», «O'layotgan qul», «Ibrohim» haykallari, «Qiyomat qoyim» (1514) asarlarini yaratdi. Mikelanjelo ijodi o'z davrida va o'zidan keyingi davr san'atkorlariga kuchli ta'sir qildi.

O'rta Osiyo san'ati.

O'rta Osiyoda dastlabki O'rta asr elementlari va quldorlik tuzumi inqirozi VIII-IX asrlarda boshlandi. Ko'chmanchi turkiy qabilalarning tez-tez hujumi Kushon imperasining inqiroziga yuz tutishiga olib keldi. Eftaliylar O'rta Osiyo yerlarini o'z hukmdorligiga bo'ysindirish davrida yangi tuzumga o'tishi yanada tezlashdi. Bu Oltoy, Yettisuv, Markaziy va O'rta Osiyoda yashovchi juda ko'p xalqlarni birlashtirdi. Turk hoqonligi davrida mayda mustaqqil podisholik paydo bo'ldi. Ayniqsa Shark va G'arb karvon yo'li ustida joylashgan So'g'd madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksak bo'lgan. So'g'd eng katta knyazlik hisoblangan. Samarqand hokimi So'g'd podshosi unvoniga sazovor bo'lgan. Yozuv manbalari IV asrda Samarqand savdogarlarining O'rta Osiyo va uning tashqarisida xam, masalan, buyuk Xitoy devori yaqinidagi Dunxuadi koloniyalar mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Lekin knyazlar urtasida kuchli birlik yuk edi. U albatda, keyin arablarda rakatm bo'lib kolishga sabab bo'lib koladi. Bu davrda ko'plab ibodatxona va hashamatli kasrlar kurila boshlagan. Xitoylik tarixchi Samarqand va Buxoro

o'rtasida qurilgan hashamatli bino hammani juda hayratlantirganligi binoning shimoliy devorida bo'yoqlar bilan xitoy imperatorining tasviri; sharqiy devorida turk hoqonlari va Hindiston hukmdorlari; G'arbiy devorida esa eron va Rim podisholari tasviri tushurilganligi haqida aytadi. O'rta Osiyoda quldorlik tuzumi inqirozga yuz tutib o'z o'rnini feodalizmga bo'shatib berdi. Bu tuzum qurilish ishlarida yaqqol ko'rina boshladi.

Ustun, yarim ustun, ark hamda turli dekorativ me'morlar hajmlarida podisho saroyining xushmanzara va muxobatli bo'lishida foydalanilgan. Bu binolar xom g'isht paxsadan ishlangan bo'lib ganch bilan bezalgan. Ganch, yog'och o'ymakorligi binoga fayz kiritgan. Ilk feodaliz davrida O'rta Osiyoda yagona din bo'lmagan jumladan, Fargona vodiysi Quvadan topilgan ibodatxona xarobasi ilk feodalizm davrida ham bu yerda buddizm mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu yerdagi ibodatxona ikki xonadan iborat bo'lib, oldi xonasi ayvon tepada va unga kiraverishda haykallar o'rnatilgan. Xorazmda topilgan ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan Ossuriy bo'lgan deb nomlangan to'rtburchak quticha shaklidagi loydan yasalgan tobutchalar bu yerda zorastrizm mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Dumaloq va bo'rtma tasvir shaklida me'morchilik komplekslaridan keng ishlatilgan. Bu haykalalarda diniy va afsonaviy obrazlar bilan bir qatorda real hayotni aks ettiruvchi obrazlar ham uchraydi. Haykallar maxsus loydan tayyorlangan, yog'och, ganch va toshdan ishlangan. Bu xususida Varaxshadan topilgan yodgorliklar diqqatiga sazovordir. Varaxshadagi saroyni bezashda ganch o'ymakorligidan keng qo'llanilgan. Albatta ilk feodalizm madaniyatining ilk yutuqlari monumental dekorativ rangtasvir san'atida o'zini to'liq namoyon qildi. Afrosiyob (Samarqand), Panjikent (Tojikiston), Varaxsha (Buxoro viloyati), Bolalik tepa (Surxandaryo viloyati)da topilgan, Devoriy sur'atlar va haykaltaroshlik namunalari jahon monumental rangtasvir san'atining nodir durdonasi hisoblanadi. O'rta Osiyo jahonga qator buyuk allomalar yetkazib berdi. Ular o'z mehnat va aqil zakovatlarini bilan jahon ilmi fan taraqqiyotiga katta xissa qo'shdi. Al-Xorazmi, Abu ali Ibn Sino, Al-Beruniy, Al Farobiy, Al Buxoriy, Naqshbandiy; Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Nodirabegim, Zebinosi kabi alloma va shoirlarni yetkazib berdi. Amir Temur davrida O'rta Osiyoda ilm fan san'at gullab yashnadi. Me'morchilikda har o'zgarishlar yuz berdi. Afrosiyob yonbag'rida joylashgan Shoxi-Zinda Bibixonim madrasasi Go'ri Amir Maqbarasi Registondagi Ulug'bek madrasasi fikrimizga dalildir. Ulug'bek falakiyot rivojlangan bo'lsa, Xusayin Bayqaro podisholigi davrida adabiyot va san'at rivoj topdi.

Haykaltaroshlik san'atining asari o'lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini iste'dodli ijodkorlar Damir Ro'ziboev, Abdumo'min Boymatov, Joldasbek Quttimurotov, Ilxom Jabborov, Anvar Ahmedov, Eynulla Aliev, Ulug'bek Mardiev kabi haykaltaroshlar faoliyatida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Haykaltarosh Ilxom Jabborov yangilanish va uyg'onish davrida Buyuk sarkarda Amir Temur obrazini yaratdi. Turli yillarda haykaltaroshlar tomonidan «Farhod» «Ibn ino» «Forobiy», «Navoiy va Jomiy», «G'ofur G'ulom», «Alisher Navoiy» «Beruniy», «Bobur», «Hamid Olimjon» kabi buyuk mutafakkir olim, davlat arboblarning siymolari yaratildi.

Tayanch tushunchalar.

Garmoniya – nafislik.

«**David**» - afsonaviy qahramon.

Gattamelatta - shu davrning jangchi qahramoni.

«**Madonna**» - Bibi Maryam.

Grafika - sana'tning keng tarqalgan turlaridan biri. Bu san'atga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzuli kompozitsiya, kitobga ishlangan turli suratlar, bezak rasmlardir.

Gravyura - grafikaning bir turiga kiradi.

Mikelandjelo Buanorotti (1475-1564) Haykaltarosh, rassom, me'mor va shoir. Yuqori va so'ngi uyg'onish davrida ijod etgan. Badiiy ta'limni Florensiyada olgan. (Italiya).

Miron (er.av. V asrning birinchi yarmi, Yunoniston) haykaltarosh. Uning eng mashhur asari «G'olib atletlar» haykali.

Kentavr - yarim odam, yarim ot ko'rinishidagi afsonaviy hayvon.

Pegas - Kanotli ot.

Timpan - deraza, eshik tepasida koldirilgan yarim ark ichidagi yuza.

Sfanks - odam boshli, sher tanali afsonaviy hayvon.

Terrokota (Italyanacha) - pishirilgan loy. Haykaltaroshlik san'atining ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Pedestal - haykal va haykalchalar gruppasi o'rnatiladigan shoxsupa.

Relief (fransuzcha)-relf dumalouk haykal-taroshligidan farqlanib, yuzaga uyib ishlanadi va bir tomondan ko'rish mumkin.

Nefertiti - firavn Exnotonning rafikasi.

Afrodita - (grek mifologiyasida, rimliklarda Venera ataladi). Go'zallik va muxabbat ramzi.

Appalon - quyosh va san'at hudosi.

Kapitel - ustunning yuqori qismi bezagi.

Monumental - maxobatli yirik san'at asari.

Savollar:

1. Uyg'onish davri san'ati deyilganda qaysi davr san'ati tushuniladi?
2. Protoressans nima va bu davrda qanday rassomlar yashab ijod qilgan?
3. Renessans davrining qanday yirik san'atkorlarini bilasiz?
4. Ularning san'at taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini nimada?
5. Haykaltaroshlik tasviriy san'atning turi.
6. Qadimgi Misr va Yunonistonda ilk haykaltaroshlik.
7. Uyg'onish davrida Italiya haykaltaroshligi (Donotello, Mikelandjelo Buanorotti va boshqalar).
8. Qadimgi Turkistonda haykaltaroshlik (Tuproq qal'a, Xalchayon, Varaxsha, Afrosiyob).
9. Hozirgi zamonaviy o'zbek haykaltaroshlari ijodi.

MAVZU: XVII-XVIII ASRLARDA YEVROPA SAN'ATI*REJA:*

1. Gollandiya, Flandriya, Italiya, Ispaniya rassomlarining hayoti va ijodi. Shu davrlarda yangi kirib kelgan oqimlar klassitsizm, barokko, rokoko.
2. XVII – XVIII asrlarda yevropa san'ati.
3. XVII-XVIII asrlarda italiya san'ati.
4. XVII - XVIII asrlarda ispaniya san'ati.
5. XVII - XVIII asrlarda fransiya san'ati.
6. XVII asrda flamandiya san'ati.

Ilm-fan taraqqiyoti, jug'rofiy kashfiyotlar, yangi qit'alar, dengiz yo'llari xalqlarning o'zaro aloqasi jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Jahon xalqlarining ijtimoiy hayoti faollashdi. Yevropa mamlakatlarida taraqqiyot birmuncha tezlashdi. Ular ko'pgina o'lkalarni bosib olib, o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya va boshqa Yevropa mamlakatlari uchun arzon xomashyo, ishchi kuchi va yangi bozorlar ochilib, ular tez rivojlana boshladi. Bu davrda Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya qit'alarida ham qator ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, Sharq mamlakatlarida an'anaviy san'at va madaniyat turlari bilan bir qatorda, san'atning yangi tur va janrlari yuzaga keldi. Amaliy bezak san'atiga yangi davr texnologiyasi joriy qilina boshladi. G'arb va Sharq san'ati an'analari uyg'unligida yangi san'at yo'nalishlari shakllandi.

Jahon ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida ro'y bergan bu o'zgarishlarda Yevropa muhim o'rin tutadi. Chunki Sharq va G'arbning san'at sohasidagi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan Yevropa qit'asida feodal jamiyati qoloqligiga, ijtimoiy hayotda dinning hukmron bo'lib qolishiga qarshi chiqish boshlandi. Bu esa yangi munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Xususan, Niderlandiya va Angliya bo'lib o'tgan xalq g'alayonlari O'rta asr tartibi va diniy cherkov hukmronligiga zarba berdi. Gollandiya Yevropada namunali kapitalistik davlat tarzida rivojlana boshladi. Lekin feodalizm Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida o'z hukmronligini saqlab qolaveradi. Jumladan, Fransiya va Ispaniyada markazlashgan absoyut monarxiyalar vujudga keldi. Italiya va germaniyada feodal tarqoqlik hukm surdi. Xalq absolyut monarxiya zulmiga norozolik bildirib, bosh ko'tardi. Ilg'or ziyolilar, ma'rifatparvarlar bu qarashlarni qo'llab-quvvatladilar. Ular feodalizm qoloqligini qoraladilar, fikr erkinligi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi kuchlarga qarshi chiqdilar. Italiya, Fransiya, Ispaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida

eski tuzumga qarshi noroziliklar, xalq g'alayonlari kuchaydi. Bu XVIII asr oxiriga kelib, feodalizmning uzil-kechil inqiroziga sabab bo'ldi. Ijtimoiy munosabatlar o'zgardi, uning yangi shakllari yuzaga kela boshladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kurashning kuchayishi san'at va madaniyatning ijtimoiy hayotda mavqeini oshirdi. Dvoryanlar va cherkov san'at va madaniyatni o'z manfaatlariga bo'ysundirishga harakat qildilar. Lekin jamiyat taraqqiyotini orqaga burish mumkin emas edi. Ziddiyat yanada keskinlashb bordi. shular zamirida san'atning mafkuraviy kurashdagi roli ortib, uning uslubiy rang-barangligi kengayib bordi.

XVII-XVIII asr Yevropada kapitalistik munosabatlarning avj olishi va feodalizmdan kapitalizmga o'tish jarayonining tugashida so'nggi bosqich bo'ldi. Ijtimoiy hayotdagi bu o'zgarishlar bevosita san'at taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Fan, san'at va madaniyat gurkirab o'sa boshladi. San'atda real hayotni tasvirlash rivojlandi. Ozodlik g'oyalari, shakllanib kelayotgan burjua parokandaligini, feodalizm kirdikorlarini ochib tashlash bu davrda ko'pgina san'atkorlar asarlarining G'oyaviy mazmunini belgiladi. San'at majmuasining kengayishi uning yangi tur va janrlarini maydonga keltirdi. Portret, natyurmort, manzara, maishiy janr ko'p san'atkorlarni o'ziga torta boshladi. Haykaltaroshlikning yangi ifoda vositalarini izlab topdilar, gravyura san'ati shakllandi. Sotsial kuchlarning o'zaro kurashining rivojlanishi esa san'atda turli g'oyaviy badiiy oqimlarni vujudga keltirdi. Shunday uslublardan biri barokko oqimidir. Barokko uslubida yaratilgan san'at asarlarida hayot mohiyati kurash harakati orqali aks ettiriladi. Unda ekspressiv chiziqlar va yorug' soyalar o'ta keskin formada olingan bo'lib, ular asar kompozitsiyasining ta'sir kuchini yanada oshiradi. Italiyalik rassom L.Bernini haykallarida, me'mor Borromining binolarida, flandriyalik rassom P.Rubens kartinalarida barokko uslubining o'ziga xos tomoni namoyon bo'lgan. Klassitsizm oqimida esa hamma narsa xotirjam va ulug'vor. Uning namoyandalari uyg'onish davri ijodkorlari singari antik va yuqori uyg'onish davri an'analarini qabul etib, uni rivojlantirishga harakat qiladilar. Lekin shu bilan birga klassitsizm vakillari o'tmish san'ati badiiy shakl va obrazlarini o'zlari yashab turgan davr mazmuni bilan to'ldirishga, boyitishga harakat qildilar. Bu o'rinda Nikola Pussen asarlari, Klod Lorren manzaralari, Jak Sufflo binolari diqqatga sazovordir. Klassitsizm oqimi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmigacha davom etdi va o'zida davr ruhini ifodaladi. XVII-XVIII asr realistik san'atning yetakchi o'ringa chiqishi bilan izohlandi. Bu davrda yaratilgan asarlarda inson o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'la boshlaydi. Uning hayoti, his-tuyg'ulari, hayotga bo'lgan estetik munosabati san'atkorlar ijodida o'zining badiiy ifodasini topa boshlaydi. Ispaniyalik rassom Diego Velaskes, Gollandiya rassomlari - Rembrant va Frans

Xals, italiyalik rassom Karavadjo, fransuz rassomi Sharden va boshqalar ijodida bu o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Inson go'zalligi, uning olijanoblighi va yuksak ma'naviyliги Rembrant asarlarining mohiyatini tashqil etadi. Uning asarlaridagi chuqur falsafiy mazmun kishi qalbiga quvonch baxsh etadi. Rembrant rangtasvir va ofort sohasida, qanday mavzuda (diniy, hayotiy) ishlashdan qat'iy nazar insonni kuylashga, uning ma'naviy pokizaligini va jismoniy go'zalligini ochishga intiladi. Insonlar orasidagi nozik munosabatlarni tasviriy san'at vositasi orqali keng tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Rembrant umrining so'nggi yillarida yaratgan "Oqpadarning qaytishi" asarida hayot va inson to'g'risidagi tushunchalar o'z hayotiy tajribalariga tayanib, ota oyoqlariga yiqilgan o'g'il obrazi orqali hayotning murakkabligi, uni bilish va unga to'g'ri yo'l topa olish nechog'lik og'ir ekanligini ochib beradi. Boshiga og'ir kun va tashvishlarni solishiga qaramay o'z o'g'lini bag'riga bosayotgan ota obrazi orqali mehribon, insonlarga faqat yaxshilik istagan mo'tabar inson qiyofasi gavdalanadi. Bu asrlardan boshlab inson mehnati go'zalligi san'atkorning diqqatini torta boshladi. San'atkorlar mehnat mavzusida yirik asarlar yarata boshladilar. Yevropa san'atida Diego Velaskes birinchi bo'lib, mehnat go'zalligini shoirona, ko'tarinki ruhda talqin etdi. Uning "Gilam to'quvchilar" deb nomlangan asari ana shunday asarlaridan dastlabkisidir. Rassom oddiy kundalik hayotda insonlarning xotirjam mehnati orqali ularning baxt haqidagi orzularini ko'ra oldi. Kompozitsiyada kishilarning tabiiy holdagi xotirjam mehnati, ularning jismoniy baquvvat gavdalari ishonarli talqin etgan. Xonani to'ldirib turgan nur esa bu tinch osoyishta hayot go'zalligini yanada bo'rttiradi.

XVII-XVIII asrda ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar me'morchilik oldiga ham qator muammolarni qo'ydi. Bu davrdan boshlab cherkov qurilishi hajmi kamaydi, uning o'rnini fuqaro me'morchiligi egallay boshladi. Shahar loyihalashtirilishiga alohida e'tibor berila boshlandi, shaharda me'morchilik ansambllari paydo bo'ldi. Turmushda go'zal buyumlarga intilish kuchaydi. Tevarak-atrof go'zalligiga e'tibor berish, bog'-park san'atini maydonga keltirdi. U bilan birga dekorativ haykaltaroshligi ham rivoj topdi.

XVII – XVIII asrlarda yevropa san'ati.

Bu davrda Yevropa san'ati avvalgi an'analar, eng avvalo, Uyg'onish davri an'analari zaminida kamol topdi. Unda ham inson, uning jismi, xis-tuyg'u, hayol-o'ylari, orzu-istaklari ifodasi asosiy mavzu bo'ldi. San'atkorlar bu davrda inson qiyofasini yanada haqqoniy ko'rsatishga, uning ruhiy xolatidagi murakkabliklarni va uning yangi qirralarini yoritishga intildilar. Inson hayoti, uning turmush tarzini to'laqonli talqin etish shu davr asarlari uchun muhim yo'nalish bo'lib qoldi. Hayot murakkabligi, uning ichki ziddiyat va kurashlari

rassom va haykaltaroshlar nazaridan chetda qolmadi. Ozodlik, tenglik g'oyalari kuylandi, shakllanib kelayotgan burjuaziyaning kirdikorlari tanqid ostida olindi. San'at sintezi masalasi bu davrga kelib yangicha talqin etila boshlandi. Tabiat reliefi shu davrda yaratilgan me'morlik majmualarida hisobga olindi. Me'morlik binolari ko'cha, maydon va tabiat bilan yanada uyg'unlashdi. Suv kaskadlari va favvoralariga qiziqish ortdi. Endilikda san'at turi va janrlari orasidagi nisbatlar ham o'zgardi. Uning yangi tur va janrlari yuzaga keldi. Mavjud an'anaviy syujetlar bilan birga, hayotiy voqealarga bag'ishlangan asarlar ham keng miqyosda badiiy hayotga kira boshladi. Maishiy, manzara va natyurmort janrlari mustaqil san'at turlariga aylandi. Insonning ichki dunyosiga qiziqishning ortishi portret san'atini yangi pog'onaga ko'tarilishiga olib keldi. Grafika rivojlandi. Haykaltaroshlik imkoniyatlari yanada ortib u me'morlik ansambllariga keng ko'lamda kirib keldi, park-bog' san'atida keng qo'llanildi. Dekorativ rangtasvir intererlarning komponenti sifatida davr ruhini aks ettiruvchi muhim vositaga aylandi. Bu davrga kelib, ijodiy metod, san'atning badiiy tili ham boyidi, rang-baranglik kasb etdi. Yaratilgan kompozitsiyalarning hayotiy va tabiiy ko'rinishiga erishish uning emotsional jihatini oshirishda muhim omil bo'ldi. San'atkorlar ijo dida rang, nur-soya, faktura masalalari muhim o'rinni egalladi. Albatta, bu davrda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy kuchlari bir xil darajada emas edi. Bu davrda madaniyatda qator g'oyaviy-badiiy yo'nalishlarining paydo bo'lishi, avvalo ayni shu .xodisa bilan bog'liqdir.

XVII asr "Barokko asri" deb ham yuritiladi. Bu esa, bejiz emas. Chunki davrning g'oyaviy-estetik qarashlari ayni shu uslubda ko'proq o'z ifodasini topdi. San'at tarixida XVII asr me'morchiligining o'ziga xos jihatlarini ta'riflash uchun qo'llanilgan, keyinchalik tasviriy san'atga nisbatan ham ishlatila boshlangan barokko uslubining belgilari dastlab Italiyada paydo bo'lgan. Vinola, Palladio me'morlik asarlarida, Mikelanjelo haykallarida, Korrejo dastgoh va dekorativ rangtasvirlarida shu tamoillar namoyon bo'lgan. Barokko uslubiga xos dekorativlilik, nur-soya o'yiniga e'tibor berish va his-hayajonga to'la asarlar yaratish tamoyillari tezda ko'pgina san'atkorlarni o'ziga jalb eta boshladi. Bu xususiyat G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yoyildi va mahalliy san'at uslubi va an'analari ta'sirida o'ziga xos milliy ruh kasb eta bordi. Jumladan, Ispaniya va Portugaliyada barokko nihoyatda hashamdor, jimjimador edi. Buning sababi, bu yerda mahalliy naqqoshlik san'ati ravnaq topganligidadir. Germaniyada esa barokko gotika ta'sirida rivojlanganligi seziladi. Flandriyada "flamand barokkosi" shakllangan bo'lsa, Fransiyada barokko klassitsizm tamoyillari ta'sirida namoyon bo'ldi. Barokko Angliya, Skandinaviya mamlakatlari, keyinroq, esa Rossiyaga ham kirib keldi.

Barokkoga xos fazilatlar Rim me'morligida o'zining klassik ko'rinishiga erishdi. Barokko intererlarida dekorativ ranggasvir, haykal va kolonnalar muhim o'rinni egallaydi. Ular xonalarga badiiy mazmun kiritadi. Tasviriy san'atda barokko ko'proq diniy mavzudagi asarlarda o'zini namoyon qildi. Iso va avliyolarning azob chekishlari, ularni butga mixlash, Bibi Maryamning aza tutishi kabi voqealar barokko uslubida ishlangan asarlar uchun mavzu bo'ldi. Asarning dramatik ekspressiv holati tasvirlanuvchilarning murakkab rakurslarida, nur-soya qarama-qarshiligi va serharakat kompozitsiyada ifoda qilinadi. Fazoviy kenglik masalasi ham o'ziga xos talqin etiladi. U kompozitsiyada yagona majmua tashqil etuvchi omil vazifasini bajaradi. Rang surtmalari ham muhim ifoda vositasi sifatida ishtirok etadi. Agar klassik va Renessans san'atida chiziq muhim o'rin to'tgan bo'lsa, endilikda rang surtmalari, ularning erkin ishlatilishi kompozitsiya dinamikasini oshiritsda muhim o'rin egallab, asar badiiyligini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, kompozitsiyada uzoq va yaqindagi buyumlarni tasvirlashga, obrazlarni murakkab rakurslarda joylashtirishga e'tibor beriladiki, (masalan, uchib ketayotgan, tepadan shiddat bilan tushayotgan kabi), bular ham barokko asarlariga xos jo'shqinlik va harakatni gavdalantirishga xizmat qiladi. Barokko uslubida diniy mifologik syujetlardan tashqari, tarixiy va maishiy mavzularda yaratilgan kompozitsiyalar ham mavjud. Lekin ularda reallik va noreallik qorishib ketadi. Ular bezovtalik, hayajonli va romantik ko'rinishda ifoda qilinadi.

XVII asrga xos yana bir yirik badiiy uslub klassitsizm Fransiyada paydo bo'ldi. Uning vakillari aql-idrokni san'atga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yagona mezon, deb hisoblashgan. Aql-idrokni his-hayajonga qarshi qo'yishgan. Ularning fikricha, aql kuchi bilan yaratilgan asargina haqiqiy san'at asari hisoblanadi.

Klassitsizm uslubi tarafdorlari ham Uyg'onish davri san'atidan ilhomlandilar. Ular ham ideal obrazga murojaat qiladilar. Shakllarning aniq va elastik tugal, kompozitsiyalarning jiddiy muvozanatli va mantiqiy bo'lishiga e'tibor berdilar. Antik davr mifologiyasi, Tavrotga murojaat qilib, ulardagi syujetlar orqali o'z davrlarining etik-ahloqiy va siyosiy muammolarini ko'tarishga harakat qildilar. Klassitsizm san'atida ham umumlashma asar yaratish asosiy muammo hisoblangan. Lekin barokko vakillari yirik umumlashma mavzudagi asarlarni dinamik kompozitsiyada ifoda etsalar, klassistlarning asarlari birmuncha vazmin, ritm va plastik musiqiylikka intilish asosida yaratiladi. Bu asrga kelib san'at asarlari oliy va kichik janrlarga ajratildi. Tarixiy, mifologik va diniy mavzuda yaratilgan asarlar oliy, komediya, satira va xalq maishiy hayotini aks ettiruvchi janrlar kichik yoki quyi janrlarga ajratilishi

shu davrga xos mafkura maxsulidir. Klassitsizm uslubining o'ziga xos jihatlari dastlab XVII asrning ikkinchi yarmida Italiyada me'morlar Vinola va Palladio ijodida sezila boshlandi. Klassitsizmga xos xususiyatlar me'morlikdagi shakllarning geometrik aniqligi va ritmi, mantiqiy rejalashtirilishi va keng ko'lamda antik me'morlik shakllaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Klassitsizm uslubida ishlangan me'morlik kompozitsiyalarida order tizimi muhim rol o'ynaydi. Me'mor ko'pincha order va ularning nisbati hamda shakllarini antik davrdagiga xos ifodalashga harakat qiladi. Bunda interer ham harakterli. Unda ham yaxlitlik va ulug'vor tantanavorlik mavjud bo'lish kerak. Kolonna va devor yuzasi tekisliklari ritmi bu yaxlitlik va tantanavorlik ko'rinishiga xalaqit bermasliti lozim. Mahobatli rangtasvir esa me'morlik yechimining yetakchiligiga xalaqit bermasligi, mayin va nafis ranglar gammasi xonaning ulug'vor va bahavo ko'rinishiga xizmat qilishi lozim. Klassitsizm shahar qurilish san'atida ko'proq Renessans va barokko uslubi tamoyillaridan ijobiy o'zlashtirgan tarzda ko'rindi va rivojlandi. Tabiat ko'rinishlari me'morlik kompozitsiyalarida, majmualarida hisobga olinib, klassitsizmning talablari asosida o'zlashtirildi. Tasviriy san'atda klassitsizmning o'ziga xos jihatlari mavzu tanlashdan tashqari, chiziq plastikasi va faktura harakteriga e'tibor berishda ham ko'rinadi. Chiziq-lar-ning musiqiyli-gi va tugalligi, fakturaning silliq-ligi klassitsizm uslubida ishlangan asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Klassitsizm o'z taraqqiyotida boshqa uslublardan, masalan, barokko uslubidan ham ta'sirlandi, uning ayrim tomonlarini o'zida uyg'unlashtirdi. XVIII asrda yunon va Rim tarixi bo'yicha qilingan kashfiyotlar, Pompei, Gerkulanum kabi qadimiy shaharlarning ochilishi, nemis olim va san'atshunoslari Gyote va Vinkelmanlarning ilmiy nazariy faoliyat-lari klassitsizm uslub-i rivojlanishga to'rtki bo'ldi. Antik san'atga qiziqish yanada ortdi. XVIII asr oxiri va XIX asrda esa bu uslub jahon san'atida yetakchi badiiy uslublardan biriga aylandi. Nafaqat Yevropa, balki Osiyo, Amerika qitalarida ham shu uslubda asarlar yaratildi.

XVII asrdan boshlab, avvalo, Yevropa san'atida, keyinroq esa jahon san'atida mavjud borliqni to'laqonli aks ettirishga, davr ruhi va mazmunini ochib berishga asoslangan realistik san'at yo'nalishi asta-sekin yetakchi o'rinni egallay boshladi. San'at yangi mavzu, yangi tur va janrlar bilan boyib bordi. Ular yangi tasvir va ifoda vositalarining yuzaga kelishini ta'minladi. Demokratiyaga asoslangan mamlakatlarda bu yo'nalish o'zini yanada kuchlirok namoyon eta boshladi. Milliy burjuaziya madaniyati shakllangan, feodal hukmronligiga qarshi milliy ozodlik yarakatlari kuchaygan mamlakatlarda realistik san'at yo'nalishi birmuncha yetakchi o'rinni egallay boshladi. Jumladan, ispan absolyutizmiga qarshi milliy ozodlik kurashi Gollandiyada realistik san'atning gurkirab yashnashi uchun zamin tayyorladi. Realistik san'at

asarlari kishilarning xis-tuyg'ularini, insonning jismoniy go'zalligi, uning olijanoblighi va yuksak manaviyatini ifodalovchi san'at sifatida shuhrat qozondi. Gollandiyada xalq hayotini to'laqonli aks ettiruvchi maishiy janr paydo bo'ldi, manzara, natyurmort, portret janrlari yuzaga keldi. Rassomlar o'z asarlarida hayotning yangi qirralarini ifoda qildilar. Bu bilan kishilarning estetik idroki yanada boyishiga hissa qo'shdilar. Ularning hayot bilan bevosita aloqador asar yaratishlari rassomlik san'atini yangi pog'onaga ko'tardi.

Albatta, yuqoridagi badiiy-uslubiy yo'nalishlar o'z o'zicha emas, balki bir-biri bilan uzviy munosabatda bo'ldi. Birining ta'siri boshqa birida o'z aksini topdi. Bu o'zgarish va ta'sirlar, eng avvalo, u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumi, tarixiy sharoiti bilan uzviy bog'liq bo'ldi. XVII asrda Italiya, Ispaniya, Flomandiya, Gollandiya va Fransiyada milliy badiiy maktablar mavjud edi, Skandinaviya mamlakatlari, Angliya, Germaniya, Avstriyada esa xali yuzaga kelmagan edi. Bu mamlakatlardagi notinchlik, turli urushlar (30 yillik urush) bunga asosiy sabab bo'ldi. XVIII asrga kelib vaziyat birmuncha o'zgarib, yangi munosabatlar yuzaga kela boshladi. San'at ijtimoiy hayotning dolzarb muammolari bilan uzviy bog'liq holda rivojlana boshladi. Voqelikka tanqidiy munosabatda bo'lish, illatlarni tanqid qilish kuchaydi. Uslublarning o'rni ham o'zgarib bordi. Barokko uslubi o'zining so'nggi rivojlanish bosqichini kechira borib, ko'p joylarda o'z o'rnini rokkokoga bo'shatdi. Realistik yo'nalish esa klassitsizmga qarshi kurashda o'z mavqegini oshirib bordi. Me'morlikda ham o'zgarishlar sezilarli bo'ldi. Cherkov qurilishi kamaydi. Aksincha, uy-joy me'morligi jonlandi. Shaharni rejalashtirish masalasi me'morlikdagi muhim masalalardan biriga aylandi. Turar joylarning yangi tiplari vujudga keldi. Shaharda ma'muriy binolarning majmualari paydo bo'ldi. San'atda san'at sintezi masalasi birmuncha susaydi. Haykaltaroshlik va rangtasvirning mahobatli shakllari o'rnini dastgoh san'ati egallay boshladi.

Amaliy va dekorativ san'ati buyumlarita ehtiyoj o'sdi. XVIII asrga kelib, milliy maktablar ham ko'paya boshladi. Fransiya badiiy maktabi Yevropa san'atida yetakchi o'ringa chiqdi. Angliyada san'at rivojlandi, Italiyada Venetsiya badiiy maktabi, Germaniyada o'ziga xos nemis san'ati ravnaq topib, ular jahon madaniyati taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'ldi. Rossiya ham bu davrga kelib, madaniy taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi.

XVII-XVIII asrlarda Italiya san'ati

XVI asr o'rtalarida Fransiya va Ispaniyaning Italiyani bosib olish uchun olib borgan harbiy harakatlari Ispaniya g'alabasi bilan tugadi. Italiyaning ko'pgina shaharlari uning tasarrufiga o'tdi. XVII asrda Italiya iqtisodiy va siyosiy jihatdan tarqoq mamlakat edi. Biroq undagi hukmron tabaqa vakillari chet el bosqinchilari homiyligida dabdabali hayot kechirish, serhasham, serjilo

binolar, saroy va qasrlar qurish, tantanali karnavallar o'tkazish orqali jamiyatdagi kamchiliklarni yashirishga intildilar. Ular davlat hamon avvalgidek qudratli, xalq tinch, ozod va shodu-xurramlikda hayot kechirmoqda, degan fikrni uyg'otishga harakat qildilar. San'at vositalari orqali o'z obro'larini oshirishga intildilar. Ular cherkov binolari, saroylar, shahardan tashqarida serjilo va serhasham villalar qurdilar. Bu qurilishlar, ayniqsa, katolitsizm markazi bo'lgan Vatikanda serhasham bo'ldi. Papa davlati hasham uchun mablag'ni ayamadi.

Siyosiy jihatdan tarqoq va qaram, iqtisodiy jihatdan qashshoq Italiya XVII- XVIII asr mobaynida Yevropadagi muhim markaz sifatida dong chiqardi. Bu yerda shakllangan va rivojlangan ko'plab badiiy-uslubiy yo'nalishlar Italiyadan tashqarida ham shuhrat qozondi. Rim esa Yevropada badiiy hayotning muhim markazi, baynalminal internatsional akademiya rolini o'ynadi. Antik va Renessans durdonalarini saqlab kelayotgan Rimda kuxna va yangi san'at aralashib, maxalliy va chet el san'ati an'analari ta'sirida o'ziga xos yangi san'at yuzaga keldi. Me'morlikda hajm jihatidan katta, shakl jihatidan serjilo va ko'rkam binolar yaratildi. Intererlar bezakka boyligi, san'at sintezining nozik ko'rinishi bilan o'ziga xoslik kasb etdi. Qurilgan binolar ko'p hollarda gumbazli bo'ldi. Me'morlikda, asosan, barokko uslubi yetakchi o'rinni egalladi. XVIII asr o'rtalarida ayrim ijodkorlar asarlarida klassitsizm tamoyillari sezilsa ham, lekin yetakchi emas edi. Italiya me'morlari shahar ko'cha va maydonlarini qayta rejalashtirish asosida ularga o'rta asr shahar ko'rinishiga xos tugallik va ko'rkamlik kiritdilar. Yangi qurilgan favvora, yodgorlik va zinalar shahar maydonlari badiiyligi va emotsionalligini oshirdi. Shahar tashqarisidagi qurilmalarda tevarak-atrof relefi hisobga olinib, majmualar yaratildi. Tepalik va soyliklarga haykaltaroshlik hamda amaliy san'at asarlari o'rnatilib yagona me'morlik majmuasi vujudga keltirildi. Barokko me'morligida bino old tomoniga alohida e'tibor beriladi va uning dekorativ jihatdan ta'sirchan bo'lishi hisobga olinadi. Rimdagi Del Jezu cherkovi barokko namunasi.

Uni me'mor Jakomo da Vinola (1507-1573) boshlagan edi. Uning vafotidan keyin shogirdi Jakomo della Porta bu ishni tugatgan. Qo'sh plyastr, valyuta, favvora va boshqa qator dekorativ bezaklar va hajmlar binoning old tomoniga o'ziga xoslik baxsh etgan.

San-Karlo cherkovi ham barokko uslubining o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi. Bu binoda ham yuqoridagidek bezaklar mavjud. Yarim aylana, oval, yarim ustun va releflar bino yuzasidagi nur-soya o'yinini kuchaytirib, uning yanada ko'rkam bo'lishini ta'minlagan.

Bu cherkov binosi muallifi, barokko uslubining yirik namoyandasi me'mor Franchesko Borrominidir (1599-1667). U o'z ijodida dekorativ bezaklardan keng foydalanadi. Ba'zida hatto me'yoridan oshirib ham yuboradi. Bu esa u

yaratgan asarlardagi yaxlitlikka salbiy ta'sir qiladi. Me'mor interrlarning badiiy yechimida ham shunday dekorativ bezak va haykallardan keng foydalanadi.

Jovanni Lorenzo Bernini(1598-1680). Barokko san'atining yirik vakili, me'mor va haykaltarosh Bernini Neapol shahrida tug'ildi. Shu yerda otasidan san'at sirlarini o'rgandi. 9 yoshida marmarda odam boshi haykalini ishlab, ko'pchilikni hayratlantirdi. 25 yoshda esa katolik Rimning mahobatli binosi avliyo Petr ibodatxonasining bosh me'mori darajasiga ko'tarildi. U ko'plab me'morlik va haykaltaroshlik asarlari yaratdi. Rassomlik va san'at nazariyasi bo'yicha tadqiqodlar yozdi. Me'morlik loyihalari, ibodatxona va saroylar, qabrtosh yodgorliklari ishladi. Bernini haykaltarosh sifatida ayniqsa mashhur bo'lib, barokko haykaltaroshligining tipik vakilidir. Bernini nodir portret va ta'sirchan ruhiy kompozitsiyalar yaratdi va bezash ishlarida qatnashdi. Rimdagi avliyo Petr soborining oldidagi katta maydon va uni o'rab turgan ustunlar qatori Bernining shoh asaridir. Me'mor bu asari bilan avliyo Pyotr sobori qurilishiga yakun yasadi sh yagona yirik mahobatli me'morlik majmuasini yaratdi.

XIV asrda qurila boshlangan. Uni qurishda Modern, Bramante, Mikelandjelo ishtirok etishgan. Bernini ana shu mashhur ibodatxona old tomonida favvora va obeliskli maydon yaratib, uni ustunlar qatori bilan ulug'vorlashtirdi. Natijada, sobor ko'rinishidagi tantanavorlik ortdi. Bu maydondan ibodatxona yaxlit va ulug'vor bo'lib ko'rinadi. Ibodatxonaning ikki tomonidan tomoshabinga qarab kelayotgan ustunlar qatori keluvchilarni "go'yo quchog'ini ochib" (L.Bernini) kutib olayotgandek bo'ladi.

Maydon badiiy plastik-vizual tashqil etilishi, ayniqsa, e'tiborga molik. Maydon trapetsiya va ellipsimon maydonchalardan tashqil topgan. Bu ikki maydonchada idrok etilganda gorizontalki tekistlikdagi trapetsiya va ellips go'yo va aylana bo'lib ko'rinadi. Bundan maydon hajmi kattalashayotgandek tuyuladi. Bernini bunday uslubdan o'z ijodida Vatikandagi qirol saroyi asosiy zinasida ham foydalangan. Uning orqa planidagi ustunlar oralig'i va zina kengligi biroz qisqargan holda ishlanib, uning fazoviy uzunligini oshirishga, zinani o'z o'lchamiga nisbatan yanada kattaroq bo'lib ko'rinadigan bo'lishiga erishgan. Bernini fuqaro me'morligida ham samarali mehnat qildi. Uning Rimdagi Sant-Andrea del Kvirinale, Barberini palatssiosi mashhurdir. Bernining dekoratorlik san'ati Avliyo Pyotr ibodatxonasining ichki inter'rlarining ichki inter'rlarida o'z ifodasini topgan.

Bernini XVII asr Italiya haykaltaroshligining yirik vakili va novatori edi. Uning "David", "Avliyo Tereza jazavasi", "Appalon va Dafna" asarlari, ayniqsa, mashhurdir.

Jumladan, David haykalida Davidning jangga kirib, qo'lidagi toshni dushmanga otish oldidagi vajohati juda hayotiy tasvirlangan. Davidning keskin

burilgan gavdasi, tarang tortilgan mushaklari, qattiq qisilgan labi, to‘zib ketgan sochi va bir nuqtaga tiqilgan ko‘zlarida uning ruhiy holati aks etgan. “Avliyo Tereza jazavasi” kompozitsiyasi ham ta’sirchan. Tereza VI asrda yashagan real tarixiy shaxs bo‘lib, u keyinchalik cherkov tomonidan avliyolar qatoriga kiritilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Tereza tush ko‘rganligi va tushida odam qiyofasidagi go‘zal farishta kelib, uning yuragiga oltin kamon o‘q bilan yuragidan urganida “oromli azob” olganligini yozib qoldirgan. Kompozitsiyada Terezaning tush ko‘rayotgan paytida, farishta uni oltin o‘q otmoqchi bo‘lib turganligi tasvirlangan.

Bu kompozitsiya Rimdagi Santa Mariya della Viktoriya cherkovi mehrobiga o‘rnatilganyu bernini portret san’atida ham novator ijodkor edi. Uning portretlarida tasvirlanuvchining характери nihoyatda ta’sirchan ifoda etilgan. Uning portretlarida tasvirlanuvchining характери nihoyatda ta’sirchan ifoda etilgan. Uning yaratgan portretlari borokko uslubida ishlangan haykaltaroshlar uchun taqlid maktabi vazifasini bajargan. Bernini o‘z ijodida borokko yo‘nalishining o‘ziga xos hamma xususiyatlarini namoyon etdi. Voqelikni real talqin etish, uning dekorativ jihatlarini his etish Bernini ishlariga betakror joziba bahsh etgan. Bernini yaratgan Kardinal Borgez haykali barokko san’atining yuksak namunasi. Unda plastik tarzda ayrim shakllarini bo‘rttirish hisobiga ta’sirchanlikka erishilgan. Marmar, bronzada yuksak mahorat bilan ishlashi uning asarlaridagi o‘ziga xoslikni yanada oshirgan. San’atkor ijodining bu kabi jihatlari uning asarlariga qiziqish ortishiga, uning Italiyadan tashqarida ham shuhrat qozonishiga sabab bo‘ldi.

Italiya san’atida XVII asrda rangtasvir ham borokko uslubida rivojlanib, u XVI asr ohiri XVII asrda mavjud bo‘lgan man’erizmga qarshi kurashda yuzaga keldi va Bolone akademizmi hamda karavajizm yo‘nalishida namoyon bo‘ldi. Ikkisida ham borokkoga xos xususiyatlar dramatiklikka qiziqish, emotsional, his-hayajon tili bilan gapirish, dinamik kompozitsiya, nur-soya qarama-qarshiligidan keng foydalanish mavjud. Lekin mazkur yo‘nalishlar o‘ziga xos uslubi bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, Bolone akademizmi naturani o‘rganish hamda uni antik va Renessans bilan solishtirish va ular yaratgan kanonlarga o‘xshashiga asoslanadi. Karavajistlar ijodida esa realistik jihat kuchli bo‘lib, ular naturani o‘rganadilar. Ular naturaning tub mohiyatini aniq ko‘rsatishga intiladilar. Mifologik va diniy mavzularni oddiy xalq hayoti voqeligida, undagi obrazlarni esa oddiy kundalik turmushida uchraydigan kishilar obraziga o‘xshatishga harakat qiladilar. Nur, soya imkoniyatlaridan unumli foydalanib, asarning emotsional jihatini oshiradilar. Italiya san’atida borokko uslubi, ayniqsa, mahobatli dekorativ rangtasvirda sezilarli bo‘ldi. Saroy va cherkov binolari devorlari serharakat, ko‘p figurali, murakkab rakursli yorqin

bo‘yoqlarda ishlangan mifologik va diniy mavzudagi rasmlar bilan bezatildi. Ayniqsa, shiplarga ishlangan rasmlar o‘zining nihoyatda dinamik va hayajonli kompozitsiyalari bilan kishini hayratlantiradi. Rasmlardagi fazoviy kenglik va cheksizlik, undagi aks etgan voqealar asarga dinamik harakat baxsh etadi.

Petro da Kartona (1596-1669) o‘z davrining mashhur rassom va me’morlaridan biridir. Uning ijodida Italiyada rangtasviriga xos borokko namoyon bo‘lgan. Uning Rimdagi palatssiosi shipiga ishlangan rasmlari nihoyatda ta’sirchan va serbezakdir. Rassom o‘z asarlarida perspektivaning illyuzion imkoniyatlari va fazoviy kenglik, nur-soyaning kuchidan unumli foydalanadi. Shu jihatdan, u keyinchalik Yevropa mahobatli-dekorativ rangtasviriga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

Shuni aytish kerakki, borokko asarlari tashqi tomonidan qanchalik ta’sirchan, dinamik bo‘lmasin, ularda ta’sirlangan obrazlardagi ichki tug‘yon sust ekanini qayd etmay bo‘lmaydi.

Bolone akademizmi. Italiyada tashqil etilgan badiiy maktablardan biri Bolone akademiyasi yo‘nalish tamoyillarini zida namoyon etadi. Bu maktabning asoschilari aka-uka Karrachilar (Lodoviko, Agostino, Annibale) bo‘lib, ular shu yangi yo‘nalish asoslarini ishlab chiqdilar. Ular XVI asr mumtoz san‘atini va, ayni chog‘da, naturani o‘rganish zarurligini uqtirdilar. Ularning fikricha, natura (borliq) go‘zallik qonunlari asosida ko‘rib chiqilishi lozim edi. Ideal va go‘zallik qonunlarini esa, ular yuqori uyg‘onish davri san‘atida ko‘rdilar. Ular, aniqrog‘i, Lodoviko de-Karrachi 1585 yili Boloneda “Akademiya Inkamminata”, ya’ni to‘g‘ri yo‘lga qadam qo‘yayotgan Akademiya, deb nomlangan o‘quv dargohini tashqil etdi. Lyudoviko to‘g‘ri o‘qitish va tarbiyalash orqali rasm chizishga qobilyati bo‘lmagan qo‘uvchini ham yaxshi rasm chizadigan mutaxassis qilib tarbiyalash mumkin, deb targ‘ib qildi va o‘zi shunga amal qildi. Bu o‘quv yurti keyinchalik Italiyada va boshqa mamlakatlarda tashqil etilgan badiiy akademiyalarning ham ibtidosi bo‘ldi. Akademiyada amaliy mashg‘ulotlar bilan birga, nazariy fanlar yagona pedagogik tizim asosida olib borilar edi. O‘quvchilar perspektiva, anatomiya, tarix, mifologiyani o‘rganib, antik davr haykallaridan qalam va rangda nusxa olardilar. Bular so‘zsiz, rassomlarning ixtisoslik mahoratini o‘shishga, realistik san‘at taraqqiyotiga muhim xissa qo‘shdi. Biroq ular merosga nisbatan idealistik munosabatda bo‘ldilar. O‘tmish madaniyati va san‘ati erishgan yutuqlarni yetib bo‘lmas namuna, deb bildilar. Bu esa o‘tmishga taqlid qilish, ulardan nusxa ko‘chirish yetakchi bo‘lib qolishiga, realistik san‘atning esa ikkinchi darajali bo‘lib qolishiga sabab bo‘ldi. Aka-uka Karrachilar mahobatli-dekorativ va dastgoh rangtasvirda samarali mehnat qildilar. Saroy va cherkovlarga diniy va mifologik mavzuda kompozitsiyalar ishladilar. Karrachilar orasida, ayniqsa, Annibale Karrachi

(1560-1604) o'z iste'dodi bilan ajralib turgan. U novator san'atkor sifatida san'at tarixida iz qoldirgan. Uning ijodi Yevropa san'ati tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Annibale Karrachining manzara janridagi ijodi ham salmoqli. Mumtoz manzara san'ati uning nomi bilan chambarchas bog'liq. U bu san'atning asoschilaridan biri sanaladi. Aka-uka Karrachilar ijodi, ularning izlanishlari yosh ijodkorlarni o'ziga ergashtirdi. Ular oraisda Gvido (1575-1642) ijodi alohida ajralib turadi. Karrachi asarlaridagi mumtoz manzaralarga xos hayotiylik va bevositalilik uning ijodini tashqi ta'sir va obrazlarning shartliliigi bilan uyg'unlashadi. Shuni aytish kerakki, Italiyada XVII asrda rasmiy uslub qanchalik yetakchilik qilmasin, ko'pgina rassomlar hayotiy, realistik asarlar yaratishga harakat qildilar. Ularning bu intilishlari keyinchalik Yevropa realistik san'ati, jumladan, rangtasvirning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Bunda, shubhasiz, Mikelanjelo Merizi da Karavajo (1573-1610) ijodi alohida o'rin tutadi. "Karavajizm" deb nomlangan badiiy yo'nalishga asos solgan bu san'atkor qisqa umr ko'rganiga qaramay, yangi davr, realistik san'ati yetakchi tamoyillarini rivojlantirib, Yevropa realistik san'at taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Italiya va boshqa mamlakatlarning ko'pgina san'atkorlari ham uning izidan ergashdilar va "karavajistlar" degan nom oldilar. Barcha davrlar rassomlari ijodiga Karavajo asarlari samarali ta'sir ko'rsatdi. Karavajizm Yevropa realistik san'ati taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Lombardiyaning kichik karavajo shaharchasida me'mor oilasida dunyoga kelgan bu san'atkor, tasviriy san'at asoslarini dastlab Milanda o'rgandi. U Shimoliy Italiya rassomlari ijodidan ta'sirlandi. Taxminan 1590 yillarda Rimga ko'chib keldi. Bu yerda rassomlarga yordamchi bo'lib, ishlab kun ko'rdi. So'ng o'z asarlarini sotishga ham muvaffaq bo'lib, yirik asarlar ishlay boshladi. U o'z ijodida xalq hayotiga murojaat qildi, yoshlar, masharaboz va lo'lilar hayotidan kompozitsiyalar yaratdi. Yevropa san'atida birinchi bo'lib natyurmort ("Mevali savat", 1596) janrida mustaqil asar yaratdi. Karavajoning dastlabki yirik asarlaridan biri "Lyutna chaluvchi" (1595) bo'lib, u rassom ijodining o'ziga xos jihatlari, uning rangtasvir san'atidagi islohotlarini namoyon etadi. Bu islohotning mohiyati, avvalo, rassomning real borliqni haqiqiy san'at manbai deb bilish bilan bog'liqdir. Lekin musavvir borliqni aynan ko'chirmaydi, balki eng muhim karakterli tomonlarini bo'rttirish, kuchaytirish hisobiga xodisalarni ta'sirli san'at shakli darajasiga ko'taradi. Musavvirning har bir buyum xususiyati va fakturasini ishonarli tasvirlashi esa asarning ta'sirchanligini oshirib, uning mazmunini chuqurlashtiradi. Obrazdagi ruhiy xolat, chiziqlar plastikasining go'zalligi, nur-soya o'yinining birmuncha keskinligi asarni oddiy hayotdan ko'chirma emasligini bildirib turadi. Rassom o'z asarlarida nur-soya qarama-qarshiligiga ham e'tibor beradi. Asosiy obrazlarni yorug'lantirish hisobiga

birinchi planga chiqarish, orqqa planning ko‘pincha to‘q-qoramtir gammada hal etilishi kompozitsiyaga o‘ziga xos fazoviy kenglik beradi. Rassomning bu uslubi, keyinchalik Yevropa san‘atida "erto‘la rangtasviri" deb nomlangan rangtasvirning rivojlanishiga zamin yaratdi. Rassom natyurmort va hayotiy-maishiy mavzularida qo‘llagan usullarini diniy mavzudagi kompozitsiyalar ishlashda ham qaytaradi. "Matveyning kasbi", "Apostol Matveyni azoblash", "Tobutga solish" kabi asarlarida ham shu xolni ko‘rish mumkin. Rassom diniy voqealarni hayotiy voqea va xodisalarga, avliyolarni oddiy kishilarga o‘xshatib ko‘rsatishga intiladi. Bu buyurtmachilar bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Hatto, uni javobgarlikka tortishdi. "Apostol Matvey ixtirosi" (1559-1585), "Tobutga solish" (1601-1603) kabi yirik asarlari hayotiy voqea tasvirlanganday taasurot uyg‘otadi. Nur-soya qarama -qarshiligi esa asardagi voqeani yanada bo‘rttirib, fojiali, dramatik ko‘rinish beradi. Odamlarning xatti-harakati, ruhiy holatlari kompozitsiyaning yanada hayoti va to‘laqonli bo‘lishini ta‘minlaydi.

XVII asr davomida Italiya G‘arbiy Yevropada yetakchi badiiy markaz bo‘lib keldi. Bu yerda paydo bo‘lgan ko‘pgina yangi jarayonlar boshqa mamlakatlarga ham yoyildi. Karavajo va Balone akademizmi, barokko uslubi ko‘pgina ilg‘or ijodkorlarga samarali ta‘sir qildi. Italiya rassomligida barokko uslubi Domeniko Fetti va Salvator Roza ijodida seziladi. Fetting yorqin rangdor asarlari, Rozaning mungli romantik asarlari shu oqimning so‘nggi , ko‘rinishlarini namoyon etadi.

XVII asr so‘nggi choragidan boshlab, Italiya barokkosida dekorativlilik kuchaya bordi. Murakkab rakurslar va harakatlar sun‘iy ko‘tarinkilik bilan yaratilgan asarlardan o‘z ustunligini ko‘rsata boshladi. Hayotiy-realistik jarayonlar ayrim rassomlar ijodida namoyon bo‘ldi. Jumladan, Aleksandr Manyaskoning romantik ruh bilan sug‘orilgan manzaralari, Juzeppe Korespining monumental va dastgoh rangtasvirlari buning yorqin misolidir.

XVIII asrga kelib, Italiya tashqi xurujlar ta‘sirida zaiflashdi. Iqtisodiy jihatdan qashshoqlashib, uning ko‘pgina shaharlari chet el bosqinchilari qo‘liga o‘tdi. Faqat Papa oblasti hamda Venetsiya respublikasi o‘z siyosiy mustqilligini saqlab qola oldi. Rim va Venetsiyadagi badiiy hayot esa barokko uslubida ishlangan hashamatli me‘morlik bino va majmualarida (M:Spaniya zinasi, 1721), tantanavor serjilo xristian bazilikalarida, ajoyib favvoralarida, xishayajonga to‘la devoriy va dastgoh suratlarida o‘z ifodasini topdi. San‘atkorlar uyg‘onish davri san‘ati hamda barokko ustalarining ilg‘or an‘analarini davom ettirib, Italiya san‘atining shuhratini oshirdilar. Bunda Venetsiya rassomlik maktabining roli, ayniqsa, katta bo‘ldi. Bu maktab rassom-lari o‘z ijodlari bilan Yevropa san‘ati taraqqiyotida ham muhim rol o‘ynadilar.

Jovanni Battisto Tepolo (1696-1770). Venetsiya rassomlik maktabining yutuqlari Tepolo ijodida mujassamlashdi. U Italiya san'ati yutuqlarini ijodiy o'zlashtirib, barokko uslubini yanada mukammallashtirdi. Hayotlik vaqtidayoq katta shuhrat qozongan bu rassom juda ko'p mahobatli dekorativ va dastgoh suratlar yaratgan. Rassomning his-hayajonga to'la, serharakat kompozitsiyalari uning voqelikning illyuzion tasvirini ishlashdagi yuksak mahoratidan dalolat beradi. Kompozitsiyada odamlarning murakkab rakurslardagi holatlari, fazoviy bo'shliqning mahorat bilan tasvirlanishi asarning ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Rassomning ilk asarlari o'zining nihoyatda boy fantaziyasi, besaranjom shakllar harakati, nur va soyaning keskin olinishi va dekorativ xususiyatlari bilan esda qoladi (masalan, Venetsiyadagi Dolfino saroyi devor va shiplariga ishlangan rasmlar turkumi). XVIII asr o'rtalaridan rassom dastxatida erkinlik va ekspressiya kuchayadi, rang tizimida nozik qochirimlar va o'yin paydo bo'ladi. Asarlari yorqinlashdi. Venetsiyadagi Jezuati va Skalski cherkovlari shiftiga ishlangan rasmlar shu jihatdan e'tiborli. Tepolo boshqa mamlakatlarda ham ishladi. Jumladan, Madridda ispan qiroli saroyini bezadi. Tepolo dastto'x san'atda ham qator asarlar yaratdi. Ular ishlash texnikasining yuksakligi, obrazlarning his-hayajonga to'laligi bilan esda qoladi ("Amfitrita zafari", "Munajjimlar ta'zimi" va boshq.).

XVIII asr Venetsiya san'atida atrof ko'rinishlarini aks ettiruvchi manzara janri (veduta) keng yoyildi. Bu janrda ishlagan rassomlar shahar va uning atrofi ko'rinishini tipografik aniqlikda tasvirlashni o'zlarining asosiy maqsadlari deb bildilar. Ana shu janrda samarali ijod qilgan rassomlardan biri Kanalletto nomi bilan mashhur bo'lgan Antonio Kanale (1697-1768) hisoblanadi. U o'z asarlarida shahar kanal va maydonlarini, odamlarga to'la gandolalarni, Venetsiyaning o'ziga xos nam havosini, nurga to'la maydonlari, gandolalar harakati bilan jonlangan kanallarni nihoyatda aniq va shoirona tasvirladi. Shahar hayotidagi muhim voqealarni aks ettirdi (masalan, "Fransuz elchisining Venetsiyaga kelishi"). Bu yillarda manzara janrida rassom Bernaro Belotto (1720-1785) ham ijod qildi. U Saksoniya va Polshada ijod qildi. Bu rassom me'morlik majmualarini juda nozik his etgan holda, tabiat qo'ynida tasvirladi. XVIII asr Italiya san'atining so'ngi yirik vakili Franchesko Gvardi (1675-1785) bo'lib, u manzara, maishiy va tarixiy janrlarda ijod qildi. Lekin manzarachi rassom sifatida shuhrat qozondi. U ko'proq Konaletto ishlagan mavzularda rasm chizdi. Bu rasmlar hajm jihatidan katta bo'lmasa ham, lekin o'zining rang surtmalarini erkin ishlatishi, yorqin ranglari va nozik poetik kayfiyat ifoda qilishi bilan chuqur taassurot qoldiradi.

XVIII asrda Rim. Vezuviy vulqonining otilishi natijasida kul ostida qolib ketgan Pompey va Gerkulanum shaharlarining ochilishi antik san'at va madaniyatga qiziqishni oshirib yubordi.

Nemis san'atshunosi Iogann Ioxim Vinkelman (1717-1768)ning "Qadimgi san'at tarixi" kitobi bu qiziqishni yanada oshirdi. Arxeolog, graver va me'mor, qalamsuratlar ustasi Jovanni Battista Piranezi (1720-1778)ning gravyuralari ham yevropaliklarning antik san'at to'g'risidagi bilimlarini kengaytirdi. Natijada, Rim nafaqat Italiya, balki Yevropaning ham badiiy markaziga aylandi. Shu boisdan "Rim mukofoti" ni ta'sis etdilar. Rimda fransuz, nemis, daniya, rus va boshqa xalqlar rassomlari o'z malakalarini oshirdilar.

XVII - XVIII asrlarda Ispaniya san'ati.

XVII asrning 80-yillaridan XVIII asrning 80-yillariga qadar bo'lgan davrda ispan san'ati o'zining eng gullagan "oltin" davrini boshidan kechirdi. Bu rivojlanish, ayniqsa, teatr va adabiyotda (Servantes, Lone de Vega), tasvirii san'atning dastgoh rantasvirida yorqin namoyon bo'ldi. Me'morlik va haykaltaroshlik san'atida ham ayrim salmoqli asarlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, biroq, bu san'at turlari yetakchi o'ringa ko'tarila olmadi.

San'atning asosiy buyurtmachisi katolik cherkov va dvoyanlar edi. Bu uning mazmuni va mavzusini chegaralar edi. Diniy syujetlar asosiy o'ringa chiqdi. Hayotiy mavzudagi san'at borasida esa portret san'ati yetakchilik qildi.

Xusepe de Ribera(1591-1652). XVII asr birinchi yarmida Ispan san'atida yorqin iz qoldirgan rassomlardan biri Ribera edi. U Ispaniyaning shu davrdagi realistik san'atining muhim madaniyat o'chog'i bo'lgan Valensiyada tug'ilib, shu yerda rassomlik sirlarini o'rgandi. Uning ijodkor bo'lib yetishida Italiya bo'ylab sayohati muhim rol o'ynadi. Bu yerda Italiya ustalarining san'atini o'rgandi. Unda Karavajoning asarlari chuqur taassurot qoldirdi. Ribera ijodida diniy mavzu yetakchi o'rin tutadi. Mifologiya, portret janrida ijod qildi. Lekin rassom qaysi mavzu yoki janrda ijod etmasin, hodisalarni doim real, hayotiy talqin etadi. Portretlarda o'z davri kishilari obrazlarini yaratadi. Ribero ham El Greko singari avliyolar, darvesh va gadolarning tasvirini ishlaydi. Ularning obrazlari aniq ifoda etiladi. Rassom hikoyanavislikka ko'proq e'tibor beradi, tasvirlanayotgan har bir obrazni aniq ko'rsatishga harakat qiladi. U o'zining bir figurali kompozitsiyalarini, odatda, bevosita real borliqdan etyud ishlab, uni umumlashma obraz darajasiga ko'tarishga intiladi. Asardagi yorug'-soya qarama-qarshiligi rassom dastxatining to'laqonli ko'rinishini ta'minlaydi. Rang surtmalarining erkin va quyuk ishlatilishi uning asarlariga plastik kuch bag'ishlaydi, obrazlardagi ulug'vorlikni oshiradi. Bular Riberani Karavajoga yaqinlashtiradi. "Avliyo Varfolameyni qiynash" (1630) rassomning ilk asarlaridandir. Bu asar rassom ijodiga xos xalq vakillarini to'laqonli ko'rsatishi

va ifodning jo'shqinligi bilan e'tiborni jalb etadi. Rassom sodir bo'layotgan voqea fojaviyligini aniq va ta'sirchan ifoda etadi. Tasvirlangan qiyofalardagi ekspressiya, rassom dastxatining harorati asar dinamikasini kuchaytiradi. Rassom odam gavdasini yuksak mahorat bilan tasvirlash orqali o'zining yorug'-soya imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish qobiliyatini namoyon qiladi. Uning bolalarga bag'ishlangan asarlari ham o'zining samimiyligi bilan ajralib turadi. "Cho'loq bola" asari, ayniqsa, e'tiborlidir. U nogiron bolaga nisbatan chuqur samimiylilik va hurmat bilan ishlangan bu asarda optimistik ruh mavjud. Rassom sho'x, hatto, biroz qitmir bola obrazini ishonarli talqin etadi. Rassomning ijodiy kamolotga erishgan yillarda yarattan asarlarida ranglarning bir-biriga o'tishi mayin, ularning koloriti yorqin. Yorug'lantirishda tabiiylik kuchayib boradi. "Avliyo Onufriy" (1627), "Avliyo Inessa" (1641) kabi asarlari shu jihatdan e'tiborlidir. Rassom tasvirlanuvchining ichki kechinmalarini lirik ruhda tasvirlashga harakat qiladi. Uning kompozitsiyalaridagi kenglik havo bilan to'la boshlaydi. Bu obrazni yanada ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Franchesko Surbaran (1598-1664). XVII asr ispan realistik san'atining rivojlanishida Franchesko Surbaran ijodi alohida o'rin tutadi. Sevilyada tug'ilib o'sgan Franchesko keyinchalik o'z yurtining bosh rassomi unvoniga sazovor bo'lgan. Uning ijodida XVII asr badiiy ideali o'z ifodasini topgan. U ispan realistik san'atining rivojlanishiga samarali hissasini qo'shgan. Surbaran diniy mavzularda ham suratlar chizgan va ularda o'z davrining hayoti to'g'risida hikoya qilgan. Uning kompozitsiyalari sodda. Yaratgan obrazlari oddiy. Rassom kompozitsiyalar uchun o'z zamondoshlarining qiyofasini tanlaydi. Naturadan rasmlar ishlab, tasvirlanuvchining ruhiy holatini, tasvirlanayotgan buyumlarning fakturasini aniq ko'rsatishga harakat qiladi. Rassomning ijodiy metodi uning afsonaviy avliyo Boneventuri hayotiga bag'ishlangan turkum asarlarida yorqin ko'rinadi. Surbaran shu asarlar turkumini yaratish uchun o'z davrining monastirlaridan birini tanlagan. U yerdagi hayotni tasvirlagan. Rassom portret va natyurmortlarda ham yetuk asarlar yarattan.

Diego de Silva de Mariya Velaskes (1599-1660). G'arbiy Yevropaning yirik rassomi Sevileda qashshoqlasha boshlagan dvoryan oilasida tug'ilgan. Shu yerda Pacheko degan rassom qo'lida dastlabki ma'lumot olgan. Pacheko romantizm vakili, Rafael tarafdori bo'lgan. Velaskesning ilk asarlarida o'qituvchisi ta'siri seziladi. U ko'proq realistik san'atda ijod qiladi. Uning "Nonushta", "Suv sotuvchi" asarlari juda ta'sirchan yaratilgan. Rassom diniy mavzularda asarlar ishlay boshlagan ("Munajjimlar ta'zimi"-1619). 1623 yili Velaskes Madrid shahriga borgan. U yerda portretchilik bilan shug'ullangan. Yosh qirol Filip IV portreti unga katta shuhrat keltirgan. U qirol saroyi rassomi bo'lib tayinlangan. Portret uning ijodida yetuk o'rin egalladi. 1620 yilda uning

ijodida erkinlik paydo bo‘la boshlagan. “Vakh” yoki "Ichuvchilar" shunday asarlardan biridir. 1629 yili Italiyaga sayohatga borgan. Titsian, Tintoreto, Veroneze ijodi bilan yaqindan tanishgan. XVII asrdan boshlab, inson mehnati go‘zalligi san’atkorning diqqatini torta boshlagan. San’atkorlar mehnat mavzuida yirik asarlar yarata boshlagan. Yevropa san’atida D.Velaskes birinchi bo‘lib mehnat go‘zalligini shoirona, ko‘tarinki ruhda talqin etgan. Uning "Gilam to‘quvchilar" deb nomlangan asari ana shulardan dastlabkisidir.

Rassom oddiy kundalik mehnat timsolida insonlarning baxt haqidagi orzularini ko‘ra olgan. Kompozitsiyadagi obrazlarning mehnat qilishlari, ularning jismoniy baquvvat gavdalari ishonarli talqin etilgan. Xonani to‘ldirib turgan nur esa tinch osoyishta hayot go‘zalligini ko‘rsatgan. Velaskes tarixii voqealarni aks ettiruvchi asarlarni yaratgan. Yevropada realistik tarixni janr rivojlanishiga katta xissa qo‘shgan. Uning “Breda shahrining topshirilishi” asari shunday tarixiy voqeaga bag‘ishlangan. Unda Gollandiya qal’asini ispan qo‘shinlari tomonidan zabt etilshni tasvirlanadi. Rassom dramatik voqeani gavdalantirgan. Ispan qo‘shinlarining qo‘mondoni Spinola mag‘lubiyatta uchragan Gollandiya qo‘shinlari qo‘mondoni tomonidan ramziy kalitni olayotgan payt tasvirlangan. Rassom har bir tasvirlanuvchining ruhiy holatini aniq ko‘rsatishga harakat qilgan. "Kalit topshirish" akti orqali olijanoblik ulug‘lanadi. 1630-40 yillarda Velaskes portret san’atida mashhur asarlar yaratdi. Ularda insonning boy ichki dunyosi yuksak mahorat bilan aks ettirilgan. “Innokentiy X portreti” (5-rasm) jahon realistik san’atining nodir yodgorligi hisoblanadi. Unda tomoshabinga qarab turgan Rim papasi Innokentiy tasvirlangan. Portretda qattiqqo‘l va ayyor, shu bilan birga, dono va ziyrak shaxs qiyofasi ko‘rsatilgan. Velaskes buyuk san’atkordir. U o‘z asarlarida xalqparvar g‘oyalarni ilgari so‘rgan, oddiy kishilarga bo‘lgan zo‘r muhabbatini shoirona talqin etgan. Velaskes oddiy kishilar hayotiga murojaat qilib, unda go‘zallikni ko‘ra oldi. Shuning uchun ham bu asarlar bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Rassom o‘z qahramonlarini bo‘rttirmay, ularni qanday bilsa shunday tasvirladi. Bu ham uning portretlarini rang-barang bo‘lishiga xizmat qilgan. Velaskes valyor rangtasvirida asarlar yaratgan dastlabki rassomlardandir. Uning asarlarida iliq va sovuq ranglar o‘yini, nur va rang tovlanishlari alohida joziba baxsh etgan. O‘rinli topilgan rang surtmalari esa asar fakturasiga o‘ziga xoslik kiritgan. Uning rang va nur sohasidagi kashfiyoti keyinchalik Yevropa san’ati tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bartolome Esteban Murilo (1617-1682). XVII asr ispan san’atining so‘nggi vakili Murilo diniy va hayotiy mavzularda rasmlar ishlagan, portretlar chizgan.

U ispan realistik san'atiga xos an'analarni saqlashga harakat qilgan holda, mungli lirik asarlar yaratdi. Murilo realizmi ko'proq janrli kompozitsiyalarda ko'rinadi. Lekin ular bir muncha mungli, g'amgin ("Misr yo'lidagi dam olish" 1665-70, "Bola ko'targan Madonna" 1670). Rassom bolalarga atab ham kompozitsiya ishlagan. Ularda bolalarga xos samimiylilik, sho'xlik va beg'uborlik ulug'lanadi ("Meva ko'targan bola" 1645). Murilo asarlarida hikoyanafislik mavjud. Ularda hayotiy voqealar ta'sirchan gavdalantirilgan.

XVII - XVIII asrlarda Fransiya san'ati.

XVII asrga kelib, monarxiya tuzumi mustahkamlandi. Viloyatlar markazga bo'sundirildi. Absolyutizm o'zining mumtoz ko'rinishini namoyon etdi. Bu mamlakatda burjua munosabatlarning rivojlanishi, uning iqtisodiy mustahkamlanishini ta'minlab, Fransiyaning Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylantirdi. Bu davr "buyuk asr" (Volter) nomi bilan tarixga kirdi. Monarxiya dvoryan va burjua guruhlariga tayangan holda, shakllanib kelayotgan burjua jamiyatining feodalizm bilan kurashishda kuchli qurol vazifasini o'tadi. Milliy madaniyatda ko'tarilish yuz berdi. Dekart, Gassend kabi ijodkorlar yetishib chiqdi. Kanel, Rasin, Moler kabi yozuvchilar Fransiyaning dunyoga tanitishdi. Musiqa, tasviriy san'at, me'morchilik borasidagi yutuqlar keyinchalik Yevropa san'ati rivojida muhim rol o'ynadi. 1648 yili rassomlik va haykaltaroshlik qirol akademiyasi, 1671 yilda esa me'morchilik akademiyasining tashqil etilishi san'at ravnaqida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Klassitsizmning rasmiy badiiy-adabiy uslub sifatida e'tirof etilishi san'atining ravnaq topishida muhim rol o'ynadi. Bu uslub rivojlanishiga Dekart falsafasi, Gassend qarashlari ta'sir etdi. XVII asr shahar va shahardan tashqarida kurshgan me'morlik majmualari, qirol va zodagonlarning qarorgoh va saroylari, burjuaziya boylarining o'ylari klassitsizm uslubining rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Mashhur Luvr saroyining sharqiy tomoni ko'rinishi (me'mor R. Perro, 6-rasm), Versal saroy-bog' majmuasi, ko'plab tantanavor arklar, ko'priklar hamda jamoat binolari qurildi.

XVII asr birinchi yarmi san'ati uslub jihatdan ham rang barang. Unda bir tomondan Italiya renesansi va barokko ta'siri sezilsa, ikkinchi tomondan klassitsizm paydo bo'la boshlagani bilinadi. Qirolicha Mariya Medichi uchun qurilgan Lyuksemburg saroyi, ayniqsa, diqqatga loyiq. Mansar, Lui Levo, Jak Lemerse kabi me'morlar shu davr yo'nalishlarini o'z ijodida belgilab berdilar.

Odatda XVII asr fransuz san'ati ikki davrga ajratib o'rganiladi. Bu Fransiyaning siyosiy ahvoli va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Jumladan, XVII asrning birinchi yarmida hali absolyut monarxiya to'la hukmronlikka eringmagan, keng omma jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etmagan edi. Bu san'atda turli oqim va yo'natishlarni keltirib chiqdi, turli mavzu va ishlash

usullari bo'lishini ta'minladi. Qirol saroyi bilan bog'liq. va rasmiy badiiy Hayotda yetakchi o'rinni egallagan san'atkorlar ijodida dekorativlilik va serhashamlilik hamda jimjimadorlikka intilish kuchaydi. Voqelikni birmuncha ideatlashtirib ishlashga intitish ular ijodida barokko san'atining nafislashib borayotgan ko'rinishini namoyon etdi. Bu jihatdan, Simon Vue (1590-1649) ijodi muhim o'rinni egallaydi. Saroy rasmiy san'atining yirik vakili va yo'l boshchisi Vue yoshlik yillarda Italiyada yashab Karavajo ta'sirida bo'ldi. Lekin keyinchalik uning ijodida Balone maktabi ta'siri yetakchi o'rinni egallab, kamolga erishgan davrdagi asarlarining harakterli jihatiga aylandi. Rassom afsona va Bibliyaga murojaat qilib, ulardan olingan syujetlar asosida asarlar yaratdi ("Avliyo Yevotafiyani jazolash", "Gerakl Olimp hudolari orasida"). Vue asarlarini o'ziga xos ta'sirchan qilib ishlashga intiladi. Shu maqsadda u obrazlarni ideallashtirishga, ishlatilgan buyum va shakllarning nafis va jimjimador bo'lishiga, ranglarning serjilva bo'lishiga g'oyat e'tibor beradiki, bu uning yaratgan asarlari kompozitsiyasining ko'p so'zli, koloritini esa g'alati bo'lishiga sabab bo'ladi. Lekin shunga qaramasdan uning asarlari kupchilik tomonidan zur qiziqish bilan kutib olindi, saroy va umuman fransuz rassomlari tomonidan e'tirof etiddi. Unta taklid kiluvchilar kupaydi. Shu tarzda, Vue ijodi ta'sirida fransuz san'atida barokko san'ati tamoyillari keng yoyildi.

Realistik san'at ravnaqi bevosita fransuz jamoasining demokratik tabaqasi san'atkorlari ijodi bilan bog'liqdir. Fransuz realistlari o'z asarlarida xalqning kundalik turmushiga murojaat qildilar, alohida kishilarning harakterini ochishga intildilar. Bu rassomlarning ko'pchiligi fransuz viloyatlaridan chiqqan va saroy aristokratik san'atidan bir qadar uzoqda bo'lishgan. Bu esa ular asarlariga o'ziga xos qaytarilmas mazmun baxsh etib, fransuz realistik san'atining rang-barangligini belgilagan.

Jak Kallo (1592-1635). XVII asr fransuz realistik san'atining birinchi yirik vakili, grafik va qalam suratlar ustasi, ofortchi Kallo edi. U Fransiyaning Nansi viloyatida tug'ilgan, tasviriy san'at asarlarini boshqa ko'pgina fransuz san'atkorlari singari Italiyada o'rgangan. U dastlab Rimda yashagan. So'ngra Florensiyada Toskan Gersogi saroyida rassom bo'lib ishlagan. Uning asarlari mavzusi keng va rang-barang. Diniy mavzuda yaratgan asarlari salmoqli o'rinni egallaydi. Lekin florensiyaliklar hayotiga bag'ishlangan asarlari uning ijodining muhim jihatini belgilaydi. Florensiyada Kallo "Kaprichchi" (1617) deb nomdangan dastlabki grafik asarlari turkumini yaratgan. Bu turkumda u florensiyaliklar turmushiga bag'ishlangan rang-barang hayotiy lavhalarini tasvirlagan. Rassom o'z obrazlarining esda qoladigan va ifodali bo'lishiga harakat qilgan. "Tilamchilar", "Bukrlar" deb nomlangan asarlar turkumi hamda italyan komediyalari personajlarini aks ettiruvchi asarlari uning ijodining ilk

namunasi sanaladi. Ular o‘zining hayotiyligi, detallarining jonliligi bilan ajralib turadi. ("Florensiyadagi yarmarka"). Kallo Italiyada 13 yil (1608-1621) yashab, ijodiy kamolga erishgach, o‘z yurtiga qaytadi. Xalq hayotini aks ettiruvchi jiddiy va chuqur mazmunli asarlar yaratadi. Oddiy kishilarning og‘ir turmushini o‘z asarlarida achinish bilan ifodalaydi. Kallo ijodining so‘nggi davrida yaratilgan asarlar ichida "Urushning katta va kichik talofotlari" (1630) asarlari turkumi ajralib turadi. Bu asarlarida rassom urush fojiasini va keltirgan talofotlarni yuksak mahorat bilan tasvirlaydi. Bu bilan u o‘zining real voqelikka tanqidiy munosabatlarini namoyon qiladi. Urush, xalqda jabr-zulm ekanligini, harbiylarning talonchiligi va vahshiyiligini qoralaydi (masalan, "Fermaga hujum"). Kallo ijodining so‘ngi davrida manzara janriga murojaat qiladi. U o‘z manzaralarida havoga va nurga to‘lgan bepoyon kengliklarni ustalik bilan tasvirlaydi. Havo perspektivasi imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Kalloning realistik manzaralari keyinchalik fransuz realistik manzara rassomligi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ko‘pgina fransuz san’atkorlari italyan rassomlari, jumladan Karavajo va uning davomchilari ijodiga hurmat bilan qarab, ularning ishlash uslublarini o‘z ijodlariga tadbiiq etdilar. Ular xoh diniy, xoh hayotiy mavzuda bo‘lmasin, halq obrazini to‘laqonli realistik yaratishga, hayot xodisalarini aniq tasvirlashga harakat qildilar.

Bunday rassomlar orasida Jorj de Latur (1595-1652) ijodi alohida ajralib turadi. U diniy va hayotiy mavzuda ko‘pgina asarlar yaratdi. Tungi oy nuri yoki sun‘iy yorug‘lashtirishni gavdalantirib, suratlar ishladi. U ishlagan har bir surati to‘laqonli, hajmli, salmoqli bo‘lib chiqishiga harakat qilgan va buning uchun nur imkoniyatlaridan juda o‘rinli foydalangan.

XVII asr fransuz realistik san’atida aka-uka Lenenlar ijodi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uch aka-uka Lenenlar (Antuan 1588-1648, Lui 1595-1648, Mate 1607-1677) hamkorlikda turli syujetlarda rasmlar ishladilar. Maishiy janr esa ular ijodida yetakchi o‘rinni egalladi. Lui Lenen fransuz san’atida dexqonlar hayotiga bag‘ishlangan janrni boshlab bergan rassom hisoblanadi. Uning asarlari o‘zining hayotiyligi, kompozitsiyasining soddaligi bilan ajralib turadi.

XVII asr o‘rtalari va ikkinchi yarmidan boshlab fransuz san’atida klassitsizm asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Nikola Pussen (1594-1665) klassitsizmning yirik vakili sifatida uning butun imkoniyatlarini ro‘y-rost namoyon qildi. N.Pussen Fransiyaning shimoliy shaharchalaridan birida harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Tasviriy san’at asoslarini shu yerdagi rassomlardan o‘rgandi. 1610 yil boshlarida Pussen Italiya bo‘ylab sayohat qildi, uyg‘onish davri san’ati namunalari bilan tanishdi. Ayniksa Rafael ijodi unda katta taassurot qoldirdi. Rassomning diniy voqealarga ishlagan suratlarida barokko ta’siri seziladi ("Avliyo Erazmanini jazolash", "Butdan tushirish").

Aksincha uning mifologiya asosida ishlagan suratlarida Titsianga xos rang his qilish hayotni to'laqonli anglash seziladi. Bu suratlar ko'tarinki ruhda chizilgan. Yozuv uslubi ham erkin, koloriti iliq, nurga boy. Shu davrda yaratilgan mashhur asarlaridan biri "Uxlab yotgan Venera" da rassom ijodiga xos xususiyatlar o'z ifodasini toptan. 1620 yil oxirlaridan boshlab, Pussen ijodida klassitsizmning o'ziga xos tomonlari ko'rini boshladi. Ishlagan asarlarida obrazlarni ideallashtirish va kompozitsiyani aql-idrok orqali tartibga keltirishga intilish seziladi (masalan, "Germaniyaning o'limi" 1627, "Go'daklarni o'ldirish", "Tankred va Erminiya" 1630). "Tankred va Erminiya" asarida rassom Amazonka Erminiyaning o'z raqibi yaralangan ritsar Tankredga nisbatan uyg'ongan muhabbati tasvirlanadi.

Asarda yaralangan Tankredni juda ehtiyotkorlik bilan ko'tarayotgan Badrin(Tankredning do'sti) va oq otidan tushib, o'z qilichi bilan sochini kesib, yarador Tankredning yarasini bog'lash uchun harakat qilayotgan Erminiya ko'rsatiladi. Asarda ikki qarama-qarshi obraz bir tomondan, hayotdan ko'z yumayotgan Tankred va ikkinchi tomondan, hayajonlanayotgan Erminiya hattiharakatlari ta'sirchan ifoda qilingan. Tankred va uning do'sti ustidagi temir niqob va hilpirayotgan Erminiya kiyimlari asarning dramatikligini oshiradi. Botib borayotgan quyoshning shafaq nurlari esa bo'lib o'tgan voqealardagi qayg'uni bildiradi. Pussen ijodiga xos muhim xususiyatlardan biri voqelikni harakatda tasvirlashdir. Bu rassom harakatini "gavdaning tili" deb ta'riflaydi. Rassom gavda harakati, yuzda bo'ladigan mimik o'zgarishlar, imo-ishoradan shaxsning ichki dunyosini ta'riflashda foydalanadi. 1630 yillarga kelib, Pussen ijodida hayot to'g'risidagi mungli falsafiy qarashlar namoyon bo'la boshladi. Inson hayoti nihoyatda qisqa va o'tkinchi ekanligini achinish bilan ifodalaydi. "Arkad cho'ponlari" (1632) asarida bu yaqqol seziladi. Surat syujeti qadimgi afsonalardan olingan bo'lib, rassom unga falsafiy mazmun bergan. Qabr toshidagi "Men ham Arkadiyada bo'lgan edim" degan yozuv yosh cho'ponlarni o'ylantirib qo'ygan. 1640 yil oxirlariga kelib, Pussen manzara janriga murojaat qila boshlaydi. Tabiat ko'rinishidagi ulug'vorlik, bepoyonlik, sirga to'la holat rassomni hayajonlantiradi. Pussen tabiatni odamlarsiz tasavvur eta olmaydi. Rassom asarlarida tabiatni ulug'vor va cheksizligini ifoda qiladi. Ularda inson va tabiat uyg'unligi, inson tabiat oldida kichik zarra ekashshgi talqin etiladi. Pussen ijodining so'nggi bosqichi namunasi "Polifemli manzara", "Gerkules va Kakus jangi", "Manzara" asarlari hisoblanadi.

Gerkules va Kakus jangi" asari syujeti I asr Rim yozuvchisi Vergiliyning "Eneida" poemasidan olingan. Unda antik qahramon Gerkulesning Kakus bilan bo'lgan jangi hikoya qilinadi. Kompozitsiyada tabiat ko'rinishi asosiy o'rinni egallaydi. Mahobatli tog', baland daraxtlar, osmondagi bulutlar ulug'vor, tabiat

ko‘rinishini yaratadi. Shu tabiat qo‘ynida tasvirlangan Gerkules va mag‘lubiyatga uchragan Kakus ko‘rinishi bu ulug‘vorlikni buzmagandek. Rassomning yil to‘rt fasliga bag‘ishlangan asarlari inson hayotining to‘rt fasl ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Pussen ijodida qalamsurat ham alohida o‘rin tutadi. Bu suratlar bo‘lajak asarning yaratish paytida ishlangan bo‘lib, rassom har bir asari kompozitsiyasi ustida uzoq vaqt ishlaganligini va kompozitsiya yaratish borasida izlaganligini ko‘rsatadi. Uning qalam suratlardagi tabiat ko‘rinishlari tasviri tasdiqlaydi. Pussen ijodi fransuz san‘ati tarixida muhim o‘rinni egallaydi. U yaratgan mumtoz uslub fransuz san‘atida keyingi asrda davom etdi, rivojlantirildi. Pussen vafotidan keyin shogirdlari qolmagan bo‘lsa ham, lekin XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab, ko‘pgina rassomlar uning ijodiga qiziqish bilan qaray boshladi. Uning haqiqiy davomchisi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarda yashab ijod etgan Jak Lui David bo‘ldi.

Klod Lorren (1600-1682). Klassitsizmning yirik vakili, klassik manzarani taniqli namoyandasi Klod Jelle (Lorryon uning adabiy taxallusi) yoshligida Italiyaga kelib qolldi. Keyingi hayoti Rim bilan bog‘liq bo‘ldi. Lorren asosan klassik manzarada ijod qilgan. Uning manzaralari lirik xis tuyg‘u bilan sug‘orilgan bo‘lib, ular ko‘p hollarda mungli kayfiyat tasvirlanadi. Rassom asarlarda tabiat tinch holatda ko‘rsatiladi. Uning asarlarida yarim vayrona bo‘lgan antik yoki afsonaviy me‘morlik qoldiqlari ko‘rkam daraxtlar fonida g‘oyat jozibali ko‘rinadi.

Lorren klassik manzara san‘atining vakilidir. Uning kompozitsiyalari aniq tartibda ishlangan. Lekin bu uning realistik harakteriga putur yetkazmaydi. Rassom havoga to‘la bepoyon kenglikni ustalik bilan ko‘rsatadi. Undagi nur va soya tovlanishlarini mahorat bilan gavdalandiradi. Rassomning "Tong", "Tush payti", "Kechki payt" asarlari o‘ziga xos rang tizimida yechilgan. Lorren qalamsurat san‘atida ham samarali ijod qildi. Uning naturadan ishlagan suratlari hamda ofortlari o‘zining hayotiyiligi bilan ajralib turadi va rassomning kuzatuvchanligidan dalolat beradi. Rassom klassik manzara janrining mukammal ko‘rinishini yaratdi. Uning ijodi keyinchalik fransuz va Yevropa san‘atiga sezilarli ta’sir o‘tkazdi.

Filipp de Shampen (1602-1674) portret san‘atida samarali mehnat qilgan san‘atkorlardan. Asli finlandiyalik bo‘lgan bu rassom yoshligida Parijga kelgan. Rassomning keyingi hayoti shu yerda o‘tgan. U o‘z ijodida flamand rangtasviri yutuqlarini, Pussen hamda balone akademizmi an‘analarini uyg‘unlashtirishga intilgan. Shampen tematik kompozitsiyalari diniy mavzuda bo‘lib, ularda rassom har bir asarining tashqi ta’sirchanligiga e’tibor beradi. Uning portretlari ham chuqur mazmunli, haqqoniy ishlagan. Kardenal Reshele portreta mashhur.

Rassomning ko'pgina yarim belgacha chizilgan portetlari o'zining chuqur psixologizmi, jiddiyligi va ma'nododligi bilan e'tiborni tortadi.

Lyudovik XIV (1661-1715) podsholik qilgan davrda ham absolyutizm o'zining eng mukammal ko'rinishiga erishdi, ham inqirozga yuz tuta boshladi. Dastlabki yillarda absolyutizm ma'lum ma'noda mamlakatning milliy iqtisodiy jonlanishi, manufaktura sanoatini rivojlanishi uchun xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik u mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga asta-sekin to'sqinlik qila boshladi.

Lyudovik XIV olib borgan urushlar hamda saroy kiborlarining haddan tashqari serxashamlikka intilishi, tantanali bayramlari, turli marosimlari xalqning ahvolini og'irlashtirdi, g'alayonlarni keltirib chiqardi. Biroq Lyudovik XIV davri san'at va madaniyatga kuchli ta'sir ham ko'rsatdi. Agar XVII asr birinchi yarmida san'atda turli oqim va yo'nalishlar bo'lishiga imkoniyat bo'lsa, keyinchalik esa faqat absolyutizmni ulug'lash va unga sajda qilish san'atning bosh yo'nalishi bo'lib qoldi. Chunki, klassesizm bu davr mafkurasi uchun mos tushdi va shu davrning asosiy uslubi bo'lib qoldi. Lekin bu yo'nalishdagi asarlarda klassitsizmga xos ulug'vorlik, tantanavorlikdan ko'ra xis-hayajonga to'la barokko ta'siri kuchli bo'ldi. Klassitsizm davrning asosiy yo'nalishiga aylanishida 1648 yilda tashqil etilgan Badiiy Akademiyaning roli ayniqsa sezilarli bo'ldi. Akademiya bu davrda absolyutizm targ'ibotchisi sifatida mamlakat badiiy hayotiga hukmronlik qildi. U san'at ustidan nazorat olib boradigan va uni rivojlanishini boshqaradigan muassasaga aylandi.

"Yuksak" va "tuban" janrning yuzaga kelishida akademiya asosiy rol o'ynadi. Tarixiy janrda yaratilgan asarlar yuksak janrdagi asarlar sifatida maqtaldi. Aksincha, oddiy hayotiy voqealarni ifodalovchi san'at asarlari "tuban" janrdagi asarlar qatoriga kiritildi. Mifologiya, allegorik syujetlar asosida ishlangan, diniy va tarixiy mavzudagi asarlar o'z-o'zidan yuksak janrga mansub deyildi. Bu asarlarni antik san'at an'alariga, Rafael, Balone akademizmi, Pussen an'alariga taqlidan ishlash asos qilib olindi. Akademiya tomonidan ishlab chiqilgan va san'atni "tartibga" solish sohasidagi bu qonun-qoidalar davr san'atida yagona yo'nalish bo'lishiga va san'atda rang-baranglikning yo'qolishiga sabab bo'ldi. Bu davrga kelib, me'morlik yetakchi san'at turiga aylandi. Absolyutizm hashamatli va katta me'morlik majmualari orqali sharaflandi, san'atning boshqa turlari ham shu yo'nalish bilan bog'lyq holda rivojlandi. Aristokratiyaning nafis amaliy buyumlarga bo'lgan talabini qondirishga qirol Gobelen manufakturasi muhim rol o'ynadi. Bu yerda qirol saroyini bezash uchun zarur uy-anjom buyumlari, mebel, shpaler va boshqa buyumlar ishlab chiqarildi. Bu buyumlar qirol saroyi zodagonlarini buyurtmasi va talabi asosida bajarildi. Me'mor, haykaltarosh, rassom va amaliy san'at

ustalarining hamkorlikda ishlashlari bu yillarda san'at turlari o'zaro uyg'unlikni ta'minlab, ajoyib me'morlik majmualari namunalari yaratilishiga sabab bo'ldi. Hiyobon-bog' (park) san'ati ravnaq topishi keyinchalik Yevropa san'atining, rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. XVII asr fransuz me'morchiligining nafis yodgorligi Versal' saroyi majmuasi (1603-1689) Lyudovik XVII ning qarorgohi edi. Lui Levo (1604-1670) hiyobon-bog' san'ati ustasi Andre Lenotr (1613-1700) tomonidan boshlangan va me'mor Jyul Ardruen Mansar (1646-1708) tomonidan tugallangan bu majmua absolyutizm g'oyalari qirol hokimiyatining abadiylikni aks ettiradi. Bu g'oya majmua kompozitsiyasining yechimida namoyon bo'ladi. Ansambl markazida qirol qarorgohi saroyi joylashgan bo'lib, u tevarak atrofidagi maydonni o'ziga bo'ysundiradi va yaxlitlashtiradi. Uning atrofidagi tabiat aniq, simmetrik REJA: asosida tashqil etilgan. Saroyning old tomoni serjilo va sodda, binolari esa tantanavor va sipo qilib ishlangan. Saroyning markaziy binosida qabulxona va bal o'tkazishga mo'ljallab qurilgan xonalar dekorativ bezakka boy. Saroyning markaziy xonasi qirolning yotoqxonasi bo'lib, unga boradigan zallar bezatilishiga alohida e'tibor berilgan. Sayilgohning rejasi ham qat'iy yagona o'q atrofida qurilgan, uning asosiy hiyoboni atrofida favvora va haykallar simmetrik asosida joylashtirilgan. Markazdagi katta xovuz esa unga tugallik bergan. Bronza va marmardan ishlangan haykaltaroshlik asarlari sayilgohga ko'tarinki ruh kiritgan. Bu haykallar dekorativ maqsadda ishlangan.

XVII asrning ikkinchi yarmida fransuz haykaltaroshligi ko'proq dekorativ va park san'ati bilan bog'liq holda rivojlandi. Fransuz plastikasining ana shu rivojlanishi fonida yirik fransuz haykaltaroshi, rassom va me'mori Per Pyuje(1620-94) ijodi ajralib turadi. Pyuje o'z ijodini yog'och o'ymakorligi bilan boshlagan. Italiya bo'ylab kezgan, Rim va Florensiyada ijod etib yashagan. Mikelanjelo, Bernini, Kartona ijodidan ta'sirlangan. Uning ilk asari Tulondagi ratusha peshtoqi uchun ishlangan haykalidir. Unda paxlavonning balkon balyustradasini ko'tarib turgan paytidagi ko'rinish dramatik talqin etilgan. Haykaldagi dekorativ detallarning boyligi, hajmlarning ifodali va yoqimli nur soyasida tovlanishi uning ta'sirchanligini oshirishda muhim o'rinni egallagan. Paxlavonlarning bo'rtgan mushaklari, baquvvat gavdalari hamda qiyofalari san'atkorning ishonarli bo'lishiga, o'z kompozitsiyalarining hayotiy bo'lishiga intilganligidan dalolat beradi. "Dam olayotgan Gerakl" haykalida ham jismoniy kuchli kishi qiyofasi yuksak mahorat bilan ishlangan. Rasm

Pyujenning Versal uchun ishlangan Milinli Kraton" haykalida inson azob uqubati va unga bardoshi emotsional kayfiyatda talqin etilgan. Rasm

Qo'li daraxt yorig'iga kirib qolyshi hisobiga sherdan yengilib halok bo'layotgan kuchli atlet fojeasi hayajonli va dramatik talqin etilgan. Uning hatti-

harakatida sharoitdan bu dahshatli vaziyatdan qutlishga intilish ko'rsatiladi. Uning qiyofasi, gavda va qo'l mushaklarining taranglashganligi va gavdaning kuchli harakati undagi kuch- qudratni ishonarli namoyon etadi. Umrini so'ngida yaratilgan bu asar, so'zsiz san'atkorning yuksak asarlaridan hisoblanadi. Saroy aristokratiyasi Pyuje ijodini unchalik qadrlamagan. Uning ijodi faqat XVIII asrdagina ko'pgina haykaltaroshlar tomonidan sevib o'rganildi. Uning yutuqlari rivojgantarildi.

Ranggasvir. Lyudovik XIV davri uslubining tipik vakili, qirolning birinchi rassomi, akademiyaning prezidenti Charl Lebryon (1619-90) rangtasvir san'atida samarali mehnat qildi. Haykaltarosh oilasida tug'ilgan, Semyon Vue ustaxonasida so'ngra Italiyada Pussen qo'lida o'qigan rassom tezda fransuz san'atida badiiy diktator vazifasini o'tay boshladi va o'z ijodi bilan davr badiiy hayotining mazmun va yo'nalishini belgiladi. Uning ijodida devoriy rasm yetakchi o'rinni egallaydi. Uning kompozitsiyalari o'ta dinamik, jimjimador va manzarali. Rassom hayotiy voqealarni jimjimador rang naqqoshligi bilan uzviy bog'lab ishlaydi. Bu uning ishlarini dekorativ manzarali jihatini yanada oshirib yuboradi. Rassom ko'pgina saroylarni bezashda qatnashgan. Luvr, Vofle, Vikont va Versal uchun devoriy suratlar ishlagan. Bu suratlarda Lyudovik XIV faoliyatiga bag'ishlangan kompozitsiyalar uchraydi. Rassom qalamsurat va kompozitsiyaga alohida e'tibor beradi. Kolorit esa uning e'tiboridan birmuncha chetda qoladi.

XVII asr ikkinchi yarmida tantanavor rasmiy portret sohasida ko'pgina rassomlar (masalan, G.Rigo, N.Lerjiler kabilar) samarali ijod qilib, keyingi Yevropa portretchiligiga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Mifologik va allegorik portretlar yaratildi. Bu davr fransuz portretchiligida dekorativ tamoyillar va barokko kuchli bo'lsa ham, lekin asr ohirida bu birmuncha susaygani va hayotiy va tabiiy kompozitsiyalar paydo bo'lgani seziladi. Bu davrning yirik portretchilari Giatsiot Rigo (1659-1743) Nikola Lerjiler (1656-1746) ijodi alohida ajralib turadi. Bu har ikki rassom ijodi keyingi asr portretchilik san'atiga katta ta'sir qildi. XVII asr oxiriga kelib, absolyut monarxiya o'z kuchini yo'qota boshladi. Lyudovik XIV olib borgan siyosat xalqning kuchli g'alayoniga sabab bo'ldi. San'atda ham klassitsizm o'z mavqeini yo'qota bordi. Xalq hayotiga qiziqish kuchaya bordi. Bu esa realistik san'at rivojlanishiga, uning janrlari kengayishiga, mavzusining rang-barang bo'lishiga zamin yaratdi.

Lyudovik XV (1715-1774) hukmronlik qilgan yillardan to burjua inqilobining boshlanishiga qadar bo'lgan davr (1789), odatda ma'rifatparvarlik asri deb yuritiladi. Bu davrda olim, yozuvchi va faylasuflarning katta guruhi yashab, ijod etdi. Ular voqelikka tanqidiy munosabatda bo'lishni, har bir narsaga aql bilan yondashishni yoqlab, "azob" chekayotgan insoniyat tomonida turib

kurashga otlandilar. Kishilarni hayotga ziyraklik bilan qarashga chaqirib, aql qudrati bilan ijtimoiy tuzum kamchiliklarini tuzatsa bo‘ladi, degan fikrni ilgari surdilar. San‘at orqali "komil insonni" tarbiyalash masalasiga e‘tibor berdilar. Ular zamonaviy san‘at mavzularini shu talab asosida tahlil etdilar. San‘atning demokratik yo‘nalishi va uning ta‘sirchanligini ma‘kulladilar. Uning tarbiyaviy ahamiyatini qadrladilar. Ma‘rifatparvarlarning bu qarashlari realizm rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

XVIII asr fransuz san‘ati taraqqiyoti ham ikkiga ajralib o‘rganiladi. XVIII asr birinchi yarmi san‘ati saroy ahllari va kiborlarning talabi va didi bilan bog‘liq. Ko‘ngil ochish uchun mo‘ljallangan san‘at asarlari, ishq-muhabbat mavzusi bu davr san‘atida keng o‘rinni egallaydi. Me‘morlik, amaliy san‘atda esa nafislik va jimjimadorlikka intilish yaqqol seziladi. San‘atning bu xususiyati bevosita shu davrning asosiy uslubi "rokkoko" (o‘ynohi)da yaqqol seziladi. Lekin bu yo‘nalish uzoq yashamadi. Burjuaziyaning mustahkamlana borishi, san‘atning keng jamoatchilikka mo‘ljallab ishlanishi uning demokratik yo‘nalishni kuchaytirib yubordi. Realistik yo‘nalish mustahkamlandi.

Me‘morlik. Absolyutizmning susayishi yirik saroy qurilishlarining deyarli to‘xtashiga olib keldi. Endilikda bur juaziya yuqori tabaqalari talabi va ishtiyoqi asosida shinam binolar qurish odat bo‘lib qoldi. Binoning maqsadga muvofiq bo‘lishiga, qulayligiga alohida e‘tibor berila boshlandi. Burjuaziyaning uchinchi tabaqasiga mo‘ljallangan ko‘p xonali turar joylar qurilishi avj oldi. XVIII asrning 20-yillarida yuzaga kelgan rokkoko uslubi 30-40-yillarda o‘zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Me‘morlik ansambllarida jimjimadorlikka e‘tibor berish kuchaydi. Rokkoko uslubida qurilgan binolarda klassitsizmga xos aniq simmetriya o‘rnini assimetriya, "tartibsizlik"egallay boshladi. Binolarning tashqi ko‘rinishini jiddiy va sipo qilgan holda xonalarni bezashga e‘tibor ortdi. Endilikda binolar, ularning xonalari uchun olingan nisbatlar ham yengil va nafislikka ega bo‘la boshladi. Xona ichki qismi yengil "pastel" rangida ishlangan naqshi, mifologiyadan olingan kichik-kichik suratlar bilan bezatildi. Xonalarning keskin burchaklari ham yo‘q qilinib, o‘rnini yoy shakli egallay boshladi. Jermen Bofor. Me‘mor Jermen Bofforning (1667-1754) intererlari bezatilishi va harakteri jihatidan rokkoko uslubining shu o‘ziga xos tomonini namoyon etadi. Tanlangan buyumlar (mebel, shkaf va boshqalar) ham xona harakteri va bezagiga moslangan. XVIII asr o‘rtalaridan boshlab, rokkoko uslubi kompozitsiyalarining haddan ortiq murakkabligi, jimjimadorligi tanqidga uchray boshladi. Me‘morlarni endilikda ko‘proq yunonlarning jiddiy va sodda me‘morlik san‘atlari qiziqтира boshladi.

XVIII asr me‘morchiligiga xos uslublar ehtiyotkorlik bilan boyitilib klassitsizm o‘ziga xos jihatlarini mustahkamlay bordi.

Jak Anj Gabriel (1699-1782) dastlabki ijodida ilk klassitsizmga xos jihatlar ko‘rina boshlaydi. Gabrielning yirik asarlaridan biri Parijdagi “Murosa maydoni” (1751-1769) bo‘lib, unda me‘morning novatorligi namoyon bo‘ladi. Bu dastlabki ochiq maydonlardan bo‘lib, Sena daryosi yoqasiga joylashgan va katta bir ansamblni markazlashtirish va tashqil etish uchun foydalanilgan. Maydondan uch tomonga nur singari yo‘l ketgan bo‘lib, Gabrielning maydon qurish uslubi keyinchalik rivojlangan klassitsizm davrida me‘morlar tomonidan keng qo‘llanildi. Versal parkidagi "Kichik Trianon" deb nomlangan qurilma ham Gabrielning muhim asarlaridan bo‘lib, u klassitsizmning dastlabki namunasi hisoblanadi. Tabiat bilan uzviy bog‘liq holda qurilgan bu binoda hamma narsa aniq, jiddiy va sodda, detallar nisbati va harakteri nafis va jozibador. Asr o‘rtalarida ijtimoiy binolar, jumladan teatr, savdo markazlari va shunga o‘xshash binolar ko‘plab qurildi. Parijda dastlab Parij homiysi avliyo Jenevevlar cherkovi uchun mo‘ljallangan, keyinchalik Fransiyaning mashhur kishilari maqbarasiga aylantirilgan "Panteon" me‘mor Jak Jermon Suffloning (1716-1780) eng katta qurilmalaridandir. Klassitsizmning yorqin namunasi bo‘lgan bu bino rejasi but shaklida bo‘lib, u baraban ustiga o‘rnatilgan katta gumbaz bilan tugallanadi. Baraban atrofi ustunlar bilan o‘ralgan, binoning old tomonida olti ustunli frontonli peshayvon qurilgan. Bino kompozitsiyasi piramidal bo‘lib, tepaga ko‘tarilgan sari uning detal va qismlari kichrayib, yengillashib borayotgandek tuyuladi. Bu butun binoga vazminlik va xotirjamlik baxsh etadi. Bino devoriga alohida e‘tibor berilgan. Haykaltaroshlik, monumental rangtasvir san‘ati hamda me‘morlik hajmlari uni ko‘rkam bo‘lishini ta‘minlagan.

Me‘morlik intereri bilan bog‘liq jarayonlar tasviriy va amaliy san‘atda ham o‘z ifodasini topdi. Jumladan, rangtasvir san‘atida shakllangan rokkoko uslubi dekorativ va dastgoh san‘atda o‘zini namoyish etdi. Devor, shift tepasiga ishlangan suratlar, gobelen kompozitsiyalari ko‘ngil ochishga mo‘ljallangan mavzular bilan to‘ldirildi. Dekorativ rangtasvirda odam qomati dekorativ unsurga aylana bordi va mayinlik xislatini ifodalashga bo‘ysundirildi. Rassomlar oqish, kulrang, pushti, tovlanuvchi oltinsimon ranglarning tuslanishiga e‘tibor berdilar. Biroq rasmlarning mavzusi birmuncha chegaralangan. Ishq-muhabbat, oqsuyaklarning ko‘ngil ochishi va dam olishini tasvirlovchi asarlar yaratildi. Pastoral janrida (tabiat qo‘ynida erkin, farog‘atda yashayotgan cho‘pon yigit va qizlar hayotiga bag‘ishlangan manzaralarini aks ettiruvchi janr) kompozitsiyalar yuzaga keldi. Ideallashtirilgan, nafis, mifologiya kahramonlariga o‘xshatib ishlangan portretlar ishlandi. Barokko san‘ati rivojlanishi bilan realistik san‘at ham o‘z mavqeini mustahkamlab bordi. Portret, manzara, natyurmort, maishiy janr sohasida hayotiy ta‘sirchan asarlar yaratildi. Fransuz san‘atidagi ana shu

rang-baranglik rassom va haykaltaroshlarni goh antik dunyoga, goh Gollandiya, goh Venetsiya ijodkorlariga murojaat etishga da'vat etdi.

Antuan Vatto (1684-1721) XVIII asrning yirik rangtasvir va qalamsurat ustasidir. U o'z asarlarida nozik tuyg'ularni, xissiy kechinmalarni poetik ruhda tasvirladi. Vattoning ilk ijodi davrida hayotiy mavzuda qator asarlar yaratgan. Bular ichida "Savoyar" (1709) hamda armiyadagi kundalik turmushni ifodalaydigan asarlari diqqatga sazovordir. U 1710 yilda san'at muxlislari va xomiylari to'garagiga qabul qilinadi va butun umrini shu to'garak bilan bog'laydi. Endilikda rassom aristokratlar hayotiga, ishq-muhabbat mavzusiga bag'ishlangan suratlar muallifiga aylanadi. Shuningdek teatr hayotiga bag'ishlangan kompozitsiyalar ham ishlaydi. Rassomning "Siteru oroliga ziyorat" (1717) nomli mashhur asarida romantik manzara o'rnida ichkari tomon borayotgan yigit va qizlar tasvirlangan. Uzoqda esa tuman orasida jannat farishta-yu malyikalarga to'la baxt oroli ko'rinadi. Rassom kompozitsiyadaga har bir obrazning xis-tuyg'u va kechinmalarini ochishga harakat qiladi. Shu maqsadda ularning xatti-harakati, yurish-turishi, atrofdagilarga muomalasi, qosh, ko'zlari ko'rinishini aniq ko'rsatadi.

Asardagi tabiat manzarasi chuqur lirik tuyg'u bilan sug'orilgan bo'lib, ularning kayfiyatlariga mos keladi. Vatto kam figurali maishiy janrga ham tez-tez murojaat qiladi. Bu o'rinda uning "Savoyar", "Jil" (1720), "Injiq qiz" (1710 yil oxiri) kabi asarlarini eslash mumkin. Kompozitsiyaning bunday yechimi rassomga o'z qahramonlari xissiy kechinmalarini chuqur ifodalash imkoniyatini beradi. "Jil" asarida tasvirlangan obrazdagi ma'yuslik va g'amginlik uning yolg'iz turishi orqali yanada bo'rttirilgan. Vattoning so'nggi "Jersen do'koni" (1721) deb nomlangan yirik asarida suratlar bilan savdo qiluvchi do'sti Jersen do'konining ichki ko'rinishi tasvirlangan. Rassom haridorlar qiyofasini tasvirlab, ularning san'atga munosabatini ko'rsatgan. Vatto qalamsurat borasida ham samarali ijod qilgan. Uning qalamsuratlari bevosita hayotning o'zidan ishlangan bo'lib, hayotiyligi, chiziqlarining ifodaliligi va ta'sirchanligi bilan e'tiborni tortadi. Vatto ijodida bir tomondan realistik, ikkinchi tomondan, barokkoga xos xususiyatlar sezilsa, aksincha shu davrning boshqa bir rassomi Fransua Bushe (1703-1770) ijodida rokkoko uslubi yetakchilik qiladi. Qirolning birinchi rassomi, akademiya direktori, aristokratiya san'atkori bo'lgan Bushe kitob bezash, intererlar uchun dekorativ pannolar ishlash yo'nalishida samarali ijod qildi. Shpaler uchun kartonlar ishladi. Parij opera teatri uchun dekoratsiya va kiyimlar yaratdi. O'z ijodida mifologiya, allegoriya va pastoral janrlariga murojaat etdi. Uning asarlari syujetida nozik va malohatli Veneralar, sho'x va o'yinqaroq maloikalar, ishq-muhabbat ko'yida yongan yosh cho'pon yigit va qizlar obrazi yorqin gavdalanadi.

Musavvir asarlari serjilva, chiziq va shakllarining o‘zaro murakkab naqshlanishi bilan harakterlanadi. Asarlari koloritida ham oqish, ko‘kish ranglar gammasi yetakchilik qiladi. Rassom obrazlarning xatti-harakati, mimikasi orqali ular holatini ochishga intiladi. Lekin bu holatlar sun’iy bo‘lib tuyuladi. U o‘z obrazlarini ideallashtirishga intiladiki, bu ham uning asarlarini hayot haqiqatidan uzoqlashtiradi. Bushe ijodining eng gullagan davrida yaratilgan "Veneraning tug‘ilishi" uning asarlariga xos jihatlarini yaqqol namoyish qiladi. Bushe manzara janrida ham ijod qilgan. Ular o‘zining lirik kayfiyati bilan iliq taassurot qoldiradi. Rassom qalamsuratlarini ham o‘ziga xos asar sifatida ko‘rinadi.

XVIII asr o‘rtalaridan boshlab, kiborlarning haddan ortiq noziklashib, hayotdan uzoqlasha borgan san’ati Deni Didro boshchiligidagi burjua tanqidchilari tomonidan keskin tanqidga uchradi. Jumladan Didro kiborlar san’atining hayotdan uzoqligini, haddan tashqari sun’iyiligini tanqid qilgan holda, hayot hodisalarini aniq, gavdalantri’b, yangi zamon kishilari tarbiyasiga xizmat qila oladigan san’atni ma’qulladi. Didro boshchiligidagi tanqidchilar fikricha san’at chuqur mazmunli bo‘lishi, kishilarga hayot muammolarini bilishga ko‘maklashishi hamda jamiyat rivojlanishiga xizmat qilishi zarur edi. Didroning san’atga bu xil qarashlari uning Luvrda bo‘lgan ko‘rgazmalarga atab yozilgan maqolalarida o‘z ifodasini topdi.

Didro hurmatiga sazovor bo‘lgan, o‘z ijodi bilan uning qarashlariga yaqin rassomlardan biri Jan Batist Simeon Sharden (1699-1779) edi. Sharden rassomlikdan tugal akademik tarbiya olmadi. Naturadan raem chizish, hayotni sinchiklab o‘rganish uni buyuk fransuz realist rassomi darajasiga ko‘tarilishiga olib ketdi. U oddiy turmush hodisalaridan, hunarmandlarning ustaxonalaridan, "uchinchi tabaqa" vakillarining kundalik hayotidan san’atda ifodalash mumkin bo‘lgan syujetlar ko‘ra oldi. Ulardan poeziya topa oldi.

1726 yili ana shu mavzudagi ikki asari bilan ko‘pchilik e’tiborini o‘ziga tortdi. Ko‘rgazmaga qo‘yilgan ikki natyurmorti uchun Akademik unvoniga sazovor bo‘ldi. Sharden XVIII asrda Fransiya san’atida shakllana boshlagan natyurmort janrida samarali ijod qildi. U oddiy ko‘za, shisha idishlar, stakan, oddiy oshxona buyumlaridan, meva va sabzavotlar, ba’zan esa baliq yoki ovda otilgan o‘ljalarni tasvirlab natyurmortlar ishladi. "Mis idish", "san’at anjomlari", "Natyurmort". U tabiat ne’matlarining rang-barang shakli, fakturasi, hajmi, ko‘rinishidan zavqlanib, ularni ifodalashga harakat qildi. Ulardagi nur va rang tuslanishlarida go‘zallik kashf etdi. Didro uning asarlarini "Buyumlar atrofidagi havo harakati qanday ajoyib tasvirlangan, mana kim bo‘yoq va refleklar garmoniyasining qadriga yetadi" deb yuksak baholab, Shardenni Yevropa rassomlari ichidagi birinchi kalorist sifatida tan olgan edi. Haqiqatdan ham G‘arb san’atining ajoyib kalorist rassomi Sharden o‘zining sodda, lekin ulug‘vor

natyurmortlarida buyumlarning massasi, fakturasini koʻrdi. Ular ichida yashirin kuchni his etdi. Ularning havo bilan oʻralgan, nur bilan yoritilgan holatini mohirona ifoda etdi, Sharden maishiy janrda ham samarali ijod qilgan. Uning “uchinchi tabaqa” kishilari hayotiga bagʻishlangan kompozitsiyalari sodda va samimiy (“Ovqat oldidan ibodat”, 1744 “Kir yuvuvchi”, 1737). Ulardan na dramatism, na nasihatgoʻylik seziladi. Hamma oʻz turmushi bilan band. Shulardan rassom chuqur ahloqiy mazmun koʻra oldi. Rassom asarlarni yuksak mahorat bilan ishlanishi, ranglar uygʻunligi uning asarlariga taʼsirchanlik bahsh etadi. Sharden XVIII asr fransuz sanʼatida realistik portret yaratgan dastlabki ijodkorlardandir. Uning “Avtoportret”, “Qayligʻim portreti” mashhurdir.

XVIII asr realistik sanʼatining rivojlanishi portret sanʼatiga qiziqish bilan bogʻliqdir. Bu davr portret sanʼatida ikki yoʻnalish mavjud boʻldi. Biri kiborlar didi va xohishi asosida yaratilgan parad portret, ikkinchisi voqelikni toʻlaqonli koʻrsatishga qaratilgan realistik portret yoʻnalishidir. Shunday sanʼatkorlardan biri Mores Kanten Latur (1704-1788) boʻlib, u oʻz zamondoshlarining koʻplab portretlarini yaratib qoldirdi. U oʻz portretlarini koʻproq postelda ishlab, bu texnikada katta muvaffaqiyatga erishgani uchun “pastel qirol” degan nomga sazovor boʻldi. Davrning ilgʻor kishisi boʻlgan Latur oʻz portretlarida tasvirlanuvchilarning ichki dunyosini ochishga, uning harakteri, ijtimoiy oʻrni hamda kasbini koʻrsatishga harakat qildi. Odamning ichki dunyosi uning qiyofasida ifodalanishi masalasi rassomni qiziqitirdi. Odam yuzida boʻlgan jiddiy oʻzgarishlar (koʻz, qosh, lab, peshona va hokazo) orqali oʻz qahramonini ichki dunyosini yoritib berdi. Uning qahramonlari doim faoliyatda, harakat paytida tasvirlanadi. Volterga bagʻishlangan portreti hamda oʻz avtoportretida shu xususiyatni koʻrish mumkin.

Sanʼatning tarbiyaviy rolini oʻzicha tushungan Jan Batist Gryoz (1725-1805) kompozitsiyalarida didaktikaga koʻproq eʼtibor berdi. Shu maqsadda u oʻz qahramonlarini oliyjanob, yuksak ahloqli, yaxshi niyatli qilib koʻrsatishga harakat qildi. Bu uning asarlarida sunʼiylikni kuchaytirib, ularning qiymatini uzaytirdi.

Rassom ijodiga xos bu xususiyat, ayniqsa, uning koʻp figurali kompozitsiyalarida yaqqol sezildi, masalan, “Shol boʻlgan odam” (1763) asarida. Gryoz ijodining yorqin jihati uning portretlarida namoyon boʻldi. Uning farishta-maloikalarga atab ishlangan “boshchalari” ham unga oʻz vaqtida shahrat keltirdi. Gryoz qalamtasvirlari ham realistik harakterga ega.

Bushe va Sharden ustaxonasida tahsil koʻrgan Onore Fragonar (1732-1806) ijodi ham XVIII asr fransuz sanʼatida muhim oʻrin egallaydi. Uning moyboʻyoqda ishlangan maishiy janrdagi asarlarida, qalam va sanginada ishlangan suratlarida shu davr fransuz sanʼatida mavjud boʻlgan yoʻnalishlar oʻz

ifodasini topgan. Jumladan, uning ilk ijodida (“Arg‘imchoq” 1767, “Yashirincha bo‘sa” 1760) baroqqo uslubiga yaqinligi seziladi. U real borliqning rang-barangligini, no‘rning boy o‘yinini tasvirlashga harakat qiladi. U asta-sekin oddiy hayotga murojaat qila boshlaydi (masalan, “Kir yuvuvchilar”). Tabiat ko‘rinishlari o‘zining ulug‘vorligi bilan unga ilhom bahsh etadi. Fragonlar portret san‘atida ham samarali ijod qildi. Uning portretlarida inson qalbidagi hayajon, bezovtalik holatlari tasvir etildi. Fragonlar intim-lirik plandagi portretlari bilan keyingi asr romantizmiga xos xususiyatlarni boshlab berdi.

Haykaltaroshlik. Haykaltaroshlik ham ko‘proq intererlarni bezash san‘atiga xos rokkoko uslubiga asoslandi. Mifologik va allergorik syujetlarga qiziqish ortdi. Bu mavzular shu davrda keng yoyila boshlagan mayda plastikada ko‘p ishlandi. Lekin burjuaziyaning did va qarashlari o‘zgarishi bilan shu davr haykaltaroshligining mavzu va harakteri o‘zgara boshladi. Ishlangan haykal kompozitsiyasining sodda va jiddiy bo‘lishi, kam detallardan foydalanib, asar yaratishga intilish sezilarli bo‘ldi. Yaratilgan asarlarda realistik jihat kuchaya bordi. bu yangi shakllanib kelayotgan jarayonlar dastlab portret san‘atida, keyinroq monumental haykaltaroshlikda ko‘rina boshladi. Ana shu izlanishlar yirik fransuz haykaltaroshi Eten Moris Falkone (1716-1791) ijodida o‘z yorqin ifodasini topdi. Folkon’e o‘z ijodini intim-lirik plandagi haykallar ishlash bilan boshladi. Chinni manufakturasiga badiiy rahbar bo‘lgandan keyin (1757) mayda plastikada ijod qilib, fransuz chinni san‘ati rivoj topishida katta rol o‘ynadi. 1850 yil oxirlaridan boshlab, Flakone ijodida antik davr san‘atiga qiziqish orta bordi. U asar mazmunini chuqurlashtirish, uning badiiy tahlili sodda va jiddiy bo‘lishiga e‘tibor bera boshladi. Bu uning keyinchalik yirik monumental haykaltarosh usta darajasiga ko‘tarilishiga asos bo‘ldi. Uning Peterburgdagi “Mis chavandoz” (1766-1782) haykali shundan dalolat beradi. (Bu haykal haqida kitobning “Rus san‘ati” bo‘limida batafsil ta‘rif berilgan.)

XVIII asr fransuz haykaltaroshligiga xos realizm Jan Antuan Gudon (1741-1828) ijodida, ayniqsa, uning portretlarida yorqin namoyon bo‘ldi. U o‘z ijodi bilan noziklashib ketgan rokkokoga ham, klassitsizmning ortiqcha ritorikasiga ham qarshi chiqib, voqelikning o‘ziga murojaat qildi. U antik san‘atni va o‘z davrining mashhur haykaltaroshlari asarlarini qunt bilan o‘rgandi. Ammo ular tobe bo‘lib qolmadi. Gudon uzoq vaqt odam anatomiyasini o‘rganib, o‘zining mashhur anatomik haykali (terisi olib tashlangan erkak haykali) yaratdi. San‘atkorning yigirma olti yoshda yaratgan bu haykali keyinchalik tasviriy san‘at asosini o‘rganuvchilar uchun ko‘rgazmali namuna bo‘lib qoldi. Gudon o‘z ijodini monumental haykaltaroshlikdan boshladi, lekin portret san‘atida uning haqiqiy iste‘dodi namoyon bo‘ldi. U o‘z qahramonlari tashqi qiyofasini juda o‘ziga o‘xshatgan holda, ularning ichki dunyosi, o‘ychan

kayfiyatini ham aniq ifoda qildi. Uning qahramonlari harakatchan, otash qalbli kishilardir. Gudonning portret san'atidagi ijodi 1770-1780 yillarda samarali bo'ldi. U juda ko'p portretlar ishladi. Ayniqsa, ilg'or kishilar, ma'rifatparvarlar, mutafakkirlar, eskilikka qarshi kurashuvchilar, irodali va harakatchan tashabbuskorlarga atab ishlagan portretlari e'tiborlidir. Bu asarlari, uni ma'rifatparvarlarga yaqinlashtiradi. Ularning mafkurasini targ'ib etuvchi san'atkor darajasiga ko'tardi. Bu haykaltaroshning yirik asari "Volter haykali"da (1781) yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu haykalda faylasuf Volterning kresloda o'tirgan payti tasvirlangan. Uning biroz buqilgan qomati va o'tirishida horg'inlik va qaysarlik alomatlari seziladi. Lekin uning o'tkir qarashlarida, yengil tabassumida o'tyurakli, ziyrak, o'z suhbatdoshi bilan bahslashishga tayyor turgan shaxs qiyofasi gavdalandi.

XVII asrda Flamandiya san'ati.

XVI asrda Niderlandiyada bo'lgan inqilob uning shimoliy viloyatlarida Gollandiya burjua respublikasining tashqil topishiga olib kelgan bo'lsada, uning janubiy qismidagi Flamandiya Ispaniyaga qaramligicha qolaverdi. Mahalliy dvoryan va ruhoniylar feodallari ispanlarga yon berib, xalq milliy ozodlik kurashini bostirishda qatnashib o'z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Ular bosqinchilar homiyligida dabdabali hayot kechirdilar. Cherkov, yirik aristokratiya va burjuaziya shu davr san'atining asosiy buyurtmachisi bo'lib qoldi.

XVII asrda flamand san'ati rangasvirda realistik san'atning yangi qirralarini kashf etib, jaqon san'ati tarixida yangi sahifa ochdi. Cherkov san'atning asosiy buyurtmachisi sifatida yangi qurilayotgan yoki ta'mirlanayotgan kichik va katta ibodatxonalarni katta-katta devoriy suratlar bilan bezattirdi. Mexroblar uchun yirik suratlar ishlatdi. Bu suratlar o'zining drammatizmi va ta'sirchanligi bilan ommani o'ziga jalb etishi va cherkov g'oyalarini targ'ib etishi zarur edi. Aristokratiya va shakllalshb kelayotgan burjuaziya ham buyurtmalar berishda cherkovdan qolishmaslikka intiddi. Ular ham o'z qasr va saroylarini serhasham va go'zal bo'lishiga katta e'tibor berdilar. Diniy, mifologik va dunyoviy mavzuda suratlar ishlatdilar, portretchilikka qiziqib qaradilar. Bu XVII asr flamand san'ati uslub va mavzu rang-barangligini belgilashda muhim rol o'ynadi. Yevropa barokkosi bu yerda o'ziga xos ko'rinish kashf etdi. Rangdor, kompozitsiyasi yuksak professional mahorat bilan ishlangan to'laqonli asarlar yaratildi. Shu davrda flamand barokkosi o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi.

Flamand rangasvir san'atining yo'l boshchisi, Yevropa san'atining yirik vakili Rubens asli germaniyalik bo'lib, yoshlik yillarida ota-onasi bilan Flamandriyaga ko'chib keldi. Shu yerda lotin maktabida o'qidi, so'ngra rassom

Otto van Veey ustaxonasida viriyot asoslarini egalladi. Rubensning rassom bo'lib yetishishida uning Italiya bo'ylab qilgan safari, ayniqsa, muhim bo'ldi. Antik va Uyg'onish (Renessans) san'ati vatani Italiyada Rubens buyuk san'atkorlar asarlari bilan yaqindan tanishdi.

Ayniqsa, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Titsian, Veroneze va Karavajo ijodi unga qattiq ta'sir qildi. Ularni yosh rassom qunt bilan o'rgandi. 1608 yili Rubens Antverpenga qaytib kelgach, ijodga sho'ng'idi. Turli mavzularda asarlar yaratdi, portretlar ishladi. Rassomning dong'i keng yoyila boshladi. Buyurtmachilarning ko'payishi unga ustaxona tashqil etish imkoniyatini yaratdi. U o'z atrofiga iste'dodli yoshlarni to'pladi, graverlar maktabi tashqil etdi. Rassomning ilk ijodi 1610 yillarga to'g'ri keladi. Shu yillarda uning ijodida Gretsiya maktabi hamda Karavajo ta'siri seziladi. Lekin rassom asarlari dinamik jo'shqin, ichki kuch-qudratga to'laligi bilan e'tiborini jalb etdi ("Butdan tushirish", 1610-11). Rassomning mifologik va allegorik mavzudagi asarlari ham o'ziga xos. Ular hajm jihatdan katta, rangi yorqin va dekorativ, xishayajonli, obrazlari esa to'laqonli, zabardast, kuch-quvvatga to'la. Rassom qaysi mavzuga murojaat qilmasin, u o'z qahramonlarini jismoniy baquvvat qilib gavdalandiradi ("Vakxanaliya", "Levkip qizlarining ug'irlanishi", "Sher ovi", "Cho'chqa ovi"). 1620 yildan Rubens ijodining eng gullagan davri boshlanib, asarlarining emotsional jihati yanada kuchaydi. Endilikda rang uning asarlarining ta'sirchanligini belgilovchi va kompozitsiyasini tashqil etuvchi asosiy vosita bo'lib qoldi. Shu yillarda yaratgan dastlabki e'tiborli asarlaridan biri "Persey va Andromeda" (1620-21) kompozitsiyasi hisoblanadi. Qadimgi yunon afsonalaridan olingan syujet asosida ishlangan bu asar o'zining obrazli plastik yechimi, hamda tasvirlanuvchilarning psixologik holati yorqin ifodalanishi bilan tomoshabin diqqatini o'ziga tortadi. Rassomning Mariya Medichi hayotiga bag'ishlangan tarixiy mavzudagi asarlar turkumi (1622-25) san'at tarixida muhim voqea bo'ldi. Lyuksemburg saroyini bezash uchun mo'ljallangan bu rasmlar Fransiya qirolichasi hayoti va faoliyatini yoritishga qaratilgan. Rassom bu turkumdagi asarlarni ishlashda real ko'rinishlarni noreal obrazlar bilan uyg'unlashtirib ishlaydi. Real shaxs, sharoit, muhit tasviri arxeologik va mifologik obrazlar qurshovida o'ziga xos yangi dunyo sifatida ko'rinadi. Rubensning shu yillarda yaratgan portretlari ham o'zining chuqur lirikasi, hayotiyliigi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Rassomning mashhur asarlaridan biri "Izobella portreti" (1625)dir. Tasvirlanuvchining mungli nigohi va ochiq chehrasida uning sof qalbi, nafosatli ayol sifatidagi qiyofasi yorqin ifodalangan. 30-yillar rassom ijodining so'nggi davri bo'lib, endilikda Rubens katta bo'lmagan hajmli asarlar ishlashga ko'proq e'tibor bera boshladi. O'zining ko'p vaqtini shahardan tashqarida o'tkazdi. Shu davrda yaratilgan asarlari

mazmunan chuqur, ularning kompozitsiyasida hotirjamlik seziladi. Shu yillarda rassom oddiy xalq hayotiga ko‘proq murojaat qila boshladi, tabiat manzaralarini ishladi, o‘z yaqinlarining portretlarini chizdi. Ayniqsa, o‘z oilasi Yelena Fourmen va bolalarini tasvirlab qator kompozitsiyalar yaratdi. Rassomning qishloq hayotiga bag‘ishlangan asarlari ham diqqatga sazovor. Xushchaqchaq, serzavq dehqonlarning raqs va o‘yinlariga bag‘ishlangan asarlari nihoyatda jo‘shqin va ta’sirli ishlangan ("Dehqonlar raqsi"). Rubens ijodi Yevropa san’ati tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning keyingi taraqqiyotini Rubens ijodi ta’sirisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Flamand ranggasviri ravnaqi ham Rubens ijodi bilan cham-barchas bog‘liq. Ko‘pgina flamand rassomlari uning ijodidan ta’sirlandilar, uni davom ettirdilar. Rassomning ko‘pgina shogirdlari flamand ranggasviri shuhratini oshirishga o‘z xissalarini qo‘shdilar.

Van Deyk (1599-1641). Rubens shogirdlaridan biri mashhur rassom Antonis Van Deyk hisoblanadi. Dastlabk X. Van Balen, so‘ngra Rubens ustaxonasida tasviriyot asoslarini o‘rgangan bu rassom o‘z ijodini diniy-mifologik plandagi asarlar yaratish bilan boshladi. Kompozitsiyasi dinamik, obrazlari to‘laqonli, ranglari yorhin yuksak mahorat bilan ishlangan uning bu asarlarida Rubens ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Lekin asta-sekin Van Deyk asarlarida bu hislatlar kamayib, obrazlarning plastik yechimi noziklashib, ko‘tarinkilik ruhi lirik kayfiyat bilan almashib, ishlash uslubi ham nafislashib boradi. Rassom dramatik mavzularga murojaat qiladi, o‘z diqqatini psixologik holatga qarata boshladi. Bu uni portret janriga murojaat qilishga da’vat etdi. U kibarlar portreti ustasi sifatida tanildi. Uning portretlarida kibarlar muhitida tarbiyalangan, nafis didli, xotirjam va o‘z kuchiga ishongan olijanob kishilar qiyofasi ko‘rinadi. Uning ilk portretlari flamand burger va zodagonlari hamda ularning oila a’zolariga bag‘ishlangan ("Oilaviy portret". 1618-1626). Keyinroq u Gretsiyada yashaganida ham kibarlarning sevimli portretchisiga aylandi. Bu yerda uning portretchilik san’ati ravnaq topdi. U ishlagan obrazlar baland bo‘yli, turishlari mag‘rur. Ularning ko‘rkam liboslari portretlarini yanada ko‘rkam bo‘lishini ta’minlagan. Van Deyk umrining so‘nggi o‘n yilini Angliyada Karl I saroyida o‘tkazdi. Shu yerda qirol va uning oilasi a’zolari portretini chizdi. U ishlagan portretlarda dekorativlilik birmuncha kuchaydi, rassom tez-tez ko‘kimtir kumushrang gammaga murojaat qila boshladi. Angliyada yarattan asarlari ichida "Karl I ning parad portreti" (1635) alohida o‘rinni egallaydi. Van Deyk portreti chizilgan o‘ziga xos jihatlarini ma’lum darajada ideallashtirgani holda, uning yengil tabiat, maqtanchoq va irodasi kuchsiz davlat arbobi ekanligini ham ustalik bilan ochib beradi.

Yakob Iordans (1593-1626) ham Flamandiyaning yirik rassomlaridan biridir. Uning diniy va mifologik planda ishlangan kompozitsiyalari o‘z

harakteri jihatidan hayot lavhalarini eslatadi. Rassom Rubens asarlaridagi singari to‘laqonli, jismoniy baquvvat dehqonlar obrazlarini yaratadi. Iordane o‘z ijodida turli maqol, masal va afsonalarga murojaat qildi. Jumladan, uning "Satir dehqonlar huzurida" (1620) asari syujeti qadimgi yunon dramaturgi Ezop yozgan masaldan olingan bo‘lib, unda o‘rmonda yashaydigan satir (yarim odam, yarim echki shaklidagi afsonaviy maxluq) bilan dehqon do‘st bo‘lganligi va satir dehqonning issiq ovqatni puflab sovo‘tgani va sovuqda muzlagan qo‘lini puflab isitganini ko‘rib, hayron bo‘lgani va uni ikkiyuzlamachilikda ayblab, aloqasini uzganligi hikoya qilinadi. Iordane ijodiga xos xususiyat uning katta va ko‘p figurami kompozitsiyalarga murojaat qilishida ko‘rinadi. Kompozitsiyada tasvirlangan odamlar yirik va jismoniy baquvvat. Ularning ruhiy kechinmalari tasvirlanuvchilarning mimik o‘zgarish, xatti-harakati orqali ko‘rsatiladi. Shakllarning to‘laqonli plastik yechimi asar kompozitsiyasining dinamik holatida muhim rol o‘ynaydi va tasvirlanayotgan syujetni ishonarli va hayotiy bo‘lishiga xizmat qiladi. Iordansning "Loviya qiroli bayrami" (1636) asari shu jihatdan e‘tiborlidir.

Flamand san‘atida realistik yo‘nalish muhim o‘rin egallaydi. Natyurmort va maishiy janrlarda ham ana shu xislatlar aniq, o‘zini namoyon etadi. Katta hajmdagi natyurmort va maishiy janrdagi kompozitsiyalar flamand san‘atida o‘ziga xos janr sifatida xalqning tinch hayot go‘zalligi, farovonlik, to‘kinsochinlik haqidagi ta’sirchan ifoda qiladi. Flamand san‘atida katta hajmdagi monumental dekorativ planda sermaxsul ijod qilgan, rassom Frans Sneyders (1579-1657) bo‘lib, uning "Do‘kon" deb nomlangan natyurmorti diqqatga sazovordir. Turli meva, ovda otilgan qush va hayvonlar, ovlangan baliqlar do‘kon peshtaxtalarini to‘ldirib yuborgan. Ularni harid qilayotgan odamlar ko‘rinadi. Asar yorqin bo‘yoqlarda yuksak mahorat bilan ishlangan.

Adrian Brauer (1605-1638) va Tenirs Kichik David (1610-1690) maishiy janrda ijod qilib, flamand san‘ati" ravnaqiga o‘z xissalarini qo‘shdilar. Oddiy xalq. hayotiga bag‘ishlangan asarlari bilan san‘at tarixida o‘z nomlarini qoldirdilar. Ularning goh yengil yumor, goh satira bilan sug‘orilgan asarlari odamlar orasidagi turli munosabatlar haqida hikoya qiladi ("Karta o‘ynash vaqtidagi mushtlashish"). David Tenirs ijodida hayvonlar, jumladan, maymunlarga bag‘ishlangan yumoristik asarlar uchraydi ("Karta o‘ynayotgan maymunlar") va xokazo.

Savollar:

1. XVII-XVIII asr Yevropa san‘ati taraqqiyotining sabablari nimada va bu davr san‘atida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
2. Barokko, klassitsizm va boshqa uslublar, ularning bir-biridan farqi nimada?

3. XVII-XVIII asrda yashab ijod etgan rassomlardan kimlarni bilasiz va ularning asarlarini aytib bering.

MAVZU: XVIII - XX ASRLAR SAN'ATI.*REJA:*

1. XVIII-XIX asr birinchi yarmida chet el san'ati.
2. Rossiyaga Yevropadan kirib kelgan oqimlar va uning yirik vakillari.
3. XIX-XX asr chet el san'ati.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar san'atda G'oyaviy badiiy mazmunning o'zgarishiga olib keldi. Ba'zi demokrat rassomlar ijodida proletariatning revolyutsiyasi bilan bog'liq bo'lgan asarlar paydo bo'la boshladi, san'at asarlarining tarbiyaviy imkoniyatiga alohida e'tibor berila boshlandi.

Tanqidiy realizm rivojlandi. Rassomlar o'z asarlari bilan idealistik san'atga qarshi chiqib, aristokratiya parokandaliklarini tanqid qila boshladilar. Bu o'rinda angliyalik rassom Uilyam Xogartning satirik kartina va gravyularini, germaniyalik rassom D.Xodovetskiyning hayotiy qalam suratlarini eslab o'tish mumkin. XVIII asrning oxirgi choragida Yevropa tasviriy san'atidagi asosiy oqim klassitsizm oqimi bo'lib qoldi. Bu oqim o'zining to'liq mohiyatini ayniqsa, fransiya san'atida namoyon qildi. Bu yerda u revolyutsion mazmun bilan suqorilib, burjuaziya revolyutsiyasi g'oyalarini targ'ib etdi. Bu revolyutsion klassitsizmning yirik vakili va yo'l boshchisi Jak Lui David ijodida yaqqol sezildi. Uning "Goratsiyalar qasami" asari revolyutsion klassitsizm oqimining xarakterli namunasi. Bu kartinaning syujeti Rim respublikasi tarixidan olingan bo'lib, asarda otaning o'z o'g'illarini dushmanlariga qarshi jangga borishga da'vat etib, ularga qilich tutqazayotgan vaqti tasvirlanadi. Rassom bu asarida fuqarolik burchini har qanday shaxsiy manfaatdan ustun qo'yadi. Yuksak ideallar uchun har qanday qiyinchiliklarni yengishga, kerak bo'lganida qurbon bo'lishdan ham qo'rqmaslikka da'vat etadi. David ijodining eng cho'qqisi "Maratning o'limi" nomli asarida namoyon bo'ldi. Bu asar XVIII asr Yevropa tasviriy san'atining eng nodir asari hisoblanib, unda fransuz revolyutsiyasining dohiysi Maratning o'ldirilishi tasvirlangan. Bu asarida David konkret voqea asosida yuksak badiiy obraz yaratadi. "Maratning o'limi" revolyutsiya qurbonlari uchun yaratilgan asar sifatida, ommani revolyutsion ruhda tarbiyalashga xizmat qildi, ularni kurashga chorladi. David revolyutsiya yillarida portret janriga ham murojaat qildi. Revolyutsiya qatnashchilarining, shuningdek oddiy kishilarning portretlarini yaratdi. Ularning bo'ysunmas xarakteri, psixologik holatini ochib beradi. Bu o'rinda uning "Ayol" portreti diqqatga sazovordir.

Yevropa san'atida XVIII asrning oxirida vujudga kelgan yana bir yirik oqimlardan biri Romantizm bo'ldi. Bu oqimning eng gullagan davri 1820-30 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda romantizm oqimining vakillari o'zlarining xarakterli asarlarini yaratdilar. Romantizm vakillari san'atni his-tuyg'uga, voqelikni dinamik harakat vaqtida tasvirlashga, yorqin ranglar gammasiga alohida e'tibor berdilar. Ular klassitsizm vakillariga nisbatan real voqelikka ko'proq e'tibor bera boshladilar. Romantizm oqimining o'ziga xos tomonlari shu oqimning yirik vakili va asoschilaridan biri Teodor Jeriko ijodida o'z ifodasini topdi. Uning "Meduza soli" polotnosida bo'lib o'tgan voqea - "Meduza" kemasining Atlantik okeanida halokatga uchrashi tasvirlanadi. Ochiq okeanda "Meduza" kemasi suv osti qoyasiga urilib, parchalanib ketadi. Kemada qutqarish uchun hech qanday vositalar yo'q edi. Shu boisdan kema a'zolari kema qoldiqlaridan sol yasab olishadi va uning ustiga 149 kishi chiqib oladi. Sol ochiq okeanda 14 kun kezadi va shulardan faqat 15 odam omon qoladi. Tasodifan o'tib ketayotgan kema odamlari tomonidan bu qolgan odamlar qutqarilib qolinadi. Bu asarda rassom ana shu voqeani - soldagi odamlarni uzoqda suzib borayotgan kemani ko'rib, undan yordam so'rayotgan vaqtini ko'rsatgan. Romantizm oqimining yana bir yirik vakili Ejen Delakruadir. Uning "Barrikadalardagi ozodlik" polotnosi ham bevosita konkret voqeani aks ettirishga qaratilgan. Bu revolyutsiya ta'sirida yaratilgan bo'lib, tarixiy voqeani aks ettirdi, revolyutsiyada qatnashgan xalq obrazini yaratdi. Rassom bu asarda bo'layotgan jangning shiddatini, qizg'inligini, bu revolyutsiyada xalqning hamma tabaqasi qatnashganini ko'rsata oldi. Qo'lida bayroq ushlagan ayol obrazi ozodlik ramzi sifatida tasvirlangan. Qolganlar esa unga intilgan. Ularni ozodlikka olg'a boshlamoqda.

XVIII asr oxirlaridan boshlab Yevropa san'atida Realistik oqim asosiy oqimlardan biriga aylanib qoldi. Voqelikka murojaat qilish, hayotda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ro'y-rost ko'rsatish ko'pgina san'atkorlar diqqatini o'ziga jalb eta boshladi. Bu prinsip ispan rassomi Fransisko Goyya ijodida alohida o'rin egallaydi. Uning asarlari va satirik ofortlarida ispan hayotida sodir bo'lgan voqealar o'zining to'liq badiiy ifodasini topdi. Uning "2 maydan 3 mayga o'tar kechasidagi qotillik" asari XIX asr xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashini aks ettiruvchi buyuk asarlardan biridir. Asarda qo'zg'olon ko'targanlarni tundagi otish payti tasvirlanadi. Kompozitsiya quolsiz omma va qurollangan jallodlarni qarama-qarshi qo'yish prinsipida tuzilgan. Asar markazida oq kuylakli qo'zg'olonchi tasvirlangan bo'lib, u orqali rassom bo'ysunmas ispan xalqi timsolini gavdalantiradi. G'oyat o'zining mashhur ofordlar turkumida Ispaniyadagi

monarxiya tuzumini, ma'naviy qashshoq ruhoniylarni, baQritosh inkvizitorlarni qattiq qoralaydi.

XIX asrdan boshlab harbiy Yevropa san'atida realistik oqim asosiy o'rinni egallab oldi. Buning boisi bor edi, albatta. Ko'pgina ijodkorlar ijtimoiy hayotda bo'layotgan revolyutsion harakatlarda qatnashib, shu voqealarni o'z asarlarida tasvirlab, shu bilan birga o'zlari ham shu mamlakatning faol fuqarosi ekanini chuqurroq his eta boshladilar, ular o'z xalqlarining orzu-istaklari, intilishlari bilan yashay boshladilar. XIX asrdan boshlab manzarachi rassomlar ko'zga ko'rinarli yutuqlarni qo'lga kirita boshlaydilar. Ular jonajon o'lkalari manzarasini chizish orqali kishilarda o'z yurtiga muhabbat uyg'otish, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini oshirishga harakat qildilar. Manzara janriga bo'lgan bunday munosabat angliyalik rassom J.Konstebel va fransiyalik Barbizon maktabining yirik vakillari Teodor Russo, Sharl Dobini va boshqalar ijodida yaqqol ko'zga tashlandi. Ular erta bahorgi maysazorlarni, suv, havo, nur go'zalligini kuylaydilar.

Jamiyatning ilg'or ijodkorlari shu mavjud hayotda sodir bo'layotgan voqealarni tasvirlash bilan chegaralanmasdan, shu bilan birga voqelikni ideal taraqqiyot yo'liga burish, dunyoni go'zallik qonunlari asosida qayta qurish ishtiyoqi bilan yondoshadilar. O'z asarlarini shu maqsadga bo'ysundirishga harakat qiladilar.

Bu davr san'atkorlarining asarlari ko'proq tanqidiy xarakterga ega bo'lib, sotsial tengsizlik, og'ir mehnat va boshqa jamiyat illatlarini ro'y-rost ko'rsatishga intilish bilan xarakterlanadi. Buni ko'rsatishda ayniqsa, mehnat mavzusi ko'pchilik ijodkorlar diqqatini o'ziga jalb qiladi. Dehqon, hunarmand va ishchilar hayoti, mehnati ko'pgina san'atkorlar asarlarining bosh mavzusi bo'lib qoldi. Shunday mavzuda ijod qilgan san'atkorlardan biri fransiyalik Onore Domedir. U o'z asarlarida bo'layotgan voqealarni tasvirlar ekan, shu voqealarga o'z munosabatini bildiradi, insonlar orasidagi samimiy muhabbatni kuylaydi. Burjua illatlarini, ikkiyuzlamachilikni tanqid qiladi. O'ayotiy voqealarga befarqlikni qoralaydi. Domening ana shunday mavzularga bag'ishlangan asarlaridan biri "Qonun chiqaruvchilar uyasi" asaridir. Bu asarda rassom deputatlarni palata majlisi vaqtida tasvirlaydi, har bir obrazning individual xarakterini ochib berishga harakat qiladi. Lekin shu bilan birga bu obrazlarning hammasida umumiy o'xshashlik - atrofga befarqlik, ma'naviy tubanlik, aqliy notavonlik yaqqol seziladi. Davlat arbobi degan oliy nomga bularning hech qanday daxli yo'qligini ko'rsatadi. Domening ta'sirchan asarlaridan biri "Transonen ko'chasi" asaridir. Bu asarda ishchi kvartallaridagi qo'zg'olonchilarning qirg'in qilinishi juda ta'sirchan qilib ko'rsatilgan. Polda o'lib yotgan ishchi, uning tagida ezilib o'lib qolgan go'dak, qariyani tasvirlash

orqali fojeaning nihoyatda og‘ir ekanligini ko‘rsatishga harakat qilgan. Dome o‘z ijodida ijobiy obrazlarga ham murojaat qiladi. Oddiy mehnatkash xalq obrazini mehr bilan tasvirlaydi, ularga o‘z xayrihohligini bildiradi. Uning “Kir yuvuvchi”, “III klass vagoni passajirlari” degan asarlari shular jumlasidandir.

Oddiy xalq hayoti va mehnatini tasvirlash yirik fransuz rassomlari J.F.Mille va G.Kurbe asarlarining mazmunini tashqil etadi. Millening mashhur asarlaridan biri “Boshqoq teruvchi ayol” kartinasidir. Bu asarda dehqon ayollari, o‘rimdan keyin dalada qolgan bug‘doy boshqoqlarini yig‘ayotganlarni tasvirlash orqali dehqonlar turmushining nihoyatda og‘ir ekanligini ko‘rsatadi. G.Kurbe o‘z asarlarida ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ochib borishga intildi. “Demokratik san‘at realizmdir” - degan san‘atkor bu fikriga umrining oxirigacha sodiq qoldi. Kurbe o‘zi bilgan va uni o‘rab turgan voqealarni tasvirlar ekan, ularning ulug‘vor, badiiy bo‘lishiga harakat qildi. Uning kartinalari ichida “Ornandagi dafn marosimi” kartinasi diqqatga sazovordir. Bu kartina bevosita ma‘lum voqea asosida ishlangan bo‘lib, unda tasvirlangan har bir obraz rassomga tanish va ular qaytarilmas xarakterga, o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan shaxslardir. Rassom har bir shaxsning xarakterini bo‘layotgan voqeaga munosabatini ko‘rsatish orqali asar qoyasi hisoblangan inson qadrining so‘nib borayotganligini ochib berishga muvaffaq bo‘ldi.

Rossiyaga Yevropadan kirib kelgan oqimlar va uning yirik vakillari.

Rus san‘atining keyingi rivojlanishi XVIII asr boshlaridagi Pyotr I reformalari bilan uzviy bog‘liqdir. Pyotr I rus san‘ati va madaniyatini ko‘tarish uchun haqiqiy jonbozlik ko‘rsatdi. Shu davrda Pyotr I Peterburg shahriga asos soldi. Shahar qurilishi uchun chekkadan ko‘plab me‘mor, quruvchi-injenerlar, rassomlar jalb etildi. Shu bilan birga milliy san‘atkorlarni tayyorlash muhim vazifalar qatoriga qo‘yildi. Qobiliyatli rus yoshlari chet ellarga o‘qishga yuborildi, ularga shaxsiy homiylik qilindi. Bu esa rus badiiy maktabining rivojlanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatdi. Bu davrda yetakchi o‘rinni me‘morchilik san‘ati egalladi. Uning tur va janrlari kengaydi, yangi tiplari, jumladan teatr, kutubxona, saroylar, o‘quv dargohlari, maydon va bog‘-parklar vujudga keldi. Haykaltaroshlik borasida katta yutuqlarga erishildi. Bu o‘rinda Pyotr I ga o‘rnatgan yodgorlik, “Mis Chavandoz”, V.Kozlovskiyning “Samson”, A.Suvorov haykali F.I.Shubinning portretlari, Martosning “Minin va Pojarskiy” haykallarini eslab o‘tish mumkin. Bu asarlar Yevropa klassik san‘atining an‘analarini chuqur egallagan, uni yangi davr mazmuni bilan to‘ldira olgan yetuk ijodkorlar mavjudligidan, rus san‘atining ilg‘or vakillari Yevropa san‘ati bilan uzviy bog‘liqligi va aloqadorligidan dalolat beradi. Bu davrda rangtasvir sohasida ham sezilarli rivojlanish bo‘ldi. Portretchi rassom I.N.Nikitin, A.G.Antropov, I.P.Argunov, F.S.Rokotov, D.G.Levitskiy, V.L.Borovikovskiy

rus realistik rangtasvirining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Shu davr ijodkorlari san'at tarixida birinchi bo'lib, xalqning ulug'vorligini to'laqonli, ko'p figurali kompozitsiyalar orqali yoritib, o'z davrining haqiqiy obrazli panoramasini yaratishdi. Portret, maishiy, tarixiy va manzara janrlarida yaratilgan asarlar yuksak mahorat bilan ishlanganligi, o'zining chuqur psixologizmi, kompozitsion tugalligi va mazmundorligi bilan hamon kishilarga estetik va ma'naviy ozuqa baxsh etib kelmoqda. XIX asr rus san'ati taraqqiyotidagi dastlabki bosqich bevosita 1812 yil Vatan urushi bilan bog'liqdir. Urushning rus xalqi uchun g'alaba bilan tugallanishi milliy g'ururning o'sishi, insonga nisbatan yangi munosabat, hurmat bilan qarashning paydo bo'lishiga olib keldi, hamon hukm surayotgan krepostnoy tuzumining jamiyat taraqqiyotiga to'siq ekanligini aniqroq ko'rsatib berdi. Rossiyaning ilg'or kishilari bu tuzumning bekor qilinishini talab qilib, Chor Samoderjaviyasiga qarshi kurash boshladilar. Bu kurash bo'lib o'tgan Dekabristlar qo'zg'olonida yaqqol namoyon bo'ldi. Ijtimoiy hayotdagi kayfiyatlar san'at va adabiyotga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. San'atkorlar inson qadr-qimmatini ulug'lovchi asarlar yaratishga alohida e'tibor bera boshladilar. Insoniy burch, vatanparvarlik mavzularida asarlar yaratdilar. San'atkorlar o'z asarlarida ommani tarbiyalash, ular orasida ma'rifat tarqatishga harakat qildilar. Bu davrning ilg'or vakillari portret ustasi O.A.Kiprenskiy, V.A.Tropinin, A.G.Venitsianovlar edi. Ular hayotni jon dili bilan sevuvchi inson obrazlarini yaratdilar; hayotni to'laqonli tasvirlab, inson va tabiat uyg'unligini kuyladilar. Insonlarning mehnatsevarligini, ichki go'zalligini uning jasurligini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Bu rassomlar mohir pedagog sifatida ham mashhurdirlar. XIX asrdan boshlab, rassomlar qaysi mavzuga murojaat qilishmasin, qaysi janrda asar yaratishmasin, dastlab o'z zamondoshlarining his-tuyg'u, fikr va o'ylarini ifodalashga, davrning dolzarb masalalarini xalq orasiga yoyishga harakat qildilar. Bu o'rinda K.P.Bryullovning "Pompeyning so'nggi kuni", A.A.Ivanovning "Insoning xalqqa ko'rinishi" kabi polotnolari xarakterlidir. "Pompeyning so'nggi kuni"da rassom o'tmish voqeasini tasvirlash bilan chegaralanmaydi, balki shu fakt asosida o'sha davr uchun zarur bo'lgan ahloq, burch masalalarini kuylaydi. Rassom odamiylik va xudbinlikni qarama-qarshi qo'yar ekan, shu bilan birga insoniylikni hamma narsadan yuksak qo'yadi. Bu hol odamlarning hatti-harakati, hissiy kechinmalaridan yaqqol ko'rinadi. Bryullov oliyjanoblikni, insoniylikni ulug'laydi, inson manfaatini shaxsiy manfaatdan yuqori qo'yadi. A.Ivanovning "Insoning xalqqa ko'rinishi" asari diniy mavzuda orqali bo'lsa ham, rassomning xalq hayoti masalalari to'g'risidagi fikr-o'ylari unda yetakchi o'rinni egallaydi va natijada asar davr mazmuni va kayfiyatini aks ettiruvchi realistik asar darajasiga ko'tariladi.

Xalqning haqiqatga, ozodlikka bo‘lgan intilishi va ichki kechinmalari bu asar mazmunini tashqil etadi.

Rus rangtasvirida yaratilgan bu asarlar keyingi rassomlar tomonidan yana rivojlantirildi, mavzulari kengaytirildi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridagi rus san’ati.

Bu davr tasviriy san’at taraqqiyoti va xarakteri bevosita rus revolyutsion harakati bilan chambarchas bog‘liqdir. Rassom va haykaltaroshlar o‘z ijodlarida bevosita revolyutsion demokratlar V.G.Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubovlarning G‘oyaviy-estetik prinsiplariga murojaat qildilar. San’atkorlar o‘z ijodlarida xalq hayotining mohiyatini ochib berishga, xalqning buyuk qudratini kuylashga harakat qildilar. Inson huquqini paymol etuvchilarga qarshi isyon ko‘tardilar, ijtimoiy tuzum kirdikorlarini fosh etdilar. San’atda sodir bo‘lgan bu xususiyatlar rangtasvirning maishiy va portret janrlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu sohada yetuk, G‘oyaviy pishiq asarlar yaratildi. San’atda sodir bo‘lgan bu yo‘nalishlarning ravnaqi bevosita XIX asrning II yarmida tashqil etilgan “ko‘chma ko‘rgazmalar birodarligi” birlashmasining faoliyati bilan bog‘liqdir. Unda mashhur rus tanqidchisi V.A.Stasov hamda san’at homiysi P.M.Tretyakovlarning roli katta bo‘ldi. “Ko‘chma ko‘rgazmalar birodarligi” o‘z tevaragiga ilg‘or san’atkorlarni birlashtirdi, xalq hayotini aks ettiradigan realistik san’atni rivojlantirish va targ‘ib etishni o‘zining asosiy maqsadi deb bildi. Bu birlashmaga a‘zo bo‘lgan, uning G‘oyaviy platformasini tan olgan va ko‘rgazmalarida qatnashgan rassomlar “sayyor rassomlar” deb nomlandilar. Bularning yo‘lboshchisi va tashqilotchilaridan biri Ivan Nikiforovich Kramskoydir. U portretchi san’atkor sifatida taniqli bo‘lib, uning asarlari o‘zining chuqur psixologizmi bilan ajralib turadi. Uning ko‘pgina portretlari chuqur talqin etiladi, ya’ni tasvirlanayotgan obraz biron-bir narsa bilan shug‘ullanayotgan paytda, tevarak-atrof ko‘rinishi bilan bog‘liq tarzda tasvirlanadi. Ayniqsa, uning “Nekrasov”, “Notanish ayol” asarlari juda mashhurdir.

“Sayyor rassomlar” a‘zosi, taniqli rassomlardan biri V.G.Perovdir. U o‘zining butun ijodiy faoliyatida xalq hayotini tasvirlashga, mavjud tuzum kamchiliklarini ochib tashlashga intildi. Uning bu intilishlari “Uchovlon”, “Marhumni kuzatish”, “Chegaradagi mayxona” kabi qator asarlarida o‘z ifodasini topgan. XIX asrning II yarmidan boshlab rus badiiy hayotida faol ishtirok eta boshlagan buyuk rus rassomi I.Ye.Repin o‘zining butun umrini rus san’atining ravnaqiga bag‘ishladi. Repin tarixiy, maishiy va portret janrlarida samarali mehnat qilgan. Uning asarlari o‘zining chuqur psixologizmi, badiiy tilining soddaligi va tushunarligi hamda yuksak professional mahoratda ishlanganligi bilan kishini hayratlantiradi. U yirik, ko‘p figurali asarlar yaratdi,

“Kursk guberniyasidagi yurish”, “Zaporojeliklar maktubi”, “Volgadagi burlaklar”, “Ivan Grozniy va uning o‘g‘li Ivan”, “Kutmagan edilar” kabi buyuk asar shular jumlasidandir. Shu bilan birga u mashhur zamondoshlarining portretlari galereyasini ham yaratib qoldirdi. Bular ichida M.P.Musorgskiy, M.V.Glinka, L.N.Tolstoy, A.M.Gorkiy, V.V.Stasov portretlari diqqatga sazovordir. XIX asrning ikkinchi yarmida samarali ijod qilgan V.M.Vasnetsov o‘z ijodida xalq doston va ertaklardan olingan syujetlar asosida asarlar yaratdi. Uning “Pahlavonlar”, “Alyonushka”, “Bo‘ri mingan shahzoda”, “Kanizey podsho huzurida”, “Uyqudagi malika”, “Uchar gilam” asarlari mashhurdir. Bu asarlarda xalqning baxt-saodat va adolat haqidagi orzu-umidlari kuylanadi. Bu davr dunyoga mashhur yirik san‘atkorlarni yetkazib berdi. Ular ichida portret ustalari V.A.Serov, K.Korovin, K.Makovskiy, buyuk rus tarixiy janrichisi V.I.Surikov, N.A.Yaroshenko, I.M.Pryanishnikov, teatr rassomi M.A.Vrubel, N.A.Kasatkin, A.Ye.Arkipov.

Bu davrda haqiqiy rus milliy manzara rangtasviri maydonga keldi. Manzarachi rassomlar rus o‘lkasining go‘zalligi, bepoyonligini ko‘rsatish orqali kishilarda vatanparvarlik hislarini o‘stirishga, oddiy tabiat ko‘rinishidagi go‘zallikni to‘laqonli ifodalashga harakat qildilar. Tabiatning turli holatlarini real tasvirladilar. A.K.Savrasov ana shunday birinchi rassomlardandir. Uning “Qora qarg‘alar uchib kelishdi” deb nomlangan suratida qish qaytishi, tabiatning jonlanishi tushunarli va jonli talqin etilgan. Shu davrda yashagan I.I.Shishkin, F.A.Vasilev, V.D.Polenov kabi rassomlar ham rus manzara tasviri namunalari yaratib qoldirdilar. Shu davrda yashab ijod etgan yirik rus rassomi I.P.Levitanning mavzusi ham rus tabiatini kuylashga qaratilgan. U o‘z asarlarida tabiat go‘zalligi va ulug‘vorligini ko‘rsatish bilan birga, asarlarida davr kishilarining ruhi ifodalashga, o‘zining hayot to‘g‘risidagi falsafiy fikrlarini bayon etishga harakat qildi. Uning “Vladimirka”, “Qabr ustida”, “Mangu sukunat” kabi asarlari shular jumlasidandir.

XIX-XX asr chet el san‘ati.

XX asr boshlarida insoniyat tarixida yangi davr boshlandi. Bu san‘at chin ma‘noda ommani orzu-istaklarini, his-tuyg‘u, fikr-o‘ylarini ifodalovchi san‘atga aylandi. Xalqning o‘zi esa uning ijokori bo‘lib, maydonga chiqdi.

San‘atning bosh qahramoni xalq edi. Uning oliyjanob mehnati, yer yuzida tinchlik, demokratiya uchun olib borayotgan kurashi, hayotga bo‘lgan chuqur muhabbati san‘atkorlarning asosiy mavzusidir. Bu davrda san‘atning mavzusi kengaydi, uning yangi tur va janrlari maydonga keldi. Bu tarixiy sobiq inqilob janridir. Bu janrning mazmuni bevosita sho‘rolar inqilobi, fuqarolar urushi yillari bilan bog‘liqdir. Rassom va haykaltaroshlar bu janrga murojaat qilar ekanlar, dastlar xalqning ulug‘vorligi va qudratini ochib berishga harakat

qildilar. Bu davr ajoyib ustalarni yetkazib berdi. Bular ichida rassomlardan Isak Izrailevich Brodskiy edi. U bir nechta yirik monumental asarlar yaratdi. Bulardan tashqari shu davrning yirik rassomlaridan G.G.Ryajskiy, B.V.Ioganson, K.S.Malevich, A.V.Lentulov, A.A.Deyneka, A.A.Plastov, M.Serov, A.Samoxvalov kabi rassomlar yashab ijod qilganlar. Inqilob mavzusidan tashqari manzara janri ham katta yutuqlarga erishdi. Manzara janrida ishlagan rassomlardan biri bu A.A.Rilov edi. Uning asarlari go‘zal va ulug‘vor. U asarlarini davr kishilari ruhi bilan to‘ldirishga harakat qiladi. Oktabr to‘ntarilishi va fuqarolar urushini aks ettiruvchi asarlar, insonlarning mardligi va jasoratiga bag‘ishlangan polotnolar ham o‘sha davr tarixida faxrli o‘rinni egallaydi. Bu mavzudagi asarlar o‘zining ishlanishi va uslubining rang-barangligi bilan ajralib turadi. A.A.Deynekaning “Petrograd mudofaasi” deb nomlangan polotnosi 1928 yil yaratilgan. M.B.Grekovning “Budyoniy otryadiga”, N.M.Shuxmining “Maydonga chiqish haqida buyruq” G.K.Savitskiyning “Eski armiyaning 1918 yil stixiyali qaytishi” K.S.Petrov-Vodkinning “Komissarning o‘limi”, 1919 y. “Trevoga”, I.D.Shadrning “Toshproletariat quroli” kabi asarlarida sobiq inqilob va fuqarolar urushi yillaridagi kishilarning kayfiyati o‘zining badiiy ifodasini topgan.

Shu bilan birga kishilarning dushmanga bo‘lgan nafrati, o‘z yurti va xalqiga bo‘lgan chuqur muhabbati san’atkorlarning II jahon urushi mavzusidagi ishlangan asarlarida o‘zining badiiy ifodasini topdi. A.Deynekaning “Sevastopol mudofaasi” (1943), S.A.Gerasimovning “Tartizanning onasi” (1942), F.D.Favoyrskiyning “Qlimdan kuchli” (1951), I.Toidzening “Ona Vatan da‘vati” (1941) asarlari shular qatoridandir.

Bu davrda maishiy janr ham yangi mazmun kasb etdi. Bu mavzuda yaratilgan asarlarda shu davr kishilarining kundalik turmushi, mehnati, yoshlarning tarbiyasi aks ettirildi. N.B.Terpsixorovning “Birinchii shoir”, Ye.M.Chepsovning “Qishloq yacheykasining majlisi” deb nomlangan suratlarda kechagi dehqonning bugungi kunda jamiyat ishlarida faol ishtirok etayotganini sodda, lekin ishonarli talqin etiladi. Maishiy janr taraqqiyoti, jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. II jahon urushi yillari o‘sha davr kishilari uchun haqiqiy sinov yillari bo‘ldi. Bu yillarda ularning front ortidagi qahramonligi, rassomlarning maishiy mavzusidagi asarlarida o‘z ifodasini topdi. Bu janrning keng rivojlanishi urushdan keyingi yillarga to‘g‘ri keldi. Bu yillarda u yetakchi janr qatoridan o‘rin olib, xalq hayotining hamma tomonlarini qamrab oluvchi san’at darajasiga ko‘tarildi. Rassomlar asarlarida tinch mehnat, farovon hayot go‘zalligini kuyladilar. Insonlar orasidagi mehribonlik, olijanoblik, do‘stlik kabi fazilatlarni ulug‘ladilar. Bu davr san’atida yoshlar hayotiga bag‘ishlangan juda ko‘p asarlar ham yaratilgan. Bu asarlarda sobiq sovet

yoshlarining san'atga, ma'rifatga qiziqishi tarannum etiladi. Bolalar hayotiga bag'ishlangan asarlar ham yaratildi. F.P.Reshetnikov tomonidan yaratilgan "Yana ikki oldingmi?", "Kaniqulga qaytdi" kabi asarlarida bolalarga xos bo'lgan xislatlar ishonarli talqin etiladi.

Imperializm ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy va madaniy hayotda katta o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Birinchi proletar revolyutsiyasi - Parij kommunasi va uning tor-mor etilishi burjua madaniyatining inqirozga yuz tutishini tezlatdi. Burjua falsafasi, estetikasi va san'atida reaksiyon idealistik tendensiyalar kuchaydi. Shu bilan birga revolyutsion demokratik va milliy ozodlik harakatlari bilan bog'liq bo'lgan ilg'or demokratik madaniyat realistik burjua madaniyatiga qarama-qarshi o'laroq o'z yo'lida davom etdi. XIX asr II yarmi va XX asr boshlaridagi san'at taraqqiyoti murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu davrda ham avvalgi davrlardagidek reaksiyon hamda progressiv oqim va tendensiyalarning kurashi davom etdi. Tushkun simvolik dekada oqimlar turli "izm" lar tez-tez almashib turdi. Parij kommunasi tor-mor etilishi revolyutsion harakatlarni oz bo'lsa-da, to'xtatib turdi. Parij kommunasi tor-mor etilishi revolyutsion harakatlarni oz bo'lsa-da, to'xtatib qo'ydi. Lekin ilg'or san'atkorlar ta'sirchan asarlar yaratish borasida mehnat qilishda davom ettilar. Yangi ta'sirchan ifoda vositasini topish, san'at tilini yangilashga intilish ko'pgina san'atkorlarning ijodida o'z ifodasini topdi. Bu izlanishlar o'z navbatida samarali natijalar bergan bo'lsada, lekin san'atda turli oqim va yo'nalishlarni keltirib chiqardi.

Realizm taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Realistik san'atda sodir bo'lgan o'zgarishlar Eduard Mane ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. Uning ijodi keyingi realistik san'at taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Mane asarlarida Parij ko'chalari, hiyobon va kafelari, odamlarning hayoti tasvirlanadi. Bir qarashda juda sodda syujetlarda rassom go'zallikni ko'rsata oldi. Shu go'zallikni tasviriy san'at tili bilan tomoshabinga yetkazdi. Uning hajm jihatidan katta bo'lmagan, syujeti jihatidan sodda asarlari o'zining voqelikni to'laqonli, butun borlig'i bilan aks ettirishi bilan kishi qalbiga quvonch baxsh etadi. Tabiatning rangdorligi, shakllarning rang-barangligi esa bu lavhalarga yanada go'zallik kiritadi. Shu boisdan ham tezda ko'pchilik diqqatiga sazovor bo'ldi. 1860 yilning rassomlari uning ishiga, ishlash uslubi va syujet tanlashiga taqlid qila boshladilar. Qator yoshlar esa uni o'zining ustozlari deb bildilar va uning atrofiga yig'ildilar. Uning izlanishlarini davom ettirib jahon san'ati tarixida yangi oqim - impressionizm oqimiga asos soldilar. Impressionizm so'zining lug'aviy ma'nosi taassurot bo'lib, rassomlar o'z asarlarida zamonaviy voqealarni turli ko'rinishda tasvirlash va eng muhimi shu voqe'likdan olgan birinchi taassurotlarini tasvirlashga harakat qildilar. Shu boisdan ular naturaga alohida e'tibor bera

boshladilar. Kenglik va havoni, nur va rang jozibasini holstda jonlantirish masalasi ular uchun muhim masalalardan bo‘lib qoldi. Impressionizm oqimining o‘ziga xos tomoni shu oqimning asoschilaridan biri Klod Monening “Pichan Qarami”, “Ko‘knori dalasi”, Onore Renuarning “Madam Samari”, “Yalang‘och ayol”, Edgar Deganing “Havorang libosli raqqosalar”, “Balet sinfi”, Kamil Pissaroning “Parij ko‘chalar” kabi suratlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tayanch tushunchalar.

Goratsiyalar - qadimgi Rim davridagi xalq qahramonlari.

Savollar:

1. XVII-XIX asr san‘atida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
2. Revolyutsion klassitsizm nima?
3. Romantizm oqimining xarakterli tomoni nimada?
4. Yevropa san‘atida tanqidiy realizmning rivojlanishiga hissa qo‘shgan san‘atkorlardan kimlarni bilasiz?
5. “Barbizon maktabi” deganda nimani tushunasiz?
6. Pyotr I reformalarining rus san‘atining rivojlanishiga ko‘rsatgan ta‘siri nimada?
7. Bu davrlarda rus me‘morchiligi san‘atining rivojlanishi.
8. Rus tasviriy san‘at janr va turlari qanday rivojlangan?
9. XIX asr tarixida rus san‘atining tutgan o‘rni?
10. Qanday rassomlar yashab, ijod qilishgan?
11. A.G.Venetsianov rus san‘atida qanday o‘rin egallaydi?
12. “Pompeyning so‘nggi kuni” asarining muallifi kim, asar qanday g‘oyalarni ilgari suradi?
13. Bu davr rus san‘atining xarakterli tomoni nimada?
14. “Ko‘chma ko‘rgazmalar birodarligi”ning mohiyati, uning rus demokratik san‘atining rivojlanishiga o‘tkazgan ta‘siri nimadan iborat?
15. I.Repin, V.I.Surikov, V.M.Vasnetsov ijodi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
16. Bu davrda yashagan rassomlar ijodida qanday mavzular yetakchi o‘rinni egallaydi?
17. Rus manzara janri va uning vakillari to‘g‘risida nimalar bilasiz?
18. XX asr. Sobiq sovet san‘atining xarakterli tomoni nimada?
19. Bu davrda qanday janrlar vujudga keldi?
20. Qanday rassom va haykaltaroshlar yashab ijod qildilar?
21. Bu davrda maishiy janr qanday mazmun kasb etdi, uning avvalgi davr san‘atidan farqi nimada?
22. Portret va manzara janrlarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aytib bering.

23. XIX-XX asr Yevropadagi siyosiy ahvol san'at taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
24. Bu davrda san'atda qanday oqimlar mavjud edi?
25. Impressionizm nima, uning qanday vakillarini bilasiz?
26. XIX-XX asrlar ijodiy izlanishlarining ahamiyati nimada?

MAVZU: O‘ZBEKISTON XALQLARI SAN’ATI TARIXI.**REJA:**

1. O‘zbekistonning ibtidoiy davri madaniyati va san’ati tarixi.
2. O‘zbekistondagi ilk davlatlar ularning madaniyati va san’ati tarixi.
3. Kushonlar davri madaniyati va san’ati tarixi.
4. Buyuk Ipak Yo‘li va uning o‘lkamiz xalqlari madaniyati va san’atiga ta’siri.
5. IV-VIII asrlarda Turon xalqlari madaniyati va san’ati tarixi.
6. IX-XII asrlar Movaraunnahr xalqlari madaniyati va san’ati tarixi.
7. IX-XII asrlarda diniy bilimlarning rivojlanishi.
8. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati va san’ati.
9. XIV-XVII asrlarda O‘zbekiston madaniyati
10. Buxoro amirligi va uning madaniyati va san’ati tarixi.
11. XX asr boshlarida O‘zbekiston san’ati.

O‘zbekistonning ibtidoiy davri madaniyati va san’ati tarixi.

O‘zbek xalqi-jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta xissa qo‘shgan eng qadimiy xalqlardan biridir. O‘zbekiston hududida qadimdan savdo-hunarmandchilik markazlari va madaniyati uchoklari bo‘lgan. Lekin O‘zbekistonning tarixiy-madaniy utmishni o‘rganish ishlarini mustamlakachilik sharoitida ruslar ya’ni rus olimlari urganganlar va topilgan ashyoviy dalillarni uzlari bilan birga olib ketganlar. Natijada boy madaniyatimiz va ma’naviyatimiz durdonalari bo‘lgan barcha assoriy-atiqa narsalarni tashib ketish natijasida mustaqillika erishish jarayonida tariximiz va madaniyatimizni o‘rganishda qiyinchiliklarga uchradi.

Xayriyat Prezidentimizni tariximiz va madaniyatimizga bo‘lgan e’tiborlari natijasida qiyinchiliklar bilan bo‘lsada shu soha mutaxassislarini yuborib o‘rganishga muyassar bo‘ldik.

Demak, o‘zbek xalqi qadimdan boy ma’naviyatli, madaniyatli bo‘lganligi natijasida kelgusi avlodlarga ularni o‘rgatish maqsadida hozirlikcha sizlarni guruhingizga (huquqshunoslarga) O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi fani 1-2 semestrda ukitiladigan bo‘ldi. Shunday ekan avvalo fanimizni asosiy mazmun va maqsadi nimadan iborat ekanligini bilmogimiz kerak.

Madaniyat o‘zi nima? -Jamiyatni va davlatni tarixan muayan taraqqiyot darajasi. Madaniyat - kishilarning biror shakldagi hayoti va faoliyatida hamda ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy ya’ni tarixiy manbalarda ifodalanadi.

1. Moddiy manbalar insoniyatni qo‘li bilan yaratilgan bo‘lib, mehnat qurollari, sopol idishlar, qurol-yaroglar va zebu-ziynat buyumlari kiradi.

2. Ma'naviy (yozma) manbalar esa insoniyatni tafakkuri bilan xosil bo'lib, xalq og'zaki ijodi, ertaklar, dostonlar, qulyozmalar, kitoblar, shuningdek "Avesto", Bexistun koyatosh yozuvlari, zarautsoy koyatosh rasmlari, mug' tog'iga bitilgan So'g'd yozuvlari (yozuvlarni barchasi), Yunon, Rim, Xitoy manbalari va boshqalar kiradi. Demak, tarixiy manbalarni topish va o'rganish asosida O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi fanini o'rganish imkoniyatiga ega bulamiz.

San'at nima? -Umuman insoniyatni badiiy ijodi. Adabiyot, arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik, grafika, amaliy bezak, musiqa, raks, teatr, kino va inson faoliyatining boshqa turlari kiradi.

Demak, O'zbekiston madaniyati va san'ati fani yuqoridagi madaniyat va san'at sohalarini eng qadimgi davrdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixini o'rganadi.

Adabiyot- arabcha so'z bo'lib, yozma asarlar majmuasidir, shu bilan birga adabiyot san'at xodisasi bo'lib, suz san'atidir.

Arxitektura - yunoncha suz bo'lib, me'morchilikdir. Kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur moddiy batartib muhitni vujudga keltiruvchi bino va inshootlarni loyixalash va ko'rish san'ati.

Haykaltaroshlik-tasviriy san'at turi bo'lib, tasvirni qattiq va plastik materiallarga shakl berish bilan gavdalanitiradi. Asosan, inson, jonivorlar va tabiat aks ettiriladi.

Tasviriy san'at-plastik san'at sohasi bo'lib, rassomchilik, haykaltaroshlik va grafikani o'z ichiga oladi.

Rassomchilik-bo'yoq bilan yuzaga yoki materialga ishlanadigan tasviriy san'at turi. Bunda vokelik badiiy ifodalaniladi, talqin etiladi va tomoshabinlar ongiga ta'sir etadi.

Grafika- yunoncha suz bo'lib, tasviriy san'at turi, rasm san'atiga asoslangan.

Amaliy bezak-ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlashni ishlash. Bunda metal, yog'och, keramika, shisha, gazlamani ishlashda kullaniladi.

Teatr- yunoncha so'z bo'lib, daslab Yunonstonda vujudga kelgan va aktyor saxnaviy voqealarni tasvirleydi.

Demak, san'at sohasi juda keng va ijtimoiy hayotni barcha sohalarini kamrab olgan. Shunday ekan, O'zbekiston madaniyati va san'ati o'rganishda tubandagi fanlarni roli katta. Ya'ni Arxeologiya, antronologiya, xranologiya, etnografiya, tarix, rasm va chizmachilik fanlarini Aloqadorligi katta. O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi fani yoshlarni etika, estetika, nafasat, vatanparvarlik, vatanini sevish ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Chunki xar bir mavzuda Vatanimiz madaniyati va san'ati durdonalarini o'rganish bilan birga utmish ajdodlarga bo'lgan mehr-muhabbat kuchayib, uni kelajak avlodga o'rgatish xissi oshib boradi. Shu bilan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviyatimizdan boxabar bo'lib boramiz.

Ibtidoiy jamoa tuzimi kishilik jamiyatini dastlabki va eng uzoq davom etgan bosqichi bo'lib, u paleolit (qadimgi tosh) davri deb yuritiladi. Uzoq davom etganligi uchun bu davrni 3 davrga (ilk, o'rta, so'nggi) bo'lib o'rganamiz.

Ilk paleolit davri yodgorliklarini sanasi 700-500 ming yil avval boshlanib, miloddan avvalgi 15000 yilliklargacha davom etgan va Ashel davri deb yuritilgan. Chunki Ashel davri yodgorliklari O'zbekistonda bo'lmagan. Ashel davri oxirida Yevropani shimoliy mintakalarini kalin muz koplagan. Lekin U. Ismailov shu davr odamini qoldig'ini (bosh suyagini bir bo'lagi, yelka suyagi va 10 ta tish qoldig'ini) topib urgangan Fargona vodiysini sel ungur goridan. Kosimov esa kurbulok manonini urganib, Ashel davriga oid 22 ta, muste davriga oid 24 ta madaniy katlamni urganadi. Bunda markaziy Osiyoga odamlar juda erta kelib joylasha boshlaganlar degan xulosaga kelish mumkin.

O'rta paleolit (muste madaniyati) davrida mashhur yodgorliklar topilgan va 24 ta madaniy qatlam o'rganilgan. Ayniksa, Teshiktosh Surxondaryodagi, Obiraxmat Toshkent viloyatidan, Xo'jakent Toshkent viloyatidan, Kulbulok Toshkent viloyatidan, Samarqand viloyatidan Omonqo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Xo'jamazgil, Navoiy viloyatidan Uchtut nomlari o'rganilib O'zbekistonning qadimgi madaniyati va san'ati tarixiga oid manbalar topiladi. Teshiktosh g'ori 5 ta qatlamdan iborat, g'orni uzunligi 20 m, balandligi 9 m, chukurligi 21 m bo'lgan. 2859 tosh qurollar topilgan. Teshiktoshdan 7-11 yashar (qiz bola) Neandertal odamini topilishi buyuk kashfiyot bo'ldi. Odam suyaklari atrofiga arxar va Buxoro bug'usi shoxlarini qo'yilishi dastlabki diniy tasavvurlarni vujudga keltirilishi ko'rsatadi.

Obiraxmat makoni va Paltov (tangri tog chotkol tizmasidagi) makonidan 10 metr kalinlikdagi 21 ta madaniy katlam urganilgan. Makon yoysimon bo'lgan. Og'zi janubga karagan, ichi keng bo'lgan. U yerdan ohak toshli chakmok toshdan yasalgan mehnat qurollar, parranchalar, kirginlar, kurakchalar, keskichlar topilgan.

Obiraxmat esa hayvon suyagidan ishlangan bigizlar shuningdek bugu, tog echkisi, tungiz, arxar suyaklari, gulxan, kul, kumir koldiklari topilib, u yerda odamlar 120-40000 yil ilgari yashaganlar va tog mevalarini terib, yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar.

Qo'tirbuloq (Samarqand viloyati Kattakurg'onida) 5 ta madaniy qatlam topilgan. Bu yerdan ikki tomoniga ishlov beruvchi bargsimon qurollar, fil, bug'u, yovvoyi ot, quyon suyaklari topilgan.

Yuqori yoki soʻngi paleolit-davri miloddan avvalgi 40-35000 yil avval boshlangan va 12-10000 yilliklargacha davom etgan. Bu davrda hozirgi zamon odami kramanchonlar shakllangan. Bular toshni yunish usullarini (retush kilish, sinbirib olish, utkirlashni) bilganlar. Bularni mehnat qurollari prizmati, konussimon shaklda boʻlgan. Bular tosh bilan birga suyak va yogʻochdan xam foydalanganlar. Bu davr odamlarining buyuk yutugʻi nayza paykonlarini, irgʻitiladigan nayzalarini, nayza otqichlarni ixtiro qilganlar. Ishlatilishiga qarab guruhlarga boʻlganlar (ov qilish, gushtni nimtalash, teriga ishlov berish, baliq tutish uchun sanchki (charpun), arralovchi qurollar, suyak ignalar, bigizlar). Shuning uchun bu davr odamlarini Xamo sanienslar yaʼni aqlli, idrokli va ongli odamlar deganlar.

Tasviriy va amaliy sanʼatning ibtidosi yuqori paleolitdan boshlangan. Suyakdan ayollar haykalchalari yasalgan, takinchokldar yasali ustiga turli xil tasvirlar oʻyib tushurilgan. Oʻrta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ortiq yodgorliklar topilgan. Yaʼni Samarqand makoni, Toshkent viloyatida Oqtosh, Koʻlbuloq makonlari oʻrganilib amaliy sanʼati shakllanganligini koʻrsatadi. Shuningdek, chaqmoqtoshga ishlov beradigan ustaxonalar boʻlgan. Ishqalash yoʻli bilan olov hosil qilganlar.

Oʻrta tosh (mezolit) davri 12-6000 yilliklarni uz ichiga oladi. Bu davrda insoniyat tomonidan kup kashfiyotlar kilindi. Oʻq-yoy kashf etildi. Ibtidoiy sanʼat payda boʻldi, yaʼni ungurlar devoriga oʻyib rangli boʻyoqlar bilan tasvirlangan sanʼat paydo boʻldi. Bu tun tasviriy sanʼat namunasi Surxondayorning Zarautsoy darasidan topildi. Bunda yovvoyi bukani itlar yordamida ovlash masalasi kizil boʻyoqlar bilan berilganligi urganildi. Bundan tashqari Iلسisoy, Sarmishsoy va saymalittoshdan xam koyatosh tasvirlar topilgan.

Neolit davrida yangi usullar-silliklash, parmalash, arralash usullari ixtiro etdilar. Boltalar yasalgan toshdan nulolchilikda ayollar dastlabki yumaloq idishlar yasaganlar, keyin bu ishni erkaklar bajarganlar. Jundan ip yigirib matolar tuqiganlar, yopinchiklar oʻrniga kiyim-kechaklar toʻqiganlar. Dehqonchilik madaniyati vujudga kelgan. Mil avvalgi 5-3ming yilliklarda Xorazm va Buxoro vohasi hududlarida Kaltaminor madaniyati vujudga kelgan. U yerdan topilgan idishlarni tagi yumalok, sirti chizma naqshli boʻlgan.

Eneolit-mis-tosh davrida miloddan avvalgi 4-3000 yillikdan boshlanadi. Bu davrda Panjikentdan 15 km uzoqda sarazm yodgorligidan sirtiga rangdor naqshlar berilgan sopol boʻlaklar, mis koʻzgular, oltin va kumushdar qilingan taqinchoqlar, jez, lojuard, aqiqdan yasalgan munjoqlar topilgan.

Jez davrida (mil avv 3 ming yillikdan-1 ming yillik boshlarigacha) Xorazmda tozabogyon madaniyati rivojlanib ular idishlarini tuvaksimon kilib sirtiga geometrik chiziklar bilan naksh berganlar. Xorazmda Amirobod

madaniyati mil avv IX-XIII asrlarga oid topilgan. Zarafshon vodiysidan Zamonbobo manzilgoxidan bronza ko'zgular, upadon surmadonlar, pardozi buyumlar, munchoqlar, marjonlar topilgan. Matriarxat davridan patriarxat davriga o'tish boshlangan.

O'zbekistondagi ilk davlatlar ularning madaniyati va san'ati tarixi.

Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiya beshigi hisoblanadi. Hunarmandchilik tavar ayri boshlash va savdo-sotiq munosabatlarini rivojlanishi davlatchiligimiz rivojlanishida muhim omil hisoblangan ya'ni

1) hunarmandchilikni dehqonchilikdan ajralib chiqishi natijasida aholi manzilgoxlarida hunarmandchilik bilan shugallanuvchi aholini tuplanib borishi.

2) Jamiyatda tabakalanish jarayonini kuchayishi boshqaruv tizimini murakkablashib borishi.

3) Aloqa munosabatlari savdo-sotikni rivoji pul vazifasini bajaruvchi qimmatbaho toshlarni (lojuvard, lozirit), fil suyaklarini zargarlik buyumlarining rivojlanishi.

4) Aholini bosqinchilardan ximoya qilish maqsadida mudofa inshootlarni qurilishi.

Demak yuqoridagi shart-sharoitlardan kelib chiqqan ilk davlatlarni quyidagi rivojlanish bosqichlarini ko'rsatish mumkin.

I. Shahar- davlatlar bundan 3,500-4000 yil avval paydo bo'lib bular birbirlaridan tog, dengiz va chullar bilan ajralib turgan. Bunday chegaralangan davlatlar "Nomlar" deb yuritilgan. Bularda Alloxga bagishlab qurilgan ibodat xonalar bo'lgan. Bular nomozgoxtepa, oltintepa yodgorliklaridir.

Oltintepa ibodat xonasi 4 zinopayali va minorali bo'lgan, balandligi 12 metr. Bu yerdan muxr haykalchalar memorchilik usullari, oltindan yasalgan buri va xukiz boshlari topilgan.

II. Podsholiklar yani hududiy davlatlar bularga katta xorazm va Baqtriya va boshqa davlatlarni aytish mumkin.

III. Imperiya davlatlari. Bular yagona davlatga zurlik bilan biriktirilgan hududlar. Bular Ahamoniylar imperiyasi va A.Makedonskiy imperiyalaridir.

Davlatchilikni shakllanish jarayoni turli hududlarda turli davlatlarda: tabiat, iklim, yer unumdorligi kabi xususiyatlar natijasida shakllanadi. Shuning uchun davlat mil.avv IV-III ming yilliklarda misr va shumerda, keyin bronza davri oxirlarida makkaziy osiyoda ilk davlatchilik shakllangan. Baqtriya davlati : O'zbekistonning janubiy (surxon vodiysi) Afgoniston shimoli va Tojikistonning janubiy hududlarini tashqil etgan. Bu yerda Qadimiy Termiz, Zartepa, Dalvarzintepa yodgorliklari topilgan. Denov yonidan Bugacheknovni tadkik qilishga katta saroy topilgan mil.avv. 2-1 asrlarga oid saroyi ayvoni va zari loydan ishlangan va haykal devoriy rasmlar bilan bezatilgan kazish natijasida bu

yerda ot ustidagi suvoriylar, muzikachilar, gulchambar takkan haykallar topilgan. Janubiy Tojikiston hududidan Tulxor, Karajar, Arixto yodgorliklari topilib urganganda Baqtriya madaniyati va san'ti yuksak ekanligini ko'rsatadi. Baqtriya davlat saroyida musiqa marosimi kundalik turmushda katta rol uynagan. Tekshirishlar natijasida Baqtriyadan Grek-Baqtriya tangalari: Ung tomonidan podshox surati, orkasida hudo yoki podshox xomiysini suratlari bitilgan. Tangalar badiiy madaniyatning rivojlanishidan guvoxlik beradi. Mil.avv. Baqtriyaning Begran shahrida fil suyagiga ishlangan san'at asarlari, Janubiy Baqtriyadan (Tillatepadan 2500 ta) oltindan ishlangan san'at asari. Dalvarzintepadan 34 kg tilladan ishlangan 115 dona san'at asarlari topilgan. Bu tangalar mil.avv. III-II asrlarda Diodot, Yevtidem, Demetriy va Yevkradit davrlarda suqilgan. Tojikistonning kupodiyon bekligidan topilgan 180 ta oltin buyum (Amudaryo xazinasini)ning topilishi ham Qadimgi Baqtriya davlati madaniyati va san'atining rivojlanganligini ko'rsatuvchi dalildir. Tarixiy manbalarda Baqtriya 1000 shaharli mamlakat deb tilga olinadi.

So'g'diyonaga Zarafshon, Kashkadaryo voxalari kirgan, markazi Afrosiyob (Samarqand) bo'lgan. Mil.avv. VI-IV asrlarda Uzunkir, Yerkurgon, Daratepa, Sang'irtepa, Lolazor, Xo'ja-Bo'ston, Afrosiyob, Qorovultepa, Qo'rg'oncha kabi madaniy yodgorliklar bo'lgan. So'g'diyonaning 2-poytaxti Yerkurgon (Kashkadaryo) bo'lgan, uning baland minorasi, 2 ta darvozasi bo'lib, birinchi darvozasi shimoli-sharkda Zarafshonning urta qismiga boradigan, ikkinchi darvozasi - janubi-sharkda Sharkiy Kashkadaryo tomonga boradigan darvozalar bo'lgan. So'g'diyona hayotida dehqonchilik sun'iy sugorishga asoslangan bo'lib, asosiy urinni egallagan. Politimet (Zarafshon) daryosi So'g'diyonaning katta suv manbai bo'lgan. Hatto Suza saroyini ko'rishda lojuvard va qimmatbaho toshlar So'g'diyonadan olib borilgan. So'g'dliklar Baqtriyaliklar bilan deyarli bir xil kiyim kiyganlar. Tanalariga yopishib turgan belbogli (kamarli) bo'lib, boshlarida doira shaklidagi duppi (kulox) hamda tor va uzun lozima kiyganlar va etiklarini kunjiga tikib kuyganlar. Afrosiyobdan shoxning tasviri tushirilgan tosh muxr topilgan.

Qadimgi Xorazm davlati.

Xorazmda dastlab mil.avv. V-III ming yilliklarga xos bo'lgan "Kaltaminor madaniyati" mavjud bo'lib, ovchilar va balikchilar yashagan. Buning muhim yodgorligi Jonbos-4 bo'lgan, bunda chayla uylar bo'lgan, 100-120 kishi yashagan. Mil.avv. II ming yillikning 2-yarmida (jez davrida) Xorazmda Tozabogyob madaniyati bo'lgan. Bu yerda metall kuyish texnikasi yuksak bo'lgan. Yassi (tuvaksimon) tubli chizma, boshoksimon nakshlangan idishlar topilgan. Tozabog'yob madaniyatiga tegishli Onka-5, Qavat-3, Ko'kcha-3 manzilgohlari topilgan. Xorazmda so'nggi jez va ilk temir davriga oid

Suvyorgon (mil.avv. 2 ming yillikka xos) madaniyati mavjud. Suvyorgon madaniyati aholisi yog‘och ustunli, to‘g‘ri burchakli chaylalarda yashaganlar. Mayda mehnat qurollari yasaganlar.

Mil.avv. 1 ming yillik boshlari xos bo‘lgan Amirobod madaniyati mavjud. Bunda odamlar yarmi yertula uylarda yashaganlar. Sugorish tarmoklari yaxshi rivojlangan. Xorazmda mil.avv. IV-III asrlarda qal’alar qurilishi kengaygan. Jonbosqal’a mil.avv. IV asrga oid bo‘lib, to‘g‘ri turtburchak shaklida qurilgan, qal’a devorining kalinligi 5 m, balandiligi 10 m bo‘lgan, qal’aning shimolida ibodatxona bo‘lgan. Kuykirilgan qal’a - aylana shaklida bo‘lib, 9 ta minorasi bo‘lgan, qal’a markazida silindr shaklida joy bo‘lib, bu yerdan sayyoralarni kuzatganlar. Qal’adan mil.avv. III-II asrlarda oid qadimgi Xorazmning (oromiy) tush bilan yozilgan yozuvlari topilgan.

Xorazmda 4 ta Tuproqqal’a bo‘lgan:

1. Shovot tumanida aylana shaklida qurilgan, 4 ga maydonni egallagan, mudofaa devori bilan uralgan, 24 ta burji (chukkisi, minorasi) bo‘lib, mil.avv. IV-III asrlarga oiddir.

2. Xiva tumanida, shaharning 17 km shimoli-garbida turtburchak shaklda qurilgan bo‘lib, mil.avv. IV-III asrlarga oiddir.

3. Ellikqal’a tumanida 17,5 ga maydonni egallagan, turtburchak shaklida qurilgan, 2 katorli paxsa devor bilan uralgan. Saroyida podsho zali askar zali, bugular zali bo‘lgan. Teri va yog‘ochga bitilgan 120 ga yaqin Xorazm yozuvi topilgan. Qal’a milodiy III arga oid bo‘lgan.

4. Yangiarik tumanida maydoni 0,6 ga bo‘lib, turtburchak shaklida qurilgan, mil.avv. IV-II asrlarga oid bo‘lgan.

Demak, Qadimgi Xorazm davlatida qal’alar kup bo‘lib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida katta o‘rin egallagan. 2000 yil 10-12 oktabrda Ellikqal’ada Xorazm sivilizatsiyasiga bagishlangan anjuman bo‘lib, O‘zbekistonlik olimlar Avstraliya va Rossiya olimlari bilan 1994 yoyildan beri tekshirish ishlari olib borib, Okjahon va Toshxirmon qal’alarini o‘rgandilar.

Okjahon qal’a mil.avv. IV-III asrlarga oid bo‘lib, maydoni 11 ga, ikki kavatli devor bilan uralgan, Deshonqal’a va Ichonqal’adan iborat bo‘lgan.

Toshxirmon qal’a esa mil.avv. V asrga oid bo‘lgan. Mudofaa devorlari kunguralar bilan mustahkamlangan.

Marg‘iyona - Mouru davlati. Turkmanistonning Marv viloyati hududi. Marg‘iyonada sug‘orma dehqonchilik rivojlangan. Uzumzor mamlakat bo‘lgan.

Parfiya davlati - Turkmanistonning Ashxobot viloyati, unga yaqin bo‘lgan shimoli-sharkiy Eron yerlari kirgan. Parfiya madaniyati Nisodan topilgan xujjatlardan xam ma’lum. Oromiy tilidagi yozuvlar topilgan. Niso Parfiyaning poytaxti bo‘lgan.

Qang' davlati. Mil.avv. III asr boshlarida paydo bo'lgan. Sirdaryoning urta okimidagi yerlar, Toshkent voxasi va unga tutash tog va chul zonalari kirgan. Qang' davlati yodgorliklari Junarik buyidan, Kovunchi tepadan, Choshtepa, Toshkent voxasi tepaliklaridan topilgan.

Kovunchi madaniyatida mil.avv. II asr - milodiy VI asr boshlariga xos bo'lgan daxmalar, nauslar topilgan.

Dovon davlati - qishloq xujaligi taraqqiy qilgan mamlakat bo'lgan. Uzumchiligi rivojlangan. Katta sopol idishlarda vino saqlaganlar. Aholisi ot ustida turib kamon otishga moxir bo'lgan. Dovon samoviy otlari bilan mashhur bo'lgan. Fargona madaniyati Sho'rabashad av Uchqo'rg'on yodgorliklaridan topilgan topilmalardan ma'lumdir. Shurabashad 70 ga maydonni egallagan, dehqonchilik va uzumchilik rivojlangan.

Demak, qadimgi (mil.avv. VI-IV asrlarda) O'rta Osiyo madaniyatida ikkita yunalish bo'lgan:

1) Kuchmanchi muhit bilan bog'liq bo'lib, "hayvon uslubi" deb yuritilgan. Bunda xanjarlarning dastasiga, ot anjomlariga turli hayvonlarning tasviri tushirilgan.

2) O'troq hayot bilan bog'liq bo'lgan madaniyat. Bu ko'proq "Amudaryo xazinasi" nomi bilan mashhur bo'lgan yodgorliklarda uz aksini topgan. Bu san'at buyumlarida koxinlarning oltin va kumushdan ishlangan haykalchalari, oltindan yasalgan 2 gildirakdi arvalar, hayvonlarning haykalchalari topilgan. Bu esa zargarlik san'atini rivojlanganligini ko'rsatadi. Ular katorida turt oyokli, kulokli va kanotli sherni tasviri tushirilgan mangallar, uch oyokli, turt kulokli mongol yonida 4 ta tog echkisining haykali ishlangan jez kozonlar va kurgina san'at buyumlari Katta Fargona kanalini ko'rish paytida topilgan.

Kushonlar davri madaniyati va san'ati tarixi.

Mil. avv I-asrga kelib, yuechje uyushmasidan 5 ta xokimlikdan Tuysuan (nushon) xokimligi kuchayib, kolgan 4 ta xokimlikni birlashtirib kushon davlatiga asos soladi.

Kiotszyukyu (kujula kadfiz) hamma mulklarni birlashtirib, kabul va Kandaxorni bosib olib, milodiy 1- asr boshlarida Xitoy, Barfi, Rim davlatlari bilan rakobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli davlatlari tashqil topadi. Kujula Kadfiz yobgu darajasidan, shoxlar-shoxi darajasiga ko'taradi. Tojikistondan topilgan tangalarda yozilishicha, shoxlar-shoxi buyuk xaloskor degan suz yozilgan tangalar topilgan.

Umuman kushonlar davri markaziy osiyo davlatini moddiy va ma'naviy madaniyatida katta o'zgarishlar qildi. Kushonlar davrida 22 xarfli kushon yozuvi bo'lgan va kanishka davrida paydo bo'lgan.

Kushonlar davrida sugorma dehqonchilik rivojlandi, sugorish davlatlari va inshootlar kurildi. Ayniksa, amudaryoning chap va ung kirgoklarida Gavxar, Xiykanak (Palvan yop), Vadak, Buva anxori, kuyi zarafshonni chap soxilidagi shoxrud katta anxori, Zarafshon daryosi uzanidan Zandaniy anxori chikarildi. 1996 yilda Ravot Xuja va Varagsarda arxeologik qazilmalarning natijasi Zarafshondan suv oladigan Dorgon anxori Kushonlar davrida kazilganligini aniqlandi. Samarqand shahri esa bu davrda kengayib gullab-yashnaganligi aniqlandi.

Bundan tashqari eramizning 1-asrida Kushonlar davrida Chirchik daryosidan suv oladigan Salar anxori (Buz suv), Toshkent voxasida qadimiy sugarish shaxobchasi bo'lganligini ko'rsatad. Toshkent temir yul vagzali yaqinidagi Ming urik, Kurgontepa, Niyozbosh tepa yodgorliklari Toshkentni yoshini aniqlashga xam yordam berdi. Kanishka davrida Fargonani kengayganligi xam Sirdaryodan suv oluvchi katta anxorlar yukligidan togdan okib keladigan Isfora, Sug, Margilon, Isfayran kabi soylardan foydalanganlar. Sug inshoati Kushonlar davrida (1- asrda) qurilganligi, suv taxsimotini kuzatadigan Sarqo'rg'on qo'rg'oni qurilgan.

Kushonlar davri san'at yodgorliklari dastlab, Hindistonni shimoliy garbidan " Kandaxor haykalchilik makta bi" deb nomlangan yodgorliklar topildi. Yana Xadda va Shotorana (Afgoniston), Butkara (Pokiston)dan yuzlab Kushonlar davriga oid haykalchalar topilgan. 30- yillarda ochiliy va yillargacha davom etgan arxeologik qazilmalar natijasida Kushan davri yodgorliklari termiz yaqinidagi Qora tepa, Hayoz tepa, Holchayon, Dalgarzin, Ayritom yodgorliklari topildi. Ayritomdan uyning peshtokiga ishlangan tosh tasvirlar (Sharafa), peshtoklarda turlarga burkalgan, musiqa asbobi chalib turgan kichlar va dumbira chalib turgan bolalarni tasviri tushirilgan. Bino ichida gishtdan ishlangan Buddha haykali siniklari topilgan. Ayritom haykali misolida Hindiston, yunoniston va O'rta Osiyo madaniyatlarini va ular urtasida, savdo-sotik munosabatlarini rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Surxandaryoning Denov nokiyasidan Xolchayon yodgorligi topilgan. Aniqlanishga mil.avv 1 ming yillik urtalarida yirik shahar vujudga kelib, Kushonlar davrida rivojlangan. Yodgorlik ichidan birinchi asrga oid saroy topilgan saroy devonlari rasmlar bilan nakishlarga. Saroydan topilgan haykallarni kattasi 2- metr bo'lgan. Termizdan Dalvarzin yodgorligi topilib, umum mudofaa devori bilan uralgan shahar bo'lgan. Hatto Kushon davlatining dastlabki paytaxti bo'lgan. Dalvarzindan 1972 yilgi qazilmalar natijasida ogirliigi 30 kg dan ortik tilla buyumlar xazinasini topilgan. Xazinada hammasi bo'lib 115 ta bilakuzuk, xalqalar, oltin kuymalar topilgan.

Bundan tashqari Dalvarzindan qabr topilib 3-xildagi dafn borligi aniqlandi va zardushtiylik dunyosiga xosligi aniqlandi. Kushon davri ma'daniyati namunalari xorazm hududidagi Tuproqal'adan topildi. Bu yerdan devoriy suratlar, haykallar bilan bezatilgan zallar va boy xonadonlar topilgan.

So'g'diyonadan Kushon davriga oid sapolchilik badiiy madaniyati namunalari, idishlar va haykalchalar topildi.

Buyuk ipak yo'li va uni o'lkamiz xalqlari madaniyati va san'atiga ta'siri.

Ma'lumki, "Buyuk Ipak yo'li" shakllangunga kadar "Lojuvard" ya'ni "La'l yuli" va "Shox yullari" bo'lgan.

"Lojuvard" yo'li Baqtriya davlati hududidagi Badaxshon tog'laridan olingan qimmatbaho toshlari orkali savdo-sotik kilingan va tovar ayirbosh qilingan. Chunki, bu davrda xali pul (kog'oz pul) muomalada bo'lmagan davr bo'lgan. Erondan tortib Urta yer dengizigacha va Baqtriya orkali Xitoy va Hindiston davlatlari bilan aloqa qilgan. mil avv 4-3000 yillarda "Shox yuli" Axamoniylar imperiyasining savdo yuli bo'lib mil avv VI-IV- asrlarda O'rta Osiyo mamalakatlari va Erondan Misr, urta yer dengizigacha bo'lgan yerlar bilan savdo kilingan natijada o'zi bosib olgan va o'z imperiyasi tarkibiga kiritgan hududlar orkali savdo kilingan.

Buyuk ipak yo'li -qadimiy madaniyatlar erishgan eng ajoyib yutuqlardan biri bo'lib, insoniyat tarixida birinchi marta G'arb va Sharkni, O'rta yer dengizi mamalakatlari bilan uzok Sharkni, antik madaniyat bilan Xitoy madaniyatini uzaro boglovchi xalqaro yul xizmatini utagan. Mil avv 3 ming yillikning 2-yarmi va mil avv 2 ming yillikning birinchi yarmida xarappo xalqi Inda vodiysidan shimolga, Amudaryo vodiylariga Xayber (pereval) orkali mashakkatli mehnat evaziga yulini uzlashtirganlar.

Shu vaqtlarda Inda vodiysini Mesopotamiya bilan birlashtiruvchi dengiz savdo yuli xam uzlashtirib olingan edi. Shimoliy Afgonistonda Fulol maxallasida qimmatbaho buyumlar xazinasi topilgan, ular orasida Messopotamiya badiiy an'analariga doir ishlangan olin va kumush idishlar bor. Sharkda qadimdan yuqori baholanadigan qimmatbaho toshlardan biri lazuritlardir. Asosiy lazurit konlari Badaxshonda kuyi Amudaryo xavzalarida joylashgan. Shunday kilib, mil avv 3-2 ming yilliklarda bir-biridan yiroq bo'lgan madaniyat va sivilizatsiyani boglovchi kuruklikdagi va dengiz yullar sistemasi tashqil topgan. Ular O'rta Sharq rayonlarida, G'arbdan, Sharqqa, Messopotamiya tekisliklaridan Araviy dengizigacha chuzilgan. Keyingi vaqtlarda aynan yuqoridagi yullar Buyuk ipak yo'lining asosiy trassalari hisoblanadi.

O'sha davrlarda migratsiya oqimlari ham kuchayib ketdi. Bunda asosiy urinni indoevropaliklar migratsiyasi egallab oldi. Buyuk ipak yo'li vujudga

kelishi mil avv II-asr urtalarida Xitoy diplomati va sayoxatchisi Chjan Szyan nomi bilan mashhur. Chjan Szyan Xitoy imperatori buyrugi bilan O'rtasiyo, sharqiy Turkiston hududlaridagi davlat va shaharlarini aylanib chiqadi. Xitoy davlatiga ittifoqchi topish maqsadida lekin tinchliksevar davlatlarni xech biri urush davrida ittifoqchi bo'lishni istamasdan, savdo-sotik munosabatlarida Aloqa kilish istagini bildiradilar. Xususan Dovon (Fargona) davlati elchi bilan birga Nasldor samoviy ot, beda urugi va meva uruglarini berib yuboradi. Birinchi marta fanga Buyuk ipak yo'li deb kiritgan nemis olimi 1877 yilda Rixtgofer bo'ladi va boshqa bir nemis olimi Albert Xermanning izoxlashigcha aynan ipak yo'li mil avv 2-chi asrning oxirlarida 2 ta turli dunyo Garb va Sharkni birlashtirgan asosiy maxsulot bo'lib xizmat qilgan.

Shimoliy Afg'onistonda Amudaryo buylarida 70 yillarda unga Ko'kcha daryosining quyilishi natijasida Xarappa madaniyatiga oid bo'lgan materiallar saqlanib kolgan, 6 ta maxalla topilgan. Ulardan biri tula kazib bulingan. Shur tugay. Bu shuni bildiradiki mil avv I- ming yillikdan birinchi yarm oxirlarida odamzod tarixida birinchi jahon imperiyasi ya'ni Axemenib imperiyasi vujudga keldi. Bu imperiya Shrakda Hindistondan shimoliy sharkdan Gretsiyagacha va garbda (Egipet) Misrgacha chuzilgan. Bu imperiya 3 qit'ada: Osiyo, Afrika va Yevropada joylashgan territoriyalarni bogladi. Bu boglanish savdo ishlarini madaniy va etnik Aloqalarni o'rnatishga va ellinlarning Hindiston bilan tanishishga yul ochib berdi. Mil avv I ming yil oxirlariga va eramizdan oldingi I-ming yillar boshlarida Tinch okeandan Atlantik okeangachabo'lgan geografik kenglik yagona madaniy sivilizatsiyaga kuyildi va xan imperiyasi Kushon podsholigi, Qang'yuy, Parfiya davlati, Rim imperiyasi davlatlari chegaralari bir-biriga tegib turadi. Aynana usha vaktida dunyoni bo'lishi vujudga keldi. Shuning uchun, usha vaktida Buyuk ipak yo'lining vujudga kelishi zarur bo'ldi. Birinchi trans kontinental yulning zarurligi Yevrosiyo xalqlarining madaniyat yutuqlari, iktisodiy, siyosiy va etnik Aloqalarini rivodlantirishga karatilgan edi. Uning "Buyuk ipak yo'li" atalishiga sabab Xitoydan asosan shoyi matolar, ipak maxsulotlari keltirilib turli davlatlar bilan savdo kilingan. Ilk o'rtasiyolarga kelib, eftamiylar davrida "Buyuk ipak yo'li"ning mavkei yana xam yuksaldi. Tashqi savdoning rivojlanishida Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya davlatlari faol katnashdilar. Xitoy bilan Vizantiya asosan ipak, shoyi, shisha, qimmatbaho toshlar va xar xir ziravorlar bilan savo qildi. O'rtasiyodan Xitoyga oltin, kumush, Badaxshon la'lisi, Samarqand kogozi, shisha, korakul teri va tulpor otlar junatildi. Ipak yo'li savdosida asosan So'g'diylar vositachilik kilishdi. Asrning 70-80 yillariga kelib Buyuk Turk xokonligi tashqil topdi. Bu ulkan davlat xam Ipak yo'lida joylashgan bo'lib, Xitoy, Eron va Vizantiya kabi yirik davlatlar bilan iktisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirdi.

IV-VIII asrlarda Turon xalqlari madaniyati va san'ati tarixi.

Eftaliylar davri xalq kushiklari va efoslari Firdavsiy "Shox noma" sida tasvirlangan Eftaliylarda turli dinlarga e'tiqod qilingan, sababi Eftaliylar ko'p xalqlarni siyosiy birlashmalaridan tashqil topgan. IV asrlarda navro'z, yangi yil kuni zardushtiylar ertalab siyovushni Buxorodagi qabri ustiga xuroz suyishganlar. Buddizm, maniy va shaharlarida kristiyanlik xam mavjud bo'lgan. Sugit tili, yozuvi keng tarkalgan. Bundan tashqari, Buxoro, Xorazm Eftaliy yozuvlari bo'lgan. Eftaliylar davri modiy ma'daniyat namunalaridan Xorazmdagi Firkala (Karakolpogistonda) va Boxoro viloyatidagi poykand shaharlaridir. Poykand hunarmandchilik va sardon markazi Xitoycha BN deb, arablarda "Madina ut tujar" (savdogar shahri) deb yaratilgan. 305 yilda Xorazm shox Afrig' Kat shahrida uziga kasr va uni ichida saroy kurdiradi hamda Afrigi potshoxlari tomonidan tangalar zarb kilinadi.

V- VI asrlarda sharkey turkiston va O'rta Osiyo yerlariga paxta eqilgan, lekin bu davrda xali Xitoyda paxta ekilmas edi. Eftaliylar davrining xashamatli kasrlaridan biri Surxandaryodagi Bolalik tepadan topilgan Bunda aslzoda yigit va kizlarni tantanali lavxalari nikoxlanish marosimlari juft-juft teri sukib utirgan erkak va ayollar tasvirlangan. Kasr devorlariga nikox marosimidagi ko'rsatuviga muruvatlar aks etgan. Keyin Buxoraning jondor tumanidagi Varaxsha qazilmalaridan fil suvoriylarini yulbars va koplolar bilan jangi bevoriy suratlarda aks etirilib loy, suvog ustiga yelim aralashtirilib tushirilgan suratni eni 126 sm. Varaxsha qazilmalaridan yana ayol kishilarni boshi bo'rtma kabarik kilib ishlangan, balandligi 16 sm topilgan. Bu haykaltaroshlikni rivojlanganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Buyuk Xitoy devoriga uxshash devorlar barpo etilgan.

Bu davirda baland tog kursi ustiga qurilgan feodal kasirlari kurilib, ular turt burchagi baland burjlar mustahkamlanib, tuynuklar bilan ta'minlangan. Ilk o'rta asr me'moorchiligini o'zida aks ettiruvchi feodal kurgonlari qurilgan.

Ayniksa, Naxshab voxasida Zaxokimaron qal'asi, Buxorodagi Shahri Vayron va Xorazmni filqal'akaridir, fil qal'ani uchta devori paxsadan va xam gishtdan kilingan., balandligi jihatidan farq qilgan devorlari, biroq shoxni kasri hammasidan baland bo'lgan.

Afrosiyobdan xam tantanali izdaxom tasvirlangan.

Ok fil ustiga malika, fil ortida korabayr mingan 3- ta ayol, ularni birini kulida So'g'dcha malikani yangasi degan suz yozilgan. Ayollarni tuya mingan erkak kuzatib bormokda, yuqorirogida ot yetaklagan kishi hamda 4- ta okkush xaydab borayotgan uspirin surati chizilgan, ulrani og'iz-berenlari ok mato bilan uralgan. Xonani garbiy devoriga shoxona liboslarda qimmatbaho tuxfalar ko'targan kishilar tasvirlangan. 16- xator sugt yozuvi xam bitilgan, unda "Men

Chaganiyon elchisi Buxorzod xukumdori Turontosh" nomidan podshoxga xurmat va extirom etgali Samarqandga keldim deb yozilgan. Bunda Samarqanddagi vokiya ya'ni Samarqand podshosini Chog, Fargona va ustrushona davlatlari bilan olib borgan elchilik munosabatlari tasvirlangan. O'rta asrlarda usimliksimon me'moriy nakshlar ishlab chiqish boshlangan. Davriy rasmlar O'rta Osiyoni boy matolari durlar xalqasi bilan bezatilgan, nakshsimon kushlar, echki, afsonaviy semurg va boshqalar.

So'g'dda sapol haykalchalar yashash san'ati rivojlangan. Yana xukumdor bazmi, paxlavonlar jangi, kushikni kamol kilinish lovxalari xam tasvilargan.

Uy-ro'zgor buyumlariga ham naqshlar berilgan. Qozon, lagan, ko'zalarni sirti o'simlik nakshlari, pichansimon butalar, lola, anor, uzum barglari bilan nakshlangan.

Yana VI-VIII asrlardagi me'moriy yodgorliklar Ajina -tepa (toj) degan xam topilgan. Bunda devoriy suratlarda qishloq xo'jaligini aks ettiruvchi rasmlar, qiyinish madaniyatlari aks ettirilgan. Bu yerdan budda haykali topilgan balandligi 12 m keladigan, Quvadan (for) diniy mavzularga oid haykallar topilgan. Banjikent (Zarafshon vodisi) dan 60 dan ortik xonadon topilib devoriy suratlar bilan bezatilgan, yog'ochdan uyib ishlangan sanamlar, uymakor nakshlar (tabiatni manzarasi, taxtda utirgan xukumdor, rakkosa) topilgan. VII-VIII asrlarda darbozlik, kizikchilik san'ati xam rivojlangan. Ayniksa Buxoro tamoshachilari, Samarqand naychilari, Chog uyinchi yigit-kizlari, Xujand surnaychilari, Xorazm makomchilarining san'ati kuchli bo'lgan.

VI-VIII asrlarda Turon aholisi zardushtiy, budda, xrestianlik, moniy, kam (shamon) dinlariga siginganlar. Natijada Turk xakonligi davrida turlarining Turklarning siyosiy va madaniy merosi sharkiy Turkiston, Janubiy- Sharkiy Yevropaga tasir qilgan.

IX-XII asrlar Movaraunnahr xalqlari madaniyati va san'ati tarixi.

O'tmish kadriyatlarimizni har tomonlama o'rganish qurilayotgan huquqiy-demokratik davlatimizni to'g'ri rivodlanishiga, kelajakni okilona belgilashga xizmat kiladi. O'rta asr musulmon mamalakatlaridagi ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy tafakkur taraqqiyotida chukur iz koldirgan markazlar mavjud.

Bog'dodda Yahyo ibn Mansur, Muhammad Muso al-Xorazmiy raxbarligidagi "Donishmandlar uyi" yoki Birinchi Ma'mun Akademiyasi, Xorazmda Abu Rayxon Beruniy raxbarligidagi Ikkinchi Ma'mun Akademiyasi, Marog'ada Nasriddin Tusiy raxbarligidagi astraronomiya maktabi, keyinchalik Samarqandda Ulug'bek akademiyasi va boshqa kuplab ilmiy maktablar mavjud bo'lgan.

Bog'dod akademiyasi qoshida 828 yilda Bog'dodning ali-Shammasiya maxallasida birinchi rasadxona, 831 yilda esa Damashk yaqinidagi Kosion

togida ali-Shammasiya rasadxonasining bulimi hisoblangan ikkinchi rasadxona qurilgan. Dastlab, Bog‘dod akademiyasini tashqil kilib, boshqaruv ishlariga marvlik yax‘yo bin Mansur (830 yilda vafot etgan), keyinchalik esa al-Xorazmiy raxbarlik qilgan. Rasadxonada tekshirish va kuzatish ishlarini olish borish uchun yangi astranomik asboblard-usturlab, Oy tutilishi diski kabilar yaratilgan.

Al-Xorazmiy (783-850) boshchiligida bu asboblard yordamida yer meridiani bir darajasi uzunligini, fazoviy yoritkichlarda bo‘ladigan turli xodisalarni (quyosh va oy tutilishin) va ularning harakatlarini aniqlaganlar. Anashu limiy izlanishlar natijasida al-Xorazmiyning falakiyot va trigonometriya jadvallariga doir "Xorazmiy Ziji" va "Astronomiya bilan ishlash haqida kitob" risolalari bitilgan. Bu Quyosh, Oy va Sayyoralar harakatini kuzatishda, daryo va kul suvlarini harakatini yulga solishda, olis joylarda dengiz orkali va kuruklikda safarga chikkan vaktida astranomik chamalashda, suvsiz yerlarga suv chikarishda va suv inshootlarini bunyod kilishda, kalendarlarni tuzishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Al-Xorazmiy raxbarligida 830 yilda ilmiy ekspeditsiyalar tashqiol eitlgan. Ya‘ni garbiy Hindiston (hozirgi sharkey Afgoniston) ga, Vzintiyaga va Volganing kuyi okimiga uyushtirilgan. Al-Xorazmiy birinchi ensiklopediyasidayok butun dunyoda "arab raqamlari" deb atalgan Hind raqami va hisoblashning unlik 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 sanoq tizimi haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishgan va o‘zining arifmetikaga oid "Hind arifmetikasi hisobi buyicha kushuv va ayiruv kitobi" asarida aks ettirgan.

Al-Xorazmiy 830 yilda xalifa Ma‘munni topshirigi bilan "Tuldirish va karama-karshi kushish hisobiga oid kiskacha kitob" asarini yozdi. Al-Xorazmiy ijodiy labaratoriyasida riyoziyot fanlari bilan birga falakiyot, jugrafiya, tarix ilmlari aloxida urin tutadi. Ayniksa, "Er surati", "Kitob at tarix" kabi asarlari fan vama‘naviy-ma‘rifiy tafakkur tarixida o‘rni kattadir. Bog‘dod akademiyasida al-Xorazmiy bilan birga al-Fargoniyy xam faolyat ko‘rsatgan.

Al-Fargoniyy (797-865) astranom, matematik olimdir. Uning hayoti bilan bog‘liq asosiy ma‘lumot 861 yilgi voqea bilan bog‘liqdir. Ya‘ni shu yili koxira yaqinidagi Ravzo orolida Nieometrni ya‘ni Nil daryosi satxini belgilovchi uskunani yasagan. Al-Fargoniyni dunyoga mashhur qilgan asosiy asari "samoviy harakatlar va umumiy ilmiy nujum kitobidir". Uning bizga 8 ta asasri ma‘lum. Al-Fargoniyy Yevropada "Alfraganus" nomi bilan mashhur bo‘lgan. Fargoniyyning nomi xam al-Xorazmiy nomidek Shark va Garbda mashhurdir.

Gurganchdagi "Majlisi Ulamo" yoki ikkinchi ma‘mun akademiyasi nomi bilan mashhur bo‘lgan ilmiy markaz Abu Ali Abbos Ma‘mun (1010-1017) hukmronlik qilgan davrda Xorazmda tashqil etildi. Bu paytda Xorazmshoxning Saximiy degan vaziri ma‘rifiy ishlarga katta e‘tibor bergan va ilm axliga mexr-

muruvatta bo'lgan. Shu bilan birga akademiyaga Abu Rayxon Beruniy, al-jurjoniyy,

Abu Ali Ibn Sino, Ibn Iroq kabi bir qancha fozil kishilar faoliyat ko'rsatganlar. Ma'mun akademiyasida Beruniy boshlik olimlarga barcha imkoniyatlar yaratildi. Abu Rayxon Beruniy (973-1084) ma'mun akademiyasida olib borgan ilmiy faoliyat jarayonida fanning barcha yunalishlarida 150 dan ortik asrlar yaratgan komusiy olimdir. Beruniy ma'mun akademiyasiing faol a'zosi bo'lgan, Buxoroliy alloma Ibn Sinoning pedagogik ta'limoti va sulubiy ijodiy boyitadi va Sharq pedagogikasida birinchi bo'lib kiyosiy tarbiya, ta'lim va tarbiyaning birligi, uzviyligi to'g'risidagi goyalarni rivojlantiradi va "Minerologiya", "Qadimgi xalqlardan kolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya", "Maqollar", "E'tiqodlar va dinlar haqida" kabi asarlarni yozdi.

Ma'mun akademiyasi olimlaridan Abu Ali Ibn sino (980-1037) Majlisi Ulamo anjumanida yirik olimlar bilan bo'lib, usha zamonning mashhur tabib-olimlari bilan xamkorlikda ish olib borgan va o'zini 5 ta kitobdan iborat "Tib konunlari kitobi" asarini yaratdi. Bu kitob hozirga kadar dunyodani deyarli barcha xalqlarning tillariga tarjima kilingan. Ibn Sino nafakat komusiy olim va mutafakkir, ayni zamonda iste'dodli shoir, adib, tarbiyashunos bo'lgan. Uning "Ahloqqa oid risola", "Burch haqida risola", "Nafsnı pokiza tutish haqida risola", "Badanni boshqarish", "Adolat haqida", "Xikmat buloklari" da uning ma'rifiy-pedagogik karashlari uz ifodasini topgan.

"Burch haqida risola" sida kishi o'zini qanday tutishi, odamlar bilan muomala kilish madaniyati haqida fikr yuritadi.

Ibn Sinoning "Hikmat buloq"lari asarida o'zidan oldingi va va o'zi davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda shunday bir pedagogik ta'limot yaratganki, bu ta'limot O'rta asr Sharkidagi bilimlarni eng yuqori chukkisiga ko'tarilgan. Ibn Sino pedagogika fanining maqsad va vazifalarini quyidagicha ta'riflaydi; "Bu fan shunday odamlarni tayyorlab berishi kerakki, ular fakat uzi uchun yashamasdan, balki boshqalarva jamoat hamda uning manfaati uchun yashashga intilish kerak". Insonda mehnatga mexr muxabbat, yaxshi axlokiy sifatlar va xalollik doimo ustun turishi kerak deb ko'rsatadi.

Demak, hozirgi O'zbekiston davlatimiz yuqoridagidek buyuk allomalarni yetkazib, jahon fani va madaniyatiga katta xissa qo'shgan maskandir. Utmish kadriyatlarimizni hozirgi kunda va kelajagimizni buyukligida katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Prezidentimiz 1997 yil 11 noyabrda Xorazm ma'mun akademiyasini qayta tashqil etish to'g'risida farmon chikarib, Xivada qayta tashqil etildi va u akademik Azimboy Sadullaev raxbarligida faoliyat ko'rsatmokda.

IX-XII asrlarda oʻrta asr adabiyoti xam rivojlandi. Abu Nasr Farobiy (873-950) filologiya fanini rivojlantirdi va ilm fanni 2 ga nazariy va amaliy fanlarga ajratdi.

Nazariy fanlarda tabiatshunoslik va matematika. Amaliy fanlarda odob, axlok va siyosat fanlarini kritadi. Farobiy hudona borlikni birinchi aʼzosi deb kurschatadi va oʻzini "Ajoyib shahar aholisini fikr-qarashlari" nomli asarida jonni tanaga bogʻliqligi toʻgʻrisida fikr yuritadi. Farobiy "Falsafaning asosiy gʻoyalari haqida" degan asarida "Insondagi eng asosiy narsa soʻzlovchi vujudir" deb koʻrsatadi. Mahmud Qoshgʻariy tilshunos olim 1069 yilda "Devonu lugʻatit turk" (turkiy tillar devoni), Yusuf Xos Xojib 1069-1070 yillarda "Qutatgʻu bilik" (saodatga boshlovchi bilim), Ahmad Yugnakiy "Xibatul haqoyiq" (haqiqatlar sovgasi) kabi asarlar yaratadilar.

Maxmud Kashgariy "Turkiy suzlar devoni" da turkiy tilga oid soʻzlar, tarixi, turmush tarzi, badiiy ijodi toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Asarda inson samimiyligi va sevgi iztiroblarini kuylaydi.

IX-XII asrlarda diniy bilimlarning rivojlanishi.

Oʻrta Osiyo zaminida islom dini taʼlimotini rivojlanishiga xissa qoʻshgan buyuk allomalar yetishib chikkan va ular islomni kishilar maʼnaviyati va axlogiga ijobiy taʼsiri toʻgʻrisida, xadisnavislik haqida dir qancha asarlar yozganlar. Afsuski, ular mustabid shurolar xukumronligida davrida, diniy xurofiy kitoblar yozganlikda ayblandilar.

Xayriyat, mustaqilligimiz tufayli ular yani qayta tiklindilar, asarlari tarjima kilinib, uzlarini yubileylari utkazildi, ular nomiga davlatimiz tomonidan yodgorlik majmualari tashqil etilib abadiylashtirildilar.

Imom al-Buxoriy (810-870). Xadis ilmining davrida oltin davr hisoblangan xijriy 3, milodiy 9-asrda xadisshunoslikda katta yutuqlar kulga kiritildi. Butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli xadislar tuplamining "as-sixoxo as-sitta" mualliflar Oʻrta Osiyolik boʻlib, ular Imom al-Buxoriy, al-xajjoj, at-Termiziy, Sulaymon-Sijistoniy, An-Nasoiy, Yazib ibn Mojjalardir. Shular ichida "Xadis ilmida amir al-muminiyn" nomiga sazovar boʻlgani al-Buxoriydir. U xijriy 194 yil, milodiy 810 yilni 20 iyulida Buxoroda tugilgan. Al-Buxoriy yoshligida otasi vafot etib onasi kulida koladi. Akl-idrokli, utkir zexnli boʻlganligi sabab, 10 yoshidan boshlab, atrofda gildardan eshitgan pand-nasixatlar (axdis)ni va Abdullox ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarni xadis tuplamlarini yodlagan. Ustozi Shayx Doximiy bilan munozaralar qilgan. 825 yilda 16 yashar al-Buxoriy onasi va akasi Axdam bilan Makka va Madinaga keladi va 6 yil yashab xadis ilmidan uz bilimini oshiradi. Ilm fanning yirik markazlari boʻlgan Damashk, Koxira, Basra, Kufa, Bogʻdod kabi shaharlarda

bo'ladi. U butun umrini musofirchilikda utkazib, Misr, Shom, Mesapotomiyada 2 marta, Bafada 4 marta bo'lganman deydi.

Manbalarda yozilishicha, al-Buxoriy "Bog'dodda paytida oyning nurida ijod kilib, korongi kechalarda sham yokib kitob yozgan". Nishonurlik al-Xakimning yozishicha, ustozlarining soni 90 ta bo'lsa, shogirdlari undan kam bo'lmagan, at-Termiziy, al-Marvaziy, al-Xajjoj kabi shogirdlari bo'lgan deb yozadi.

Al-Buxoriy umrining oxirlarida (863-868) yillarda Nishonurda madrada xadis ilmidan dars bergan va at-Termiziy bilan uchrashuvi xam shu paytda bo'lgan. At-Termiziy aytishicha, uz asarlari uchun kup ma'lumotlarni al-Buxoriydan loib yozgan. Al-Buxoriy xam at-Termiziy bilimini yuqori baholab "men sendan kurgan foyda, sen mendan kurgan foydadan ortikrokdir" deb yozadi. Ustoz va shogirdni bir-biriga bo'lgan xurmatini arab tarixchisi az-zaxabiy "xofizlar haqida tazkira kitobida" at-Termiziy uz ustozining vafoti tufayli kattik kayguga botib, kup yiglaganidan kuzlari kur bo'lib, uzok yillar kuzi ojiz bo'lib kolganini yozadi.

Al-Buxoriy fakat yirik olimligi bilan emas, balki go'zal xulkatvori, odamovunligi, muruvvatligi, ximmatligi va saxovatligi bilan boshqalardan ajralib turgan. U utkir zexniligi, yodlash kobilyatini ustunligi bilan xam shuxrat kozongan buyuk allomadir. Al-Buxoriy kupchilik xasadguylar qurolmaydi. Hatto Buxoro amiri Axmad az-Zuxaliy bilan xam Aloqasi buziladi va amir Buxorodan chikib ketishni buyuradi, ilojsiz al-Buxoriy Samarqandga borib Xartang kishlogida xijriy 256 yil, milodiy 270 1 sentabrda 60 yoshida vafot etadi. Al-Buxoriy avlodlariga 20 dan ortik boy ilmiy meros koldirgan. "Al-Jome as-Saxix", "Al-Adab Al-Mufrad", "At-Tarix as-sagiy", At-Tarix al-avsot, At-Tarix al-kabir, Kitob al-ilal, Abrr ul-volidayn, Asomi us-saxoba, Kitob al-kuna va boshqalar. Uning eng muhim asari "Al Jome as-saxix" asaridir. Bu asari "saxiyx al-Buxoriy" deb xam yuritiladi. Alloma ibn Saloxni aytishicha al-Buxoriy bu asariga takrorlanadigan 7275 ta takrorlanmaydigan 4000 ta xadis kiritilgan. Uzi 6000 ta xadisini yod bilgan. Xadisnavislikni dastlab al-Buxoriy boshlab bergan. Mustaqillik sharofati tufayli uning nomi abadiylashtirildi. Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi tashqil etildi.

At-Termiziy (824-892) -xijriy 209 yil, milodiy 224 yilda termizda tugilgan. U ilm izlab Irok, Isfaxon, Xuroson, Makka va Madina shaharlarida bo'lgan. U xadis tuplash va o'rganishda kulay fursatdan unumli foydalanadigan bo'lgan. At-Termiziydan bizgacha qimmatli manbalar meros bo'lgan. "Al-Jome(jamlovchi) al-ilal fil xadays(xadislardagi ogishishlar), risola fil xilob va al-jadal (xadislardagi ixtilob va baxslar haqida risola), at-tarix (tarix), kitob az-zuxt (takva haqida kitob), kitob ul-asmu va al-kuna (ismlar va lakablar haqida kitob)"

kabi asarlar yozgan. At-Termiziy asarlarining eng mashhuri al-Jome (jamlovchi) asaridir. Bu asar manbalarda al-Jome al-Kabir (katta tuplam), al-Jome us-saxiyx (ishonchli tuplam), Jome at-Termiziy (termiziy tuplami), sunan at-Termiziy (termiziy sunnatlari) nomlari bilan mashhurdir. At-Termiziy az-shamoil an-nabaviya (paygambarning aloxida fazilatlarini) asarida, paygambarning shaxsiy hayotlari, u kishining suvrat va siyratlari, fazilatlarini va odamlarga oid 408 ta xadis uz ifodasini topgan. 1990 yilda allomaning 1200 yillik yubileyi utkazildi. 1210 yillik yubiley Termizda utkazishga tayyorgarlik kurildi.

Axmad Yassaviy (1041-1167) O'rta Osiyoda tasavvuf ta'limoti XII asrda paydo bo'ldi. Uning asoschisi Axmad Yassaviy 1041 yilda Sayramda tugilgan. U yoshligida ota-onasidan ajralib, bobosi arslon bobo tarbiyasida keyinchalik ustozini Shaxobiddin isfijobiydan oladi. Keyin Buxoroga borib Yusuf Xamadoniydan oladi. Aytishlaricha Axmad Yassaviy 63 yoshida yer ostida xujra yasatib chillagi kirgan va umrini oxirigacha (125 yil yoki 133 yil umr kurgan) yer ostida bo'lgan. Yassaviy toshxatiga asos soladi va uning uziga xos koidalari mavjuddir.

1. Murid xech kimsani uz piridan afzal kurmasligi, unga xar doim taslimiyat isxor kilmogi lozim. 2. Murid shunchaki zukko va idrokli bo'lishi kerak. 3. Shayxni barcha suzlari, ishlariga Murid sodik bulmogi kerak. 4. Murid uz piri (murshidi)ni barcha topshiriklarini chakkonlik bilan bajarmogi kerak. 5. Murid uz vadasida vafodor, so'zida ustuvor turmogi lozim. 7. Murid uz ixtiyoridagi barcha mol mulkni uz shayxiga isxor etmogi lozim. 8. Murid uz pirini sir-asrorlaridan ogox bo'lib xech kinga aytmashligi kerak. 9. Murid uz pirini mushkilotini oson kilmogi va nain-nasixatlarini bajo keltirmogi lozim. 10. Murid hudo yulida va shayxi yulida bor bisotini sochishga tayyor turmogi lozim. Yassaviy tashkati uning "xikmat" asarida berilgan.

Yassaviy tashkatida poklik, xalollik, to'g'rilik, mexr-shavkat, peshona teri bilan kun kechirish kabi insoniy fikirlar mavjud.

Najmiddin Qubro (1145-1221). Xijriy 6 asr va milodiy 7 asrda yashagan yani xijriy 540 yilda milodiy 1145 yilda Xivak shahrida tugilgan. Abduroxmon jomiy o'zining "Nafoxat ul-uns" asarida Najmiddin bilan ilm istab misrga borganini yozadi. U yerda Ro'zbekxon degan olim uni uglidek kurib mexir bilan tarbiya kiladi va kizini beradi. Keyin tabrizda bo'ladi va kaynotasini maslaxati bilan Xorazmga keladi. Lekin Xorazmda Najmiddinni hayoti ogir sharoitda utadi. Chunki Xorazmga Chingizxonni bostirib kelishi davriga to'g'ri keladi. Kubrodan bizga favoix al-jamol va favotix al-jamol, al-usul al-ashara, risolat al-xoif al-xaim min laumon al-la'im, Kubro uz tashkatini al usul al-ashara (un usul yoki un asos) asarida ko'rsatib beradi.

1. Tavba-uz xoxishi bilan xak taloga xech bir kursavtmasiz yuzlanish hudoni uz xoxishi bilan sevishi kerak.
2. Zuxd fi-dunyo-bu dunyo lazzatidan tiyilish xayrli ishlar bilan band bo‘lish.
3. Tavakkal-hudoga ishonish, uni ulug‘vorligini e’tilof etish. Maqsadga erishishda tavakkal etish.
4. Kanoat-hayot kechirishda kanoatlanish, mol-dunyoga xavas kilmaslik, bekorchilikka berilmaslik.
5. Uzlat-tanxolikda utirib ruhni mustahkamlash boshqalar fikricha ishonmaslik.
6. Mulozimat az-zikr (uzluksiz zikr)-uz xoxishi bilan hudoni yod kilish pastkashlik, xasad, ochkuzlik, ikki yuzlamachilik kilmaslik.
7. Tavajjux-butun moxiyatni hudoga karatish.
8. Sabr-to‘g‘ri yuldan adashmasdan borish.
9. Murakobo-(tafakkurga gark bo‘lish) mushoxada yuritish lekin ortikcha xis-tuygularga berilmaslik.
10. Rizo-avvaldan nimaga ishongan bo‘lsa ushani uz buyrugiga olish.

Maxmud az-Zamaxshariy (1075-1144) zamaxshar kishlogida tugilgan. U Buxoroda, Bog‘dodda, Makkada, Marv nishonur, Isfaxon, Isomda bo‘ladi. U Makkada 5 yil turadi va Jorullox (olloxning kushnisi) degan nomga muyassar bo‘ladi. Uning arab tili va grammatikasiga oid "Al-Mufassal" asaridir. Buni ixchamlashtirib "Namuna" deb aytadilar. Kur‘onning sharxlari buyicha al-Kashshof asarini yozadi. U arablar va gayriarablarning ustoz, Xorazmning faxri degan nomlar bilan mashhurdir. Uning "Oltin shodalar" asari (ayollarning iffatiga e’tibor beradi), nozik iboralar kabi asarlar yozadi.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati va san’ati.

Temur va Temuriylar davrida Movaraunnahr va xurosonning shahar hamda qishloqlarida katta obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Sugorish tarmoklarini ta’mirlash va kengaytirish, ya’ni ariklar kazib obodonlashtirish ishlariga ma’lum darajada ahamiyat berildi. Dashtlarga suv chikarilib yangi yerlar uzlashtirildi. Yangi yerlarni uzlashtirishda xususiy soxibkorlik rivojlantirildi. Bunday soxibkorlar 1-2 yil solik va tulovlarlardan ozod etildilar. Temuriylar davrida Zarafshon daryosidan suv oluvchi qadimgi Angor kanali qayta tiklandi. Bu kanal orkali Kashkadaryoga xam suv olis borib, dehqonchilik yerlari suv bilan tula ta’minlandi.

Amir Temur davrida hunarmandchilik va savdo-sotik rivojlandi. Hunarmandchilikni barcha sohalari: tukimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik, binokorlik asosiy rol uynagan. Temur tomonidan utkazilgan

tantanalarda hunarmand va savdo axllari xam katnashgan. Duxobo tukish san'ati yuqori daraja bo'lgan.

Yevrosiyo tarixida un beshinchi asr-ulkan yaratuvchilik ishlari amalga oshirilgan, buyuk geografik kashfiyotlar kilingan, ulug' shaxslar davri bo'ldi. Amir Temur ana shunday ulug' shaxslardan biridir. Temurning bunyodkorlik faoliyatidagi bayuuk xizmatlari uning bizgacha yetib kelgan me'moriy yodgorliklaridir. Uning ona yurtini tarixiy nomi Kesh bo'lib, atroflari dov-daraxt, tokzorlar bisyorligidan Shahrisabz deganlar. Temur shahrini markaziy qismi-Xisorni va shahar atrofini balandligi 11 m, eni 5 m bilan uragan.

Turtburchak shakldagi bog'lar barpo etgan, darvozalar ukirgan, darvozaga Xirotdan ulja sifatida olib kelingan yozuv bitilgan. Temur Shahrisabzda Oksaroy kurdiradi. Bu saroyga tamal toshi saodatli soatda ya'ni 1379 yil Xorazm yurishidan kaytishi bilan kuyilgan. Saroy peshtokida koshinkor usti Muhammad Yusuf Tabriziyning ismi 2 marta yozilgan. Saroy qurilish 1380 yil boshlanib, 1836 yil tugallangan, lekin pardoiz ishlari 1404 yilgacha davom etgan. Saroy haqida Klavixo va Bobur ma'muriyatlarida kup yozilgan. Saroyning peshtok tokchalarida she'r va quyoshning kadama naksh iblan ishlangan bo'rtma tasviri, Temurni 3 ta xalqa ko'rinishidagi nishon tushurilgan. Kabulxonaning ichki devorlari Klavixo estaliklarida "Oltin va lojuvard" bilan bezatilgan. Temur Shahrisabzda Shayh Shamsiddin Kulolga maqbara kurdirdi, kugumbaz, Gumbazi sayidon maqbarasi, Dor ut-tilovot madrasasi kurildi.

Temur davrida bunyodkorlik ishlari Samarqandda kuprok amalga oshirildi. Samarqand atrofidagi qishloqlarga Damashk, Koxira, Sheroz, Sultoniya, Bog'dod kabi shaharlar nomi berilib, shark me'morlari kurgan binolarni mashhurligin ko'rsatdi. Temur Afrosiyob o'rnida Xisor tepaligida 1371-72 yillarda yangi qal'ani bunyod etdi. Kuk saroy kurdirdi. Qal'a ichida Buston saroy bo'lgan. Shoxizinda (tirik shox) Temuriylarni ayollar makbarasi bo'lgan 14 asrni 70-80 yillarida yodgorligi tashqil etildi. 1371 yilda Shodimulk oka (Temurni jiyani) maqbarasi, 1385-86 yilda Temurning singlisi Shrinbika oka maqbarasi, shahar ichida Registon ansambli, Turi Amir Temuriylar davrining erkaklar maqbaralari barpo etildi.

Amir Temurning obodonchilik sohasidagi buyuk xizmatlari.

Ma'lumki, Amir Temur nafakat O'zbekistonda balki, butun dunyoda obru e'tiborga ega bo'lgan buyuk ma'naviyat yulduzimiz hisoblanadi. Bu tabarruk insonni bizga kolbirgan moddiy va ma'naviy merosi bir jahon xazina hisoblanadi. Lekin uzok yillardan keyin mustaqilligimiz sharofati bilan qayta tiklandi.

Men fakat buyuk bobokolonimizni obodonchilik sohasidagi buyuk xizmatlariga kiskacha tuxtalmokchiman. Tarixchi ibn Arabshox barpo etgan

bog'lari tubandagicha deb ko'rsatadi va 12 tadan ortik chorbog'lar tashqil etganligini ko'rsatdi.

Chorbog-turgi turtburchak shaklida kurilib, urtasida kushk yoki kasr solingan, turt tomonga arik kazilib, maramr xovuzlar qurilgan, xovuz urtasida favora o'rnatilgan.

- 1) Bog'i Nakshi jahon - 1370 yilda,
- 2) Bog'i Bexsht - 1378 yilda,
- 3) Bog'i buldu-olisdagi bog 1398-1400 yilda,
- 4) Bog'i Dilkusho -1396-98 yilda,
- 5) Bog'i shimol-shimoliy bog 1397 yilda Mironshoxni kizi bekasi Sulton nomiga qurilgan,
- 6) Bog'i zogon-zogonlar bog'i shahar sharkida qurilgan,
- 7) Bog'i baland-Mironshoxni 2 chi kiziga atab qurilgan,
- 8) Bog'i davlatobod- 1399 yilda,
- 9) Bog'i chinor-shaharni janubiy garbida qurilgan,
- 10) Bog'i nav-shahar garbida,
- 11) Bog'i jahonnamo-katta bog (adashgan otni 6 oydan keyin topganlar) 1398 yilda,
- 12) Bog'i maydon-Afrosiyobni shimolida qurilgan.

Ibn Arabshox Temur kurdirgan bog'lari haqida "Temur Samarqandda kupdan-kup bustonlar barpo kilib, baland muxtasham kasrlar barpo etdi". Bog'larda mevali kuchatlar bilan bezatilgan. Xalq tilida bu bog'lar Eram bog'i, Dunyo ziynati, firdavs ziynati, Shimol bog'i, Oliy jannat bog'lari deb nomlangan deb yozadi. Amir temur tomonidan yaratilgan bog'lar o'zining go'zalligi, undagi turli tuman mevalar ta'riflarini, yer yuzidagi mavjud hayvonot dunyosi, parrandalar tavsilotlari bilan jahonga mashhur bo'lgan. Bog'lar ichida "Bog'i Dilnusho" (dillarni xush kiluvchi bog) juda keng va go'zal bo'lgan. Bogni xar tomoni 1500 gaz (1600 m) keladigan maydonda gisht bilan urab olingan. Saroy gumbazlari nakshlangan, naksh bilan koplangan, bogni 4 burchagida bezatilgan shiyponlar, yullarda gullar. Bog Temurni mayliga javob berganligi uchun Bog'i Dilnusho deb atalgan.

1404 yilda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixo xam Temur tomonidan barpo etilgan obodonchilik ishlariga yuksak baho berib, Bog'i Dilnushoda favoralardan suv otilib turganligi, davvozalari qimmatbaho va oltin toshlar bilan bezatilganligi yozadi. Bundan tashqari, Samarqand Temur davrida dunyoda eng kurkam va go'zal shaharlaridan biri bo'lgan va yer-yuzining saykaliga aylangan. Temur nazarida, Samarqand oldida dunyoning boshqa shaharlari bamisoli bir kichik-kichik kishlogiga uxshab koladi degan maqsadda Samarqand atrofiga jahondagi yirik davlatlarni poytaxtlari nomlari bilan

qishloqlar barpo ettiradi. Bog‘dod, Damashk, Koxira, Sheroz, Sultoniya, Parij (forish) qishloqlari ana shu tarika Samarqandning dovrugi boston bo‘lib ketadi. Shaharning obodonchiligi va tozaligi haqida: Shaharda okava suvlar okib turadi, gullar ochilib, yurgan doamni kungli xushnud bo‘lishin yozadilar. Samarqandni o‘zida 80 ga yaqin xammom, 5 ta bozor bo‘lganligi xam kayd kilingan. Shu bilan birga Samarqandda eng xashamatli go‘zal obidalar xam qurilgan: Shoxizinda ansambli qurilgan. Ansambl tarkibida 20 dan ortik maqbaralar kad ko‘targan. Turkon oga maqbarasi (onasiga), Tarixiy obidalaridan yana biri Guramir maqbarasi bu maqbara Temurni Muhammad Sulton nomli nabirasi (jahongirni ugli) ga qurilgan. U 1403 y 19 yoshida turklar bilan bo‘lgan jangda vafot etgan bo‘ladi. Temur farmoni bilan 10 kun ichida qurilgan.

Demak, shundan ham ko‘rinib turibdiki Amir Temur kuch qudrati katta bo‘lganligi. Bundan tashqari Amir Temur Keshda Oq saroy va Turkistonda yassaviy maqbaralarini ham bunyod qildirib o‘zidan avlodlariga boy va tunganmas meros qoldirgan. Amir Temur ushning uchun xam ulmagan ruhi barhayot, ruhi bizni doimo qo‘llab kuvvatlaydi.

Prezidentimiz farmoni bilan ma‘naviy va milliy kadriyatlarimizni qayta tiklash maqsadida 1996 yilni Amir Temur yili deb e‘lon qildi. "Amir Temur" ordeni ta‘sis etildi, Samarqand va Kesh shaharlari ushbu orden bilan takdirlandi va bundan keyin xam Amir Temurga bo‘lgan munosabatlarimiz rivojlanib boraveradi. Amir Temur davrida tarix fani rivojlandi. Nizomiddin Shomiy Temurni Bog‘dodga yurishi vaktida 1393 yilda kutib oladi va uning xizmatiga utadi. 1404 yilgacha Temur bilan birga bo‘lib butun vokelik tasilotlarini yozadi. 1401 yilda Temur o‘zini tarixini aniq va sodda kilib yozishni buyurgan. Shomiy Temurni hokimiyat tepasiga kelishidan to 1404 yilgacha bo‘lgan tarixini yozadi. Shomiy 1404 y mayida Temur Samarqandga ketayotganida uz asarini "Zafarnomani" unga takdim etadiva yurti Tabrizga ketishga ruhsat suraydi. Shomiy 1409 yilda vafot etadi. Bu asarni 1412 yilda Xofizi Abru poyoniga yetiradi.

Mu‘iniddin Natanziy isfanxonlik bo‘lib, Temur xizmatida bo‘lgan. Shoxruh saroyida yashaydi va "Muntaxabut tovarixi mu‘iniy" asarin yozadi va unda turk mugul kabilalari va ularni kelib chiqishi, Chingizxon va uni avlodi, Chigatoy ulusi, Ok urda xonlari va Movaraunnahramirlar tarixini yozadi.

Sharafuddin Ali Yazdiy ga Amir Temur tarixini o‘zining "Zafarnomasi"da yozgan. Ali Yazdiy bu asarni Temurning nabirasi Ibroxim Sulton buyrugi bilan yozadi. Bundan tashqari, Amir Temur davri tarixi Navoiyning tashabbusi bilan Mirxond va Xondamirlar, Abdurazzok Samarqandiylar tomonidan yozilgan.

Movaraunnahr, xususan Samarqandda ilm-fan va san'atning taraqqiyotida zamonasining madaniy muhitda tarbiyalanib, yoshligidayok mashhur olim sifatida shuxrat kozongan Ulug'bekning roli va xissasi buyuk bo'ldi.

Ulug'bek mamlakatning siyosiy va iktisodiy hayotini boshqarish bilan birga, ilmiy ishlar bilan xam shugullanadi, olimlarning munozaralarida faol katnashadi. Al-Fargoniy, Farobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino asarlarini urganadi. U Movaraunnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilmu ma'rifat dargoxiga aylantirishga intiladi.

Ulug'bek Samarqandda butun bir astranomiya maktabini yaratdi. Ulug'bek maktabining erishgan eng muhim va ajoyib muvaffakiyatlaridan biri matematika va astranomiya sohasida bo'ldi. Astranomyai sohasida Giyosuddin Jamshid "Ziji Xokoniy", "Bog'lar sayri", "Osmon narvoni", matematikaga oid "Xorda va sinuslar haqida risola", "Hisob kaliti", "Doira haqida risola" kabi asarlar yozdi. Qozizoda Rumiy esa "Arifmetikaga doir risola", "Astranomiya moxiyatiga izoxlar", "Shakllar asosiga sharx", "Sinus haqida risola" kabi asarlar yozadi. Ulug'bekning shogirdi Ali Kushchi (uz davrining Ptolomey nomi bilan mashhur bo'lgan) astranomiya, arifmetika va algebraga oid 6 ta risola yozdi.

Ulug'bek davri astranomlari dunyoing markazi Yer (cheokentrizm), Yerning yumalokligi va uni quyosh atrofida aylanishi (cheokentrizm)ni ko'rsatib berganlar. Shuningdek, Ulug'bek Samarqandda astranomiya maktabining asoschisi va raxbari sifatida ulkan muvaffakiyatlarga erishdi. Ulug'bek astranomiyaning nazariy va amaliy masalalarini o'zida aks ettirgan shox asari "Ziji jadidiy Kuragoniy" (kurogoniyning yangi astronomik jadvali) asaridir. Asar 1437 yilda yozib tugatilgan bo'lsada Ulug'bek unga keyingi tadkikotlarini xam kuritib bordi. Bu asari 2 qismdan: mukaddima va 1018 ta yulduzning o'rni va xolati aniqlan berilgan jadvallardan iboratdir. Ulug'bek tomonidan "Tarixiy arba'ulus" ya'ni "turt ulus tarixi" nomli asar yoziladi. Musiqa ilmi haqida 5 ta risola yozadi. Ulug'bekning ilmiy faoliyatiga va koldirgan merosiga Giyosuddin Jamshid "U kur'on, xadis, arab tili, grammatikasi, fikx, mantik, adabiyot, musiqa, riyoziyot, falakiyot ilmlarini chukur bilgan komusiy olimdir" deb baho beradi. Ulug'bekning astranomiya maktabi uz davrining akademiyasi deyish mumkin. Ulug' atrofidagi 100 dan ortik olimni uz bagrida yetishtirgan, nomi jahonga mashhur bo'lgan Samarqand rasabxonasi shu vazifani utagan. Samarqand akademiyasi bundan 225 yil oldin Fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchisi Volter (1694-1778) tomonidan e'tirof etilgan va "Ulug'bek akdemiyaga asos solgan, yer kurrasini ulchashga buyurgan, astranomiya jadvalini tuzishda ishtirok etgan" deb yozadi. Samarqand akademiyasi Gurganchdagi "Donishmandlar uyi" ya'ni Ma'mun akademiyasidan keyingi

ikkinchi "Dor ul-ilm" edi. Ulugʻbek astronomiya maktabi endigina uygonayotgan Yevropa astronomiyasini rivojiga katta taʼsir qildi.

Ulugʻbekning farmoni bilan 1424-28 yilda Samarqandda uz atrofidagi olimlar ishtirokida Obraxmat anxori buyida rasadxona kurdirdi. Doira shaklidan bu imoratning aylanasi 47m, balandligi 31m boʻlgan. Rasadxona 3 qavatli boʻlgan. Binoni sirti koshin va sirli parchinlar bilan koplangan. Ichki qismi yulaklar orkali 4 qismga ajralgan. Xar bir qismi katta azal va mayda xonalarga bulingan. Imorat xonalari devorlari osmon gumbazi, samoviy jismlar, ularning joylashishi, sobita (qoʻzgʻalmas) yulduzlar, dengiz, okeanlar, togʻ va dashtlar va iqlim mintaqalariga bzlingan. Shu tarzda rasadxona ichki devorlarida koinotu yer kurrasining manzarasi tasvirlangan, shuning uchun maxalliy aholi uni "Naqshi jahon" deb yuritgan. Ali Qushchi zamonasini batlimusi deyilgan, rasadxonasining asosiy qismi balandligi istambuldagi Ay Sofiya ibodatxonasining balandligiga (50 m) kiyos qilgan. Rasadxona zaruriy astronomiya ulchov asboblari bilan jixozlangan. Rasadxona koshida kutubxona tashqil etgan, unda 15000 jild saqlangan. Rasadxona etagida Bogʻi maydon va Chinnixonona gorbogʻlari paydo etgan. Lekin rasadxona kup yillar karovsiz kolgan va 1908 yilda V. L. Vyatkin urgangan. Rasadxonada 1018 ta kuzgalmas yulduzni oʻrni va xolati saqlangan. Rasadxona 1948 yilda tulik urganilgan. Ulugʻbekning farmoni bilan 1417 yilda Buxoroda, 1417-20 yillarda Samarqandda, 1433 yilda Gijdivonda madrasaldar barpo etilgan. Buxoro madrasasi darvozasiga "Bilim olish xar bir musulmon yoal va erkakning burchidir" degan kalima uyib yozilgan. Shular ichida Samarqand madrasasi zamonasining dorilfununi edi. Madrasada kurʻon, xadis, tafsir, fikx (din va shariat konun koidalari), riyoziyot (matematika), xandasa (geometriya), ilmi xayʻat (astronomiya), tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruz (poetika), arab tili va morfologiyasi (nofiya) kabi dunyoviy fanlar ukutilgan. Samarqand madrasasi 2 kavatli, 50 ta xujrali, xar xil xujrasi 3 ta xonali (kaznok-omborxonona), yotokxonona va darsxonadan iborat boʻlgan. 100 dan ortik talaba ukigan. Rumiyy, Giyosiddin Jamshid, Ulugʻbeklar turli fanlardan dars berganlar. Rumiyy astronomiyadan dars bergan.

Ulugʻbek bobosi kabi mamlakatda qurilish ishlariga katta xamiyat beradi. Ulugʻbek bobosi davrida kurib bitqazilmagan imoratlarni nixoyasiga yetkazadi, yaʻni Guri Amirning kirish peshtoki, Shahrisabzdagi Kukgumbaz masjididi, Yassidagi Yassaviyy kabir ustidagi qurilgan binolardir.

Ulugʻbek Samarqand obodonchiligiga katta eʻtibor beradi. Uning davrida Samarqanddagi Registon maydoni shakllanadi va Masjididi Mukattaʻ bino kilinadi. 210 gumbazli Kukaldosh jome masjididi kuruladi. Koshinkor, bekiyos jilvali ranglar, parchinlar bilan nakshlangan Kozizoda Rumiyy maqbarasi

kuriladi, Registon maydonida Mirzoyi xammomi va karvonsaroyi, Bog‘i maydonda Chilsutun (kirk ustun) va Chinnixona saroylari kuriladi.

Ulug‘bek davrida hunarmandchilik va savdo-sotik rivojlangan, kushni mamlakatlar bilan elchilik Aloqalari olib borilgan. Ayniksa, Xitoy, Hindiston, Rusiya, Tatariston, Sibir kabi mamlakatlar bilan Aloqa kilingan va u yerlarga ip matolar, duxoba, shoyi, kogoz, kuruk mevalar, guruch, paxta va kalava iplar chikarilgan. Xar 2-3 yilda Samarqand bilan Xirotga Xitoy elchilari, Xonbalik (Pekin)ga Movarounnaxr elchilari va savdogarlari katnab turgan. 1420 yilda Shoxruh va Ulug‘bek 530 ta elchi karvonini Xitoyga junatgan.

Amir Temur davrida Samarqand turkiy olamni madaniy markaziga, Xusayin Boykaro va Navoiy davrida bu mavkeni Xirot egalladi. Temuriylar davrida turk tili davlat tili darajasiga ko‘tarildi. Bu davrning yetuk shoirlaridan Xaydar xorazmiydir. U Temurni nabirasi fors va Isfixon xokimi Iskanlar mirzo (1409-1414) saroyida yashab ijod qildi. U "Gulshan ul -asror" masnaviysini yozdi. Yusuf Amiriy esa Shoxruh va ugli Boysunkur mirza ximoyasida bo‘lib ijod kildgan va "Dexnoma" asarini yozgan. "Bang va Chagir" asari buyicha chigatoy turk adabiyotida yangi janrga asos solgan. Adabiyot sohasida isti‘dodli ijodkorlar : Xorazmiy "Muxabbatnoma " Kamol Xujandiy "Latofatnoma", Yusuf Amiriy "Dexnoma", Saidaxmad ibn Mironshox "Taashshuknoma" kabi nomalarini yozdilar. Axmadiy "Sozlar munozarasi", Yaqiniy "Uk v yoy" asarlarini yozdi. Atoiy esa Navoiyning ""Majolis un Nafosisini turklar orasida shuxrati katta deb yozadi. Sakkoniy Xalil Sulton, Ulug‘bekga bagishlangan kasidalar bitadi. XIV asr oxiri XV boshlari Lutfiy (1366-1465) nomi bilan bog‘liqdir. Navoiy iborasi bilan aytganda Lutfiy "Zamonining malikul kalomi, forsiy va turkiyda naziri yuk shoir edi deb yozadi. Lutfiy "Gul va navruz" (1411) dostonini yozgan. U Ali Yazdiyni "Zafarnoma"sini forsiydan o‘zbekcha tarjima kiladi. Lutfiy adabiyotga soddalik va samimiylk olib kirgan, O‘zbek adabiyot tilini xalqningmakol va matallari bilan boyitgan. Durbek esa "Yusuf va Zulayxo" dostoni bilan she‘riyat rivojiga katta xissa kushdi. Temur va Temuriylar davrida adabiyotda dunyoviylik kuchaydi va fors tili va adabiyotiga katta e‘tibot berildi. Shoirlar xam bu davrda ikki tilli (zullisonayn) edilar.

Bu davr adabiyotida Navoiyning roli katta. Bu davrda katta davralar, anjumanlar bo‘lib, bunda katnashish uchun 40000-60000 satr she‘rni yod bilish shart bo‘lgan. Navoiyning birgina gazalini uzi 2000 baytdan ortik bo‘lgan. She‘rlari 1465 yilda tuplanib devon kilingan. 1490 yilda Jomiy she‘rlari 4 jildli Xazoyin ul moniy "Ma‘nolar xazinasini" nomi bilan mashhurdir. 1483-85 yillarda turkiy tilda biinchi marta "Xamsa" yaratdi. Bu "Xayrat ul- abror" (yaxshi odamlarning xayratlanishi), Farxod va shirin, Layli va Majnun, sab‘ayi Sayyor,

Saddi Iskandariy dostonlaridan tashqil topgan 52000 misradan iborat beshligini yaratadi.

Adabiyot sohasida Bobur (1483-1530) ning xizmatlari kattadir. Hozirgacha uni 119 ta gazali, 201 ruboyisi, 364 ta she'rlari ma'lum. U 1503 -1504 yillarda arab alifbosini islox kilib, "Bobur xati" nomi bilan 29 ta xarfdan iborat yangi alifboni yaratdi. Musiqaga oid " musiqqa ilmi" asarini yozdi.

"Xarb shul" risolasini jangu-jadallardagi tajribasini bagishladi. Xuja Axror Valiga ixlos kuyib, uning "Volidiya" sini forschadan o'zbek tiliga tarjima qildi. Nihoyat, Bobur Navoiydan keyin ikkinchi bo'lib turkiyda aruz (poetika) haqida "Muxtasar" ini bitdi. "Boburnoma" sini bitdi. Lekin "Xarb shul" va "musiqqa ilmi" xaligacha topilmagan. Temuriylar davrida Xondamirning roli katta bo'ldi. U 1475 yilda Xirotda tugilgan. Otasi Sulton Abusaidni ugli Sulton Maxmudni vaziri bo'lgan. Onasi mirxoidni kizi bo'lgan. Xondamir tarix, adabiyot, insho ilmlariga kizikib, Navoiy xomiyligida voyaga yetadi. Xondamirga bobosi Mirxoidni ta'siri xam katta bo'lgan. U 1523 yilda "Xabibus-siyyar" asarini yozadi. Xondamir 10 yaqin asar yozadi. 1498-1499 yillarda Navoiy iltimosiga kura "Oliyjanob kishilar axvolidan xabarlar xulosasi" asarini yozadi. Asar 10 bobdan iborat bo'lib 10 bobida Sulton Xusayn mirzo tarixi bitilgan. Xondamirni yana "Vazirlar uchun dastur", "Podshoxlar zamondoshlari", "Xabarlar va bashariyat odimlaridan dilga yaqin siyratlar", "Karamli ahloq" Navoiyga bag'ishlangan., "Mashhur nomalar" kabi asarlar yozadi.

XIV-XV asrlar tasviriy san'ati tarixga uyg'onish davri bo'lib kirdi. Bu davrda tasviriy san'at nihoyatda taraqqiy qilgan. Tasviriy san'at bu davrda xayoliy mavkumlikdan hayotiylikni tasvirlagan. Bu jihatdan zamondoshlari tamonidan "Moniy Soniy", keyinchalik garb olimlari tamonidan "Shark Rafaeli" deb ulug'langan Kamoliddin Bexzod va u asos solgan miniatyura maktabi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda Jomiy, Navoiy, Xusayn Boykoro, Bobur, Shayboniylarning qiyofasi yaratildi. Bexzod Ali Yazdiyning Zafarnomasiga 12 ta tasvir chizadi. Bunda Temur faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqealar, jang manzaralari, kabul marosimlari, Samarqanddagi binokorlik ishlari aks ettirilgan. Zafarnomadagi birinchi kushalok tasvirda Amir Temurni bogda utkazayotgan kabul marosimi aks etgan. Ung tamondagi tasvirlar Temur va uning ugillari, sul tomonda esa elchilik harakatlari aks ettirilgan. Bexzod yana bir tasvirda togdagi jang manzarasini aks ettirgan. Tuxtamish bilan bo'lgan jang tasvirlari xam diqqatga loyikdir.

Tasvirlarning yana birida Bexzod "Bibixonim" masjidini qurilish jarayonini aks ettirgan. Keyingi tasvirda binoni jixozlash jarayonini aks ettirgan bexzod tamonidan Dexlaviy, Nizomiy, Navoiy asarlariga xam tasvirlar chiziladi.

Bexzod asarlarida kupincha kurkam chorbog'lar manzarasi, saroylar, nakshinkor peshtoklar tasviri dunyoga mashhur edi. Musavirlardan Abdulxoy va Axmad Bog'i shamoliylar shuxrat kozongan. Xirof miniatyura maktabiga yaqin bo'lgan Samarqand miniatyura maktabi shakllangan. Bu maktab asarlari orasida As Sufiyni astraronomiyaga oid rusolasiga ishlangan rasmlar (1437), Ulug'bek asarlari rasmlari, "Xamsa"dagi rasmlar xam mashhur bo'ldi. Bu davrda Maxmud Muzakkib va Chogri Muxassinlar Nizomiy asarlariga rasmlar ishlagan. Muhammad murod Samarqandiy esa "Shoxnoma"ga rasmlar chizgan.

XIV-XVII asrlarda O'zbekiston madaniyati.

XI asrlarning oxirlariga kelib Boburiylar davlatining iktisodiy va siyosiy axvoli ogirlasha boshladi. Toju-taxt uchun talashishlar boshlandi. Buning ustiga XVI asrdan boshlab Juji ulasi 2 qismga: 1) Dashti Kipchokning sharkiy qismi ok urdaga va Dashti Kipchok o'zbeklaridan o'zbeklar mamlakati vujudga kela boshladi. O'zbeklarni vujudga kelishi Shayboniylar (1500-1600) xukumronligi bilan bog'liq. Shayboniylar hokimiyatni mustaxkablab olgach, yer-suv masalasini ko'rib chiqdilar. 1502 yilda Zarafshon daryosiga suv ayirgich ko'prigini qurdilar va Abdullaxon I (1557-1598) davrlarda Nurota tog'larida suv ombor va tugon kurildi. 1507 yilda pul isloxati utkazildi. Davlatning hamma yirik shaharlarida vazni bir xil bo'lgan yangi kumush tangalar va mis chaka pullari zarb kilina boshladi. Bu esa savdo-sotiku ishlarini tartibga solishni mustahkamladi.

Dehqonchilik rivojlandi va sholi, nuxat, makkajuxori, loviya paxta kuplab eqildi. Usha davrda chetga kup mikdorda ip-gazlamalar chikarildi. Manbalarda ko'rsatilishiga Astraxan shahri Rassiyani O'rta Osiyo, Eron, Kaspiy orti va shark mamlakatlari bilan iktisodiy-siyosiy Aloqasini o'rnatuvchi markaz sifatida muhim urin egallagan. U yerga o'zbek savdogarlari 10 turdan ortik gazlama (olacha, buz, bosma, kizil mato, pardalar, belbog, rumolcha, chodir b't kiyim boshlar, ip kalava, paxta)lar olib borib targanlar. 1615 yili 2 o'zbek sadogari Kozonga 7190 gaz gazlama, 1622 yili bir o'zbek savdogari 1650 gaz ip gazlama, 230 gaz ipak gazlama, 20 ta parda va 150 ta belbogni Nijniy Navgarodda, 1633 yilda Otakuli Xoji ismli savdogar esa 66530 gaz turli gazlamalarni Astraxanda sotganligi haqida ma'lumot bor. Bundan tashqari, 1640 yili bir savdo narvonida 195690 gaz ensiz gulli chik, 4790 gaz enli chit, 1722 ta chakman, 1512 ta belbog kabi mollarni Tobalask bozorlarida sotilgan. O'zbek paxtasi Rassiyada kushimcha bor katta kizikish uygona borgan. Hatto rus xukumati paxta, kovun-tarvuz va uzum yetishtirishni uz ulkasida iklimlashtirishga karatilgan ba'ziy choralarni kurgan. XVII asr urtalarida rus podshosi maxsus farmon chikarib, Astraxandan chigit, uzum, kovun-tarvuz urug'larini topib, ularni ekish uchun Maskvaga yuborish to'g'risida maxalliy hokimiyatga ko'rsatma berdi. Farmonda

yuqoridagi narsalar Astraxandan topilmasa, ularni O'rta Osiyodan keltirish va o'zbeklarni bu ishga o'zbeklarni jalb etish zarurligi ta'kidlandi. Podsho farmoniga muvaffik yuqoridagi narsalar, Maskva yaqinidagi Izmaylov kishlogiga tajriba uchun eqildi. Lekin bu ekinlar bu yerda yaxshi usmadi. Keyin Orenburgga xorazm chigiti hisobiga paxta eqilganligi ma'lum lekin eqilgan paxtani sovuk pishib yetilmagan. Shayboniylar davrida hunarmandchilik bir muncha rivojlangan, bu davrda qurol-yarog, misva jez idishlarni yasash, takimachilik, kagoz, sovun ishlab chikarish, uymakorlik buyumlarini ishlab chikarilgan, misgarlar kucha, lagan, kazonlar va butun bir kuy gushti sigadigan patnislar yasaganlar.

XVI asrda O'rta Osiyoda qurol aslaxalar katorida miltik va tup ishlatilishi rasm bo'lgan. Tosh uymakorligi rivojlangan, bu davrda Samarqandlik ustalar zur mahorat ko'rsatganlar. Bundan tashqari Samarqand atrofida yozuv kagozi tayyorlaydigan ustaxonalar bo'lgan va "Miribraximiy", "Sutoniyy" nom bilan mashhur bo'lgan a'lo sifatli Samarqand kagozlari chikarilgan va boshqa mamlakatlarga chikarilgan. XVI asrda suv tegirmoni moyjuvozlarni kuyligi hunarmandchilikni rivojlanishini ko'rsatadi. Hatto manbalarda XVI asrda hunarmandchilikni 60 dan ortik to'g'ri bo'lganligi ko'rsatilgan.

XVI-XVII asrlarda Movarounnaxrda ma'naviyat dunyosi namoyondalari maydonga keldi va jahon madaniyati xazinasiga munosib ulush kushdi. Zayniddin Maxmud Vosifiy- 1485 yilda tugilgan va 1512 yilgacha Xirotda yashadi, so'ng O'rta Osiyoga keladi. Vasifiy ijodi kichik-kichik kizikarli latifalar tuplamidan iboratdir. Vasifiy ijodida saroy ishlari asosiy urin tutadi. Bundan tashqari, noma'lum muallif tomonidan yozilgan XVI asrning birinchi yarmida "Nusratnoma", Muhammad Solixning "Shayboniynoma dostonlari, Bobo'ring "Boburnoma" asarlari, 1593 yilda Axmad Roziyning "Etti iklim", mutribiyni dunyo xaritasi ilova kilingan "Tazkiroti shuaro"si shu davrlarda yozilgan. Tibbiyot sohasida 1541 yilda Muhammad Xusayn Ibn al Mironi ar Samarqandiyni dorishunoslikga oid dorivor o'simliklar haqidagi asarlari katta ahamiyatga egadir. Yana shu davr mashhur tarixchisi Sharofiddin Ali Yazdiyni "Zafarnomasi" O'zbek tiliga tarjima kilinadi. Shuningdek Ulug'bekka bagishlangan "Muntaxabi jome va tovorixi shoxiy" degan asari xam o'zbek tiliga ugirildi. XVI asrda hattotlik san'ati rivojlandi, Sulton Ali Mashxadiy, Mir ali Xiroviy osh Shakobiylar xusnixat ustalari edi. Bundan tashqari, qurilish inshoatlari, karvon saroylar, xammom va savdo rastalari kurila boshladi. Masalan: Buxoro shahri kalin, balandligi 10 metr devor bilan o'raldi. Mir arab madrasasi, Xo'ja Zayniddin masjid, Buxoro va Toshkentdagi, Kukaldosh madrasalari kurildi. Abdulxon madrasasi (1652) Anushaxon xammomi, Arab Muhammad madrasasi va boshqalar. 16 asrda Abulgoziy Bahodirxon davrida

ilm-fan va adabiyot rivojlanadi. Uning "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" hamda "Manofs'ul inson" nomli asarlari 17 asrla Xorazm adabiyotini rivojlanishiga xissa kushadi, Abulgoziy davrida bunyodkorlik ishlari rivojlanadi va 1646 yilda yangi Urganchga asos soladi. Toshli yormish Shoxobod, Roziobod kabi kanallar kaziladi.

Buxoro amirligi va uning madaniyati va san'ati tarixi.

Temuriylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Shoyboniylar (1500-1598), Temuriylar an'analarini davom etdirdilar. Turkiy tilni mavkei ortdi. Adabiyotda turkona ruh kuchaydi.

Sulolani asoschisi Muhammad Shayboniy "Baxr ul- hudo" dostonini bitgan. Undan Kuchkinchixon (1511- 1530) Ali Yazdiyning "Zafarqoma"sini o'zbekchaga tarjima qildirdi. Ubaydullaxon (1530-1539) "kurgani karim"ni tarjima qildirdi. Ugli Abdullazizxon "Azizi" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Buxorolik shoir,saroyda "Malik ush- shuaro" deb ulug'langan Xasanxuja Nisoriy "Dustlar yodnomasi" tazkirasini 1566 yilda yozdi. Bunda 288 ta shoir haqida fikr bildiradi.Nosiriy Taskirasi "uchinchi tazkira" deb yuritiladi (birinchisi Davlat shox Samarqandiyni,"Tazkirat ush-shuaro",2 chisi Navoiyni "Majalis un-nafois"dir). Shuning uchun xam Tazkira komusiy xarakterga egadir. XVI asr irodasining "Boburnoma"dan keyin eng go'zal namunasi Podshoxuja ibn Adulvaxxobxuja (1480-1547) asarlaridir. "Xuja" taxallusi bilan Shayboniyni ugli temur Sultonga atab "Miftox ul-adl" (adolat kaliti) (1508-1510)1508 yilda Gulzor asarini yozadi.

Ashtarxoniylar (1601-1756) davrida ayniksa, Subxonkulixon davrida adabiyot ancha rivojlanadi. Subxonkulixonni uzi "Nishoniy"taxallusi bilan she'rlar yozgan. Turdi Farogiy bu davrda "Tor kulgullar beklar", "Subxonkulixon va uning amir amaldorlari haqida xajv" kabi she'rlarini yozadi. Muhammad Vali Samarqandiyni 200ga ijodgor haqida ma'lumot beruvchi "Muzakkir ul-asxob" asarini yozadi.

XIX asr adabiyotida Buxoroda 10ga yaqin Tazkira tuzildi. Ulardan eng mashhuri Mirsiddik xashmatniki edi. XIX asr Movaraunnahr adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri Nazira, Uvaysiy, Maxzuna, Dilshod Otin kabi shoirlarni adabiyot maydoniga chiqishi edi. Bundan tashqari, Amir Xaydar saroyida Munshi (amir kotibi) lovozimida xizmat qilgan Mirzo Sodik Munshi XIX asr boshlaridagi adabiyot namandalaridan biridir. Uning "Mangit xukumdorlari tarixi"asari katta ahamiyatga egadir.Shavkiy taxallusi bilan she'r yozgan. Kattakurgonlik Muhammad Sharif, Kurbon Xiramiy uning "Ra'no va Zebo,", "Chor darvish", "Tutinoma" kabi asarlari yozildi.

Buxoro adabiy muhitida Axmad Donishni faoliyati katta bo'lgan. Uning "Munazir al-kavokib", jadvali SOAT., "Majmui risolai Nujumiy, Nvodir ul

vokiya, Mangitlar xonadoni xukumdorlari tarixidan kiskacha risola" asarlarini yozadi.

Tarix Navislik buyicha Shayboniylar davrida Shayboniy va uning vorislariga atab bir necha yirik tarixiy asarlar yaratildi. Muhammad ibn Ali Nasruloxiyning "Zubdad al asar", Muhammad Xaydarning "Tarixiy rashidiy", Tanish Buxoriyni "Abdullanoma" (Sharifnomai shoxiy), noma'lum muallifning "Tovarixi go'zida" va "Nusratnoma" kabi asarlarini aytish mumkin. Zayniddiy Vosifiyning "Nodir vokiya", Bobo'ning "Boburnoma" asarlaridir.

Ashtarxoniylar davrida ham Xuroson va Movaraunnahr tarixiga bag'ishlangan Maxmud ibn Valini "Baxr ul-asror", Yusuf Munini "Tarixiy Muqumxoniy", Samandar Termiziyning "Dastur al muluk", Amir Buxoriyni "Baydullanoma", Muhammad Vafo Karmanagiyni "Tuxfat ul-foniy", Abduraxmon Davlat (Tole')ning "Tarixi Abulfaizxon" kabi tarixiy asarlari yaratildi.

XIX asr tarix navisligida Mangitlar sulolasi tarixi bitilgan. Mulla Ibadulla va Muhammad Shariflarning "Tarixiy amir Xaydar" va "Dostoni amroniy mangit" asari, Mirolim Buxoriyning "Fatxnomai sultoniy", Mirzo Abdulazim Samiyning "Tarixiy Salotini Mangitiya" va "Doxmon Shoxon" kabi asarlari yaratildi.

Kitobat san'ati deganda kulyozma asarlarini kuchirib yozish va u bilan bog'liq bo'lgan hattolik, musavvirlik, Lavvoxlik (lavxa chizish) va saxxoflik (mukavasoqlik) san'atlari tushuniladi.

Bosmaxona va kitob bosish xali bu davrda vujudga kelmagan bo'lsada, kitob yaratish va uning nushalarini kulyozma shaklida kupaytirish kup mehnat va malaka talab qilgan. Kitobat san'atida kogoz ishlab chikarish zarur bo'lib, Samarqand yaqinidagi Obiraxmat arigi soxilida kagoz ishlab chikariladigan maxsus abjuvoz va karxonalar bo'lgan. "Miribraximiy" va "Sultoniy" navli kagozlar ishlab chikarilgan.

Sultonali Mashxadiy (1432-1520) Nizomiy, Jomiy, Dexlaviy, navoiy asrlarini kuchirgan. U uymakorlik san'atida xam moxir bo'lgan va Xusayn Boykoroning "Bog'ijahon aro" bog'idagi saroy devorlariga uyib bitiklar yozgan. Xusayn Baykoroning kabir toshidagi bitiklar xam Sultonali tamonidan ishlangan. Shuning uchun Sultonali "Kiblat ul-kuttob"(Kotiblar kiblasi) va "Sulton ul-xottotin" (Hattolar sultoni) nomlari bilan mashxur bo'lgan.

Turkistonda hattolik san'ati uzok davom etgan. Hatto kitob bosish kashf kilingandan keyin xam kitoblar kul yozma yuli bilan kupaytirilgan.

Hunarmandchilik 16 asrda uz taraqqiyotining yuksak chukkilariga ko'tarilgan. Ayniksa, tukimachilik, kulochilik, metalga ishlov berish, kulolsoqlik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik (ustachilik) kabi turlari

rivojlangan. Samarqand va Buxoroda 60 dan ortik hunarmandchilik turlari bo‘lgan. Hunarmandlar o‘z uyushmalariga ega bo‘lib, ular arabcha "Kasaba" (olmok, ishlab topmok) termini bilan atalgan.

XVII asrda esa hunarmandchilik fakat shaharlardagina emas, balki naturool xujalikni rivojlanishi sababli kisholoklarda xam taraqqiy etdi. Tukimachilik bilan bog‘liq bo‘lgan ip igirish gazlamalar tayyorlash, tayyor kiyimlar tikish rivojlangan, kulolchilikni 2 tari: Kasogarlik va kuzagarlik rivojlangan. Bu davr xanarmandchiligida metal va yog‘ochga ishlov berish, yog‘och va ganya o‘ymakorligi san’ati xam rivojlangan.

XVIII-XIX asrlar hunarmandchilikda tukimachilik yetakchi tarmok bo‘lgan. Tukimachilikni ip igirish, matolar tukish, tayyor kiyimlar tikish, gilamchilik sohalari rivojlangan. Buxoroni Zarbof tonlari, smarkandning ipak buyumlari, Shahrisabzning iroki duppilari mashhur bo‘lgan. Bu davr kulolchiligida turli gul va usimliklar tasviri, giometrik nakshlar, turli hayvonlar, kushlar, xashorotlar tasvirlangan kasogarlik rivojlangan. Buxora amirligida temirchilik (temirchi ustalar chilangarlar), misgarlik, chuyan kuyish.

Shayboniy xukumdorlar xam me’moriy inshoatlar barpo etdilar. Bu davrda Samarqand yaqinida Shayboniyxon tamonidan Zarafshon daryosi ustiga qurilgan kuprik suv ayirgich qurilishi 1515-1516 yillarda Shayboniyxon madrasasi va masjidi qurilgan. Toshkentda Borokxon madrasasi (hozirgi Xasti Imom), Abdullaxon 2, davrida: 1001 ta rabot va sardobalar qurilgan. Kukaldosh madrasasi, karshisidagi Abdullaxon madrasasi, Nomozgox (Kuktumbaz) machiti, Madarxon, Oynasha oyim, Govkushon madrasalar, tim va tokilar (yopik bozor va savdo rastalari) Toki Zargaron, Toki Sarrafon, Toki kitob Frushon, Toki Telpak furushon, Abdullaxon tilikabilar barpo etildi. Ubaydullaxon davrida Buxoroda memoriy inshoatlar: Mir arab marrasasi 1535-36 yillarda, Adbulaziz davrida koshinli xonokax, Masjidi Kalon 1540-1541 yillarda kurildi.

Ashtarxoniyalar davrida xam memoriy obidalar ko‘rish davom ettirildi. Buxoroda davlat Nadir Devonbegi tamonidan masjid madrasadan iborat me’moriy majmua Labi Xoviz barpo etildi.

Samarqandda Yalangtushbiy mablag‘i hisobiga 2 ta:

1) Sherdor madrasasi 1661 yilda barpo etilgan bo‘lib, Ulug‘bek madrasasi rugarasadadir. Madrasa peshtokida quyosh va uljaga intilayotgan 2 ta sher tasvirlangan; 2) Tillakori madrasasi, unda bino bezatilishida juda kup oltin ishlatilganligi uchun "Tillakori" (oltin kadalgan) deb atalgan. Bu madrasa Juma masjidi vazifasini xam bajargan.

Buxoro amirligi me’morchiligida XVIII-XIX asrlar uziga xos davrlar hisoblangan. Buxoroda Domullo Tursunjon (1796-1797) madrasasi, Hudoydot

me'moriy majmuasi (1777-1855), Ernazar elchi madrasasi, Chor Minor majmuasi, Buxoro amirligida mangitlarning ota yurti sifatida katta e'tibor berilgan va Buxorodan keyin 2 uringa kuyilgan. Karshilik sut sotuvchi ayol mablagi hisobiga Ali madrasasi va Mir Muhammad madrasasi qurilgan. Sitorai Moxi Xosada Amir chorbog'i qurilgan (Buxoroda).

XVI-XVII asrlarda tasviriy san'atda kulyozmalar, nafis xusnixat, Zarafshon (tillo suvi sochish), suvli bo'yoqlar bilan xoshiyaga nakshlar chizib, badiiy bezaklar berilgan. Samarqand va Buxoroda miniatyura maktablari gullab yashnagan. Bu davrda, ya'ni XVI asrda "Fatxnoma"ga, "Tarixi Abulxayr", "Xamsa" asarlarini chiroyli rasmlar solingan. Muhammad Murod Samarqandiyini "Shoxnoma" asariga ishlagan lavxalari, buxorolik Abdulla ishkiy lavxalari, noma'lum musavvir tomonidan Abdullaxonni kovun kesayotgan qayta tasvirlangan tasviriy san'at namunalari diqqatga loyikdir. XIX asr tasviriy san'atiga chor Rossiyasining ta'siri kuchayib bordi.

Amaliy bezak san'atida usimlik - gul mavzulari va ifodali yozuvlar yetakchilik qilgan. Kungura shaklli muxrlar ishlangan. Tangalarni bezashda yozuvlari bo'lgan shakldor lavxa va xoshiyalar bilan boyitilgan. XVI-XVII asrlarda yog'och va tosh uymakorligida jozibadorlik ortgan. Kulolchilikda rangli va bir rangda ishlangan buyama nakshlar saqlanib kolgan. Nakshlarda usimlik, hayvon va osmon jismlari mavzui uygunlashgan. Kushlar utirgan shox va butoklar, gul va mevalar tasvirlari lagan va kosalarda joylashtirilgan. Kushlar tasviri bilan bezatilgan urdak shaklidagi egarlar yasalgan.

Amaliy bezak san'atida XVII asrda 2 okim: rasmiy va xalq san'ati mavjud bo'lgan. XVIII-XIX asrlarda xam xalq san'ati okimi izchil, erkin, hayotga yaqinrok rivojlangan. Lekin bu davrda murakkab va karama-karshiliklar kuchli bo'lgan.

XVI asr boshlarida an'anaviy teatrning 3 ta toifasi rivojlangan, ya'ni masxarabozlik (xalq komediyalari ijrochiligi), taklid (hayotiy voqealarni, odatlarni, kush va hayvonlarning kiliklarini kulgili kilib kuchirish, mazax kilish) va zarofat (suz va bayt tukib aytishuvlardagi bellashuvlar). Bundan tashqari, kugirchok uyin, maddoxlik (yakka ijrochilarning chiqishlari), chodir xayol (kugirchoklari iplar yordamida boshqarilishi), fonus hayol (pardaga ko'g'irchoqlarning soyasi tushirilishi) kabi tur o'yinlar bo'lgan.

Bu tur teatrlar tomoshabinlarda kulgi uygotgan, hayotga tankidiy munosabatda bo'lish urgatgan.

Lekin Rossiya mustamlakachiligi davrida maxalliy an'anaviy teatr sohasiga rus, tatar teatr tudalari kirib kela boshladi.

XX asr boshlarida O‘zbekiston san’ati.

XX asr boshlarida o‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi, san’atda ham o‘z ifodasini topdi. Buni dekorativ amaliy san’at asarlaridagi kompozitsiyalarda, ularning syujet va motivlarida, real hayotning tasvirlanishida, voqe’likni ustalar tomonidan real tasvirlashga intilishlarida ko‘rish mumkin. Bunday o‘zgarishlar rus va o‘zbek me’morchilik san’ati an’analarning bir-biriga yaqinlashishi va qo‘shilishi natijasida paydo bo‘lgan yangi uslublarda ham namoyon bo‘la boshladi. Realistik dastgoh san’ati maydonga keldi. Buni birinchi bo‘lib, XIX asrning 40-yillaridan boshlab o‘rta Osiyoga kela boshlagan rus badiiy maktabining talabalari boshlab berdilar. Bu borada rus rassomlari A.Karazin, I.Kazakov, S.P.Yudin, R.Zommer, 1886 yilgi ko‘rgazmada toshkentlik To‘xta-Sodiq Xo‘jaevning alebastrdan yasagan ot va kiyik haykalchalarining qo‘yilishi, 1915 yil bosmadan chiqqan S.Siddiqiyning “Ko‘ro‘qli” epik poemasi ga ishlangan grafik illyustratsiyalarining yuzaga kelishi davr taqozosi edi. O‘zbekistonda san’atni targ‘ib etish, ko‘rgazmalar uyushtirish, muzeylarni milliy lashtirish kabi ishlar amalga oshirildi. 1918-20 yillarda Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko‘plab mahalliy yoshlar jalb etildi. Bunda rus va boshqa milliy rassomlar faol ishtirok etdi. Shu bilan birga o‘zbek xalq san’atini o‘rganish orqali rassomlar haqiqiy milliy san’at namunasini yaratishga, o‘z asarlarida davrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri O.K.Tatevosyan bo‘ldi. Korovinning shogirdi bilan bu rassom 1915 yil birinchi bor O‘zbekistonga keldi. Uning serjilo tabiati, boy me’morchilik yodgorliklari yosh rassomni o‘ziga mahliyo etdi. O‘zbekistonda o‘z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini his qilgan rassom o‘qishni bitirgach, butunlay O‘zbekistonga ko‘chib keldi va o‘zining sermahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murabbiylik qildi. Uning ilk ijodidagi asarlar asosan Samarqandga bag‘ishlangan. Gavjum ko‘chalar, noz-ne‘matga boy bozorlar, choyxonalar rassomning ko‘pgina asarlarining mazmunini tashqil etdi. Xalq milliy san’at namunalarini o‘rgandi. Asarlarida O‘zbekistonda bo‘layotgan o‘zgarishlarni, odamlarning mehnatga bo‘lgan munosabati badiiy ifodasini topa boshladi. O‘sha yillari O‘zbekistonda bir qator iste’dodli rassomlar yashab ijod qilganlar. Bular ichida Farg‘onada tug‘ilib o‘sgan Aleksandr Volkovning asarlari juda rang-barang va falsafiy mazmunga boy. Voronejdan kelgan va butun umr Toshkentda yashab ijod qilgan Usto Mo‘min (Nikolaev) bir qator ajoyib nafis, lirik, shoirona asarlar yaratdi. Davr kayfiyati, kishilarning hayotga bo‘lgan yuksak munosabati uning asarlarida o‘zining haqiqiy poetik ifodasini topdi. Uning shunday asarlari ichida “Bahor”, “Bedanaboz”, “Do‘stlik», «Muhabbat”, “Kuyov”, “Choyxonachi” kabilardir.

O‘zbekistonda samarali mehnat qilgan rus rassomlaridan biri Pavel Petrovich Benkov edi. U o‘zbek san’atining rivojlanishiga, milliy kadrlar yetishib chiqishiga katta hissa qo‘shdi. U Buxoro, Xiva, Samarqand haqida juda ko‘p polotnolar ishlagan. Bular asosan yarim manzara va yarim maishiy janrda bo‘lib, ularda rassom kundalik xalq turmushini qadimgi nodir me‘morchilik fonida ustalik bilan tasvirlaydi. Ajoyib ayollar obrazini ham yaratadi. “Dugonalar”, “Dutorchi qiz” deb nomlangan asarlar do‘stlik mavzusida yaratgan yirik asarlaridir. 20-30-yillardan boshlab milliy rassomlar ko‘rina boshlandi. Ular o‘zlarining dastlabki asarlari bilan respublika badiiy ko‘rgazmalarida ishtirok etib, badiiy hayotni yanada jonlantirdilar. Bu yillarga kelib san’at mavzusi kengaydi. Do‘stlik, tinchlik, mehnat go‘zalligini kuylovchi asarlar yaratildi. Iste’dodli yosh rassom Bahrom O‘amdamiyning “Ish tugadi” deb nomlangan kartinasi shu davrda kishilar ongida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar o‘z ifodasini topdi. Shu bilan birga Lutfulla Abdullaevning “Yosh shoir uyidagi uchrashuv” deb nomlangan asar yoshlar orasida san’at va ma’rifatga intiluvchi yoshlarning fazilatlarini ochib berishga bag‘ishlangan. Bu yosh rassomlar O‘zbekiston san’atining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillari o‘zbek rassomlari uchun katta sinov bo‘ldi. Ular G‘oyaviy jihatdan chiniqdilar. Ular front Qalabasi uchun rag‘batlantira oladigan asarlar yaratishga harakat qildilar. Urush yillarida O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan Moskva, Leningrad, Kiev, Xarkov badiiy institutlari, ular bilan birga kelgan yetuk san’atkorlar - D.Moor, V.Favorskiy va boshqalar respublika badiiy hayotini jonlantirishga ko‘maklashdilar. Urush tugagach, tinchlik yillari o‘zbek san’ati ham o‘z rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Inson go‘zalligi, tabiat ulug‘vorligi rassomlarimiz polotnosida o‘z ifodasini topa boshladi. Bu urushdan keyingi yillarda yaratilgan A.Abdullaevning A.Hidoyatov portreti, T.Oybek, L.Abdullaevning “Qahramonni kutib olish”, O‘.Tansiqboevning “Qayroqqum GESida tong”, R.Ahmedovning “Onalik o‘ylari”, R.Timurovning “Samarqand”, Yu.Yelizarovning “O‘zbekiston san’atkorlar guruhi portreti”, N.Karaxonning “Oltin kuz”, V.Fadeevning “Soqchi ayol”, M.Saidovning “Xirmonda”, Ch.Ahmarovning devoriy rasmlari va boshqalar o‘zbek san’ati tarixida o‘zlarining munosib o‘rnini egallaydi. Respublikamiz rassomlari bu davrdan boshlab, barcha ko‘rgazmalarda faol ishtirok etib, san’atimiz ta’sirchanligini ortib borayotganini namoyish ettilar. Bizning rassomlar ko‘plab ko‘rgazmalarda qatnashdilar. 60-70 yildan boshlab, o‘zbek san’ati yangi po‘qonaga qadam qo‘ydi. Bu davrda faqat keksa rassomlar ijodidagina emas, balki yoshlar ijodida ham yangi ifoda vositalarini izlash, asarlarini talqin etishda uning emotsional tomoniga e’tibor berish kuchayganligi yaqqol ko‘zga tashlandi. Buni B.Boboev

va R.Chorievlarning kartinalarida, T.Muhammedovning karikaturalarida, F.Grishchenkoning, X.Xusniddin ho‘jaevning haykallarida ko‘rish mumkin. o‘zbek san‘ati zafarli yo‘lni bosib o‘tdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston san‘ati.

O‘zbekiston tasviriy dastgoh san‘ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O‘zbekiston san‘ati zafarli yo‘lni bosib o‘tdi. Respublikamiz rassomlari ko‘pgina ko‘rgazmalarda faol ishtirok etib, san‘atimiz ta’sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko‘pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to‘lib toshgan noz-ne‘matlarini, manzara janrida esa, o‘lkamizning go‘zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko‘rinishidagi go‘zallikni to‘laqonli ifodalashga harakat qilmoqlar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me‘morlikning nodir yodgorliklarini o‘z asarlarida ko‘rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg‘or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O‘zbekiston Vatanimiz ajoyib iste’dodli rassom va haykaltaroshlarni yetkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiev, Mannon Saidov, Damir Ro‘ziboev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne‘mat O‘akimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa’dullaev, o‘ofur Abdurahmonovlar alohida mavqega ega. O‘zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaev rangtasvir ustasi xalqimiz an‘analariga, boy va sarmazmun o‘tmish tasviriy san‘at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o‘z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag‘rida o‘zbekona an‘analarni, to‘ylarni, beg‘ubor o‘zbek bolalarini, lohar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo‘ldi. Jumladan, “Toshkent - tinchlik va do‘stlik shahri” triptixi, “Bola xonada”, “Intizorlik”, “Yosh oila haqida qo‘shiq” kabi o‘nlab asarlar moybo‘yoqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarni e‘tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag‘ishlaydiki, undagi go‘zallik sirlari odamlarni ezgulikka yetaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko‘pgina xorijiy davlatlarda ham ma’lum va mashhurdir.

Bahodir Jalolov ham O‘zbekiston xalq rassomi bo‘lib, zamonaviy rangtasvir san‘ati rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotgan iste’dodli rassomlardan biridir. B.Jalolov tasviriy san‘at borasidagi tahsilni davom ettirib, keyinchalik Ch.Ahmarov, R.Choriev, Ye.P.Melnikov, B.D.Korolyovlardan tasviriy san‘at sirlarini o‘rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat aniq ko‘zga tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg‘ular uyg‘unligi tomoshabinni o‘ziga mahliyo etib qo‘yadi. U portret san‘atida ko‘p yutuqlarga erishdi. Uning

to‘laqonli asarlarida o‘zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o‘z ifodasini topgan. U bir katta seriya portretlarni yaratadi, bular ichida akademiklar, rassom va boshqa taniqli odamlar obrazlari bor. B.Jalolov ijodida olam sirlari o‘zgacha talqin etiladi. Bunga, “Gul va Rayhon afsonasi”, “Nido”, “Baxt qushi”, “Abadiy va navqiron Hindiston”, “XXI asr Madonnasi” kabi ko‘plab asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqil O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan O‘zbekiston xalqlari tarixiy muzeyi devoriga ishlangan monumental ko‘rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e‘tiborini o‘ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin boy tarix sahifalariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. B.Jalolov ijodi shu jihati bilan qadrlidir.

Haykaltaroshlik san’atining o‘lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini ijodkor Damir Ro‘ziboev faoliyatida yaqqol qurish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san’ati bilan shuqullangan D.Ro‘ziboev haykataroshlik olamiga asoan 60 yillarda kirib keldi. San’atkor ijodida shakl va hajmlarning o‘ziga xosligini harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ham yaqqol sezish mumkin. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyofasini aks ettirgan asarlariga duch kelamiz. Shu bilan birga u portret janrida ham ijod qiladi. San’atshunos olim R.Toqtash obrazi, rassom V.Savitskiy va Saida portretlarida zamondoshlarimiz obrazlari to‘laqonli o‘z ifodasini topgan. D.Ro‘ziboev haykaltaroshlik san’atida katta bir maktabni o‘tab kelayotir. Uning izlanishlari rang-barang uslublarga boy. Buni biz san’atkor ijodida rangli haykaltaroshlik san’atining yuzaga kelganligi orqali guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ro‘ziboev haykallaridagi shakl va hajmlarga bo‘yoq berish bilan ularning sehrlil olamini yanada mo‘jizali qila oladi. San’atkor bu bilan qoniqmasdan haykalda aks ettirilayotgan voqeani rangin sirlarini matolarda yanada to‘ldiradi. Yana bir muhim tomoni D.Ro‘ziboevning izlanishlari kelajak muammolarini talqin qilishga qaratilgan. San’atkor ko‘tarinki ruh bilan musiqa, rangtasvir asarlarini o‘rganib, o‘z haykallarida mujassamlashga intiladi. Haykaltaroshning ajoyib fazilatlaridan yana biri uning asarlarida hissiy mazmundorlik boyib borayotganligidadir. Ana shunday mazmundorlik orqali u inson ma’naviyatini tobora to‘laroq qamrab ifodalashga harakat qiladi. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixi - jahon tasviriy san’ati tarixining ajralmas qismidir. O‘zbekiston san’ati boy merosga ega. Hozirgi zamonda esa bizning rassomlarimiz va haykaltaroshlar butun dunyoga taniqli bo‘lib qolgan. Dekorativ-amaliy san’atimiz esa qadim zamonlardan odamlarni zavqlantirib kelgan. Ustalarimiz

ijodi nafaqatgina mustaqil O‘zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham o‘z obro‘-e’tiboriga ega.

Savollar:

1. XX asr boshlarida o‘zbek san’atida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
2. O‘zbek san’atida realistik dastgoh san’atining rivojlanishida an’ana va o‘ziga xoslik nimada?
3. O‘zbek san’ati taraqqiyotining asosiy bosqichlarini ayting.
4. XX asrlarda O‘zbekistonda qanday rassomlar yashab ijod qilib kelganlar?
5. B.Hamdamiyning “Ish tugadi” asari qaysi davr haqida hikoya qiladi?
6. P.Benkovning ijodi to‘g‘risida nimalar bilasiz?
7. Zamonaviy O‘zbekiston san’ati to‘g‘risida nimalar aytib bera olasiz?
8. Zamonaviy O‘zbekiston rassomlari ijodida qanday mavzular yetakchi o‘rinni egallaydi?
9. A.Mirzaev hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
10. Haykaltarosh D.Ro‘ziboev hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?